

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA
FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**



**T.N.Qori Niyoziy tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan
“TOSHMUHAMMAD NIYOZ O‘G‘LI QORI NIYOZIY –
ILM-MA’RIFAT DARG‘ASI”
mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman
2022-YIL 16-AVGUST**

**посвящается 125-летию со дня рождения Т.Н.Кари Ниязи
“ТОШМУАММАД НИЁЗ УГЛИ КАРИ- НИЯЗИ – ВЛАДЫКА
ЗНАНИЙ И ПРОСВЕЩЕНИЯ”
научно-практическая конференция по теме
16 АВГУСТА 2022 ГОДА**

**dedicated to the 125th birth anniversary of T.N.Kari -Niyazi
"TOSHMUHAMMAD NIYOZ UGLI KARI NIYAZI - THE LORD
OF KNOWLEDGE AND EDUCATION"
scientific and practical conference on the topic
AUGUST 16, 2022**

T.N.Qori Niyoziy tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan “Toshmuhammad Niyoz o‘g‘li Qori Niyoziy – ilm-ma‘rifat darg‘asi” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. 2022-yil.

TAHRIR HAY’ATI

1. R.X.Djurayev – pedagogika fanlari doktori, akademik
2. R.G.Safarova – pedagogika fanlari doktori, professor
3. M.Q.Quronov – pedagogika fanlari doktori, professor
4. Sh.Q.Mardonov – pedagogika fanlari doktori, professor
5. A.X.Maxmudov – pedagogika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim
6. X.M.Tojiboyeva – pedagogika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim
7. M.A.Umaraliyeva – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Pedagogika fanlari doktori, professor X.I.Ibraimovning umumiy tahriri ostida

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Ilmiy kengashi qarori (10.08.2022 №7) bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO‘ZI

AKADEMIK TOSHMUHAMMAD QORI-NIYOZIYNING HAYOTI VA IJODI – BUYUK TARBIYA O‘CHOG‘I

X. I. Ibraimov

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI direktori,
pedagogika fanlari doktori, professor

Har qanday sohaning rivoji, inson aql-zakovatining boyishi tag-zamirida albatta ilm bo‘ladi. Muhtaram Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi”, deya alohida ta’kidlab o‘tgani bejiz emas. Shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ilmning amaliy va hayotiy ahamiyatini nazarda tutib shunday fikrlarni bildirgan edi: “Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayirib berur. To‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas‘ud bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Ilimsiz inson mevasiz daraxt kabidur”. Agar chindan ham, olimning tarqatgan manfaatli ilmini bog‘ga qiyoslasak, shaksiz, akademik Toshmuhammad Qori-Niyoziyning ilm bog‘i juda ulkandir.

Butun umrini va ilmiy faoliyatini fanni rivojlantirishga baxshida qilgan Qori-Niyoziy ko‘p yillar O‘zbekiston ilm-fan muassasalarining mas‘ul lavozimlarida ishladi. Jamoat arbobi sifatida jonbozlik ko‘rsatdi.

U O‘zbekistonda xalq ta’limining ilk tashkilotchi va targ‘ibotchilaridan biri, birinchi bo‘lib o‘zbek tilida matematika atamashunosligini ishlab chiqqan, matematika darsliklarini yaratgan olimdir. Shuning bilan birga u yurtimizdan yetishib chiqqan birinchi fizika-matematika fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi hamdir. Akademik Toshmuhammad Qori Niyoziy O‘zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti bo‘lish baxtiga ham sazovor zabardast olim edi.

Ajoyib olim fanning qator sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordi. Bular o‘zining ijobiy samaralari bilan fanning yuksalishida muhim omil bo‘ldi. Uning ayniqsa, matematikani rivojlantirish va uni targ‘ib qilishdagi xizmatlari nihoyat ulkan. Qori Niyoziyning matematika fani rivojiga qo‘shgan hissasini yuqori baholagan akademik V.Ramanovskiy: “Qori Niyoziy... hozirda barcha tomonidan

tan olingan O'zbek matematik tilini yaratdi. o'zbek xalqi charxlangan fikr quroliga ega bo'ldiki, bu uning keyingi rivojlanishida katta rol o'ynaydi", – deb yozgan edi.

Qori Niyoziy nafaqat matematika fani rivojiga katta hissa qo'shgan olim, balki O'rta Osiyo mutafakkirlarining boy ilmiy-madaniy merosini o'rganish, targ'ibot va tashviqot qilishga munosib ulush qo'shgan, fikr qamrovi keng olim va pedagog sifatida ham katta ilmiy meros qoldirdi.

Akademikning 3 tomlik "Matematik analizning asosiy kursi" kitobi Beruniy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosini o'rganib, "Ulug'bekning astronomik maktabi" fundamental monografiyasini yaratdi. Qori Niyoziyning o'zbek, rus va ingliz tillarida uch yuzdan ziyod ilmiy asarlari, monografiyasi va maqolalari bosilib chiqqan. U o'zbek xalqi shuhratini nafaqat o'z yurtida balki, 1957-yilda Yaponiyada, 1957-1968-yillari Fransiyada, 1964-yilda Italiyada, 1966-yilda Bolgariyada, 1967-yilda Hindiston va Afg'onistonda bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy kengashlari ko'z-ko'z qiluvchi mazmunli ma'ruzalar qildi. Akademik olimning ilm-fan sohasidagi yuksak xizmatlari mustaqillik yillarida munosib baholanib, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutiga ham akademik Toshmuhammad Qori Niyoziy nomi berilgani ham bejiz emas. Shu kungacha qanchadan qancha olimlarga ziyo nurini ulashayotgan ushbu maskan juda samimiy, dilkash, o'z navbatida qattiqqo'l, vatanparvar ustoz nomlari ila nomlanishi institut ilmiy faoliyatiga ikki karra mas'uliyat yuklaydi. Ustoz, Akademik Toshmuhammad Qori Niyoziy ilmiy merosi haqida o'y surarkanman, bexos amerikalik kommersant, bankir, yirik metsenat, o'z davrining eng badavlat kishilaridan biri bo'lgan Djorj Pibodining "Ta'lim – hozirgi avlod vakillarining kelasi avlod vakillari oldidagi buyuk qarzidir" degan so'zlari yodimga tushaveradi.

Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimi, ilm-fan rivojiga munosib hissa qo'shgan, xususan, matematika, tarix, madaniyatshunoslik hamda pedagogikaga oid boy ilmiy va adabiy meros qoldirgan ma'rifatparvar olim xotirasi hamisha barhayot. Bugun uning shogirdlari, yosh olimlar ilm-fan sohasidagi taraqqiyot an'anasini munosib davom ettirmoqda.



YIRIK PEDAGOGIK MARKAZ VA UMUMTA'LIM MAKTABI ASOSCHISI

R.X.Djurayev

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI "Ta'lim menejmenti" bo'lim mudiri,
pedagogika fanlari doktori, akademik

*Vatan! Qanday aziz, ulug'vor, muqaddas
sen! Hayotimning boisi, quvvatimning manbai, ijodimning
ilhomi sen! Jonajon, mehribon onam sen! Nuri-diydam
sen!... Ey, jonajon, mehribon, sevikli ona-Vatanim! Sen
uchun qonim, kerak bo'lsa – jonim fido bo'lsin, Vatanim!*
Toshmuhammad Qori Niyoziy ("Hayot maktabi" asaridan)

O'zbekiston pedagogika fanida porloq sahifa ochgan taniqli olim, ilk akademiklardan biri, Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti laureati, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni kavaleri Toshmuhammad Qori Niyoziyning nomini eshitmagan odam bo'lmasa kerak. O'z vaqtida sevimli shoirimiz, "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi muallifi Maqsud Shayxzoda Qori Niyoziyning xizmatlarini munosib baholab: "Qori aka" deb e'zozlaydigan o'qituvchimiz Qori Niyozov ilm-fanning sermashaqqat o'tmishini juda yaxshi biladi. Uning sharofati bilan bizga Ibn Sino va Buxoriylar merosi yuz ochdi, Toshkent ilmiy markazlar qatoridan munosib o'rin egalladi", – degan edi. Fizika-matematika fanlari doktori, professor, O'zSSR FAning akademigi V.P.Sheglov esa: "Qori Niyozovning tadqiqotlari ko'z oldimizdan tarix pardasini ko'targandek bo'ldi. Uning kitobida samarqandlik astronomlarning hayoti va ijodi tushunarli va aniq tasvirlangan. Bu ish sharqshunoslikni sezilardi darajada boyitdi" – deb ta'kidlagan edi.

Mamlakatimizning zamonaviy ta'lim tizimi hamda ilm-fani rivojiga munosib hissa qo'shgan, xususan, matematika, tarix, madaniyatshunoslik hamda pedagogikaga oid boy ilmiy va adabiy meros qoldirgan ma'rifatparvar olim xotirasi hamisha barhayot. U 1897-yil 2-sentabrda Xo'jandda oddiy hunarmand kosib oilasida tavallud topgan bo'lib, dastlabki ma'lumotni eski maktabda olgan, keyinchalik Farg'onada rus-tuzem maktabida rus tili va aniq fanlarni alohida salohiyat bilan chuqur o'zlashtirgan.

Ustozlari uning ilmiy istiqbolini avvaldan sezishgan hamda kelajagiga katta ishonch bildirishgan. Yosh Toshmuhammad, haqiqatan, ustozlar ishonchini oqladi. Navqiron yigirma yoshlik bo'z yigitcha Farg'ona viloyatida birinchi o'zbek maktabiga asos soldi. Oradan uch yil o'tgach, bu maktab dorulmuallimin ta'lim-

tarbiya kursi bilan qo'shilib, o'sha davrdagi yirik ilm markazi – Farg'ona viloyati pedagogika texnikumiga aylantirildi va Qori Niyoziy unga direktor etib tayinlandi. Ya'ni, 23 yoshida yosh Respublikamizga yangicha tayyorgarlikka ega o'qituvchi kadrlar yetishtirishga rahnamolik qildi. Lekin ilmga intilish unga tinchlik bermas, oromini o'g'irlar, martaba-yu hurmat-e'tibor shaydosi emas, ilm shaydosi edi. Ilm-fanga havasi kuchli bo'lgani sababli sevimli ishidan vaqtincha voz kechib, 1926-yilda O'rta Osiyo davlat universitetining fizika-matematika fakultetiga o'qishga kirdi, uni muddatidan oldin tugatib, shu universitetning o'zida o'qituvchi, professor, keyinchalik rektor bo'lib ishladi.

Keyinroq Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti tashkil etilgan kundan boshlab, to umrining oxirigacha shu ilmiy dargohning oliy matematika kafedrasini boshqarib, ko'plab shogirdlar yetishtirdi. Oliy va elementar matematika bo'yicha original tadqiqotlar yaratdi. O'zbek matematika terminalogiyasiga asos soldi.

Qori Niyoziyning to'rt jildidan iborat "Matematika analizining asosiy kursi" darsligi oliy dorilfununlarda o'qitilib, yurtimizda matematiklar pleyadasining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Ushbu kitob ilmiy ahamiyatining beqiyosligi sabab Beruniy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Ilk qaldirg'och, asoschi bo'lish oson emas. Tasavvur qiling, hali inson oyoq bosmagan shox-shabbalarga to'la, yovvoyi to'qaydan yo'l ochishning o'zi bo'ladimi? U XX asrda ensiklopedist olim bo'lib, ko'pgina fan sohalariga birinchilardan bo'lib qo'l urdi. Xalq ta'limining ilk tashkilotchisi, **ilk umumta'lim va pedagogik ta'lim maskani asoschisi**, ilk o'zbek tilidagi matematika atamashunosligini ishlab chiqqan matematik, ilk darsliklar yaratgan olimdir. Shuning bilan birga, Toshmuhammad Qori Niyozovich yurtimizdan yetishib chiqqan birinchi fizika-matematika fanlari doktori, O'rta Osiyo mutafakkirlarining boy ilmiy-madaniy merosini o'rgangan tadqiqotchi olim, nafaqat o'zimizda, chet ellarda ham sevib o'qiladigan "Ulug'bekning astronomik maktabi", "Ulug'bek va uning ilmiy merosi", "Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar" asarlari muallifi, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi hamdir.

Toshmuhammad Qori Niyoziy jamoat va ta'lim tizimini boshqarish ishlarida nihoyatda faol inson bo'lib, o'zbek, rus va ingliz tillarida uch yuzdan ziyod ilmiy asari, monografiyasi va maqolalari bosilib chiqqan. Yaponiya, Fransiya, Italiya, Bolgariya, Hindiston va Afg'onistonda o'zbek ilm-fanini targ'ib etgan salohiyatli voiz hamdir.

Akademik Qori Niyozovich Niyozov ta'lim-tarbiya, aniq fanlarni o'qitish metodikasiga munosib hissa qo'shgan, aniq fanlar bo'yicha ilk darslik va metodik qo'llanmalar yaratgan, o'zbek, rus va ingliz tillarda uch yuzdan ziyod ilmiy asari, monografiyasi va maqolalari bosilib chiqqan. "Bosib o'tilgan yo'l haqida mulohazalar", "Hayot maktabi" kabi asarlari xalqimizning sevimli kitoblariga

aylangan ulug' adib hamdir. U O'zbekistonda ta'limning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan haqiqiy yo'lchi yulduzlarimizdan biri...

Chinakam yulduzlarning yog'dusi so'nmas, yaxshidan bog' qoladi, deb bejiz aytishmas ekan. Nazarimda, akademik Qori Niyoziydan qolgan ko'rkam bog'lardan biri bu biz xizmat qilayotgan Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti bo'lsa kerak. Qarangki, bugungi kunda ham ustozning uy-muzeyidagi kutubxona va hujjatlardan institutimiz xodimlari foydalanib kelishmoqda, ularning O'zbekistonda pedagogika fanini qo'llab-quvvatlash borasidagi savobli ishlari hamon davom etmoqda. Marhum ustozimiz Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziyning farzandlari bilan hamkorlikda so'nggi o'n yillar davomida ilmiy pedagogik maskanimizning eng iqtidorli tayanch doktorantlari va doktorantlarini moddiy-ma'naviy rag'batlantirish uchun ta'sis etgan T.N.Qori Niyoziy nomidagi stipendiya yosh ilmiy-pedagogik kadrlarni talab darajasida tayyorlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qori Niyoziy nomiga munosib bo'lish uchun umumiy o'rta va oliy ta'lim uchun darsliklar, fanlardan o'quv dasturlari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar yaratishda faol ishtirok etib kelmoqda. Umumta'lim va oliy pedagogik ta'lim tizimida o'rganilayotgan fanlar bo'yicha darsliklar tayyorlash, fanlarni o'qitish metodikasini doimiy ravishda takomillashtirib, davr talablariga mutanosib tarzda tegishli o'zgartirish va tuzatishlar kiritib borishdek dolzarb vazifani ado etmoqda.

Ilmiy-pedagogik kadrlar dissertasiya himoyasi bilan bog'liq ishlar O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti faoliyatining muhim bir qismi, xolos. Institut uzoq yillar davomida ta'lim-tarbiya konsepsiyalarini ishlab chiqqan, hatto salmoqli yillar davomida maktab o'quv dasturlari va rejalarini yaratgan, milliy darsliklarga asos solgan, ya'ni respublikamizning ta'lim tomirini qo'lda tutib turgan muqaddas dargoh hisoblanadi.

Mazkur institut huzurida faoliyat yuritgan, bir necha 10 yillar davomida Respublikamizga yosh ilmiy-pedagogik kadrlar yetishtirib bergan 13.00.01.-Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo'yicha himoya kengashining aksariyat a'zolari aynan Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining ko'zga ko'ringan, taniqli olimlari bo'lishgan. Masalan, pedagogika fanlari doktorlari, professorlar Islomjon Tursunov, Xolboy Ibraimov, Usmonali Nishonaliyev, Sanobar Rahmonova, Oynisa Musurmonova, Davron Shodiyev, Eshboy Turdiqulov, Rohatoy Safarova va boshqa ko'plab pedagog olimlar ushbu dorilfunun doshqozonida pishib etilishgan.

Hozirgi kunda xalq ta'limining turli jabhalarida salmoqli ishlarni amalga oshirayotgan kishilar, jumladan, safdosh va shogirdlarim Sobitxon Turg'unov, Rohatoy Safarova, Norbek Taylakov, Islomjon Zokirov, Shukurullo Mardonov,

Shahnoza Xalilova, Maqsud Yuldashev, Narzulla Muslimov, Baxtiyor Rahimov kabilar aynan o'sha yillarda institut himoya kengashi zalida hayajon bilan nomzodlik va doktorlik ishlarini himoya qilishgan. Endilikda ular pedagogika fanida o'z maktabini yaratishga harakat qilayotgan yetuk ilmiy kadrlar hisoblanadilar.

Oqqan daryo oqaveradi. Toshmuhammad Qori Niyozovich Qori Niyoziy yaratgan ulkan bog' fayzi tarovati ilm-fan gulshanida abadiy qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tajaddinov N. Birinchi professor // Hurriyat. – 2010. – 5 may.
2. Qori Niyozov T.N. Tanlangan asarlar . 8 tomlik. - T.: Fan, 1969.
3. Qori Niyozov T.N. Ulug'bekning astronomik maktabi. - T.: O'zbekiston, 1971. – 295 b.
4. Qori Niyozov T.N. Hayot maktabi. (Estalik lavhalar). - Toshkent.: Fan, 1966. – 287 b.
5. Кари Ниязов Т.Н. О культурной наследии Узбекистана. Тошкент.: Изд-во АН УЗССР, 1960. – С. 32.



QORI NIYOZIY – MILLAT FIDOYISI

R.G.Safarova

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI "Uzluksiz ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi" bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari doktori, professor

Taniqli matematik va pedagog olim, matematikani o'qitish metodikasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan yirik mutaxassis, ta'lim va madaniyat homiysi, davlat arbobi Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayoti uchun eng og'ir bo'lgan milliy tiklanish yillarida mamlakatimiz ma'naviy-ma'rifiy hayotida muhim o'rin tutgan shaxs hisoblanadi. Ko'plab madaniy voqe'liklarning sodir bo'lishi ushbu zukko olimning nomi bilan bevosita bog'liq.

Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy millatimizning peshqadam ziyolilar safida o'tgan XX asrning 20-yillarida ma'naviy-ma'rifiy yuksalish jarayonida faol ishtirok eta boshladi. Taniqli pedagog va zukko olim T.N.Qori Niyoziy millat qaddi va qadrini yuksaltiruvchi asosiy omil va najot yo'li ta'lim-tarbiya hamda madaniy yuksalish jarayonini jadallashtirishda ekanligini teran anglagan islohotchi sifatida o'zining bor kuchi, bilimini ushbu maqsad yo'lida safarbar qilgan.

T.N.Qori Niyoziy 1897-yil 2-sentabrda Xo'jandda tavallud topgan. U O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1939), O'zbekiston Respublikasi FAning akademigi (1943), fizika-matematika fanlari doktori (1939), professor

(1931), O'zbekiston Respublikasi FAning birinchi prezidenti (1943 – 47), Mehnat Qahramoni (1967) kabi yuksak ilmiy daraja va unvonlarga sazovor bo'lgan.

T.N.Qori Niyoziy 1917-yilda Farg'ona shahrida dastlabgi yangi tipdagi o'zbek umumta'lim maktabini tashkil qilgan. 1920-yilga kelib ushbu maktab Qo'qon shahridagi "Dorilmuallimlik" ta'lim-tarbiya kursi bilan birlashtirilib, Farg'ona viloyat ta'lim-tarbiya texnikumiga aylantirilgan. Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy ushbu texnikumning birinchi direktori sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy 1929-yilda O'rta Osiyo universitetini tugatgan. Keyinchalik esa 1931-1933-yillarda mazkur universitetning rektori sifatida faoliyat ko'rsatgan. 1937-1938-yillar davomida O'zbekiston Maorif xalq komissari bo'lish bilan bir qatorda O'zbekiston XKS huzuridagi Fan qo'mitasi prezidiumi raisi lavozimlarida faoliyat yuritgan. 1939-yilda Toshkent irrigasiya va mexanizasiyalash muhandislari instituti matematika kafedrasini mudiri, 1939-1943-yillarda O'zbekiston XKS raisi o'rinbosari va sobiq SSSR FA O'zbekiston filiali prezidiumi raisi, 1947-1962-yillarda O'zbekiston FA Prezidiumi a'zosi va 1954-1960-yillarda fizika-matematika fanlari bo'limi raisi, 1939-1970-yillarda "Fan va turmush" jurnali bosh muharriri sifatida faoliyatini davom ettirgan.

Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziyning buyuk xizmatlaridan biri uning O'zbekiston xalqi madaniy hayoti tarixiga oid yirik monografik asar muallifi sifatida xalqimizning olamshumul madaniy-tarixiy boyliklarini ajdodlardan avlodlarga ilmiy tahlil asosida yetkazganligidadir. Qori Niyoziy o'zining "Hayot maktabi" nomli esdaliklar kitobida o'sha davrda Respublikadagi fan, madaniyat, ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi haqidagi ilmiy-ijtimoiy pedagogik qarashlarini bayon qilgan.

Shu bilan bir qatorda olim elementar va oliy matematika bo'yicha o'zbek tilidagi birinchi darsliklarni yaratishga muvaffaq bo'lgan. Olim yashab ijod qilgan o'sha davrda matematika va texnika fanlari sohasida o'zbekcha terminologiyani yaratish va ilmiy jihatdan asoslashga kuchli zaruriyat paydo bo'ldi. Bunday ilmiy terminologiyani yaratishda Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy alohida jonbozlik ko'rsatdi.

Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy butun faoliyatini Respublikada ta'lim-tarbiya va madaniyatni rivojlantirish, xalqimizning buyuk tarixini o'rganish va ijtimoiy-madaniy jarayonlarga tadbiq etishga bag'ishlagan. U oliy va elementar matematika bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlarni amalga oshirgan. Uning matematikani o'qitish metodikasini rivojlantirish sohasidagi xizmatlari ham beqiyosdir. Uning to'rt jildidan iborat "Matematika analizining asosiy kursi" kitobi o'z davrida asosiy darslik sifatida xizmat qilgan. Shu bilan bir qatorda Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy ijtimoiy-ma'naviy tiklanish jarayonida

Respublikamizda ko‘plab fanlarning dastlabki asoslarini yaratishga munosib hissa qo‘shgan. Ayniqsa xalq ta’limining asosiy tashkilotchisi va targ‘ibotchisi sifatida maydonga chiqqan. Taniqli olim, buyuk matematik V. Ramanovskiy quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Qori Niyoziy bugungi kunda barcha olimlar tomonidan tan olingan O‘zbek matematikasining ilmiy tilini yaratdi. o‘zbek xalqi charxlangan fikr quroliga ega bo‘ldiki, bu matematika fanining taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi”.

Qori Niyoziy oliy matematika fanini rivojlantirish bilan bir qatorda O‘rta Osiyo allomalarining tarixiy, ilmiy, madaniy merosini o‘rganish va ommalashtirish sohasida ham ulkan ishlarni amalga oshirgan. Shuning uchun ham olimdan bugungi yosh avlod va ilmiy jamoatchilikka ulkan ilmiy, madaniy-pedagogik meros qolgan. Ayniqsa olimning “Ulug‘bekning astronomik maktabi” asari buyuk bobokalonimizning ilmiy qarashlari, g‘oyalari va kashfiyotchiligini targ‘ib qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Qori Niyoziy Mirzo Ulug‘bekning ilmiy ishlarini o‘n yil davomida tinimsiz o‘rgangan. Izlanishlarining mahsuli sifatida 1950-yilda Moskvada “Астрономическая школа Улугбека” (“Ulug‘bekning astronomik maktabi”) ilmiy asari nashr qilingan. Mazkur asarda Ulug‘bek ilmiy maktabining vakillari hisoblangan, XV asrda yashab, ijod etgan Al-Koshiy, Qozizoda ar-Rumiy, Ali Qushchi kabi allomalarning matematika, fizika, astronomiya, tabiat va jamiyat haqidagi olib borgan ilmiy izlanishlari ilk bor tahlil qilingan va ilmiy jamoatchilikka taqdim etilgan. Shuningdek ushbu asarida Qori Niyoziy o‘sha davrdagi o‘zbek xalqining ma’rifiy-madaniy hayoti, turmush tarzi, etnopedagogik qadriyatlari, og‘zaki ijod namunalari, qahramonlik eposlarining mazmun-mohiyati haqida aniq va ishonchli ma’lumotlarni taqdim etgan. Ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochishga muvaffaq bo‘lgan. Mazkur asardan bugungi kunga qadar jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan ishonchli ilmiy manba sifatida foydalanilmoqda. Olimning ushbu durdona asari keng ilmiy jamoatchilikning e’tiborini o‘ziga jalb qilgan va 1952-yilda Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy Respublikamiz uchun murakkab bo‘lgan tarixiy sharoitda jamoat va davlat arbobi sifatida jonbozlik va fidoyilik bilan xizmat qilgan, millat kelajagi uchun qayg‘urgan olimdir. Qori Niyoziyning ingliz, rus va o‘zbek tillarida yuzlab ilmiy asralari, monografiya va maqolalari chop etilgan. Olim Yaponiya, Fransiya, Italiya, Bolgariya, Hindiston va Afg‘oniston kabi davlatlarda o‘zbek ilm-fani, madaniyati va tarixining yutuqlarini ommalashtirishga erishgan. Uning “Ulug‘bek va uning ilmiy merosi”, “Bosib o‘tilgan yo‘l haqida mulohazalar”, “Hayot maktabi” kabi asarlari bugungi kunda ham mutaxassislar uchun eng qimmatli va jozibador ilmiy manbalar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda Qori Niyoziy o‘zining yirik ilmiy maktabiga ega bo‘lib, ko‘plab taniqli olim, pedagog, fan arboblarga ustozlari hisoblanadi. Buyuk pedagog sifatida O‘zbekiston fan tizimiga ko‘plab matematika sohasidagi olimlarini yetishtirib bergan. Bugungi

kunda ham mazkur sohaning aksariyat yirik namoyandalari Qori Niyoziyning izdoshlari hisoblanadi. Masalan O'zbekiston Qahramoni akademik Sh.Ayupov, akademik A.Sa'dullayev, akademik SH.Alimovlar shular jumlasidandir.

T.N.Qori Niyoziy o'zbek xalqiga xos bo'lgan urf-odatlar, madaniy-tarixiy modellarni, an'ana va qadriyatlarni chuqur bilgan, o'rgangan, targ'ib qilgan va ularning ta'limiy ahamiyatini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Shuning uchun ham Qori Niyoziy fan tarixi sohasida ko'p qirrali yirik mutaxassis sifatida tan olingan. Olimning sakkiz tomdan iborat asarlarida uning o'zbek xalqi tarixi, madaniyati, ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan munosabati o'zining yorqin ifodasini topgan. T.N.Qori Niyoziy fors va arab tillari chuqur bilganligi uchun ham ajdodlarimizning shu tillarda yozilgan asarlarini asl nusxada o'qib, ilmiy tahlil qilishga muyassar bo'lgan.

T.N.Qori Niyoziy ko'plab simpozium, xalqaro konferensiyalar va kongresslarda ishtirok etib, o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixiy-madaniy va ta'lim-tarbiyaga oid tajribasi bilan dunyo hamjamiyatini tanishtirishga erishgan. Shuning uchun ham u 1954- yilda Xalqaro astronomiya jamiyati a'zosi, 1968- yilda Fanlar tarixi bo'yicha o'n ikkinchi Xalqaro Kongressida Bosh Assambleya a'zosi etib saylangan.

Olimning pedagogik faoliyati sobiq sovet hokimiyatining dastlabki kunlaridan boshlangan. 1917-yil 9-noyabrda "Davlat maorif komissiyasini ta'sis qilish to'g'risida"gi dekret e'lon qilingan bo'lib, jamiyatni yangi g'oyalar bilan isloh qilish maqsadida ta'lim-tarbiyaning zarurligini anglab yetgan holda xalq maorifini tashkil qilishga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayonda ko'plab ziyolilar qatori Qori Niyoziy ham o'zbek xalqi va millatining ravnaqi yo'lida tinmay harakat qildi. O'sha davrdagi eng muhim masalalardan biri yangi tashkil etilgan maktablarni har tomonlama bilimli pedagoglar bilan ta'minlashdan iborat bo'lgan. Mahalliy aholi orasida esa o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarga javob beradigan savodli kishilar ozchilikni tashkil etar edi. U o'zining rafiqasi Oyshaxon O'razayeva bilan birgalikda Farg'onadagi dastlabki yangi tipdagi maktabda pedagog va rahbar sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Olimning asosiy e'tibori yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan. Qori Niyoziy o'zi ta'kidlagan quyidagi pedagogik xarakterdagi fikrlarga har doim amal qilib yashagan: "Ijodiy hayot bilan yashagan, aqliy mehnat bilan shug'ullangan har bir kishining, ayniqsa, olimning, o'qituvchining xususiyatlaridan biri kuzatish qobiliyatiga egaligidadir. Bir ko'rinishda "arzimaydigan", "mayda-chuyda"larga diqqat qilib yurishdan iborat". Olim insondagi eng ulug' fazilat sifatida samimiyatni e'tirof etgan. Nosamimiylilik yosh avlod tarbiyasiga putur yetkazishini qayta-qayta uqtirgan. Uning matematikaga oid fikrlari ham yosh avlod ta'lim-tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan olim, matematikaning shaxs tafakkurini shakllantirishdagi ahamiyatiga yuksak baho berib, quyidagi fikrlarni ta'kidlagan edi:

“Matematikaning eng qimmatbaho xususiyati shundaki, u kishining mantiqiy mushohada qobiliyatini o‘stira boradi. Holbuki, matematikaning formula va qoidalarini yod olish bilan uni egallab bo‘lmaydi. Matematikaning joni tafakkurda, mantiqiy mushohadada bo‘lib, undagi haqiqatlarni qat’iy, ketma-ket, mantiqiy muhokama bilangina oshkor qilish mumkin. Shunday qilib, mantiqiy tafakkur malakasiga ega bo‘lgan kishiga har qanday fan bilan shug‘ullanish uchun mustahkam zamin vujudga keladi”.

Qori Niyoziy o‘zining pedagogik fikrlarini davom ettirib, bugungi kun uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator qarashlarni ilgari surgan edi. Pedagog olim bolaning yoshligidagi, ayniqsa, hayotning maktabgacha davri tarbiya nuqtayi nazaridan g‘oyat murakkabligini ta’kidlaydi. Qori Niyoziy o‘qituvchi va o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan munosabatini ham o‘zining ko‘plab maqolalarida alohida ta’kidlab shunday degan: “O‘qituvchi oliy ma’lumotli bo‘lgani bilan u pastki sinflarda dars berish talabiga mutlaqo javob bera olmasligi mumkin. O‘qituvchi eng avval bola ichki dunyosini, uning psixologiyasini, talab va zaruriy ehtiyojlarini juda yaxshi bilib, o‘quvchilarning ustidan kundalik va har taraflama ijodiy nazorat olib borishi lozim. Xullas, maktabning pastki sinflari iste’dodli, tajribali, mohir o‘qituvchilarning qo‘lida bo‘lishi kerak, chunki buning uchun yolg‘iz formal ma’lumot ko‘p vaqt kifoya qilmaydi!. Umuman, o‘qituvchining ishi, uning qaysi sinfda va nimadan dars berishidan qat’iy nazar, ijodiy bo‘lishi lozim. Aks holda uning so‘zi qolipga aylanib, o‘qituvchining o‘zi oddiy kosibga o‘xshab qolishi mumkin”.

Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziyning o‘zbek xalqi ma’naviy-ma’rifiy hayoti va ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi munosib taqdrilangan. Olim 1952-yilda Davlat mukofoti va 1970-yilda Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofotlari laureati bo‘lgan. 2002-yilda esa olimning buyuk xizmatlari va qoldirgan katta ilmiy merosi e’tirof etilib, O‘zbekiston Respublikasining “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan. O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent shahridagi 206-maktab hamda Toshkentdagi ko‘chalardan biri serqirra olim va ulkan davlat arbobi Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy nomi bilan ataladi.

T.N.Qori Niyoziy tomonidan yozilgan uch yuzdan ortiq ilmiy asarlar bugungi kunda pedagog, matematik, tarixchi, madaniyatshunos, jamiyatshunos olimlar uchun katta ilmiy manba, dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Olimning ijodini o‘rganish, uning asarlaridan ilmiy manba sifatida foydalanish har doim yosh mutaxassislarining e’tiborida bo‘lishiga ishonchimiz komil.



USTOZ QORI NIYOZIYNING BUYUK XIZMATLARI VA FAZILATLARI

M.Quronov

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI "Xalqaro tadqiqotlar" bo'limi boshlig'i,
pedagogika fanlari doktori, professor

Ensiklopedik bilimdonlik azaldan zaminimizda Birinchi va Ikkinchi Renessansni yaratgan buyuk allomalarimizga xos bo'lgan. O'zbekiston Respublikasining "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan (2002) akademik Toshmuhammad Qori Niyoziy O'zbekistonda ko'p fan sohalariga birinchilardan bo'lib qo'l urgan ensiklopedik olim edi. U matematika, tarix, madaniyatshunoslik hamda pedagogikaga oid boy ilmiy va adabiy meros qoldirgan, buyuk allomalar an'alarini davom ettirgan fazilatli ma'rifatparvar, millatparvar Ustoz edi.

T.N.Qori Niyoziyning mehnat faoliyati erta boshlandi. U nihoyatda g'ayratli, vatanparvar tashkilotchi edi. O'zingiz tasavvur qiling, 20 yashar o'spirin 1917-yili Farg'ona viloyatida birinchi hozirgi formatdagi o'zbek maktabini tashkil etgan. O'sha paytdagi jadidchilik va qadimchilik orasidagi murakkab ziddiyatlar davrida buni amalga oshirish uchun qancha kuch, asab, iroda kerak edi. Qori Niyoziyda shuncha iroda va iqtidor bor edi. 1920-yilga kelib, bu maktab va o'qituvchilik kurslari negizida Qo'qonda pedagogika texnikumiga, keyinchalik esa Farg'ona viloyatining pedagogik ilm markaziga aylanadi.

1924-yil pedagogik texnikumning o'n uch bitiruvchi - pedagoglari hayotga yo'llanma olishadi. Bu tarixiy voqea edi. Shuning uchun "Farg'ona" gazetasi 26-maydan barcha sonini ularga bag'ishlaydi. Bu birinchi o'zbek o'qituvchisini o'n uch qaldirg'ochni uchishga tayyorlagan T.N.Qori Niyoziy edi.

Qori Niyoziy O'rta Osiyo Davlat Universitetining fizika-matematika fakultetini 1930-yili muvaffaqiyatli tugatdi. O'zidagi noyob rahbarlik qobiliyati bilan ko'zga tashlangan Qori Niyoziy 1931-yilda, universitetni bitirganidan bir yil(!) o'tib, universitetning rektori lavozimiga tayinlanadi. O'sha yili unga o'zbeklardan birinchi bo'lib professor unvoni beriladi.

Qori Niyoziy o'zbek matematika terminologiyasi, oliy va o'rta o'quv muassasalari uchun haqiqiy matematik adabiyotlar asoschisi hamda fan tarixida qoldi. Uning uch yuzdan ortiq ilmiy ishlari nashr qilingan. Ular orasida bittasi xalqaro ehtirom topdi. Bu – uning "Ulug'bekning astronomiya maktabi" monografiyasi bo'lib, 1952-yilda davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Moskvada 1950-yilda SSSR Fanlar Akademiyasida (rus tilida) nashr qilindi.

Yuqorida biz Qori Niyoziyning ensiklopedik alloma edi, dedik. Buning tasdig'ini ko'plab monografiya, uslubiy qo'llanmalarda ko'rish mumkin. Shulardan

biri “Sho‘ro davridagi O‘zbekistonning madaniyati tarixi” asarida ko‘ramiz. Olimning asarlari sakkiz tomli nashrni tashkil qildi. Har bir tom, satr Vatanga, xalqqa, uning shonli o‘tmishiga muhabbat, uning obodligi, odamlar ma‘naviyati, ilm va madaniyatining ravnaqi orzularini o‘zida mujassam qiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, zamondoshlari Qori Niyozini e‘zozlab, “O‘zbekiston ziyolilarining oqsoqoli”, deb atashgan. Bu bejiz emas. Zero, Ustoz butun umrini millatni ma‘rifatli qilishga, madaniyatini yuksaltirishga tikkan edi.

Olim 50 yildan ortiq bor kuchini xalqqa xizmat qilishga, yoshlar tarbiyasiga ko‘p kuch va quvvat sarfladi. Ilm-fan bo‘yicha xalqaro jamoatchilikning hurmatini qozondi. Millatimizning shonli tarixida yaratilgan bebaho osori atiqalarni saqlab qolishga bosh-qosh bo‘ldi.

U O‘zbekiston tarixiy obidalar va madaniyatini himoya qilish Jamiyati prezidiumining raisi muovini, ulkan olim sifatida o‘nlab xalqaro kongresslar va simpoziumlarda ishtirok etdi. 1954-yilda Xalqaro astronomik jamiyati a‘zosi, 1968-yilda Fanlar tarixi bo‘yicha 12-Xalqaro kongressida Bosh Assambleyasi a‘zosi etib saylandi. Yaponiya, Hindiston, Italiya, Bolgariya, Afg‘oniston va boshqa mamlakatlarda o‘zbek fani yutuqlari va salohiyatini targ‘ib qildi.

Qori Niyozining pedagogika fani va amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan faoliyati benazir. Sobiq sho‘rolar hokimiyati 1917-yil 9-noyabrda “Davlat maorif komissiyasini ta‘sis qilish to‘g‘risida”gi dekretini e‘lon qildi. Jamiyatda g‘alayon, qahatchilik va ocharchilik hukmron bo‘lgan davrda bu ishni o‘z zimmasiga olish uchun mislsiz ma‘naviy kuch, jasorat kerak edi. Buning uchun Qori Niyoziyga o‘xshagan millatining, xalqning, Turkiston o‘lkasining ertangi kuni haqida qayg‘urib yashayotgan mahalliy ziyolilar safarbar qilindi.

1917-yil noyabr oyida Skobelev shahrida Farg‘ona viloyatidagi yangi tipdagi birinchi o‘zbek maktabini tashkil qilish haqidagi topshiriqning berilishi Qori Niyoziy uchun ayni muddao bo‘ldi. Yosh maktab mudiri Qori Niyoziy oldida turgan eng murakkab masala – maktabni milliy o‘qituvchi kadrlar bilan ta‘minlash edi. Milliy o‘qituvchi kadrlar yo‘q edi. Yangi maktabda ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish yo‘lidagi jiddiy qiyinchiliklardan yana biri o‘quv rejasi va o‘quv dasturining yo‘qligi edi. O‘quv rejasini ham, dasturini ham Toshmuhammad Niyozovich va u kishining turmush o‘rtog‘i Oyshaxon O‘razayeva ishlab chiqdilar. O‘quv rejasiga dastlab ona (o‘zbek) tili, rus tili, geografiya va tabiiyot, so‘ngra gimnastika darsi kiritilgan.

O‘zbek tilida darslik yo‘q edi. Nima qilish kerak? Ana shunda ilk darsliklarni ruscha kitoblardan foydalanib tuzishadi.

Farg‘ona shahar va uyezd sho‘rolar hokimiyati tomonidan 1920-yil 15-yanvarda Toshmuhammad Niyozovichga 122-mandat beriladi. Unda Farg‘ona va uning uездidagi maktablarga ilmiy-metodik rahbarlik vazifasi topshiriladi. Buni

mandatdagi: “Qori Niyozovning ko‘rsatmalariga va qonuniy talablariga itoat qilish taklif qilinadi”, – degan qat’iy ko‘rsatma ham tasdiqlab turadi. Xullas, Qori Niyoziy 1920-yillardayoq Farg‘ona viloyatining bosh pedagogi sifatida rasman e’tirof etiladi.

Qori Niyoziy haqli ravishda O‘zbekistonda oliy pedagogik ta’lim asoschilaridan biri. Yana 20-yillarga qaytamiz: o‘shanda o‘lkamizning xalq maorifi oldida turgan eng qiyin masala – tezlik bilan ochilayotgan maktablarni hech bo‘lmaganda o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan o‘qituvchilar bilan ta’minlash edi. O‘lkada to‘rt yillik “ta’lim-tarbiya texnikumi” degan yangi tipdagi pedagogik ta’lim muassasalari vujudga kela boshladi. Farg‘ona viloyatida uni tashkil qilish Toshmuhammad Niyozovich zimmasiga yuklatildi. Shu munosabat bilan Farg‘onadagi “Viloyat ikkinchi bosqich o‘zbek maktabi” butun jihozlari va o‘quvchilari bilan maxsus eshelonda viloyatning yangi markazi – Qo‘qonga ko‘chirib keltirildi. Ko‘p fursat o‘tmay ushbu maktab va “Dorul muallimin” degan ta’lim-tarbiya kursi asosida “Farg‘ona viloyat ta’lim-tarbiya texnikumi”ga aylantirildi. Texnikumga Toshmuhammad Niyozovich mudir etib tayinlandi.

Qisqa vaqtda texnikum Farg‘ona viloyatining eng yirik pedagogik markaziga aylanadi. Texnikumning bitiruvchilari ajoyib pedagog, injener, agronom, olim, jamoat va davlat arboblari bo‘lib etishadilar. 1924-yilda texnikum Qo‘qondan Farg‘ona shahriga ko‘chiriladi. Bu yerda texnikumning faoliyati yanada keng miqyosda rivojlanib, 1930-yilda texnikum Farg‘ona davlat pedagogika institutiga aylanadi.

Toshmuhammad Niyozovich kuchli ma’naviyat va iroda sohibi edi. Buni allomaning biografiyasi yaqqol tasdiqlab turadi. Bir misol. Qori Niyoziy 1926-yilda Toshkentga kelib universitet fizika-matematika fakultetining birinchi kursiga tanlov asosida qabul qilinadi. Birinchi kurs dasturini tezkor bitirib, imtihonlarni topshirib, tez fursatda ikkinchi kursda o‘qiy boshlaydi.

Yana bir hayrat: Qori Niyoziy universitetning 4-kursida o‘qib turib, o‘zbek tilida matematik analiz va boshqa matematika kurslaridan ma’ruzalar o‘qiy boshlaydi. Yuqorida ta’kidlaganimiz kabi, 1930-yilning fevralida universitetni bitirgan Toshmuhammad Niyozovich ilmiy, pedagogik va tashkiliy ishlar bilan mashg‘ul bo‘lgan. 1931-yildan universitetning professori, keyinchalik uning rektori bo‘lib ishlay boshlaydi.

Qori Niyoziyning pedagogik qarashlarida o‘qituvchining kasbiy ma’naviy fazilatlar, kompetensiyalari, samimiyati, pedagogik mas’uliyati haqida qimmatli fikrlar mujassam. Allomaning fikricha, o‘qituvchining bilimi o‘z shogirdlarining bilimidan doimo hech bo‘lmaganda bir necha bosh yuqori turishi kerak. Aks holda bolalar oldida uning obro‘si bo‘lmaydi, chunki kutilmagan savollarga o‘qituvchi javob bera olmay qolishi mumkin. Holbuki, bola sezgir bo‘ladi va juda tez fursatda o‘qituvchining “mulla”ligi oshkor bo‘lib qoladi.

Ustoz Qori Niyoziy tarbiya nazariyasi bilimdoni, fazilatshunos alloma edi. U kishi insoniy fazilatlar ichida samimiyatni ustun qo‘ygan va samimiyat rostgo‘ylik bilan chambarchas bog‘liq, deb bilgan. Shunday ekan, o‘qituvchi bilan o‘quvchi orasida aloqa samimiy bo‘lishi kerak. Samimiy bo‘lmagan aloqaning asosida biror shaxsiy manfaat turadi. Bu esa yosh avlodning tarbiyasiga zarar keltiradi.

Qori Niyoziy pedagogik kompetensiyalarga alohida e‘tibor qaratgan. “O‘qituvchi oliy ma‘lumotli bo‘lgani bilan u pastki sinflarda dars berish talabiga mutlaqo javob bermasligi mumkin”, – deb hisoblagan va bu ziddiyatning oldini olish bo‘yicha qimmatli tavsiyalar bergan. Qori Niyoziy boshlang‘ich ta‘limning rolini yuksak baholagan edi. Bu haqda “maktabning pastki sinflari iste‘dodli, tajribali, mohir o‘qituvchilarning qo‘lida bo‘lishi kerak...”, deydi u.

Toshmuhammad Niyozovich o‘qituvchining kreativ kompetensiyalari masalasini XX asrning boshida – Yevropa pedagog olimlaridan 50 yil oldin ko‘targan edi. “O‘qituvchining ishi, uning qaysi sinfda va nimadan dars berishidan qat’i nazar, ijodiy bo‘lishi lozim. Aks holda uning so‘zi qolipga aylanib, o‘qituvchining o‘zi oddiy kosibga o‘xshab qolishi mumkin. Maktabda sodir bo‘ladigan ko‘p kamchiliklarning ildizi, ularning asosiy manbai ham shunda”, deydi alloma.

Toshmuhammad Niyozovich matematikaning o‘zbek tilidagi terminologiyasini tuzdi. Bunda asosiy prinsip sifatida internasional xarakterda bo‘lgan terminlarning o‘zini qabul qilib, qolganlarining o‘rniga o‘zbekcha mosini (ekvivalentini) topishdan iborat etib belgilaydi. Bu haqda u kishining izdoshlari mamnuniyat bilan xotirlaydilar: – Toshmuhammad Qori Niyoziy fan bilan shug‘ullana boshlagan vaqtda matematika fanining o‘zbek tilidagi terminologiyasi yo‘q edi. U kishi juda katta matonat bilan maktab, oliy ta‘lim darsliklariga o‘zbek tili terminologiyasini kiritdi, darsliklar yaratdi. Yaxshidan bog‘ qoladi, deganlaridek, akademik olim yashagan uy ham bugun ilm-fan o‘chog‘iga aylangan. Bu uy domlanning farzandlari tashabbusi bilan “Akademik Qori-Niyoziy merosi” nomidagi ilmiy-metodik markazga aylantirilgan. Bu yerda yosh olimlarimiz, talaba-yoshlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tajriba almashib, bilimlarini mustahkamlab boradi. Shu ma’noda domlanning xizmatlarini barchamiz yuksak qadrlaymiz, u kishi qoldirgan ilmiy merosni yanada sayqal toptirish yo‘lida astoydil xizmat qilamiz”, deydi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi V.Romanovskiy nomidagi matematika instituti direktori, akademik Shavkat Ayupov.

Bugungi kunda allomaning nomi bilan atalgan T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti bo‘limlari, professor-xodimlari hamda tadqiqotchilari alloma orzularini ro‘yobga chiqarishda munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Oliy ta‘lim muassasalari, maktablarda oflayn, onlayn (vebinar) qo‘shma seminarlarni tashkil etish, o‘tkazilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy

tadbirlarga institutning professor, ilmiy-tadqiqotchilarini yuborish, institut talabalari, magistrantlari yoki o'qituvchilarining ilmiy tadqiqotlariga ilmiy rahbarlik qilish, professor-o'qituvchilarni pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqoti, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasining nazariy va metodik jihatlarini o'rgatish, o'zaro manfaatli mavzular bo'yicha ma'ruzalar o'qish, birgalikda ilmiy-tadqiqotlar, pedagogik ta'lim va o'qitish metodikasiga oid muammolar bo'yicha konferensiya, seminar, davra suhbatlarini o'tkazish va talabalar, magistrantlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilar bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirilmoqda.

Ustoz Qori Niyoziy boshlagan ulug' pedagogik an'analar barhayot. Ular rivojlantirilib, Yangi O'zbekiston ravnaqiga safarbar etilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Tajaddinov N. Birinchi professor // Hurriyat. – 2010. – 5 may.
2. Ubaydullayev A. O'zbek matematika terminologiyasining asoschisi //Ma'rifat. – 2007. – 12 sentabr.
3. Fozili zamon // Qishloq hayoti. – 1987. – 4 sentabr.
4. Fayziboyev E. O'zbek matematik tilini yaratgan // O'zbekiston ovozi. – 2007. – 25 sentabr.



TA'LIMDA KLASSTER YONDASHUVNI QO'LLASH

Sh.Q. Mardonov

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI "Tillarni intensiv o'qitish texnologiyalari"
bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari doktori, professor

F.Sh. Mardonov

Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

Bugungi kunda O'zbekiston ta'limida zamonaviy ta'limning rivojlanish tendensiyalarini klaster yondashuviz tasavvur qilish qiyin. Klaster deganda ma'lum bir tizim tushuniladi, ammo bu tizim o'ziga xos bo'lib, unga qo'shilgan elementlar ushbu tizimning ishini yaxshilaydi, biroq undan biron elementning chiqib ketishi bu tizimning buzilishiga olib kelmaydi. Klaster tizimlariga unumdorlik, barqarorlik xos hamda u modernizatsiyalanishi, yangilanishi va turli vositalar orqali kuchaytirilishi mumkin. Klasterning afzalligi uning global masshtabga egaligi, ochiqligi, egiluvchanligi va boshqaruvining soddaligidadir.

Klasterlar ko'p omilli foydalanishga moslangan tizimlarda shakllanadi. Uning tarkibiga turli, gohida bir-biriga qarama-qarshi tuzilmalar ham birlashishi mumkin, ammo bu oddiy birlashish bo'lmay sifat jihatidan yangi tizim bo'lib shakllanadi [1].

Klaster o‘zaro munosabatlariga nafaqat tizimlilik alomatlari, balki sinergetiklik ham xosdir. Sinergetik yondashuv – faol rivojlanuvchi metodologik yondashuv bo‘lib, unda o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini o‘zi joriy etish, o‘zini o‘zi tashkillashtirish o‘zini o‘zi yo‘q qilish kabi g‘oyalar ustuvorlikka ega. Sinergetika o‘zini o‘zi tashkillashtirish, paydo qilish mexanizmlarini asoslaydi, ya’ni tabiatda o‘z o‘zidan paydo bo‘lish, barqaror mavjud bo‘lish, mikroskopik tartiblangan tuzilmalarning o‘zini o‘zi yo‘q qilishi[1] kabilar. Boshqaruvda o‘zini o‘zi tashkillashtirish xususiyati, shu jumladan, ta’limda ham, muhim rol o‘ynaydi. Sinergetikaning shu kabi qonuniyatlarini bilish, kasbiy pedagogik ta’lim tizimi o‘qitish jarayonining sifat o‘zgarishlariga olib keladi.

Tashqi ta’sirida paydo bo‘ladigan sodda tizimlardan farqli o‘laroq, klaster tizimi asosan ichki resurslar hisobidan ishlaydi. Ko‘p hollarda klaster deb, bir qancha bir turdagi elementlarning birlashuviga aytiladi, ular mustaqil birlik sifatida o‘ziga xos xususiyatga egadir. Axborot texnologiyalari sohasida qo‘llanilib kelingan “klaster” atamasi keyingi vaqtlarda iqtisodda “konsern”, “xolding” atamalari o‘rnida keng qo‘llanila boshladi va undan pedagogika tizimiga ham kirib kelmoqda.

Pedagogikada[2] – “ilmiy-ta’limiy klaster deb, kasbdoshlar tomonidan bajarilgan loyihalar, tadqiqotlar, ishlanmalar va publikatsiyalar “to‘plami” tushuniladi. Ta’limiy klaster deb, esa “ish beruvchilar hamda ta’lim muassasalarining mufassal, universal kompleks darsturlari” tushuniladi. Maktab klasteri: “Tayanch maktablari har bir klasterda o‘zlarining pedagogik sherigiga ega – bu sputnik maktablari..., maktabgacha ta’lim muassasalari..., bu ijtimoiy hamkorlar – OTMlari, kutubxonalar, muzeylar, ommaviy axborot vositalari...” va b. kiritilishi mumkin.

Kasbiy pedagogikada[3, 9-b.] - “Klaster deb, maxsus tashkillashtirilgan madaniy-ta’limiy tizim, o‘zaro bog‘liq ta’limiy, madaniy, ilmiy, innovatsion, ijtimoiy, texnologik, ishlab chiqarish va boshqa tashkilotlar hamda ularning o‘zaro aloqalari” tushuniladi.

Klaster yondashuvning ta’limni rivojlantirishi deganda, klaster subyektlarining o‘zaro va o‘zini o‘zi rivojlantirish tushuniladi, ya’ni “muammo ustida ishlash jarayonida” hamkorlarning barqaror rivojlanishi [4] tushuniladi (T.I.Shmakova bo‘yicha). Demak, klaster – bu umummaqsad yo‘lida birlashgan ishtirokchi subyektlarning ma’lum shartnoma munosabatlaridagi roli hamda ular faoliyatini boshqarishdir.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, klaster yondashuvning quyidagi tayanch komponentlarini ko‘rsatish mumkin: umumiy maqsadning mavjudligi; subyektlar birgalikdagi faoliyatlari huquqiy asoslarining mavjudligi; klasterda birlashgan subyektlar o‘zaro harakatlari mexanizmlarining ishlab chiqilganligi; klaster yondashuvini amaliyotga joriy qilish mexanizmlarining boshqariluvchanligi; klaster

yondashuvni joriy qilish texnologiyalarining umumiy maqsadlar bilan moslashtirilganligi.

Ta'lim klasterida markaziy o'rinni uning umimiy maqsadi egallaydi. Bu o'quv jarayonida birgalikdagi loyihalarning bajarilishida ko'rinadi hamda bitiruvchilarning kasbiy kompetentligining shakllantirilishini ta'minlaydi. Klaster yondashuvi ta'lim muassasalari, hamkorlarning mehnat bozori subyektlari bilan hamkorlik faoliyatlari, qiziqishlarining ixtiyoriylik asoslarda birlashuvi tizimining joriy qilinganida namoyon bo'ladi [5].

Zamonaviy ta'lim jamiyat rivojining muhim omili sifatida yangi tipdagi mutaxassislarini talab qilmoqda, ya'ni raqobatbardosh, tashabbuskor, kompetentli, tadbirkor, malakali, muloqotga tez kirisha oladigan, ishbilarmon, kreativ, biron bir chet tilini mukammal biladigan hamda yangi axborot texnologiyalardan xabardor, shuningdek, doimo o'z ustida mustaqil ishlashi va malakasini oshirib borishini taqozo qilmoqda.

Demak, klaster deganda turli tuzilmalarning (ta'lim-fan-ishlab chiqarish) o'zaro manfaatdorlik asosida birlashuvi, hamkorligi tushuniladi va u tarmoqlarning potentsiallaridan foydalangan holda yangi innovatsion maxsulot yetishtirish maqsadini belgilaydi. Sifatli mahsulotni shakllantiruvchi innovatsion ta'lim klasteri turli toifadagi (darajadagi) ta'lim muassasalarini o'z atrofida barqaror birlashtiradi va uning intellektual markazi, albatta, oliy ta'lim muassasasi bo'lishi kerak. Oliy ta'lim muassasasi nafaqat integratsiyalash funksiyasini, balki innovatsion faoliyatni ham amalga oshirib boradi. Klasterga kiruvchi tashkilot, muassasalarning bir-birini o'zaro to'ldirib borishi natijasida ularning raqobatbardoshligi ham oshib boradi.

Klasterning muvaffiqiyatli rivojlanishi uchun uning barqaror rivojlanish strategiyasini belgilovchi dastur tuzish orqali ish beruvchilar, xissadorlar, biznes-hamkorlar, hokimiyat organlari, moliya, ta'lim va ijtimoiy sohalarning, madaniyat va b. tashkilotlarning qiziqishlari (manfaatdorliklari) belgilab beriladi. Tashkilot, korxona va muassasalarning innovatsion klasterga birlashuvi hududiy yaqinlik, o'zaro manfaatdorlik prinsipi asosida amalga oshiriladi.

Klaster yondashuvni kasbiy ta'limda qo'llash quyidagi afzalliklarga ega: birinchidan, ta'lim muassasalarining mehnat bozori bilan o'zaro harakat mexanizmlari shakllanadi, uning alohida biznes-guruhlardan tobeligining oldi olinadi; ikkinchidan, kadrlar infrastrukturasi yaxshilanadi; uchinchidan, innovatsion faoliyat infrastrukturasi rivojlanadi, yaxshi innovatsion muhit yaratiladi, mavjud imkoniyatlar yanada kengayadi, samarador, egiluvchan, boshqariladigan tizim shakllanadi; to'rtinchidan, ta'limning mobil prinsiplarga asoslangan modul tizimi tatbiqiy bazasi shakllanadi, unda predmetli o'qitishdan voz kechiladi, fanlararo aloqalar kengayadi; beshinchidan, talabaga bozor munosabatlarining subyeksi sifatida o'zining ta'lim marshrutini mustaqil shakllantirishga imkon yaratiladi;

oltinchidan, ta'lim jarayonining yuqori darajadagi intellektualligi, ochiqligi ta'minlanadi, shuningdek ta'limning turli shakl va vositalari joriy qilinadi: kunduzgi, sirtqi, virtual va b. [6].

Ta'lim klasteri mintaqaviy rivojlanishning barcha jabhalariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Adabiyotlarni o'rganish asosida bugungi kunda ta'lim klasterida ikki xil yondashuvni ta'kidlash mumkin.

Birinchi yondashuv ta'lim muassasalarining vertikal integratsiyasiga asoslangan bo'lib, uning tarafdorlari, ta'lim klasteri maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanishini ta'kidlashadi [7; 8]. Bu yo'nalishning yangiligi: uzluksiz ta'limga yaxlit tizim sifatida qaraladi; o'qitish pedagogik jarayon subyekti sifatida bir umrlik ta'limga mo'ljallangan; bunda bilimning integratsiyasi va millatlararoligi ta'minlanadi, muloqot doirasi kengayadi, axborot texnologiyalari joriy qilinadi; ta'limning ko'p bosqichli tizimi shakllanadi. Bugungi kunda uzluksiz ta'limning bitta modeli mavjud: "bog'cha-maktab", "maktab-OTM" [9].

Ta'lim klasterini shakllantirishning **ikkinchi yondashuvi** ta'lim muassasalari hamda biznesning notijorat, ijtimoiy hamkorligi g'oyasiga asoslangan [10]. Klaster tafakkurning subyekti joylardagi oliy ta'lim muassasalari bo'lishi va ular ta'lim klasterlarini hududiy prinsip asosida boshqarib boradi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, klaster siyosati ta'limning quyidagi muammolari yechimiga qaratilgan: mehnat bozori hamda ta'lim xizmatlari bozorining muvofiqlashtirilishiga erishiladi; yuqori malakali kadrlar, ayniqsa, yuqori texnologiyalar va innovatsion sohalarining defitsitiga barham beriladi; kasbiy ta'lim hamda biznes-hamjamiyatlari tizimlari orasidagi hamkorlik munosabatlari o'rnatiladi; mutaxassislarni tayyorlash muddati qisqaradi, sifat va samaradorligi oshadi; ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ijtimoiy himoyalaniishi kuchayadi; ishchilarning kasbiy nufuzi ko'tariladi; oliy ta'limga kirishda yetim bolalarning, iqtisodiy muxtoj oilalarning hamda qishloq maktablarini bitiruvchi o'quvchilarining imkoniyatlari kengayadi; ta'lim muassasalarining o'quv-material bazasi zamonaviy ishlab chiqarish muassasalariga mos ravishda rivojlanadi; ta'lim hamda ta'lim xizmatlari (fuqaro, tashkilot, korxona) muassasalarining o'zaro munosabatlari me'yorlari ishlab chiqiladi; kasbiy ta'lim jabhasida yagona ilmiy-metodik siyosatning yuritilishiga doir tashkiliy tuzilmalar yaratiladi; umumta'lim maktablarini ixtisoslashtirishning tashkiliy hamda metodik asoslari ishlab chiqiladi; tashkilot, korxona hamda ta'lim muassasalarining birgalikdagi harakatlari uchun sharoit yaratiladi; ta'lim tizimiga investitsiyalar kiritish mexanizmlari ishlab chiqiladi va kiritiladi; ish beruvchilarning ta'limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish mexanizmlari shakllantiriladi, ishlab chiqarish va ta'lim integratsiyasi ta'minlanadi, ish beruvchilarning ta'limga investitsiyalar kiritish tajribalari ommalashtiriladi va rag'batlantiriladi.

Maxsus adabiyotlar hamda pedagogik amaliyotning ko'rsatishicha, sohalar bo'yicha innovatsion ta'lim klasterlarini shakllantirishda asos sifatida ta'lim tizimining ko'pbosqichlilik va ko'pdarajalilik prinsiplari belgilanadi; mehnat bozori professional mutaxassislar bilan to'ldiriladi, shartnoma asosida ishga joylashish tizimiga o'tiladi: "bitiruvchi - ish beruvchi - o'quv - ishlab-chiqarish birlashmalari"; umumiy va kasbiy ta'lim dasturlarining uzviyligi va uzluksizligi ta'minlanadi; sifatli ta'lim ta'minlanadi.

Ta'limda ta'lim klasteri davlat siyosatning tarkibiy qismi sanaladi; klaster bo'yicha tashabbuslar klasterlarning shakllanish va rivojlanish davrida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi; davlat buyurtmalaridan ta'lim klasterining rivojlanish instrumenti sifatida foydalaniladi; ilmiy-ta'limiy, material-texnik, kadrlar hamda moliyaviy resurslar konsentratsiyasi yaratiladi; o'quv dasturlari bilan muvofiqlashtirilgan ko'p jabhali kasbiy ta'lim shakllashtiriladi; ta'lim sohasi huquqiy-me'yoriy asoslari takomillashtiriladi; ta'limning (ko'psathli, ko'pfunksional, ko'pprofilli ta'lim muassasalari) innovatsion infratuzilmasi yaratiladi; kasbiy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha xududiy ta'lim muassasalari o'zaro ta'siri ta'minlanadi.

Klasterning ustunligi shundaki, birinchidan, unda ichki imkoniyatlardan: kadrlar, ilmiy, axborot zaxiralari, mablag'lar, infratuzilmalardan samarali foydalaniladi; ikkinchidan, bu yerda kadrlar tayyorgarligi yuqori va ular mehnat bozorida talabgir (bozorgir); uchinchidan, bunda ta'lim texnologiyalari, ta'limning texnik vositalari, o'quv ustaxonalaridan samarali foydalaniladi; to'rtinchidan, kadrlar tayyorlash muddatlari ta'lim mazmunini integratsiyalash hisobiga qisqaradi; uzviylik va uzluksizlik prinsipi amalga oshiriladi, kafolatlangan natijaga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кривых С.В., Макареня А.А. Педагогическая антропоекология. Педагогика жизнедеятельности. –СПб.: ГНУ ИОВ РАО, 2003. – С.360.
2. Каменский А.М. Внутри школьный образовательный кластер//Режим доступа: <http://www.likht590.ru/about/director/cluster.pdf>.
3. Трушников Д.Ю. Проектирование системы воспитания в университетском комплексе на основе кластерного подхода. –М.: МГПИ, 2011. – С.9.
4. Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем//Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы X Международн. Образовательного форума: ч.2 (Белгород. 24-26 окт. 2006 г.). –Белгород: БелГУ, 2006.
5. Краснорутская Н.Г. Образовательный кластер в инновационной инфраструктуре региональной системы профессионального

образования/Режим доступа: http://kafedra-forum.narod2.ru/publikatsii/_rol/krasnorutskaya_ng/

6. Организация работы ресурсного центра профессионального образования. –Казан: РИТС «Школа», 2006.– С.184.

7. Лапыгин Д.Ю. Методическое обеспечение процесса разработки плана стратегического развития региона//Менеджмент в России и за рубежом.2005.- №6.-40-52 б.

8. Лапыгин Д.Ю. Контуры регионального образовательного кластера [Электронный ресурс]//Электронный журнал ВлГУ «Экономика региона» - 2006. -№5. Режим доступа: <http://jornal.vlsu.ru/index.phpid=264/>.

9. Мухаметзянова Г.В. Вопросы общей и профессиональной педагогики: изб. Труды в 3-х томах.-Казан: Магриф, 2005. – С.447.



МНОГОГРАННОСТЬ И МНГОВЕКТОРНОСТЬ АКАДЕМИКА Т.Н. КАРИ-НИЯЗОВА

А.Х. Махмудов,

д.п.н., руководитель отдела УзНИИПН им. Кари- Ниязи

В наш стремительный век, когда не успеваешь выполнить все запланированные дела, приходится удивляться выдающимся деятелям прошлого, их многогранности, многовекторности, полидеятельности.

Одним из таких примеров является выдающийся ученый, педагог, общественный и государственный деятель доктор физико-математических наук, профессор, академик Кары-Ниязов Ташмухамед Ниязович.

Если взглянуть на пройденный жизненный путь академика (1897-1970 гг.), то мы увидим, что Т.Н.Кары-Ниязов действительно был многогранным и многовекторным деятелем: наука(математика, археология, астрономия, история, философия), образование, общественная и государственная деятельность и многое другое.

Заслуженный деятель науки, герой Труда, первый президент академии наук Узбекистана Т. Н. Кары-Ниязов всю свою жизнь безраздельно посвятил делу народного образования. Он организовал первую в Ферганской области узбекскую школу, затем учительские курсы, на базе которых в 1920 в Коканде возник областной педагогический техникум. Работал учителем, затем директором школы, позднее директором Кокандского узбекского

педагогического техникума, ректором Среднеазиатского государственного университета (САГУ).

Многогранно и научная деятельность ученого: математика, история, астрономия, археология. В 1929 окончил физико-математический факультет Среднеазиатского государственного университета. В 1931 было присвоено звание профессора, в 1939 - ученая степень доктора физико-математических наук. 3 ноября 1943 был избран действительным членом (академиком) Академии наук и стал первым ее президентом.

Т.Н.Кары-Ниязов опубликовал более 300 научных публикаций. В историю науки в Узбекистане он вошел прежде всего как крупный математик, автор оригинальных математических трудов, создатель узбекской математической терминологии, составитель первых на узбекском языке учебников по элементарной и высшей математике. Существенен его вклад и в развитие общественных наук, особенно в разработку проблем и вопросов истории культурной жизни народов Узбекистана.

Т.Н.Кары-Ниязов интересовался изучением историко-культурных памятников Узбекистана, содействовал развитию археологических исследований, дела охраны и реставрации архитектурных памятников старины. Являлся заместителем председателя президиума правления Общества по охране памятников истории и культуры Узбекистана, председателем республиканского Совета по народным университетам, главным редактором научно-популярного журнала «Фан ва турмуш». В 1954 был избран членом Международного астрономического общества, в 1968 на XII Международном конгрессе по истории наук - членом его Генеральной ассамблеи.

Следует отметить заслуги Т. Н. Кары-Ниязова как историка науки. Он автор, в частности, разделов по истории науки и культуры Средней Азии. Неизменный спутник историков, археологов, философов, изучающих жизнь и деятельность Улугбека.

Просветительская деятельность Т.Н.Кары-Ниязова тоже очень обширная. В частности его труды, воспоминания «Размышления о пройденном пути» или «Школа жизни» (первое издание в 1964 и второе, переработанное и дополненное, в 1966 – на узбекском языке; третье и четвертое в 1967 и 1970 г. стали настольной книгой многих поколений педагогов, ученых да и простых тружеников нашей страны.

И совершенно справедливо, что дан и уважение великому ученому это то, что имя Т. Н. Кары-Ниязова носит Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук в г. Ташкент.



PEDAGOGIK TA'LIM "AQL MARKAZ"LARI

Sh. Abdujalilova
p.f.n., (CHDPU)

O'zbekistonda pedagogik ta'lim sifatini xalqaro ta'lim talablari va qoidalariga mos ravishda rivojlantirish jarayoni kechmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli Qarorida muhim vazifalar belgilangan[1]. Ana shunday vazifalardan biri oliy pedagogik ta'lim jarayonida "aql markaz"lari tashkil etish va ular vositasida pedagogik sifatli ta'limga erishish hamda professional pedagogik kadrlar tayyorlashdan iborat. Shu jihatdan bu o'rinda e'tiboringizni *pedagogik ta'lim "aql markaz"lari* mazmunining tahliliga tortamiz.

Texnologik rivojlanish jarayonida barcha sohalar bo'yicha insonning aqliy imkoniyatlari asosida kashf etilgan ixtirolar va ularni amaliyotga tadbiq etish markazlari muhim ilmiy-amaliy o'rin tutadi. Shu jihatdan mamlakatimizda pedagogik ta'lim "aql markaz"larini tashkil etish dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun o'ziga xos tajribaga ega bo'lgan 14 pedagogik universitetlar va institutlar faoliyat yuritmoqda.

Pedagogik ta'lim "aql markaz"lari mazmuni. Pedagogik ta'lim "aql markaz"lari – bu yuksak darajada nazariy bilim, professional miqyosda amaliy ko'nikma va samarali faoliyatga tayyorlovchi ilmiy-amaliy hamda texnologik imkoniyatlarga ega bo'lgan ta'lim jarayonidir[2]. Bunda bunday "aql markaz"lari ta'lim jarayonining ilmiy muammolarini mustaqil tadqiq etadi, tadqiqotlar natijalarini amaliy ishlanmalarga aylantiradi va professional pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha o'zining "brendi"ga ega bo'ladi. Mazkur tipdagi pedagogik ta'lim "aql markaz"lari xalqaro ta'lim tashkilotlari va dunyoning rivojlangan oliy pedagogik ta'lim universitetlari tomonidan yakdillik bilan e'tirof etiladi.

Pedagogik ta'lim "aql markaz"lari ***ideal ta'lim*** prinsipiga asosan o'qitish jarayonida quyidagilarga asoslanadi:

- a) yuksak darajadagi nazariy-kasbiy bilim berish;
- b) nazariy-kasbiy bilim berishda Pedagogika fanining eng so'nggi ilmiy ma'lumotlariga tayanish;
- v) zamonaviy va yangi pedagogik texnologiyalarga asosan nazariy-kasbiy bilim berish.

Shu jihatdan pedagogik ta'lim "aql markaz"larining ta'sis etilishi va faoliyat yuritilishida ilmiy-amaliy faoliyat bilan uyg'un qurollantiruvchi pedagogik universitetlarning imkoniyatlari keng bo'lishini ta'kidlab o'tish joiz.

Ta'lim berishda "aql markaz"larining vazifalari. Pedagogik ta'lim "aql markaz"larida ta'lim berish jarayoni an'anaviy oliy pedagogik ta'lim jarayonidan tubdan farq qiladi. Bunda ta'lim berish **intellektual tafakkur** prinsipiga asosan quyidagilarga asoslanadi:

a) bilimlar majmuini berish (pedagogik ta'limda bilimlar majmuyida pedagogik asoslarga urg'u beriladi);

b) ta'lim oluvchilarga butun hayoti davomida bilim berish(bunda pedagogik ta'lim 10 yoshdan boshlanishi e'tirof etilgan);

v) ta'lim muammolarini fundamental, ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan kuchli tarzda tadqiq etish.

E'tibor berilsa, pedagogik ta'lim "aql markaz"larida ta'lim jarayoni o'ziga xos va keng ko'lamli tarzda amalga oshiriladi. Bunda ta'lim oluvchilarga bilimlar majmuyini berish nazarda tutiladi va bundan maqsad ularda texnologik rivojlanish davrida individual intellektual tafakkurni shakllantirishdan iborat.

3.Tarbiya berishda "aql markaz"larining vazifalari. Pedagogik ta'lim "aql markaz"lari faoliyatida tarbiya berish muhim vazifalarga asoslanadi. Bunday vazifalarning asosiylari **pragmatik tarbiya** prinsipiga asosan quyidagilardan iborat:

a) tarbiya oluvchiga shaxs sifatida o'zligini anglatish;

b) tarbiyalanuvchini axloq me'yorlariga ko'niktirish;

v) tarbiya oluvchini ijtimoiy faollashtirish.

Diqqat qilinsa, pedagogik ta'lim "aql markaz"larida pragmatik tarbiya jarayoni amalga oshiriladi va unda ta'lim oluvchini hayot hamda faoliyatga tayyorlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

4. Pedagogik ta'lim "aql markaz"larining samaradorligi. Pedagogik ta'lim "aql markaz"lari faoliyatida samaradorlik **demokratik faoliyat** prinsipiga asoslanadi. Mazkur prinsip asosida pedagogik ta'lim "aql markaz"larining faoliyat samaradorligi quyidagi indikatorlarga asosan baholanadi:

a) ta'lim oluvchining zamon talablariga mos kasbiy tayyorgarligi;

b) ta'lim va tarbiya jarayonining ilmiy-amaliy yo'naltirilganligi;

v) shaxsning kelgusida o'z faoliyatini baholab borish ko'nikmasiga egaligi.

Mazkur indikatorlar asosida pedagogik ta'lim "aql markaz"lari faoliyati baholanadi va ularning milliy hamda xalqaro baholash reytinglaridagi o'rnini belgilanadi.

Umuman pedagogik ta'lim "aql markaz"lari ta'lim, tarbiya va amaliyot uyg'unligiga asoslangan, zamon talablariga mos professional pedagog kadrlarni tayyorlovchi o'ziga xos ilmiy, amaliy hamda ishlab chiqaruvchi ijtimoiy makon hisoblanadi.

Pedagogik ta'lim "aql markaz"larini tashkil etish ko'p hollarda pedagogik universitetlar sharoitida qo'l keladi. Misol uchun, besh yillik boy pedagogik ta'lim

instituti tajribasiga ega bo'lgan Chirchiq davlat pedagogika universiteti ana shunday keng imkoniyatlarga ega ekanligini ta'kidlash lozim.

Ayni paytda, bir pedagogik unversiteti sharoitida bir necha pedagogik ta'lim "aql markaz"lari tarkib topishi mumkin. Masalan, boshlang'ich ta'lim "aql markazi", pedagogik ta'lim "aql markazi", tabiiy fanlar pedagogik ta'lim "aql markazi" kabilar shular jumlasidandir. Buning uchun talabalar, ta'lim beruvchilar va ta'limdan manfaatdorlar ilmiy-amaliy tafakkur, faoliyat hamda samaradorlik jihatidan uyg'un hamkorlikda bo'lishi taqazo etiladi.

Shunday qilib, pedagogik ta'lim "aql markaz"lari bugungi kunda pedagogik ta'lim sifatiga erishish, professional pedagog kadrlar tayyorlash va zamon talablariga mos pedagogik texnologiyalar ishlab chiqishning eng muhim mexanizmlaridir. Mazkur masalalar izchil ravishda tadqiq etib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi [3].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyndagi PQ-289-sonli "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.// www.ziynet.uz.

2. Интеллектуальные ресурсы нового технологического подходы. Сборник материалов. – Москва, 2019.

3. Abdusalilova Sh.A. Abdurauf Fitratning pedagogik ta'lim ta'limoti.- Toshkent, 2022.



BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TELEKOMMUNIKATSION TA'LIM FAOLIYATIGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

N.Q. Abdullayev,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch doktoranti

Inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichining xarakterli xususiyatlaridan biridir.

Axborotlashtirish – bu inson hayotining barcha jabhalariga intellektual faoliyatning roli va ta'sir darajasining oshishi bilan bog'liq bo'lgan obyektiv rivojlanish jarayoni. Axborot texnologiyalari va tizimlarining jadal rivojlanishi inson faoliyatini uning deyarli barcha jabhalarida: ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida o'zgartirdi, ilgari kirish imkoni bo'lmagan ulkan axborot resurslaridan samarali foydalanishni ta'minladi; axborotni to'plash, qayta ishlash va almashish imkoniyatini vujudga keltirdi.

Bu o'zgarishlar ta'lim mazmuni jihatidan ham, ta'lim maqsadlariga erishish uchun axborot tizimlari imkoniyatlaridan foydalanish nuqtayi nazaridan ham ta'lim faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Ta'limni axborotlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ommaviy maktabda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sharoitida o'qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirish va hozirgi vaqtda yoki yaqin kelajakda kasbiy vazifalari joriy etish va joriy etishni talab qiladigan bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlaridan foydalanish;

deyarli barcha o'rganiladigan fanlar bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlaridan o'qitish vositasi va usuli sifatida foydalanish;

ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga ham butun ta'lim tizimiga ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini joriy etishni hisobga olgan holda bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash.

Bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi tarkibida, ayniqsa informatika bloki fanlari majmuasi tomonidan amalga oshiriladigan informatika mashg'ulotlarini ajratib ko'rsatish kerak.

Pedagogika oliy o'quv yurtida bo'lajak informatika o'qituvchilarini o'qitish mazmuni va uslublarini takomillashtirish jarayonlari doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati mazmunini tahlil qilish bizga axborot tizimlari va texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan bir qator funksiyalarni aniqlashga imkon beradi:

informatika kursida axborot tizimlarini loyihalash va ulardan foydalanish usullari va vositalarini talabalarga o'rgatish;

axborot tizimlaridan ta'lim, shu jumladan masofaviy ta'lim vositasi sifatida foydalanish;

boshqa o'quv fanlari bo'yicha o'quv jarayonida axborot va telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanishni tashkil etish, maktab faoliyatini tashkil etish va boshqarish.

Shu munosabat bilan, axborot texnologiyalari va tizimlaridan foydalanish bo'yicha o'qituvchi-mutaxassisni tayyorlash muammosi nafaqat bunday mutaxassislarni tayyorlashning pirovard maqsadlarini asoslash, balki ularni o'qitish metodikasini batafsil ishlab chiqishni ham o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, maktab va jamiyatning ta'lim jarayonini axborotlashtirishning zamonaviy sharoitlarida malakali o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan turli kompyuter kurslarini o'qitishning mazmuni va uslublarini tanlash masalalari hali ham yetarlicha ishlab chiqilmagan. Uni boshqarish, maktab o'quvchilarini keyingi ta'lim va kelajakdagi mehnat faoliyatiga yuqori darajada tayyorlashni ta'minlash kabilar ham yetarlicha yoritilmagan. Pedagogika oliy o'quv

yurtidagi shunday kurslardan biri “Axborot tizimlari” fani bo‘lib, uni biz informatika blokidagi asosiy fanlardan biri deb hisoblaymiz

Informatika o‘qituvchilarining umumiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi ijtimoiy o‘zgarishlarning hozirgi bosqichi ehtiyojlari, inson faoliyatini intellektualizatsiya qilish, jamiyat tomonidan hal qilinayotgan iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy muammolarning keskinligi, ayniqsa o‘tib borayotgan jarayonlar bilan bog‘liq. Binobarin, uning kasbiy-pedagogik, o‘quv-texnologik tayyorgarligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta’limning yangi paradigmalarining rivojlanishi va faoliyatining murakkabligi va dinamikligidan kelib chiqib, o‘qituvchi shaxsiga talablar kuchaymoqda.

Ta’limning yangi maqsadli yo‘nalishlari inson shaxsiyatining ustuvorligiga asoslanadi, uning rivojlanishi ta’limning asosiy qadriyati va eng muhim natijasiga aylanishi kerak. Ta’lim tizimining ushbu yangi belgilari uning rivojlanishining turli yo‘nalishlarida namoyon bo‘ladi: muqobil ta’lim shakllarining paydo bo‘lishi, ta’lim mazmunini shakllantirishga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, yangi axborot-ta’lim muhitini yaratish va boshqalar. Bunday sharoitda tayanch maktab o‘qituvchisining metodik tayyorgarligi mazmunini takomillashtirish masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bundan tashqari, AKT shakllarini joriy etish samaradorligini pasaytiradigan hal etilmagan muammolar mavjud.

Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, ta’limda axborot texnologiyalari shakllaridan foydalanish nazariyasi va amaliyoti kompyuter texnikasi va dasturiy ta’minotining rivojlanish sur’atlaridan orqada qolmoqda.

Bu omillar bo‘lajak maktab o‘qituvchilarini xususan, turli yoshdagi o‘quvchilar sinflarini o‘qitish mazmuni va shakllarini takomillashtirish, ularni pedagogika universitetida, pedagogika institutlarida metodik tayyorlashning mavjud texnologiyalarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, zamonaviy yondashuvlar AKTni o‘qitish mazmuni va shakllariga oliy pedagogik ta’limni yangicha tarzda tashkil etish, shaxsning pedagogik faoliyatga tayyorgarligi mezonlari va kasbiy kompetensiyalari masalasini ko‘taradi.

Hozirgi vaqtda jahon va mahalliy adabiyotlarda ko‘plab pedagogik tadqiqotlar mavjud: axborotlashtirish sharoitida o‘qituvchining malakasini oshirish sohasida, bu yerda jamiyatni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish sharoitida faoliyatga mutaxassislarni tayyorlash muammosi ko‘rib chiqilgan, maktabda o‘qituvchilar tomonidan IT texnologiyalaridan foydalanishning ayrim jihatlari yoki tarkibiy qismlari ishlab chiqilmoqda.

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining maqsadli va oqilona kasbiy-pedagogik tayyorgarligi ularni rejalashtirishga ijodiy va amaliy jihatdan qanday tayyorlashimizga bog‘liq.

Kasbiy va pedagogik faoliyatni loyihalash o'quvchilarning barcha harakatlarini oldindan o'ylab, o'qish va o'qitishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga, o'quv materialining optimal mazmunini, o'qitish vositalari va usullarini, mavzularni tanlashga imkon beradi. Bunga o'rganish ritmi, har bir bosqich mashg'ulotlari uchun o'quv vaqtini oqilona taqsimlash va boshqalar kiradi. Kompyuterda o'qitishni tashkil etish shakllarini tashkil etish va amalga oshirish, eng avvalo, o'qitish va o'qitish vositalarini tayyorlashni, o'qituvchi va o'quvchilarning psixologik va pedagogik tayyorgarligini, vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur didaktik sharoitlarni yaratishni talab qiladi.

1. Umuman olganda, kompyuterda o'qitishni tashkil etish shakllarini tahlil qilish o'qitishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarni aniq belgilashga, kelajakda xato va kamchiliklardan qochishga, muvofiqlashtirishga, kompyuterni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlarni mustahkamlashga imkon beradi.

2. Bo'lajak informatika o'qituvchilari kompyuterda o'qitishni tashkil etish shakllarining mohiyati, maqsadi, vazifalari, tuzilishi va mazmunini aniq va aniq tasavvur etishlari, u yoki bu tashkil etish shakllaridan foydalanish jarayonida didaktik tamoyillarni bilishlari va ularga amal qila olishlari kerak. Kompyuterni o'rganish, o'qitish va o'qitishning to'g'ri vositalari va usullarini bilish va tanlash, kompyuterda olingan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash.

3. Bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashning an'anaviy usuli kompyuter ta'limini tashkil etish shakllariga ko'ra mavzuni o'zlashtirish uchun yetarlicha o'quv vaqti va o'quv materialining mazmuni yetarli emas, bu esa pirovardida ularning to'g'ri ilmiy va malakali bo'lishiga yordam bermaydi. Ushbu muammoni hal qilish uchun uslubiy tayyorgarlik kerak, hamda qo'shimcha mashg'ulotlar, shuningdek, to'garak ish shaklining joriy etilishi tufayli biz o'quv vaqtini ko'paytirish, ushbu mavzuning mazmunini sezilarli darajada boyitadi va optimallashtiradi, uning boshqa didaktik mavzular bilan bog'liq bo'lgan asosiy funksiyasini aniqlaydi.

4. Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini o'lchash bo'lajak mutaxassislarning rivojlanish darajasini aniqlashning muhim didaktik chorasidir. Tadqiqotimiz bilan bog'liq holda, gap bo'lajak informatika o'qituvchilari tomonidan shakllantirilgan kompyuter o'qitishni rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish bo'yicha bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni o'lchash, shuningdek, tahlil qilish haqida bormoqda. Shu ma'noda biz nol, qisman va butun kabi darajalarga ega bo'lgan quyidagi o'lchash usulini ishlab chiqdik. Nolinchi daraja boshlang'ich chegara bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalarning yetishmasligini ko'rsatadi; qisman - bilim, ko'nikma va malakalarning ma'lum bir

tizimi elementlarini o'zlashtirish sifatida tavsiflash mumkin bo'lgan ma'lum miqdordagi bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirishni tavsiflaydi; yaxlit - bilim, ko'nikma va malakalar tizimini to'liq o'zlashtirishni tavsiflaydi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodning kompyuter savodxonligi yoshlarni hayot va mehnatga tayyorlashning ajralmas qismidir, chunki zamonaviy jamiyatni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tojikiston umumta'lim maktablarida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshiradi.

Biroq bo'lajak maktab o'qituvchilari kompyuter savodxonligini o'qitishning innovatsion shakllaridan foydalanishga tayyor emaslar. Bu, ayniqsa, boshlang'ich maktab bosqichida yaqqol namoyon bo'ldi. Bizning tadqiqotimiz ta'limning ushbu bosqichidagi o'qituvchilarning innovatsion va kommunikativ texnologiyalarni qo'llash bo'yicha yetarli malakaga ega emasligi haqidagi fikrni tasdiqladi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik moduli" Toshkent. 2016
2. "Bo'lajak informatika o'qituvchisini tayyorlash jarayonida "Axborot tizimlari" kursini o'qitish mazmuni va metodikasini takomillashtirish" Xabarov, Nikolay Nikolayevich. 2016.
3. "Umumiy pedagogika, pedagogika va ta'lim tarixi", Yusupova Firuza Aliyevna 2013.



TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNI GLOBAL FIKRLASHGA O'RGATISH: ERGONOMIK ASPEKT VA MEHNAT MUHITI

S.X.Abdullayev,

Namangan davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrası dotsenti

Maktab texnologiya fani mashg'ulotlarida mehnat muhiti masalalarini ergonomika o'rganadi, ergonomika mutlaqo mustaqil ilmiy fan sifatida insonni (yoki bir guruh odamlarni) ishlash jarayonini ko'rib chiqadi. Ergonomikaning amaliy vazifalaridan biri har bir ishchining jismoniy, fiziologik va psixologik xususiyatlariga mos keladigan mehnat sharoitlarini yaratish va ta'minlashdan iborat bo'lib - ishchining sog'lig'i va mehnat qobiliyatini imkon qadar uzoq vaqt davomida saqlashga hissa qo'shishdir. Ergonomik talablar, birinchi navbatda, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha talablar va qoidalar orqali namoyon bo'ladi.

Ergonomikaning maktabda texnologiya fani mashg'ulotlari jarayonlarida amaliy qo'llanilishi murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi, uning maqsadi o'quvchining ijodiy rivojlanishiga yordam beradigan o'quv muhitini yaratish va

rivojlantirishni ta'minlashdan iborat bo'lib, bu jarayon ayniqsa o'quvchilarni ijtimoiylashuvi uchun muhim hisoblanadi.

Texnologiya fani o'qituvchilari va o'quvchilar birgalikda ishlaydigan o'quv ustaxonasi ish muhiti qanday bo'lishi kerak, ularning yoshi va hayotiy tajribasi hamda ish muhiti uchun talablar bir biridan farq qiladi.

Birinchidan, o'quvchilar va o'qituvchi ish kunining muhim qismini bir xonada (shartli ravishda – sinf yoki o'quv ustaxonasi) birga o'tkazadilar, ularning har biri o'ziga xos, aniq belgilangan vazifalarga ega (shartli: o'qituvchi dars beradi, o'quvchilar o'qiydi).

Ikkinchidan, o'qituvchining ish kuni o'quvchilar bilan bir vaqtda boshlanmaydi va uning oxirgi darsi bilan tugamaydi. Uchinchidan, mehnat qonunchiligiga ko'ra, faqat o'qituvchi xodim sifatida tan olinadi va u mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tegishli qonunga bo'ysunadi, unga ko'ra maktab direktori maktabda mehnatni muhofaza qilish tizimi talabalarni bajarilishiga javobgardir. Maktabda mehnatni muhofaza qilish tizimi o'quvchi uchun amal qilmaydi faqat ichki tartib qoidalar va boshqalar amal qiladi.

Biroq, ergonomik nuqtai nazardan, ham o'qituvchi, ham o'quvchilar ishchilardir, ya'ni ular mehnat qiladilar va ergonomikaning barcha tamoyillari va qonunlari ularga birdek ta'sir qiladi. Shu sababli, maktab texnologiya fani mashg'ulotlarida ish muhitiga zamonaviy yondashuv, menejment fanining nazariy va amaliy jihatlaridan tashqari, nafaqat ergonomik tarkibiy qismni o'z ichiga olishi kerak, balki faqat takomillashtirish maqsadida emas maktabdagi jismoniy muhit, bu klassik ergonomika nuqtayi nazaridan maqbul bo'ladi. Shu bilan birga, asosiy e'tibor ma'lum bir o'quv bilish muhitida, aytaylik, maktab texnologiya fani o'quv ustaxonasida mehnat xavfsizligiga emas, balki kelajakka qaratilgan: maktabni ertangi bitiruvchisi ya'ni bo'lajak xodim(ishchi) sifatida hayotga kirib, nafaqat mehnatni muhofaza qilish tamoyillari va mohiyatini anglaydi, balki uning o'zi ish joyi, ish muhiti uchun mas'uliyatini tushunadi.

Maktab texnologiya fani o'quv ustaxonasida ergonomika - birinchi navbatda o'quv ustaxonasidagi umumiy muhit tushuniladi, garchi bu birinchi navbatda ta'lim mazmuni, tuzilmasi kabi omillarni o'z ichiga olgan o'quv bilish muhiti, makroergonomika sifatida belgilanishi mumkin bo'lgan o'quv jarayonini tashkil etish bo'lsa-da ammo texnologiya fani uchun ergonomikaning eng muhim jihatlaridan biri bu ergonomika masalalarini o'quv dasturlariga, shu jumladan o'qituvchilar malakasini oshirishga kiritish muammosidir.

Muammoni samarali hal etilishini ta'minlash maqsadida pedagogik ergonomikaga murojaat etamiz. Pedagogik ergonomika o'qituvchi va o'quvchining fiziologik va psixologik mehnat imkoniyatlarini o'rganadi. Biologik resurslar, aqliy va asab quvvati, vaqt va moddiy resurslarni minimal sarflagan holda inson

salomatligini asrash, mehnat va o'qishni jadal va ishonchli qilish uchun ularning faoliyati uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish, bu esa ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga kasbiy, ma'naviy sharoitlarni ta'minlaydi. Biroz soddalashtirilgan holda aytishimiz mumkinki, pedagogik ergonomika o'quvchi va o'qituvchining ergonomik talablariga javob beradigan muhitda to'laqonli pedagogik jarayonni ta'minlashga qaratilganligidir.

Pedagogik ergonomika zamonaviy maktablarga xos bo'lgan pedagogik, ergonomik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar yig'indisini har tomonlama ko'rib chiqadi. O'quvchilar va o'qituvchilar faoliyati uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratadi. Pedagogik ergonomikani o'rganish va qo'llashning juda muhim sharti – bu nazariya va amaliyotning birligi, chunki o'quvchilar mehnat muhitini tashkil qilish va uning o'quvchilar sog'ligi hamda o'quv natijalari ta'siriga, o'z mehnatidan qoniqish hosil qilishga yo'naltirilganligidir.

Texnologiya fani mashg'ulotlari jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilarning ish muhitini baholashda statistik jihatdan sezilarli farqlar mavjud bo'lib bu texnologiya ta'limi jarayonidagi o'quvchilar faoliyatini tahlil qilishda hisobga olinishi kerak. Hozirgi vaqtda eng keskin ergonomik muammolar texnologiya fani mashg'ulotlarida ishlatiladigan jihozlar hamda mebellar va o'quvchilar ishlatadigan asbob-uskunalar bilan bog'liq. Bu esa ergonomik talablarni hisobga olgan holda maktab texnologiya fani o'quv jarayonini loyihalashni ifodalaydi; ergonomik mezonlar nuqtayi nazaridan o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini o'rganish va loyihalash; ergonomik talablar va tavsiyalar asosida o'quv muhitini tashkil etish demakdir. O'quvchining ish muhitida ta'lim va dasturlarning mazmuni, ta'lim resurslari (darsliklar, audiovizual vositalar, ommaviy axborot vositalari) kabi turli xil omillarning butun majmuasi ta'sir qiladi. O'quv ustaxonasi va maktab binolarining ergonomikasi, ta'lim tizimining makroergonomikasi, shuningdek, individual (shaxsiy) omillar, oilaviy omillar va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Albatta, bu omillarning barchasi bugungi kunda sof ergonomik omillar sifatida ko'rib chiqilmaydi, lekin bu faqat bir tomondan zamonaviy ergonomikaning xilma-xil va integral tabiatini, ikkinchi tomondan, uning murakkabligini ta'kidlaydi.

Pedagogik ergonomika orqali texnologiya fani mashg'ulotlarida xavfsizlikni tushunish ham kengayib bormoqda, birinchi navbatda ish joyida, balki umumiy inson xavfsizligi uchun ham muhimdir. O'quvchilarni maktabda texnologiya fani mashg'ulotlarida maqbul mehnat muhitini yaratish bilan bir vaqtda, nafaqat o'quvchilar mehnat muhiti haqidagi zamonaviy g'oyalar bilan tanishtiriladi, balki o'quvchilarning o'z mehnat muhiti uchun mas'uliyatga munosabati ham o'zgarib boradi, bu esa alohida o'ringa mas'ullik o'quvchining ijtimoiylashuvi jarayonidir.

Texnologiya fani mashg'ulotlari jarayonlarida o'quvchilar va o'qituvchilarning eng yaxshi mehnat natijasiga erishishlarida ularga moslashtirilgan

mehnat muhiti katta rol o'ynaydi. Bu esa texnologiya fani o'qituvchilarining hamda jamiyatning bo'lajak a'zolari sifatida o'quvchilarning ergonomika va pedagogika talablarini inobatga olgan holda mehnat sharoitini yaxshilashda ishtirok etishlari zarurligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Векслер, В.А. Микроэргономика в компьютеризации образования / В.А. Векслер. — Текст: электронный // НоваИнфо, 2015. — № 34. — УРЛ: <https://novainfo.ru/article/3593> (data obraçeniya: 23.02.2022).

2.Кучинская В, Кучинская Р. Стратегия создания оптимальной среды для карьеры учителя.—Рига: РПИВА, 2002г., 580-586.

3.Плукин э.Г. Возникновение эргономики. 2009г., - <http://plook.ru/index>Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки..



IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI O'QITISH ORQALI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

M.A.Begmatov,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI mustaqil tadqiqotchisi,
“ELTECH MALAKA” o'quv markazi rahbari

O'zbekistonda ta'lim va fan sohalarida xalqaro aloqalarni kengaytirish tez sur'atlarda yuksalib bormoqda. Bunda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini xalqaro aloqa tillaridan biri sifatida o'rganish zarurligini taqozo etmoqda. Xorijiy tilni o'rganish deganda, unda erkin muloqot qilish eng asosiy mazmun mohiyati tushuniladi. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim sohasida xorijiy tilda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish, takomillashtirish tobora dolzarb bo'lib bormoqda, bu shu jumladan, umumta'lim maktablari miqyosida ham bo'layotganligini ta'kidlash joizdir. Shu munosabat bilan O'zbekiston umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari pedagog-o'qituvchilarga maktab o'quvchilar orasida, shu jumladan ixtisoslashtirilgan maktablarida ham xorijiy tildagi kompetensiyani shakllantirish vazifasini qo'yadi[1, 5-ilova, 2-bob, 5-band].

Xorijiy adabiyotlar tahlil qilinganda, kommunikativ kompetensiyani turli nuqtai nazardan ko'rib chiqildi va “kommunikativ kompetensiya” tushunchasini shakllantirish quyidagi yondashuvlarni aniqlashga imkon berdi. Ushbu tushuncha ikki so'zdan iborat: “aloqa” va “vakolat” bu o'rinda. “Aloqa” so'zi lotincha

“communicatio” dan kelib chiqqan bo‘lib, - “aloqa, axborot uzatish” degan ma’noni anglatadi. Kompetentlik so‘zi-lotinch “competentia” – “competo” ravishdosh fe‘lidan kelib chiqqan bo‘lib, aynan “uyg‘unlik, mos kelish, talabga javob beradigan, vakolatli” degan ma’nolarni anglatadi. Tilshunos A.R.Arutyunovning fikriga ko‘ra, bu – faoliyatning o‘ziga xos turi bo‘lib, uning mazmuni bir til hamjamiyat a‘zolari o‘rtasida o‘zaro tushunish va o‘zaro ta’sirga erishish uchun ma’lumot almashishdir. Bugungi kunda bu atama nimani anglatadi? Lug‘atdagi “kommunikasiya” so‘zining ma’nosini ko‘rib chiqildi. S.I.Ojegovning rus tili lug‘atida bu so‘z bir necha ma’noga ega: 1. Xabar yo‘li, aloqa liniyasi. 2. Xabar, aloqa (kitobiy). “Chet el so‘zlari” lug‘atida bu atama aloqa aktini, o‘zaro tushunishga asoslangan ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘rtasidagi aloqani anglatadi; bir kishi tomonidan boshqasiga yoki bir qator shaxslarga ma’lumot berish. Yuqoridagilarni umumlashtirib, kommunikativ kompetensiya – bu shaxs muloqotining real vaziyatga mos ravishda kommunikativ xulq-atvorni tanlash qobiliyati bo‘lib, u ma’lum bir guruh kishilarning muloqot normalari va an’analari majmuidan iborat [2].

Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarini ingliz tilida o‘qitish filologik yoki boshqa ixtisosdagi oliy ta’lim muassasalarida taxsilni davom ettirishga yoki umumta’limni bitiruvidan so‘ng darhol mehnat faoliyatining turli sohalarida ingliz tilidan foydalanishga imkon beradi. Ta’lim jarayonida kompetensiyaga asoslangan shakl va usullari mutlaqo mavjud emas. Biroq, bugungi kunga kelib, ba’zi ta’lim shakllar asosiy kompetensiyalar rivojlantirishda o‘z-o‘zidan samarasizlikka teng bo‘lmoqda. Bular: o‘qituvchining uzundan uzun monologi, o‘quvchini o‘rnidan turg‘izib mashg‘ulot bo‘yicha so‘roqlashi, xabardor qilish bo‘yicha suhbatlar, darslik ustida mustaqil ishlash, film namoyishi, an’anaviy nazorat ishlari kabilar. Kompetensiyaga asoslangan usullar va shakllar nafaqat oddiy ta’lim berish, balki hayotiy asoslar ham keltirilishini taqozo etadi.

Chet tilidagi asosiy umumta’lim standarti chet tilini o‘rganishda sifat jihatidan yangi maqsadlarga erishish, ta’lim oluvchilarni global fikrlashga o‘rgatish uchun kerakli vazifalarni belgilab beradi. Chet tilining kommunikativ kompetensiyasining o‘zagi hisoblangan tarkibiy qismlari – **nutq, til, nutq kompetensiyasi** - gapirish, tinglash, o‘qish, yozish; **til malakasi** - fonetik, imlo, leksik, grammatik o‘zlashtirish; **ijtimoiy-madaniy kompetensiya** - tajriba, qiziqish, psixologik xususiyatlarga javob beradigan mavzular, sohalar va muloqot vaziyatlari; qabul qilish va uzatishda leksion yetishmasligi sharoitida vaziyatdan chiqish qobiliyatini rivojlantirish; **o‘qib-o‘rganish kompetensiyasi**–umumiy va maxsus o‘quv ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish.

2012- yillardan boshlab rivojlangan xorijiy davlatlar Rossiya va Qozog‘iston mamlakatlarida o‘qitishning kommunikativ usuli kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan. O‘zbekistonda uning rivojlanishida

pedagogika fanlari doktori, professor N.A.Muslimov[3], pedagogika fanlari doktori, professor X.I.Ibraimovlar va boshqa olimlar tomonidan o'qituvchi-pedagoglarning kasbiy kompetensiyalari to'g'risidagi o'quv qo'llanmalarida ilmiy tomondan izlanib, uning shakllanishi va rivojlanishi usullari ko'rib chiqilgan. Kommunikativ usul, Rossiya olimlaridan biri E.I.Passovning fikriga ko'ra, quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi[4]:

1) Ta'lim jarayonining nutqqa yo'nalganligi tamoyili. 2) Ta'limni individuallashtirish tamoyili. O'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish kerakligini aytadi. 3) Funksionallik tamoyili. U aloqa jarayonida ishlatiladigan materiallarning yetarli darajada aniq tanlovini o'z ichiga oladi. 4) Vaziyatlilik tamoyili. Bu real hayotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan aniq aloqa vaziyatlarini yaratishga asoslangan. 5) Yangilik tamoyili. Ushbu prinsipni amalga oshirishning quyidagi variantlari bo'lishi mumkin: vaziyatni o'zgartirish, nutq vazifasini o'zgartirish, suhbatdoshni o'zgartirish, aloqa shaklini o'zgartirish.

Quyidagi o'quv vositalari chet tilining kommunikativ kompetensiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirishni tashkil etishning muhim shartlari hisoblanadi:

1) Darslik – o'qitishning asosiy vositasidir; 2) o'quvchining ishchi daftari mustaqil ishlash uchun muhim, u leksik va grammatik materiallarni o'zlashtirishga imkon beradi; 3) Diagrammalar, jadvallar, rasmlar, tarqatma materiallar; 4) o'qib o'rganish uchun kitob; 5) Mustaqil ish, tadqiqot ishlari va amaliy mashg'ulotlar; 6) Audio va video materiallar; 7) Kompyuter dasturlari va Internet tarmog'i; 8) Lug'atlar (ingliz-o'zbek, o'zbek-ingliz, ingliz-ingliz). Bu mashqlarni bajarishni osonlashtiradi va ingliz tiliga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish uchun qo'shimcha ma'lumot beradi.

Shu o'rinda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnikasi va usullariga murojaat qilindi. Quyidagi usullar amaliyotda kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanishga yordam beradi: *Suhbatdoshlar bilan muloqot jarayonida ma'lumotlarda ataylab farqlarni yaratish texnikasi*: axborot suhbatdoshlar o'rtasida notekis taqsimlanadi. *Farqli fikrlardan foydalanish texnikasi*: qo'yilgan muammolar va o'quvchilarning hayotiy tajribasi haqidagi qarashlardagi farqlar ingliz tilida muloqot tarzida olib boriladi. *Axborotni kodlash texnikasi*: ma'lumotlarning biri ikkinchisidan farqlanishi. *Tartiblash texnikasi*: o'quvchilarga mashg'ulot uchun berilgan ma'lumotlarni tarqatishda nuqtayi nazarlarning farqlanishiga asoslanadi. *Hamkorlarga taklif qilingan vazifalarni birgalikda hal qilishni texnikasi*. *Rol bajarish o'yini texnikasi*: o'quvchilarni nutqda muayyan til materialidan foydalanishga undaydi. *Anketalardan foydalanish texnikasi*: mashg'ulotning barcha bosqichlari uchun juda mos keladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasidan tashqari, ushbu uslub kommunikativ ta'lim tamoyillariga mos keladi: vaziyatlilik, funksionallik, individualizatsiya,

yangilik, nutq yoʻnalishi. *Til oʻyinlaridan foydalanish texnikasi*: oʻyinlar ingliz tilini oʻrgatishda muhim vazifani bajaradi.

Bunda *interfaol usullarni* qoʻllash qoʻl keladi, yaʼni, bu oʻquvchilarning bir-biri bilan oʻzaro aloqada boʻlishiga, hamkorlik muhitini yaratishga imkon beradi. oʻqitish usuli darsning eng muhim tarkibiy qismidir. Oʻqitish usullari-oʻqituvchi va oʻquvchining aniq oʻquv maqsadlariga erishish uchun oʻzaro bogʻliq faoliyat yoʻllari. Taʼlimning interfaol shakllari – taʼlim oluvchi faoliyatini intensivlashtirishni faollashtirish asosida, taʼlimni modernizasiya qilish texnologiyalari sifatida belgilangan taʼlim texnologiyalari deb tasniflash mumkin.

Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda faoliyatning 3 ta darajasi mavjud boʻlib, 1-Takrorlash faoliyati - oʻquvchining bilimlarni tushunish, eslab qolish, koʻpaytirish, modelga muvofiq qoʻllash yoʻllarini egallash istagi bilan tavsiflanadi; 2-Izohlash faoliyati-oʻquvchining maʼnosini anglashga intilish bilan bogʻliq oʻrganilgan, aloqalarni oʻrnatish, oʻzgargan sharoitda bilimlarni qoʻllash usullarini oʻzlashtirish;

3-Ijodiy faoliyat – oʻquvchining bilimlarni nazariy tushunishga intilishini, muammolarga mustaqil yechim izlashni, oʻqib-oʻrganish qiziqishlarning intensiv namoyon boʻlishini anglatadi.

Hamkorlikda (kollaborativ) oʻqitish - oʻzaro hamkorlikda oʻqitishning taʼsir falsafasi, hamkorlikda ishlash esa yakuniy natija yoki maqsadga erishishga hissa qoʻshishga qaratilgan oʻzaro taʼsir tuzilmasidir. Hamkorlikda oʻrganish – bu nafaqat sinfda ishlatiladigan usul, balki shaxsiy falsafa hamdir. Odamlar guruhlarda birlashadigan barcha holatlarda, hamkorlik alohida guruh aʼzolarining qobiliyatlari va hissalarini hurmat qiladigan va taʼkidlaydigan odamlar bilan ishlash usulini taklif etadi.

Guruhlarni tashkil qilish va ishlash qoidalari: Guruhlar turli yoʻllar bilan yaratilishi mumkin. Baʼzan oʻqituvchilardan (va oʻquvchilardan) oddiygina hamkasblar (doʻstlar) bilan ishlash talab qilinadi, boshqa hollarda tasodifiy tanlangan guruhlar tuziladi. Baʼzan guruhlar shaxslarning oʻziga xos kuchli tomonlariga qarab yaratiladi. Guruh ishi oʻqituvchilar tomonidan tashkil etilishi va qoʻllab-quvvatlanishi, shuningdek vazifani bajargandan soʻng muhokama uchun vaqt ajratilishi kerak.

Shunday qilib, kompetensiya – bu taʼlim orqali olingan bilim, tajriba, moyilliklarga asoslangan umumiy qobiliyatdir. Kompetensiyalarning maqsadi bolaga ijtimoiy dunyoga moslashishga yordam berishdir. Agar bir qator talablar bajarilsa, maktab oʻquvchilari tomonidan asosiy kompetensiyalarga erishiladi:

1. *Didaktik talablar*: oʻquv vazifalarini aniq shakllantirish; Darsning optimal mazmunini aniqlash, talabalar tomonidan ilmiy bilimlarni oʻzlashtirish darajasini bashorat qilish, oʻqitishning eng oqilona usullari, metodlari, vositalarini tanlash,

rag'batlantirish va nazorat qilish; darsda barcha didaktik tamoyillarni amalga oshirish.

2. Psixologik talablar: Rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga muvofiq darsning mazmuni va tuzilishini aniqlash; o'qituvchining o'z-o'zini tashkil etish xususiyatlari; o'qib-o'rganish faoliyatni tashkil etish; Yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida o'quvchilarning fikrlash va tasavvur qilish faoliyatini tashkil etish; o'quvchilarning tashkilotchiligi; Yoshga bog'liq xususiyatlarni ko'rib chiqish.

3. Dars texnikasiga qo'yiladigan talablar: Dars hissiy bo'lishi kerak; darsning mavzulari va ritmi maqbul bo'lishi kerak; o'qituvchi va talabalarning to'liq aloqasi; mehrlilik atmosferasi va faol ijodiy ish muhiti; faoliyatni o'zgartirish; har bir o'quvchining faol o'qitilishini ta'minlash.

4. Darsning gigiyena talablari: sinfdagi harorat rejimi; efir; yorug'lik; darsdagi charchoqni oldini olish; faoliyat almashinuvi; jismoniy tarbiya daqiqasi; o'quvchilarning to'g'ri ish tutishi; Maktab o'quv jihozlari qulayligi kabilar.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish—bu murakkab, ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning har bir tarkibiy qismini shakllantirishni, butun ko'nikmalar to'plamini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ingliz tili darslarida o'quvchilar orasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish qulay asos hisoblanadi. Chunki tilni vosita sifatida ishlatib, o'quvchiga dunyoni barcha ko'rinishlarida o'qitiladi. O'quvchilar axloqiy suhbatlarda, harakatlarni axloqiy tanlash holatlarida, o'qish va tinglash uchun matnlarni tahlil qilish orqali uni o'zlashtiradilar.

Shunday qilib, xulosa o'rnida biz texnologiyadan kompleks foydalanish natijasida o'quv jarayonini yaxlit, qiziqarli va samarali bo'lishiga erishamiz. O'zbekiston umumta'lim maktablari tizimida ingliz tili fanini kommunikativ kompetensiyalar asosida o'qitish pedagogika fani taraqqiyotida ta'lim oluvchilarni global fikrlashga o'rgatishga sharoit va imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.04.2017 yildagi 187-son qarori.

2. Chemozipunnikova D.A., Kretova L.N. Journal "Humanitarian studies. Pedagogy and psychology", 2021, No 5, p.38-45;

3. N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayev. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv qo'llanma,— Toshkent, 2015.s.7;

4. Пассов Э.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. М.: Просвещение, 1991. — С.223.



TA'LIM TIZIMIDA BAHOLASH TIZIMINING TUZILISHI

A.K.Bazarbayeva,

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti stajor tadqiqotchisi

Jahonda oliy ta'lim jarayonlarini yanada rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish, munosib mutaxassislar tayorlash va ta'lim jarayonini tizimli boshqarish masalalarini yechishda baholash tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

Tizim, ta'lim muassasasi doirasida faoliyat ko'rsatishi kerakligi sababli, u o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanadi. Ta'lim tizimida klassik o'quv jarayonini tasvirlab va tizimimizni uning fonida samarali amalga oshirish uchun kirish nuqtalarini topishga harakat qilaylik.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi – bu yagona mutaxassis sifatida ishlaydigan o'qituvchining o'zi tomonidan talabalar faoliyati natijalarini baholash tizimi ekanligi hammamizga ma'lum. Ta'lim tizimining eng yaxshi holatini aniqlashda, jiddiy ishlarni baholash uchun kichik ekspertlar kengashi yig'iladi. Ya'ni, qoida tariqasida o'quv jarayonining oxirida jiddiy o'zaro baholash juda kam uchraydi. Natijada, mashg'ulotlarga kerakli tuzatish kiritish juda qiyin bo'ladi. Baholash tizimi juda subyektiv bo'lib, ko'pincha o'qituvchining yagona mutaxassis sifatidagi shaxsiy idrokiga asoslanadi. Oqibatda bizda yetarlicha malakali mutaxassis yetishmasligi ma'lum. Talabalar ishini ekspert baholash masalasida subyektivlikdan xalos bo'lish uchun, bizningcha, eng ideal echim - talabalarni shaxsiyatsizlashtirish jarayoni, ya'ni ekspertizani o'tkazish jarayonida ekspertning o'zi shaxsan tanish emas.

Mutaxassis bo'lgan mutaxassislar shaxsiyatsiz bo'lishlari ham muhimdir. Bu mutaxassislarga u yoki bu tarzda ta'sir qilish imkoniyatidan qochish uchun kerak.

Ishlab chiqilgan tizimda o'qituvchining o'rni va uning asosiy vazifasi faqat talabalarga testlarni topshirish, amaliy ishlar va nazariy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha materiallarni tushunarli va tushunarli shaklda yetkazishdan iborat bo'ladi. Ya'ni, o'quv jarayonini va u bilan bog'liq barcha hujjatlarni baholash masalasi o'qituvchidan butunlay olib tashlanadi. Bu asosiy ma'lumotni berish va ish materialini tushuntirish uchun ko'proq vaqt beradi. Talabalar tomonidan bajarilgan ishlarning imtihonlari o'quv rejasiga muvofiq, belgilangan vaqt oralig'ida o'tkazilishi kerak.

Imtihon natijalariga ko'ra o'qituvchi ma'lum bir guruh talabalari bilan qaysi mavzuni ishlab chiqish kerakligini, qaysi mavzuni ushbu guruhning ko'pchilik qismi yetarli darajada o'zlashtirganligini aniqlashi mumkin. Shaxssiz imtihon tizimining joriy etilishi bilan talabalarning dunyoqarashini kengaytiradigan fanlararo aloqalarni o'rnatish va ta'limning yangi interaktiv tendensiyalariga muvofiq, ma'lum bir joyga

bog'lanmagan masofaviy ta'limni amalga oshirish juda oson. Bundan kelib chiqib o'quv jarayoni va tajribaning shaxssizligi masalasiga qaror qabul qilish kerak. Kelajakda bu bizga talabalar tomonidan ma'lum bir davr uchun taqdim etilgan ishlarni imtihondan ishonchli o'tkazishga yordam beradi. Ishning algoritmi quyidagicha:

- ta'lim muassasasining ta'lim qismi tomonidan bilimlarni nazorat qilish muddati belgilanadi;
- virtual ekspert bo'limi rahbari o'qituvchilar kontingenti yoki ma'muriy bo'limdan tanlanadi;
- rahbar yoki biz uning rolini “kurator” deb atagan bo'lardik, ma'lum bir davr uchun ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha vakolatiga ko'ra mutaxassislarni tanlaydi;
- virtual ekspert bo'limi tizimiga kirish uchun ekspertlarga hisob ma'lumotlari yuboriladi;
- tizimga kirgan ekspertlar ekspertiza uchun ma'lumotlar to'plamini oladi;
- materialni o'rganib chiqib, mutaxassislar har bir bajarilgan topshiriq uchun tegishli mantiqiy o'zgaruvchini, aks holda “bal”ni qo'yadilar;
- o'tkazilgan ekspertiza ma'lumotlarini olgan tizim loyqa matematika asosida ekspert baholashini shakllantiradi;
- keyinchalik o'tish davri (semestr, o'quv yili va boshqalar) natijalariga ko'ra tizim o'zaro nazorat tahlili algoritmidan foydalangan holda o'quv natijalari bo'yicha xulosa chiqaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, tizimning shaxssizligi ushbu tizimning har bir elementining o'zaro mustaqilligini ta'minlaydi va ta'lim tizimida baholash jarayonlarini yanada yaqshilashga olib keladi. Shu bilan birga, o'qituvchilar talabalarni baholashda subyektivlikdan obyektivlikga o'tish jarayonlarini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Seytnazarov K.K., Kalimbetov K.I. Informatika fanini o'qitishda samarali metodlarni tanlab olish va qarorlar qabul qilish dasturiy ta'minotini qayta ishlab chiqish // FIZIKA, MATEMATIKA va INFORMATIKA ilmiy-uslubiy jurnal Toshkent 2021. 88-98 (13.00.00, №2).

2. Seytnazarov K.K., Kalimbetov K.I. Development of decision-making algorithms based on irreversible mathematical calculations in the assessment of students' knowledge // An Interdisciplinary Journal PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2): 356-360 (13.00.00, №4).

3.Seytnazarov K.K., Kalimbetov K.I. The processes of organizing teaching students' algorithms and models // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021. 549-554.



DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA O‘QUVCHILARNI INNOVATSION MUHANDISLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH

D.Baratov,

“Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti assistenti

Umumta’lim maktablari, professional ta’lim muassasalari va maktabdan tashqari muassasalarda darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorlash o‘zining shakli va mazmuniga ko‘ra xilma-xildir. Shunday bo‘lsa ham keyingi yillarda bu faoliyatning quyidagi asosiy yo‘nalishlari qo‘llanilib kelinmoqda:

1. Mehnatga qiziqish uyg‘otish. Texnik o‘yinlar, modellar va loyihalarni konstruksiyalash bilan bog‘liq faol texnik o‘yinlar, musobaqalar va konkurslarda ishtirokini ta’minlash, tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga va tajriba-sinov ishlarining eng oddiy shakllariga jalb etish, o‘quvchilarning texnika, sanoat va ishlab chiqarish sohalaridagi ijodkorligini rivojlantirish orqali mehnatga qiziqish uyg‘otish mumkin.

Bu yo‘nalishida o‘quvchilar asosan elementar mehnat malakalarini egallab, texnika va ishlab chiqarish bo‘yicha ma’lumotlarni o‘zlashtirgan holda ijtimoiy foydali mehnatda faol qatnashadilar, keyinchalik o‘zlari uchun muayyan mehnat faoliyati sohasini tanlaydilar.

2. O‘quvchilarda tabiatshunoslik, texnika va ishlab chiqarishga chuqur qiziqishni tarkib toptirish va rivojlantirish. Bu ularning bilish faolligini oshiradi hamda yosh fiziklar, ximiklar, matematiklar olimpiadalarida qatnashish oqibatida rag‘batlantiriladi. O‘quvchilarning to‘garaklarga, tajriba-tadqiqot ishlariga hamda asbob-uskunlar, jihozlar, ko‘rgazmali qurollar, ta’limning texnik vositalarini takomillashtirish bilan bog‘liq konstruktorlik faoliyatiga jalb etiladi. Bu yo‘nalish bilimlarni o‘zlashtirish sifatini yaxshilaydi, o‘quvchilarning amaliy faoliyatini kuchaytiradi, texnik qobiliyatni rivojlantiradi.

3. O‘quvchilarni maktablar va maktabdan tashqari muassasalardagi texnik ijodkorlik va tajriba-sinov ishlari, ishchi kasblariga yo‘naltirish. O‘quvchilar mehnat birlashmalari, tayanch korxonalarda kichik mehnat vositalarini yaratishga jalb etiladi, ixtirochilik, ijodkorlik faoliyatida bevosita ishtirok etadilar.

4. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlaridagi ilmiy jamiyatlar negizida ishlash va tajriba-sinov ishlariga jalb etish. Bu ish maktablar va maktabdan tashqari muassasalar yordami bilan tashkil qilinadi. Maktablarda tadqiqotchilik, tajriba-sinov, konstruktorlik ishlarining natijalari bo'yicha o'qishni ilmiy tashkil etish, konferensiyalar o'tkazish va ularda o'quvchilar ma'ruzalari bilan ishtirok etishlarini ta'minlash, referatlarni muhokama qilish, o'zlari yasagan texnik qurilmalarni namoyish etish orqali bu faoliyat amalga oshiriladi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorlash ishlarining tashkiliy shakllari ham turlicha: individual, guruhli (to'garaklar, jamiyatlar, seksiyalar va hokazolar), ommaviy (musobaqalar, tanlovlar, ilmiy-amaliy anjumanlar va boshqa) ishlardan iboratdir.

O'quvchilarning u yoki bu turdagi amaliy faoliyatga qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishning dastlabki pog'onasida o'qituvchi individual ish olib boradi, suhbatlashadi, adabiyotlarni tavsiya etadi, o'quvchini qiziqtirgan savollarga javob beradi, qiziqarli fan va texnika kechalarini, fan va texnika tarixidagi atoqli kunlarga bag'ishlangan kechalarni tayyorlash va hokazolar bo'yicha individual topshiriqlar beradi. Shu asosda o'quvchilarni to'garakka birlashtiradi. Bunda o'quvchilar jamoaviy holda berilgan topshiriqlarni ham bajara oladilar.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorlashda yangi texnik yechimlarni izlash metodlarini qo'llash ham mumkin. Bunda o'quvchilar ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyati, konstruktorlik byurolari kabi uyushmalarga a'zo bo'ladilar. Bu birlashmalar pedagoglar va muhandis-texniklar jamoatchiligining amaliy yordami bilan o'quvchilarning ijodiy faolligi, tashabbuskorligi va havaskorligini rivojlantirish uchun yaxshi hamda yuksak kasbiy saviyadagi sharoitni yarata oladi, ularning ishlab chiqarish, ilmiy muassasalar va tashkilotlar, ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyatining maktab bilan mustahkam aloqasini ta'minlay oladi. Uyushma a'zolari sifatida o'quvchilar tajriba, tadqiqotchilik va konstruktorlik (turli texnik obyektlarni loyihalash va tayyorlash) ishlarini bajaradilar, axborot-bibliografiya xizmatini (tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzish, lug'atlar kartotekasini yuritish va hokazolarni) tashkil qiladilar, texnika bo'yicha ommaviy tadbirlarni tayyorlaydilar va o'tkazadilar, atoqli va xotira sanalarga bag'ishlangan mavzuli ko'rgazmalarni tayyorlaydilar.

O'quvchilarda ijodiy faollikni, qiziquvchanlikni, tashabbuskorlikni hamda o'z qiziqishlariga muvofiq ishlab chiqarish sohasida ilmiy izlanishiga va ratsionalizatorlikka intilishni tarbiyalash uchun texnika va texnik targ'ibot bo'yicha ommaviy ishlarning turli shakllaridan foydalanish kerak.

Hozirgi vaqtda axborot va kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, mamlakatda

axborotlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni innovation muhandislik faoliyatiga tayyorlashda zamonaviy texnologiyalarni, o'qitishning yangi metodlari, shakllari va vositalarini joriy etish, olimlar va ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar, o'quvchilarning ilmiy-texnik anjumanlari, texnik ijodkorlik ko'rgazmalari, olimpiada va konkurslar, ekskursiyalar, ilmiy-ommabop ma'ruzalar, yosh ratsionalizatorlarning anjumanlari, har yilgi fan, texnika va ishlab chiqarish haftaliklarini o'tkazish bu masalalarni takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipov Sh.S. va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo'llanma). – T.: TDPU, 2006.
2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. Институт проф.обр.Министерства Образования России.– М.,1995.– С.336.
3. Zoyirov K.A., Alibekov S.A. Talabalarning umummehnat tayyorgarligida kompyuterlardan foydalanish. // JDPI Industrial-pedagogika kulliyoti prof.-o'quvchilar ilmiy ishlar to'plami. Jizzax, 1994. 72-75 b.



ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ УЧИТЕЛЯ ИНФОРМАТИКИ

Ф.Р.Бакиева,
докторант УзПФИТИ

Современный этап развития образования характеризуется постоянным увеличением требований к его качеству, к соответствию образовательных результатов запросам современного общества. Проблема перехода к новым образовательным результатам является глобальной и общей для многих стран.

Для Узбекистана такой переход осложнен еще и тем, что модернизация образования и ориентация на новые образовательные стандарты осуществляются параллельно с изменениями, происходящими в социально-экономической сфере жизни общества. Проведение исследования и опыт практической работы в педагогическом вузе позволяют сделать вывод о том, что в условиях высокой динамичности национальной системы образования, ее включения в мировое образовательное пространство качество профессиональной деятельности учителя зависит от уровня сформированности его профессиональной компетентности, обеспечивающей достижение стратегических задач в профессиональной деятельности.

Сегодня наиболее актуальной будет интеграция фундаментальных профессиональных базовых знаний с инновационностью мышления и практическим исследовательским подходом к решению многих образовательных задач. То есть в рамках профессиональной подготовки педагогов важно воспитывать в обучающихся стремление профессионально расти и искать инновационные, нестандартные пути решения профессиональных вопросов, в том числе и с использованием информационных технологий.

Изучение структуры и содержания профессиональной деятельности педагога с целью определения необходимого уровня этой профессиональной компетентности как основы эффективной работы в современных условиях является достаточно актуальной задачей, вызывающей интерес многих ученых и исследователей. В психолого-педагогической литературе массовое использование термина «компетентность», заменившего понятия «квалификация» и «профессионализм», началось сравнительно недавно. Так в конце 1960 – начале 1970-х гг. в западной, а в конце 1980-х гг. и в отечественной литературе зародилось специальное направление – компетентностный подход в образовании. К профессиональной компетентности специалиста как педагогической проблеме исследователи в основном стали обращаться в 80-90-х годах XX столетия.

Так, например, А.К.Маркова подразумевает под компетентностью определенное психическое состояние, позволяющее действовать самостоятельно и ответственно, как обладание человеком способностью и умением выполнять определенные трудовые функции. [1] Трактовка понятия «профессиональная компетентность учителя» стала объектом спора и разногласий между психологами, педагогами, физиологами, специалистами-практиками и т.д., и до сих пор нет однозначного ее определения. При этом словосочетания «профессионально-педагогическая компетентность», «профессиональная компетентность учителя», «профессиональная компетентность педагога», «педагогическая компетентность» относят к одному синонимическому ряду. Так, по мнению В.А.Адольфа, «профессиональная компетентность – сложное образование, включающее комплекс знаний, умений, свойств и качеств личности, которые обеспечивают вариативность, оптимальность и эффективность построения учебно-воспитательного процесса». [4]

Профессиональная компетентность рассматривается нами как приобретенное системообразующее интегральное качество личности, основу которого составляют научные знания об объектах, субъектах, динамике и содержании профессиональной деятельности, общепредметные и специальные

умения и навыки, опыт, деловые и личностные качества индивида. То есть это одновременно и специфическое состояние личности, готовой реализовать полученные знания в конкретно заданных условиях практической деятельности, и элемент профессиональной культуры, и основная составляющая профессионализма. При этом деятельность специалиста при решении профессиональных задач должна быть организованной и самостоятельной.

Также необходимо помнить, что система подготовки будущего учителя информатики в современных условиях должна быть ориентирована на выполнение определенного набора требований к выпускнику педагогического вуза, которые должны найти соответствующее отражение в учебном процессе. Для полнотенной подготовки учителя информатики к работе в современном информационно-технологическом обществе, необходимо, чтобы процесс обучения в вузе также проходил в новой информационно-коммуникационной образовательной среде с использованием средств ИКТ, способствующей активации познавательной деятельности и развитию творческих способностей студентов, готовности и стремлению к саморазвитию.

Подготовка учителя информатики к работе в современных условиях информационной среды должна быть ориентирована не только на решение тех задач, которые сегодня возникают перед педагогом, но и на готовность решать задачи, которые пока ему не знакомы, но могут появиться в будущем. Поэтому цели, задачи, средства, формы, механизмы и способы взаимодействия педагога вуза со студентами надо определять таким образом, чтобы рассмотренное понятие профессиональной компетентности стало важным и ценным, если не для всех, то хотя бы для большинства будущих специалистов.

Список литературы:

1. Маркова А. К. Психологический анализ профессиональной компетентности учителя // Советская педагогика. 1990. Но 8.
2. Лотова И. П. Психологические условия эффективности профессиональной деятельности работника социальных служб. – М.: Издательство МГСУ «Союз», 1999.
3. Педагогика: учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений / под ред. В. А. Сластенина. –М.: Школа-Пресс, 1998.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING XULQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Sh.F.Daminova,

Jizzax viloyati XTXQTMAHM o'qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi

Madaniyat va ma'naviyat tushunchalari zohiriylik bilan botiniylikning real ko'rinishidir. Madaniyat biz fikr yuritmoqchi bo'lgan muammoning tashqi tomoni bo'lsa, ma'naviyat esa ichki tomonidir. Madaniyat inson ichki dunyosining, xususan, yetuk tafakkur taraqqiyotining mahsulidir. Ma'naviyat madaniyatning ta'siri ostida shakllanib boradigan, insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining me'zonidir. Xullas, o'zida chuqur, keng qamrovli ma'no-mazmunni mujassam etgan bu tushunchalar o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud. Inson ma'naviy dunyosining boyib borishida insoniyat tafakkurining mevasi bo'lmish madaniy meros va ma'naviy yutuqlar muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun insonning ma'naviy tarbiyasini uning madaniyatidan ajratib bo'lmaydi [1].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda xulq madaniyatining shakllanishi bosqichma - bosqich amalga oshadi. Bu bosqichlarning har birida bolalar yoshiga xos psixologik xususiyatlarga ko'ra faoliyat madaniyati, muloqot madaniyati, madaniy-gigiyenik ko'nikma va odatlarga ega bo'ladi. T.A.Kulikova o'zini tutish va munosabatlar madaniyatini rivojlantirishning quyidagi bosqichlarini aniqlaydi [2] Xulq madaniyatini tarbiyalashning birinchi bosqichi erta yoshdan boshlanadi va ko'p sonli izolyatsiya qilingan faktlarni to'plashga qaratilgan - jamiyat (va ota - onalar) tomonidan rag'batlantiriladigan xulq mashqlari. Keyingi bosqichda, birinchisidan ajratish qiyin bo'lsa-da, bolalar boshqalarning maqtoviga sazovor bo'lish uchun qachon va qanday yo'l tutish kerakligini tushuntira boshlaydilar. Bu yerda "kutish texnikasi" muhim ahamiyatga ega. Uning mohiyati shundaki, kattalar o'z so'zlari bilan bolaning istalmagan xatti - harakatlarini oldindan sezadi va uning oldini olishga yordam beradi. Masalan: "Endi siz va men shifokorga boramiz, unga qanday salom aytasiz, nima deysiz? Va u sizga albatta tabassum qiladi, u tarbiyali bolalarni yaxshi ko'radi", "Kutish texnikasi munosib xulqni rag'batlantiradi". Ikkinchi bosqichda bolaning yaxshi xulqdan qoniqish olishi uchun sharoit yaratiladi. Va u hali ham maqtov uchun ko'p ish qilsa-da, bu bosqichda bundan qo'rqqanlik kerak. Maqtov har bir inson uchun muhim, bu uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Bu, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bola uchun juda muhimdir. Uchinchi bosqichda, madaniy xulq amaliyoti uchun sharoit yaratishda davom etar ekan, tarbiyachi

bolalarning odob-axloq qoidalarining ahamiyatini anglashiga ko'proq e'tibor beradi. Siz maktabgacha yoshdagi bolalarga odob-axloq qoidalarining paydo bo'lishi tarixi, turli vaqtlarda va odamlar o'rtasidagi xulq madaniyati an'analari haqida ozgina gapirib berishingiz mumkin. Turli mamlakatlar va, albatta, bolalar guruhidagi odob-axloq mazmuni haqida. Bolalarga o'zini tutish va munosabat va his- tuyg'ularni ifoda etishning o'ziga xos usullarini o'rgatish kerak, agar ular boshqalarga tajovuzkor yoki yoqimsiz bo'lsa, o'z his-tuyg'ularini jilovlashga o'rgatish kerak. Xulq va munosabatlar madaniyatini tarbiyalashning vazifalaridan biri katta yoshdagi bolalarning xatti-harakatlarida o'zini tuta bilish qobiliyatini shakllantirishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bir qator tadqiqotchilar o'z-o'zini nazorat qilishni o'z-o'zini tartibga solishning muhim jihati sifatida, faoliyat va xulqda mumkin bo'lgan xatolarning oldini olish va ularni tuzatish qobiliyati sifatida ko'rsatadilar; o'z-o'zini nazorat qilish xatti-harakatlarning o'zboshimchaliklariga asoslanadi va tayanch nuqtasi-jamiyatning axloqiy me'yorlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan "o'zini tutishda o'zini tutish" tushunchasining mazmuni quyidagicha aniqlanishi mumkin: bolaning o'zi, tengdoshi, kattalar uchun sodir bo'layotgan harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati. Tegishli hissiy tajribalar (qoniqish yoki sharmandalik hissi, minnatdorchilik yoki xafagarchilik va boshqalar), bu sizga o'z qonuniyligini tasdiqlashga yoki o'z qaroringizni boshqalarning umidlariga mos bo'lmagan tarzda o'zgartirishga imkon beradi. [3]

Binobarin, muayyan vaziyatda o'z harakatlarini nazorat qilishni amalga oshirish uchun bolaga: vaziyatning ma'nosini anglab yetish va undagi harakatini aniqlash; bu vaziyatda harakatlarni boshqaradigan axloqiy qoidalarni tanlang; ushbu qoidaning zarurligini, uning axloqiy ma'nosiga, shaxsiy ahamiyatiga mos kelishini tushunish; rejalashtirilgan harakatning oqibatlarini oldindan bilish; ixtiyoriy harakat ko'rsatish, biror harakat qilish. Bolalarda xulq qoidalarining axloqiy qiymati va ulardan o'z faoliyatida foydalanish to'g'risida xabardorlikni rivojlantirish; Bolalarda rejalashtirilgan harakatning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyatini, buning uchun hissiy tajribalarni shakllantirish; Bolalarda axloqiy ma'noga ega bo'lgan harakatlarning shaxsiy ahamiyati to'g'risida tushuncha hosil qilish. o'z-o'zini nazorat qilishni shakllantirishda axloqiy qoidalarga tayanib, ulardan chiqish yo'lini topishni talab qiladigan muayyan vaziyatlarni bolalar bilan muhokama qilish katta ahamiyatga ega.

Bolalar bilan muloqotda faol usullardan biri sifatida siz modellashtirishdan, ya'ni axloqiy ma'noga ega bo'lgan vaziyatlarda aktyorning barcha aqliy harakatlarining grafik tasviridan foydalanishingiz mumkin. Muayyan harakat haqida hikoya sujeti adabiy qahramon ketma-ket ramkalar ko'rinishida taqdim etilgan bo'lib, ularning har biri shartli belgi o'rnini bosuvchi tomonidan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tuyg'ularni tarbiyalashdan iborat. [4]

Xulq madaniyati faqat odob-axloq qoidalariga amal qilish bilan chegaralanmaydi. Bu axloqiy tuyg'ular va e'tiqodlar bilan chambarchas bog'liq va o'z navbatida ularni mustahkamlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy ko'nikma va odatlarni tarbiyalashda quyidagi birlik va yaxlitlik tamoyillariga amal qilish zarur ta'lim jarayoni, ya'ni ta'lim vazifalari, usullari va vositalarining o'zaro aloqasi: ta'limdagi izchillik, tizimlilik; bu mashqlarni o'z vaqtida oqilona taqsimlash bilan ko'nikma va odatlarni shakllantirishda mashqlarni takrorlash.

Xulq madaniyatining shakllanishida ijobiy natijalarga talabchanlik bilan birga, tarbiyachilar ham, ota-onalar ham bolalarga bo'lgan hurmat va ishonch bilan erishish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xulq madaniyatini shakllantirishning bir necha bosqichlari mavjud. Xulq madaniyatini tarbiyalashning birinchi bosqichi erta yoshdan boshlanadi, muloqot madaniyatining asoslari, faoliyat madaniyati qo'yiladi, madaniy-gigienik ko'nikmalar shakllanadi. Ikkinchi bosqichda bolaning yaxshi xulqlaridan qoniqish olishi uchun sharoit yaratiladi. Va uchinchi bosqichda, madaniy xulq amaliyoti uchun shart - sharoit yaratishda davom etar ekan, tarbiyachi bolalarning odob qoidalarining ahamiyatini tushunishiga ko'proq e'tibor beradi.

Bizning zamonda, jamoat ongida yigirma birinchi asr talablariga javob beradigan shaxsning umumlashtirilgan tasviri allaqachon paydo bo'lgan. U jismonan sog'lom, bilimli, ijodkor, maqsadli ijtimoiy ishlarga qodir, o'z hayotini quradi, hayot va muloqot sohasini, asosiy axloqiy tamoyillarga muvofiq. Shu sababli, jamiyat hayotining hozirgi bosqichida bolalar bog'chasida o'zini tutish madaniyatini tarbiyalash muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Xulq madaniyati umuminsoniy madaniyat, axloq, axloqning muhim qismidir. Shu sababli, bolani hamma joyda va hamma narsada jamiyatni va uning har bir a'zosini alohida hurmat qilishga o'rgatish, ularga qanday munosabatda bo'lsa, boshqalarga ham shunday munosabatda bo'lishni o'rgatish juda muhimdir.

Madaniyatli bo'lish uchun ma'lumotli odamlar tanlangan doirasiga tegishli emas. Barkamol inson bo'lish, har qanday muhitda o'zini munosib tuta bilish har bir insonning huquqi va burchidir. Bolalarni bolalikdan yaxshi xulq qoidalar bilan tanishtirish va bolalik davrida davom etish kerak. Ilgari bolalar o'zlashtirgan madaniy xulq ko'nikmalariga tayanib (xushmuomalalik, tengdoshlar va kattalarga xushmuomalalik, ularga yordam berishning boshlang'ich ko'nikmalari, do'stona muloqot shakllari va boshqalar) tushunishni o'rgatish kerak. Axloqiy xulqning muayyan qoidalarining ma'nosi va ahamiyati va ularni oshkor qilish mumkin bo'lgan shaklda.

Kundalik hayotda, o'yinda va boshqa mashg'ulotlarda xatti-harakatlar qoidalarini faol qo'llay boshlagan holda, bolalar ularni o'rganadilar va ma'nosini tushunish bolaga o'z xatti-harakatlarini, his-tuyg'ularini ongli ravishda

boshqarishga, ularni turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil ravishda boshqarishga yordam beradi.

Shunday qilib, xulq madaniyati taraqqiyot darajasi jamiyatning intellektual va axloqiy boyliklarini o'zlashtirishni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni, shaxsiy qobiliyat va iste'dodni rivojlantirishni, mehnat ko'nikmalarini, axloqiy tuyg'ularini va estetik ideallarni tarkib toptirishni, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini yetarlicha bilishni va ularga amal qilishni nazarda tutadi. Zero, sanab o'tilgan talablar inson ma'naviy olamini boyituvchi omillar hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.56 b.

2. Kozlova S.A., Kulikova T.A. Maktabgacha pedagogika. M.: Akademiya, 1998 –S. 112 - 117.:

3. Kozlova S.A. Zamonaviy dunyoda bolalarning axloqiy tarbiyasi. // Maktabgacha ta'lim 2001. No 9. – S. 18 - 27 ..

4. Bure RS, Godina GN, Shatova AD va boshqalar; Ed. Vinogradova A.M. M.: Ta'lim, 1999.– S. 37-40.



AKADEMIK T.N.QORI NIYOZIY MAKTAB-MAORIF SOHASIDAGI ISLOXOTLARNING ASOSCHISI

B.A.Djurayeva,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch doktoranti

Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziyning O'zbekistonda ilm-fan, madaniyat, ta'lim-tarbiya taraqqiyotiga qo'shgan hissi va tarixiy ahamiyati haqida ko'p gapirilgan va yozilgan. Lekin ustoz tavalludining 125 yilligi nishonlanayotgan ushbu kunlarda uning respublikamizda o'rta va oliy matematika ta'limini tashkil etish va rivojlantirish borasidagi ko'p qirrali faoliyati, o'z davri uchun va bugungi kundagi ahamiyati, qariyb yarim asr mobaynidagi tajribasi asosida shakllangan pedagogik qarashlari haqida gapirishimiz ta'lim-tarbiya tizimiga kirib kelayotgan bugungi yoshlar uchun ibrat maktabi sifatida foydadan holi bo'lmaydi.

Qori Niyoziy tahsil olgan rus-tuzem maktablari. Qori Niyoziy 1911– 1915-yillarda Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahridagi rus-tuzem maktabida o'qidi. Bunday maktablar Turkistonda XIX asrning 80-yillarida ochilgan. Bu maktablarning asosiy vazifasi mahalliy millat vakillaridan tarjimon tayyorlash bo'lgan. Haqiqatda ham mahalliy aholining rus tilini bilmasligi turli hukumat idoralarida (masalan, sudlarda, uyezd boshqarmalarida, notarial kontoralarda, shahar va viloyatlardagi har xil tashkilotlarda) katta qiyinchiliklar tug'dirgan, chunki ularda barcha ishlar faqat rus

tilida yuritilar edi. Tabiiyki, rus-tuzem maktablarida o'qitish ishlari turli yillarda va turli joylarda farqlanib, uning sifati asosan o'qituvchilarning saviya va malakasiga, o'zbek tilini qay darajada bilishiga bog'liq bo'lgan. Shu bilan birga "mahalliy savod" va islom dinining asoslari ham o'qitilgan, bundan asosiy maqsad arab alifbosi asosida yozilgan matnni o'qishga o'rgatish edi. Rus-tuzem maktabi boshlang'ich maktab bo'lib, uni bitirgandan keyin o'qishni davom ettirish uchun bu maktabning navbatdagi bosqichi yo'q edi. Shuningdek, Turkistonda mavjud bo'lgan boshqa maktablar bilan rus-tuzem maktablari orasida (dastur va ixtisos jihatdan) jiddiy uzilish bor edi. Bu esa o'sha vaqtdagi Turkiston maorif tizimidagi nuqsonlardan biri edi.

Qori Niyoziyning pedagogik faoliyati. Sobiq sho'rolar hokimiyati barpo etilgan birinchi kunlardan, 1917-yil 9-noyabrda "Davlat maorif komissiyasini ta'sis qilish to'g'risida"gi dekret e'lon qilindi. Jamiyatni o'z g'oyalari ruhida tarbiyalashni rejalashtirgan sho'rolar hokimiyati vayron bo'lgan xo'jalik sharoitida, qahatchilik va ocharchilik hukmron bo'lgan g'oyat darajada murakkab sharoitda xalq maorifini tashkil qilishga jiddiy e'tibor qaratdi. Bunda Qori Niyoziyga o'xshagan millatining, xalqining, Turkiston o'lkasining ertangi kuni haqida qayg'urib yashayotgan mahalliy ziyolilar vujudga kelgan imkoniyatdan yerli xalqni savodli qilish maqsadida foydalanishga harakat qilindi. Shuning uchun ham Toshmuhammad Niyozovich 1917-yil noyabr oyida Skobelev shahrida Farg'onadagi yangi tipdagi birinchi o'zbek maktabini tashkil qilish haqidagi topshiriqni bajarishga jiddiy kirishdi.

Maktab mudiri sifatida Qori Niyoziy oldida turgan eng murakkab masala – maktabni o'qituvchilar bilan ta'minlash masalasi edi, chunki yerlilar orasidan o'qituvchilik talabiga to'liq javob beradigan kishini topish juda katta muammo edi. Maktabga o'qituvchilik vazifasiga jalb etilgan birinchi o'qituvchi (Qori Niyoziyning bo'lg'usi rafiqasi) Oyshaxon O'razayeva edi. U tarjimonning qizi bo'lib, 1914-yilda Farg'ona shahridagi qizlar gimnaziyasini bitirgan va Andijonda rus-tuzem maktabining rus sinfida o'qituvchi bo'lib ishlagan. Maktabda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish yo'lidagi jiddiy qiyinchiliklardan yana biri o'quv rejasi va o'quv dasturining yo'qligi edi.

Birinchi oyning oxirlarida Toshmuhammad Niyozovich va Oyshaxon O'razayeva tomonidan tuzilgan o'quv rejasiga muvofiq maktabda ona (o'zbek) tili, rus tili, geografiya va tabiiyot o'qitilgan, so'ngra gimnastika darsi kiritilgan. 1920-yilda yangi tipdagi birinchi o'zbek maktabi Farg'ona viloyati ikkinchi bosqich maktabiga aylantirildi. Bu maktab ham butun Turkiston o'lkasida to'ng'ich maktab bo'lgan, chunki bu vaqtda o'lkaning hech qaysi yerida hali ikkinchi bosqich maktabi ochilmagan edi. O'quvchilar uchun maktab qoshida internat ochilgan. Birinchi o'zbek maktabi va uning bazasida yaratilgan viloyat ikkinchi bosqich maktabi,

keyinchalik Farg‘ona shahrida va uning atrofidagi tumanlarda ochilgan maktablar uchun muhim rol o‘ynadi.

Masalan, har yili yozda maktab jamoasining faol ishtiroki bilan o‘qituvchilar tayyorlash uchun qisqa muddatli kurslar ochilgan, yangi maktablarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib yordam qilingan. Farg‘ona shahar va uyezd sho‘rolar hokimiyati tomonidan 1920-yil 15- yanvarda Toshmuhammad Niyozovichga berilgan 122-mandatda, unga Farg‘ona va uning uyezdidagi maktablarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish vazifasi topshirilib, maktab mudirlariga: “Qori Niyozovning ko‘rsatmalariga va qonuniy talablariga itoat qilish taklif qilinadi”, – deyilgan.

Shunday qilib Toshmuhammad Niyozovich 1920-yillardayoq Farg‘ona viloyatida barchaning domlasi sifatida rasman tan olingan edi. Turkiston o‘lkasida ochilgan maktablar soni 1920-yildayoq 2000taga etgan edi. Tabiiyki, bu maktablarga eng avval o‘qituvchi kerak edi, ular esa asosan ikki oylik kurslarda tahsil olganlar orasidan tanlanardi. Shu yo‘sinda 1917-1920- yillarda o‘qituvchilik qilib turganlarning ko‘pida, hatto, o‘rta maktab ma‘lumoti yo‘q edi. Shuning uchun ham o‘lkada to‘rt yillik “ta‘lim-tarbiya texnikumi” degan yangi tipdagi pedagogik o‘rta maktablar vujudga kela boshladi.

Farg‘ona viloyatida uni tashkil qilish Toshmuhammad Niyozovich zimmasiga yuklatildi. Shu munosabat bilan Farg‘onadagi “Viloyat ikkinchi bosqich o‘zbek maktabi” butun jihozlari va o‘quvchilari bilan maxsus esholonda viloyatning yangi markazi – Qo‘qonga ko‘chirib keltirildi. Ko‘p fursat o‘tmay ushbu maktab va “Dorul muallimin” degan ta‘lim-tarbiya kursi asosida “Farg‘ona viloyat ta‘lim-tarbiya texnikumi” tashkil qilindi va unga Toshmuhammad Niyozovich mudir etib tayinlandi. Texnikum huzurida “Namuna maktabi” va internat bo‘lib, o‘quvchilar davlat hisobiga yashar, ularga oziq-ovqat, kiyim-kechak, o‘quv qurollari berilar edi.

Texnikumda matematika, tabiiyot, kimyo, fizika, til va adabiyot laboratoriya xonalari va kabinetlari, duradgorlik, muqovasozlik, haykaltaroshlik, chilangarlik hunarxonalari tashkil qilingan edi.

Bu maskanda Qori Niyoziy ayniqsa matematika fanini hayotga bog‘lab o‘qitishga harakat qilardi. Texnikum huzurida har yili Farg‘ona viloyati uchun o‘qituvchilar tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari, yosh o‘qituvchilar uchun konsultatsiyalar, metodika, pedagogikaga doir va umumiy-ilmiy tematikalarda ma‘ruzalar tashkil qilingan.

Xullas, texnikum Farg‘ona viloyatining eng yirik pedagogika markaziga aylangan edi. Bu texnikumdan chiqqanlarning ko‘plari ajoyib pedagog, injener, agronom, olim, jamoat va davlat arboblari bo‘lib yetishdilar. 1924-yilda texnikum Qo‘qondan Farg‘ona shahriga ko‘chirildi. Bu yerda texnikumning faoliyati yanada keng miqyosda rivojlanib bordi. 1930-yilda texnikum Farg‘ona davlat pedagogika institutiga aylandi[2].

O'zbekiston madaniyati tarixidagi o'rni g'oyat muhimdir. Toshmuhammad Niyozovich o'qituvchilik bilan birgalikda mustaqil ishlab, 1918 – 1920-yillarda o'rta maktab hajmidagi ma'lumotga ega bo'ldi. Navbatdagi masala bu ma'lumotini davom ettirish edi. U 1920-yilning kuzida Toshkentda ta'sis etilgan O'rta Osiyo davlat universitetida o'qishni niyat qilgan edi, lekin yaqindagina tashkil etilgan texnikumni mustahkamlamasdan o'qishga ketib qolishni vijdotsizlik deb hisobladi. Shuning uchun ham o'qishni yana mustaqil davom ettirib, universitet fizika-matematika fakultetining birinchi kursida o'tiladigan fanlarni Qo'qonda turib mustaqil o'rganishga muvaffaq bo'ldi.

Toshmuhammad Niyozovich 1926-yilda Toshkentga kelib universitet fizika-matematika fakultetining birinchi kursiga konkurs asosida qabul qilingandan so'ng birinchi kurs dasturi bo'yicha imtihonlarni topshirib, tez fursatda ikkinchi kursda o'qiy boshladi.

Qori Niyoziy universitetda o'qib yurgan vaqtidayoq, 4- kursdan boshlab o'zbek tilida matematik analiz va boshqa matematika kurslaridan ma'ruzalar o'qiy boshlaydi. 1930-yilning fevral oyida universitetni bitirgan Toshmuhammad Niyozovich ilmiy, pedagogik va tashkiliy ishlar bilan mashg'ul bo'lgan. 1931-yildan universitetning professori, keyinchalik uning rektori bo'lib ishlagan.

Respublikada ilmiy kadrga ehtiyoj shu darajada zo'r ediki, Toshmuhammad Niyozovichga ayni zamonda universitetdan boshqa yana bir necha oliy maktablarda matematikadan ma'ruza o'qishga to'g'ri kelgan, masalan, 1930- yildan boshlab O'rta Osiyo paxtachilik va irrigatsiya politexnik institutida, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida, 1932-yildan 1937-yilgacha Toshkent pedagogika instituti matematika kafedrasida (mudir bo'lib), 1938- yildan boshlab universitet fizika-matematika fakultetining umumiy matematika kafedrasida (mudir bo'lib) ishlashiga to'g'ri kelgan. Qori Niyoziy 1937 – 1938-yillarda O'zbekiston Xalq maorif ministri hamda shu yillarning o'zida (va keyin) Fanlar komiteti prezidiumining raisi vazifalarida ishlagan[1].

Bu davrda yildan yilga ko'payib ketayotgan maktablarni zamona talablariga javob bera oladigan o'qituvchilar bilan ta'min qilish masalasi turar edi. Shuning uchun pedagogika institutlari tizimiga katta ahamiyat berildi va ular maorif ministrligining diqqat markazida bo'ldi.

U o'zining dastlabki pedagogik faoliyatidan boshlab yangi tipdagi o'zbek maktablari va texnikumlari uchun matematikadan va ayrim boshqa fanlardan darsliklar, qo'lyozmalar, metodik ko'rsatmalar yaratgan. "Tabiatdan bir parcha" (1919), "Ochiq havoda amaliy mashg'ulotlar" (1927), "Tekislik analitikasi" (1928), "To'g'ri chiziqli trigonometriya va uning kosmografiyaga tatbiqi" (1929), "Trigonomeriyadan sistematik kurs" (1930) va boshqalar shular jumlasidandir. Toshmuhammad Niyozovich 1940-yildan boshlab deyarli o'n yil ichida tinimsiz

ishlab buyuk astronom olim Ulug‘bek merosini o‘rgandi va izlanishlar natijasida Ulug‘bekning astronomiya maktabi to‘g‘risida ulkan bir asar yaratdi. Bu kitob “Astronomicheskaya shkola Ulugbeka” (“Ulug‘bekning astronomiya maktabi”) nomi bilan 1950-yilda Moskvada sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etildi (rus tilida).

Akademik Qori Niyoziyning shoh asari bo‘lmish “Ulug‘bekning astronomik maktabi” 1952-yilda o‘sha davrning eng yuksak davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan[3]. Qomusiy olim, fan va maorif tashkilotchisi, davlat va jamoat arbobi akademik Qori Niyoziyning hayoti va faoliyati ilm-fan, ma‘rifat va madaniyatga fidoyilik namunasidir. Bu muhtaram zot to‘g‘risida hali ko‘p asarlar yoziladi, ilmiy yig‘inlar bo‘ladi. Yillar, asrlar o‘tar, ammo ilm-fan, ma‘rifat va madaniyat jonkuyari buyuk olim Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy hamisha barhayotdir, chunki uning nurli xotirasi xalq qalbida abadiy yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qori Niyoziy T. N. Hayot maktabi. – Toshkent: Fan, 1970. – B. 38.
2. Salohiddinov M., Qayumov A. Akademik T. N. Qori Niyoziy (Akademik Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziyning ilmiy-ijodiy faoliyatidan ayrim lavhalar). – Toshkent, 2007. – B. 46.
3. Sulton Akbariy. Ustod (Qori Niyoziy hayotidan lavhalar). – Toshkent: O‘zbekiston, 1970. – B. 17.



BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINING DARS JARAYONIDA MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

G.T. Islamova,

Nizomiy nomidagi TDPU v. b. dotsent

Jamiyatda shakllangan hozirgi ijtimoiy-psixologik vaziyat o‘ziga xos shaxs inqirozi bilan tavsiflanadi, bu o‘zini ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni yo‘qotish natijasida vujudga kelgan uning ma‘naviyati, axloqiy inqirozi sifatida namoyon qiladi. Jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar munosabati bilan zamonaviy maktab oldiga mutlaqo yangi talablar qo‘yilayotgani, xususan, uning bitiruvchilarining keng va ko‘p qirrali bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari uchun etarli emasligi ifodalangan. Maktab o‘quvchilarni faqat ma‘lum miqdordagi bilimlar bilan qurollantiradigan sof ta‘lim (o‘qitish) texnologiyalaridan o‘quvchiga o‘z shaxsiyatining xususiyatlarini tushunish va o‘qitish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatini beradigan chuqurroq shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limga yo‘naltirilgan faol hayotiy pozitsiya.

Boshlang'ich maktab yoshi – bu bolaning faol ijtimoiylashuvi, uning ijtimoiy doirasi kengayishi va qabul qilingan axloqiy qadriyatlar bilan belgilanadigan shaxsiy pozitsiyasi shakllanadigan qimmatli rivojlanish davri. Ta'lim mikrosotsiumidan ijobiy axloqiy namunalar, axloqiy qadriyatlarni qabul qilib, ularni ongli, his-tuyg'u va tajribalar orqali o'z ichiga oladi, kichik o'quvchi axloqiy tajribani, jamiyatning ma'naviy-axloqiy madaniyatini o'zlashtiradi [5, 158-b.].

Biroq, yosh o'quvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy rivojlanishi yo'lida ko'pincha ma'naviy-axloqiy rivojlanishda og'ishlarga olib keladigan ko'plab to'siqlar mavjud. Bunday bolalarning xatti-harakatlarida ijtimoiy qoidalar va buyruqlarga bo'ysunishni istamaslik aniq namoyon bo'ladi; o'qishda ham, ishdagi ham, boshqalar bilan munosabatlarda ham bezovta qilmang pozitsiyasi; deyarli to'liq o'ziga qaramlik; hamma narsada va hamma narsada «rahbar» bo'lish, o'z xohish-irodasini aytish, kuch ishlatish istagida ifodalangan irodalilik, tajovuzkorlik paydo bo'ladi.

Bunday sharoitda ta'lim-tarbiyaning boy tajribasi va an'alariga ega milliy maktab yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasi haqida g'amxo'rlik qilishi, uning ma'naviy tanazzuliga yo'l qo'ymaslik uchun oilaga, butun jamiyatga yordam berishi mumkin va kerak.

Bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi ikkinchi avlod Federal davlat ta'lim standartini amalga oshirish sharoitida boshlang'ich ta'lim mazmunining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Uni amalga oshirishning asosiy g'oyalari Rossiya maktab o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi konsepsiyasida va boshlang'ich maktab o'quvchilarini tarbiyalash va ijtimoiylashtirish bo'yicha namunaviy dasturlarda belgilangan.

Ushbu muammoni hal qilishda ma'naviy-axloqiy tarbiya mexanizmlarini hisobga olish kerak. Axloqiy tarbiyaning ichki tomoni bolalar tomonidan ijtimoiy axloqiy tajribani o'zlashtirishning tashkiliy jarayoni va uni shaxsning ichki axloqiy rejasiga, axloqiy fazilatlarga ichkilashtirishdir. Axloqiy fazilatlarni tarbiyalash jarayonining ketma-ketligi o'qituvchining maxsus ta'lim faoliyati va aniqlangan talabaning faoliyati asosida kichik yoshdagi o'quvchi shaxsining ichki axloqiy-psixologik sohasini o'zgartirish g'oyasi bilan belgilanishi kerak. U tomonidan, ijtimoiy axloqiy tajribani o'zlashtirishga qaratilgan. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxsning axloqiy shakllanishi bir xil sharoitlarda bir xil pedagogik ta'sirlar ta'sirida turlicha sodir bo'ladi. O'qituvchining kichik o'quvchi shaxsiga tashqi sharoitlari va tarbiyaviy ta'siri, qoida tariqasida, faqat axloqiy fazilatlarni shakllantirish uchun manba va zarur shartdir. Kichik yoshdagi o'quvchining shaxsiyati pedagogik ta'sirning passiv obyekti emas, balki axloqiy tarbiya jarayonining faol subyekti sifatida ishlaydi; axloqiy sifatlarining

shakllanishi shaxsning qaysi faoliyat turiga va bu faoliyatda bolaning ko'rsatadigan faoliyatiga bog'liq.

Shaxsiy kamolot – shaxsning ijtimoiy-madaniy muhitga kirish jarayoni va natijasidir (L.I.Bojovich, L.S.Vygotskiy, A.N.Leontyev, A.V.Petrovskiy, L.S.Rubinshteyn, E.Erikson va boshqalar). Bola jamiyat tomonidan yaratilgan ma'naviy va moddiy madaniyatga passiv emas, balki faol ravishda, uning tabiati va boshqalar bilan o'zaro munosabat xususiyatlari shaxsning rivojlanish jarayonini belgilaydigan faoliyat jarayonida qo'shiladi. Pedagogika maktab o'quvchilari shaxsida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning yangi yo'llari va vositalarini izlamoqda: ma'naviy-axloqiy tarbiyaning zamonaviy ta'limoti ishlab chiqilmoqda va uning nazariyasi, mazmuni va texnologiyalari ishlab chiqilmoqda.

Kichik maktab o'quvchisi shaxsining ma'naviy-axloqiy rivojlanishi bolaning o'zini anglashini, shaxsiy xulq-atvor mexanizmlarini rivojlantirishni, axloqiy g'oyalarni, tushunchalarni rivojlantirishni va ular asosida axloqiy baho berishni, yangi motivlarning paydo bo'lishini nazarda tutadi. Harakatlar. Bu bolaning ijtimoiy va aqliy rivojlanishining umumiy jarayoni, yaxlit shaxsni shakllantirish bilan bog'liq.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va rivojlantirish natijasi axloqiy tarbiya - bu bolaning tengdoshlari va kattalarga bo'lgan munosabatida, uning axloqiy me'yorlari va me'yorlariga asoslangan xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan barqaror axloqiy va qadriyat motivlari tizimi[15].

Yosh o'quvchining ma'naviy-axloqiy dunyosi uning turli ehtiyojlarini qondirish jarayonini nazarda tutadi. Muayyan ehtiyojni qondirishning tashqi ko'rsatkichi - axloqiy tanlov orqali muayyan harakat, harakatda ifodalangan kichik o'quvchi tabiatining xususiyati (sifati, xususiyati).

Ma'naviy-axloqiy tarbiya va taraqqiyotning o'zagi ma'naviy-axloqiy harakatdir.

Ma'naviy-axloqiy harakat – bu kichik maktab o'quvchisining “ichki sharoitlar” to'plamining natijasi bo'lib, biz ularga: fazoviy va ekologik muhit, ehtiyoj-motivatsion, intellektual-irodaviy (kognitiv), hissiy-irodaviy va kommunikativ sohalar, kichik maktab o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy rivojlanishi modelini tashkil qiladi.

Kichik maktab o'quvchisi shaxsining ma'naviy-axloqiy rivojlanishining asosi sifatida ma'naviy-axloqiy harakat insonning xatti-harakati va faoliyatida axloqiy tanlov orqali namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar va qadriyatlarga yo'naltirilganlik to'plamini belgilaydi.

Ma'naviy-axloqiy harakat barcha tarkibiy qismlarning shakllanishiga bog'liq bo'lib, ular o'z navbatida maktabning madaniy-ma'rifiy makonining ma'naviy-axloqiy muhitiga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, boshlang'ich maktab yoshidagi

jamiyatning rivojlanayotgan shaxsga ta'siriga nisbatan sezgirligi, bolaning har qanday ma'lumotni tahlil va tanqidga duchor qilmasdan, tashqaridan o'zlashtirgani diqqatga sazovordir. Bola hayotda o'z pozitsiyasiga va hayotga qarashlar tizimiga ega bo'lmagan holda, atrofdagi odamlarning ta'siri ostida, ehtiyoj-muhit sharoitida rivojlanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi odatda o'qituvchining bola oldiga qo'yadigan vazifalari hisoblanadi. Ularning samaradorligi uchun ular bola tomonidan ichki qabul qilinishi kerak. Agar o'qituvchi tomonidan topshiriqlarning motivatsiyasi ta'minlanmagan bo'lsa, ularning bola uchun ichki mazmuni ularning ob'ektiv mazmunidan va o'qituvchi, tarbiyachining niyatidan keskin farq qilishi mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning an'anaviy usullari maktab o'quvchilariga ijtimoiy hayot normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan. Biroq, ular ko'pincha faqat yetarlicha kuchli tashqi nazorat ostida harakat qilishadi (kattalar, jamoatchilik fikri, jazo tahdidi). Shaxsning axloqiy fazilatlarini shakllantirishning muhim ko'rsatkichi ichki nazoratdir. Ichki nazorat bolaning intellektual, vosita, hissiy, irodali sohalardagi faol faoliyati tufayli shakllanadi. O'z impulslarini inson mavjudligi madaniyati haqidagi g'oyalar va bilimlarga bo'ysundirishga tayyorligi shaxsning o'zini o'zi qadrlashini oshiradi, o'zini o'zi qadrlashni rivojlantiradi. Shakllangan nazorat qobiliyatlari shaxsning axloqiy fazilatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga yordam beradi.

Yosh o'quvchining shaxsiyatini ma'naviy-axloqiy shakllantirish bo'yicha ishning pedagogik ma'nosi unga elementar xulq-atvor ko'nikmalaridan qaror qabul qilish va axloqiy tanlashning mustaqilligi talab qilinadigan yuqori darajaga o'tishga yordam berishdir.

O'quvchilarda ta'lim mazmunida ko'zda tutilgan faoliyatda faol ishtirok etish istagi shakllanganda metodlar o'z maqsadiga erishadi.

Ta'lim jarayonida ishontirishga turli xil texnika va usullarni qo'llash orqali erishiladi: masallarni, ertaklarni o'qish va tahlil qilish, hikoyalarni targ'ib qilish; axloqiy suhbatlar, tushuntirishlar, takliflar, tortishuvlar, misol bo'la oladi.

Usullarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va qamrovga ega.

Ko'rinib turgan soddaligiga qaramay, ushbu guruhning barcha usullari, istisnosiz, yuqori pedagogik malakani talab qiladi.

Boshlang'ich maktabning uzluksiz ta'lim tizimidagi ahamiyati va vazifasi nafaqat uning boshqa ta'lim bosqichlari bilan uzviyligi, balki bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishining ushbu bosqichining o'ziga xos qiymati bilan ham belgilanadi. Bu shaxsning rivojlanishi uchun o'z vaqtida ma'naviy poydevor qo'yish imkonini beradi. Boshlang'ich maktab yoshidagi shaxsning axloqiy rivojlanishini belgilovchi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'zagi bolalar o'rtasida insonparvarlik

munosabati va munosabatlarini shakllantirish, his-tuygʻularga tayanish, hissiy sezgirlikdir.

Shunday qilib, ma'naviy-axloqiy tarbiya barcha asoslarning asosidir. O'qituvchi bu yoshda bolaning ruhiga nima sarmoya kiritganiga qarab, uning o'zi kelajakda nima qurishi, boshqalar bilan munosabatlarini qanday qurishiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davidov V.V. Rivojlantiruvchi ta'lim muammolari: nazariy va eksperimental psixologik tadqiqotlar tajribasi / V.V. Davidov. – M.: Pedagogika, 1986. – 372 b.

2. Dusaviskiy A.K. O'quv faoliyatida shaxsni rivojlantirish / A.K. Dusaviskiy. – M.: Pedagogika uyi, 1996. – 437 b.

3. Efimepkova, S.A. "Pravoslav madaniyati asoslari" kursini o'rganish jarayonida kichik maktab o'quvchisi shaxsining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish: muallif. dis. / S.A. Efimenkov. – Kursk, 2004. – 24 b.

4. Lomov B.F. Psixologiyaning metodologik va nazariy muammolari / –M.: Nauka, 1984 – 586b.



HOW TO IMPROVE METHODS OF DETERMINING THE LEVEL OF FORMATION OF SELF-DEVELOPMENT COMPETENCE IN STUDENTS

F.Jumanova,

The teacher of the faculty of Pedagogy Chirchik State Pedagogical University

In this regard, it is important to determine the theoretical foundations and conditions of its application that allow the formation of the self-development competence system in students, to determine the criteria and indicators for studying the level of self-development competence formation in them, and to create pedagogical models.

In order to determine the level of formation of self-development competence in future pedagogues and pedagogical conditions affecting the formation of self-development competence, it is necessary to use question-answer, interview, questionnaire and tests.

It is also important to develop a system of problem tasks aimed at forming the competence of self-development in students based on the methodology of organizing educational activities aimed at self-development. The degree of formation of self-development competence in students is diagnosed on the basis of competence criteria (motivational, cognitive, functional). Diagnosis is conducted through tests, theoretical tasks, practical problems, didactic developments, and training. The

obtained results are compared with the initial and final data, general conclusions are drawn.

In this case, the following can be defined as the main conditions: development of "scientific-pedagogical basis of development of self-development competence in students of higher education institutions" intended for formation of self-development competence; Determination of the content of formation of professional skills of students studying in the field of "pedagogy and psychology" based on the competence approach; organization of the process of step-by-step formation of students' self-development competence.

In the implementation of these works, it is necessary to determine the following tasks: selection of criteria and indicators for evaluating the level of self-development competence formation in students; determining the initial level of formation of self-development competence; implementation of pedagogical and didactic conditions for the formation of self-development competence in students; implementation of educational-normative and educational-methodical support for the formation of self-development competence in students; analysis of received data.

Through the method of observation, it is analyzed how determination is manifested in the formation of self-development competence in students, in which situations interest and attention to self-development is manifested. Based on the interview, information is collected on whether students need to develop self-development competence, use of self-development methods and forms, and formation of motivation to learn. A questionnaire is used as a written questionnaire. The testing method is used to assess the level of theoretical knowledge of future pedagogues on self-development.

Based on the analysis, it is necessary to organize individual education of the need to use different approaches, principles, methods, technologies, tools, and forms in the formation of self-development competence among students of a higher educational institution.

In the theoretical and practical classes organized on the formation of self-development competence in students, it is possible to teach students about the content and essence of the formation of self-development competence in future pedagogues through practical work. Practical preparation for the formation of self-development competence in students, organizing and conducting problem seminars, seminars-discussions, educational work, conducting practical exercises, trainings involving specialists-practitioners in the educational process, performing concrete practical work in subjects of the pedagogical education cluster, educational institutions includes the analysis and evaluation of educational projects in the form of games and their results.

In the developed methodological developments, attention is paid to the following: to activate the process of personal self-development by organizing educational activities aimed at the formation of self-development competence in students, to determine the connection between the desire for self-development in students and the effectiveness of their educational activities.

For this, it is necessary to solve the following tasks: to determine the ability of students to form self-development compensation and the possibilities of organizing successful educational activities aimed at forming self-development compensation; to determine the characteristics of the desire for self-development; diagnosing the levels of students' educational activities.

To solve the first task, students are offered a set of tests and methods; "I" concept of creative self-development, "Readiness for self-development", "Students' learning motivation" method, method of learning self-evaluation of the individual. Also, various questionnaire surveys, interviews, and registration filling are conducted.

Before conducting the survey, the purpose of the work is explained to the students. Emphasis is placed on their "external" self-evaluation, that is, their internal emotional evaluation. According to the results of the questionnaires, the main reasons for the successful organization of the students' educational activities are determined. In this case, sufficient or insufficient motivation for the educational process aimed at forming self-development compensation in students; time allocated for independent activities; how students are charged with classroom activities; lack of training manuals and methodical literature on the formation of self-development competence; subjects of the pedagogical education cluster (characteristics of the socio-cultural environment and pedagogical conditions in educational institutions); they can distinguish the individual subject of study, its purpose, tasks; factors such as difficulties in working with the studied educational materials are identified.

Based on the results of the survey, students face difficulties in independent work and information use in the process of education and self-development: being able to use the studied educational material in certain conditions and new situations, being able to evaluate the importance of the acquired self-development information, explaining the relationship between the studied phenomena, summarizing the knowledge, processes and expressions of their attitude to problems are determined.

From the point of view of the difficulties faced by students in self-development, it is necessary to give priority to self-development, which characterizes the activity of improving their individuality, taking into account their age-specific characteristics. The process of self-development is characterized by peculiarities depending on the level of readiness of students for self-development. When a weak-willed, weak student of self-knowledge is put in the same conditions

as a self-realized student, he chooses a "better", but less productive, type of activity and begins to develop himself sharply. As a result, his self-development activity will be less successful than a person whose self-development conditions are formed at a better level. This, in turn, means that from the point of view of educational activities aimed at self-development, the creation of pedagogical and dialectic conditions aimed at supporting the self-development of students in the educational cluster is a significant problem.

The second task is aimed at determining the characteristics of the level of students' self-development, and the following criteria of their self-development effectiveness are selected: the student's inner feeling and potential for self-awareness, his observation of himself and his own characteristics in relation to those around him, his relationship with life identification and search of the product relationship; setting personal, objective goals of one's activity; the ability to analyze the educational situation, plan and predict the possible outcomes of one's actions, determine one's own life path; management of his mental and practical activity; ability to record changes in oneself, self-management; to show his identity, to be able to show his capabilities.

Based on the above criteria, L.I. Aniuferova, A.A. Leontev's "Self-interviewing" method can be adapted to our national education system. The following should be defined as the plan of the interview:

I am a person who strives to learn and feel himself, who is interested in his "I", his possibilities and the results of his educational activities;

I am a person who is interested in determining his life path, choosing a direction of activity, self-development, and seeking to choose social relations;

I am a person with certain knowledge and skills in self-management and development;

I am a person who strives to realize his creative personal potential and self-expression.

It is possible to determine which qualities students who describe themselves as a person who strives to show their personal potential do not pay enough attention to develop: clear definition of tasks and correct solutions in problem situations; put forward hypotheses; formation of the final result; develop thinking.

Most of the students understand the essence and importance of self-expression in all spheres of life, they want to show themselves.

References:

1. Abdalova S.R. Technology of organization of independent education. Study guide. - Tashkent, 2009, - 100 p.
2. Avliyokulov N.Kh. Modern teaching technologies.- Bukhara: Printing house, 2001. - 68 p.

3. Alikhanov S. Problematic educational issues in the course of the lesson // Vocational education, 2006.-#5. - B.8-9.



PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATI MONITORINGINING AMALIY-TEXNOLOGIK XUSUSIYATI

G.S.Ibragimova,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch doktoranti

Hozirgi kunda oliy malakali kadrlarni tayyorlash sifati o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra mehnat bozori va ta'lim tizimida amalga oshirib borilayotgan isloxlarning maqsadlari bilan uyg'unlashgan holda ta'minlanishi zarur bo'lib, bunda oliy malakali kadrlar tayyorlash sifati bir qator o'ziga xos jihatlarni namoyon qiladi. Eng avvalo, shuni ta'kidlab o'tish lozimki, kadrlar tayyorlash sifatining yuqori darajasini ta'minlash uchun oliy ta'lim tizimida boshqaruvning yangicha, zamon talablariga mos keladigan usullari ham Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida faoliyatiga joriy qilinishi zarur bo'lmoqda. Mana shunday o'zgarishlar qatorida Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati menejmentini joriy qilish masalalarini ko'rsatish mumkin.

Dastavval olib qaraganda, pedagogika oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish unchalik murakkab emasdek tuyuladi. Lekin inson aqliy, ilmiy va boshqaruvchilik salohiyatining mahsuli sanaluvchi "menejment" ko'p qirrali va keng qamrovli bo'lib, bu borada milliy va xorijiy adabiyotlarda ko'plab fikrlar bildirilgandir. Mana yo'nalishda shu paytlargacha shakllantirilgan ko'plab fikr-mulohazalar asosida "menejment" tushunchasini 3 ta nuqtayi nazardan ko'rib chiqish mumkin:

1. Menejment – bu insonlarga, bir maqsad yo'lidagi kishilar jamoasiga rahbarlik qilish faoliyati, ya'ni funksiyasidir;
2. Menejment – bu inson bilimlari sohasi, ya'ni ushbu funksiyalarni amalga oshirishga yordam beruvchi fan yo'nalishidir;
3. Menejment – bu boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi inson (menejer)larning ijtimoiy qatlamidir.

Oddiy qilib tushunilganda menejment – bu boshqa kishilarning mehnati, intellekti va xulq-atvor motivlaridan foydalanilgan holda oldinga qo'yilgan maqsadga erishishni bilishdir. Shunga ko'ra, menejment uning qay maqsadlarda va qay yo'nalishlarda qo'llanilishiga qarab, o'zining bir qancha qirralarini namoyon qiladi.

«Sifat menejmenti» (quality management) – bu sifatga yo‘naltirilgan rahbarlik va boshqarishning muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. U sifat menejmenti tamoyillari va dastaklaridan foydalanishga asoslangan, menejmentning barcha funksiyalarini nazarda tutgan holda tashkilotga ta’sir etuvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Sifatli mahsulotga cheklovsiz harajatlar hisobiga bajarilgan mukammal mahsulotlar taalluqli bo‘lib, kamyoblik va qimmatlilik ushbu tushunchaning ikkita farq qiluvchi qirralari hisoblanadi. Ushbu nuqtai nazardan sifat maqom va ustunlikni aks ettirish uchun qo‘llaniladi.

Binobarin, sifatni nisbiy tushuncha sifatida ham qo‘llash mumkin. Ushbu holatda sifat mahsulot yoki xizmatning belgisi (o‘ziga xos xususiyati, atributi) hisoblanmaydi. Sifat to‘g‘risida mahsulot yoki xizmatning mavjud standartlar yoki unga qo‘yilgan talablarga javob berganida gapirish mumkin.

Shunga ko‘ra, sifat o‘z-o‘zidan yakuniy natija bo‘la olmaydi. U faqatgina uning yordamida yakuniy mahsulotning standartga mosligini aniqlash vositasidir. Sifatni nisbiy tushunishda sifatli mahsulot yoki xizmat qimmat yoki mushkul, chiroyli yoki mujmal bo‘lishi shart emas. Shuningdek, u o‘ziga xos, oddiy, siyqasi chiqqan va odatiy bo‘lmasligi mumkin.

Sifat nisbiy tushuncha sifatida ikkita qirraga ega:

- birinchi – bu standart yoki unga qo‘yilgan talabga mos kelishi;
- ikkinchi – iste’molchilar talabiga mos kelishi.

Quality management systems. Bu so‘z inglizcha so‘z birikmasi bo‘lib, “Sifat menejmenti tizimi” (SMT) ma’nosini anglatadi, yana ham aniqrog‘i “Sifatli boshqaruv tizimi” (SBT) deb tarjima qilinsa, bu so‘zning mazmun mohiyatini ISO 9000 konsepsiyasiga hamohang tarzda o‘girilganini bildiradi. Ya’ni “Sifatli boshqaruv tizimi” – ISO xalqaro standartining konsepsiyasiga mos tushadi.

Hozirgi vaqtga kelib, zamonaviy sifat menejmenti – bu rahbarlik va qo‘llab-quvvatlashning samarali tarkibi bo‘lib, qo‘yilgan vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi. OTMda sifat menejmenti g‘oyalari va usullaridan foydalanish barcha bo‘g‘inlarda:

OTM darajasida, uning bo‘limlarida, fakultet va kafedralarida, talabalar bilimi, malakasi va ko‘nikmalari shakllanadigan va iste’molchilar uchun “qadriyatlar, qiymatlar” yaratiladigan auditoriyalarida amalga oshirilishi zarurdir.

Sifat menejmenti aniq tamoyil va konsepsiyalarga, ularni hayotga tadbqiq etishning amaliy modellariga tayanadi. Eng ko‘p tarqalgan sifati menejmenti modeli 9000 seriyasidagi ISO xalqaro standartlar modeli hisoblanadi. Uning tarkibida ta’lim muassasalarining sifat tizimi Namunaviy modeli ishlab chiqilgan.

Sifat menejmentining zamonaviy modellari asosida to‘liq sifat (*Total Quality*), TQM tamoyillari va jarayonli yondoshuv g‘oyasi yotadi.

Aynan ana shu yondoshuvlar o'qituvchi faoliyatida o'zining aksini topishi lozim.

Oliy ta'limda sifat menejmenti tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ta'limga bo'lgan talablarni ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda anglanadi;
- iste'molchiga mo'ljall olish, mehnat bozoridagi keskin raqobat menejment tizimidan mobillik va dinamiklikni talab etadi;
- monitoring natijalarini hisobga olgan holda o'quv jarayoni doimiy takomillashtirib boriladi.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimi masalalariga bo'lgan qiziqish quyidagilarga bog'liq holda vujudga kelganligini ta'kidlab o'tishimiz zarurdir:

- ta'lim va ilmiy xizmatlar bozorida raqobatning rivojlanishi, ta'lim sifati menejmenti natijasida innovasion rivojlanishga bo'lgan ehtiyojning ortishi;
- davlatning ta'lim tizimida olib borayotgan siyosati va islohotlari;
- oliy ta'lim muassasasining akkreditatsiyadan o'tkazilishida sifat akkreditatsiyadan o'tkazishning asosiy sharti ekanligi;
- har bir sivilizatsiyalashgan mamlakatning Yevropa ta'lim makoniga integratsiyalashuvi va Boloniya deklaratsiyasining imzolanishi kabi omillarga bog'liq.

Oliy ta'lim tizimidan vujudga kelgan masalalarning hal qilinishiga bag'ishlangan Boloniya jarayoni ishtirokchilarining Berlin shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishida (sentabr, 2005y.) asosiy oraliq ustuvorliklar belgilangan edi, bularga quyidagilar kiritiladi:

- sifatni ta'minlash;
- ikki darajali tizim;
- darajalar va ta'lim davrlarini tan olish.

Bu jarayonda sifat masalasi birinchi o'rinda turibdi, uni ta'minlash oliy ta'lim muassasalarining zimmasiga yuklatiladi.

Hozirgi kunlarda oliy ta'lim sifati sohasidagi dolzarb tushunchalar doirasiga quyidagilar kiradi:

- oliy ta'lim sifati;
- oliy ma'lumotga ega mutaxassislarni tayyorlash sifati;
- oliy ma'lumotli sifatli mutaxassislarni tayyorlash muammolari;
- oliy ta'lim sifatini tizimli tadqiq etish;
- oliy ta'lim sifati me'yorlari;
- oliy ta'lim sifati mezonlari;
- oliy ta'lim sifatini baholash;
- oliy ta'lim sifati monitoringi;

- oliy ta’lim sifatini ta’minlash;
- oliy ta’lim sifatini boshqarish.

Ta’lim tizimi boshqaruvida modellashirishning asosiy elementi ya’ni, ta’lim sifati maqsadlarini aniq ifodalashdan iborat bo’lib, u ko’p jihatdan ta’lim jarayoni faoliyatining muvaffaqiyatlarini belgilab beradi.

Bu esa, o’zaro hurmat va sheriklik hamda uni doimo yaxshilab, takomillashtirib borish tamoyillariga asoslangan hamkorlikdagi mehnat sifat menejmentining mohiyatini tashkil etadi. Lekin, sifat menejmenti shior emas, balki iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi eng yaxshi tashkilotlarda sinovdan o’tgan tamoyil va dastaklar tizimi, insoniyat tarixi davomida yig’ilgan noyob tajriba hisoblanadi. Shunday qilib, ta’lim muassasasi sifat menejmenti ta’limni tashkil qilish, zarur resurslar bilan ta’minlash va boshqarish jarayonini qamrab olgan majmuaviy tizim bo’lib, asosan o’quv jarayonini nazarda tutadi. Biroq ta’lim ijtimoiy hayotning muhim sohasi hisoblanadi. Aynan ta’lim jamiyatning intellektual, madaniy, ma’naviy holatini shakllantiradi. Ta’limning mazmun-mohiyati va uning yo’naltirilganligini ta’lim standartlari va dasturlari o’zida aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексеенко В.А. “Система управления качеством высшего образования: содержание, моделирование, оптимизация” – М.: Издательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2001.
2. Григораш О.В. Организация и оценка качества учебного процесса по агроинженерным специальностям: Учебное методическая пособие. Краснодар: КубГАУ, 2009. – С. 395.
3. Болотов В.А. О построении общероссийской системы оценки качества образования // Вопросы образования. – 2005.– № 6. – С. 5-11.
4. Кальней В.А., Шишов С.Е. Мониторинг качества образования. – М.-Вологда: ИП-КиППК, 1998. – С.189.
5. Ковалева Г.С. Международный опыт оценки качества образования // Материалы коллегии по ЭГЕ /Центр оценки качества образования ИОСО РАО. – М., 2001. – С.375.
6. Isakova Z.M. Oliy ta’limda sifat ta’minotini boshqarish – yuqori reyting ko’rsatkichi kafolati. Oliy ta’lim taraqqiyoti istiqbollari. Maqolalar to’plami. Tempus 2014.14-21 betlar.
7. Ibragimov X. Uzluksiz ta’lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash samaradorligini oshirish – davr talabi. Ta’lim muammolari. Ilmiy-uslubiy jurnali. Toshkent 2011 yil 2–son. 9-11 bet.
8. “Iqtisodiy ta’limning raqobat ustunliklari: bugungi holati va istiqboli”. Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman materiallari (3-4 fevral 2014 y.). –T.: FGBOU VPO “ G.V.Plexanova nomidagi RIU”– Toshkent filiali, – 2014 y.



QORI NIYOZIYNING IBRAT MAKTABI

N. Jalilova,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch doktoranti

Ustoz Toshmuhammad Niyozovich Niyozov o'z hayoti davomida juda ko'p ibratli ishlarni amalga oshirdi. Uni tom ma'noda ibrat namunasi deb atash mumkin. Ustozning hatto tashqi qiyofasi ham ibrat olishga arzigulik edi: kiyimlari hamisha tekis va silliq dazmollangan, o'ziga yarashib turar, ovozi o'ta yoqimli, chehrasidan nimtabassum arimasdi. Uning biror marta kimnidir nafsoniyatiga tekkanini, insoniy qadr-qimmatini kamsitganini ko'rmaganman.

*Aziz Qayumov, O'zbekiston fanlar akademiyasi
akademigi, filologiya fanlari doktori*

Akademik Qori Niyozovich Niyozovning ilmiy-pedagogik merosi va hayot yo'li biz yoshlar uchun ibrat maktabi hamda qayta-qayta murojaat etish mumkin bo'lgan ilm-fan bulog'idir. Bu ulug' insonni avlodlar matematik atamashunoslikka asos solgan, matematika o'qitish metodikasining negizlarini yaratgan olim, Mirzo Ulug'bek misolida allomalar merosini o'rganishning katta maktab yaratgan ustoz, yurtimizda faoliyat olib borgan ilk maktab va texnikum direktori, O'rta Osiyo universiteti, O'zbekiston fanlar akademiyasi kabi nufuzli tashkilotlarni boshqargan, necha o'nlab yillar davomida O'zbekiston ilm-fan tarmog'ining tomirini ushlab turgan rahbar, matematika o'qitish metodikasi asoschisi, mutafakkirlar merosi va tarixiy ilmlar kashshofi, pedagogika fani yo'nalishida haqiqiy mahoratli amaliyotchi o'qituvchi, ta'lim-tarbiya tarixini "O'zbekiston madaniyati tarixi" asari misolida yoritib bergan pedagog sifatida e'tirof etishadi.

Qori Niyoziyning bundan salkam 100 yil muqaddam O'zbekiston oliy pedagogik ta'limi uchun geometriya kursi va trigonometriya asoslari (1929y.)ni yaratib berganligi va o'zi amalda shu fanlardan dars berganligi allomaning tafakkur ufqi o'z davri chegaralarini yorib o'tib ancha ilgarilab ketganligidan darak beradi. Uning "Ulugbek va Savay Djay Singx" asari alloma iqtidorining umumsharq hududi miqyoslarini qamrab olganligini ko'rsatadi. Asar ikki taniqli Sharq ilm-fan namoyondalari: o'zbek farzandi Mirzo Ulug'bek hamda hind farzandi Savay Djay Singxning fanga qo'shgan hissasini qiyosiy tahlili asosida yaratilgan o'ziga xos mashaqqatli va ibratli mehnat mahsulidir. Qori Niyoziy nafaqat matematik atamalar lug'atini ishlab chiqib, matematika metodikasiga asos solgan olim, balki o'zbek-rus tillari lug'ati va izohli lug'atini yaratib, lug'at yaratishning negizini ishlab chiqqan

alloma hamdir. Vaqtida bizning otalarimiz rus tilini mazkur lugʻatlar asosida oʻrganishgan.

Sobiq ittifoq tarkibida boʻlgan Oʻzbekiston ikkinchi jahon urushidan chuqur aziyat chekayotgan bir davrda, yurtimiz istiqboliga katta ishonch bilan qaragan bu nekbin va mard olim xalqimizga Ulugʻbek merosini qaytarib berdi. Urush arafasida esa uning “Oʻzbekistonda oliy taʼlimning rivojlanishi” (Кары-Ниязов Т. Н. Рассвет высшего образования в Узбекистане // Изв. Узб. филиала АН СССР. – 1940. – № 11. – С. 3–7.) nomli maqolasi chop etilgan edi. Uning Ulugʻbek qoʻlyozma manbalarini chuqur tadqiq etish asosida yaratilgan “Ulugʻbek astronomik maktabi” asarining negizlari aynan shu davrlarda yaratildi. Bu asar uchun (1950-yilda) davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Aynan shu yillarda Oʻzbekiston fanlar akademiyasini boshqardi. Yurtimizda ilm-fanning rivojlanishiga bosh-qosh boʻldi. Albatta, uning ilm-fan yoʻlida chekkan zahmatlari besamar ketmadi. 3 tomlik «Matematik analizning asosiy kursi» kitobi 1952- yilda Beruniy nomidagi davlat mukofotiga sazovor boʻldi.

Mustaqillik yillarida vafotidan soʻng uning xalqimizga qoldirgan ilm armugʻoni munosib taqdirlanib, Oʻzbekiston Respublikasining “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi (2002).

Qori Niyoziy tavalludi munosabati bilan biz yoshlarning tegishli mutasaddi tashkilotlarga soʻrovimiz: qani edi allomaning 8 tomlik asarini qayta nashr qilib, tegishli soʻz boshi bilan birga xalqimizga taqdim etsalar, mutafakkirning merosini oʻrganish va fanni rivojlantirishga qoʻshilgan munosib hissa boʻlar edi. Shuningdek, Qori Niyoziyning pedagogik va metodik merosini dissertatsion tadqiqotlar darajasida qayta-qayta oʻrganish fursati allaqachon etgan deb oʻylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кары-Ниязов Т. Н. Очерки истории культуры Советского Узбекистана. Отв. ред. И. С. Брагинский. – М.: Изд-во Академии наук СССР, 1955. – С.560. – (Академия наук СССР. Академия наук Узбекской ССР).
2. Қори-Ниёзий асарлари —(яндех.уз)
3. <https://arboblar.uz/uz/people/kary-niyazov-tashmukhamed>



TA'LIMIY-DIDAKTIK MEROS MEDITATSIYA TA'LIMI

N. Jalilova,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch doktoranti

Meditatsiya (lot. *Meditatio* — «tafakkur», fikrlash soʻzidan olingan boʻlib, ruhiy-diniy yoki sogʻlomlashtirish amaliyotida qoʻllaniladigan psixik mashqlar, ushbu mashqlar (yoki boshqa bir sabablar) tufayli vujudga keladigan alohida ruhiy holatdir.

Muqoraba yordamida fikr yuritish asosan miyaning oʻng yarim sharida amalga oshirilib, bunda miya goʻyo obyektiv borliq toʻlqinini his qilgandek boʻladi. Bunday tafakkur orqali inson tasavvur qila oladi, hissiyotga beriladi, niyat va ijod qiladi, zavqlanadi, badiiy adabiyotlarni oʻqiydi, ilm bilan shugʻullanadi. Bu turdagi tafakkur yordamida inson obyektiv borliqni bir butunlik – majmua (ushbu oʻrinda tizim, sistema nazarda tutiladi) sifatida his qilib, shu butunlikni tashkil qiluvchi orasidagi zaruriy aloqadorlikni his qila oladi. Bunda insonning mantiqiy tafakkuri bilan birga abstrakt tasavvuri ham faol qatnashib, unda his qilgan bilimlarini boshqalarga ham maʼlum qilish ishtiyoqi paydo boʻladi. Shuning uchun ham tasavvufda bunday bilimlar ilmiy bilimlar, bu bosqich maʼrifat bosqichi deyiladi.

Pedagog olimlar M.Tojiyev, B.Ziyomuhammadovlarning uqtirishicha, “miyaning chap yarim shari oʻng tomonini nazorat qilib turadi, oʻng yarim shari chap tomon faoliyatini kuzatib turadi. Shuning uchun ham eng kuchli his-tuygʻulardan hisoblangan sevgi miyaning oʻng yarim sharida paydo boʻlib, chap tomondagi yurakni bezovta qiladi. Shu bois ham biz oʻng qoʻl bilan yozamiz, chunki bu ratsional harakat boʻlib, miyaning chap yarim shari tomonidan boshqariladi”.

Bolgar olimi, psixoterapvt-vrach Georgiy Lozanov uzoq yillar davomida hind meditatsiya sanʼatini qoʻllab, turli yoshdagi kishilarga ingliz tilini osongina oʻrgatish yoʻllarini kashf etib, olamga mashhur suggestopediyaga asos solganini barchamiz yaxshi bilamiz (bilmasak, demak, bu boradagi bilimlarimizni manbalar asosida charxlab olishimiz zarur). Lekin bizning ona zaminimizda ham meditatsiyani qoʻllab, diniy taʼlimda yuksak natijalarga erishgan alloma Najmiddin Kubroning meditatsiyaga oid merosini oʻrganib, zamonaviy diniy yohud dunyoviy bilimlarni oʻrganish bilan bogʻliq pedagogikaga tatbiq etib, bugungi kun taʼlim amaliyotiga joriy etish haqida negadir oʻylab ham koʻrmaymiz. Vaholanki, yevropaliklar Sharq meditatsiya sanʼatini oʻrganib, zamonaviy taʼlimda yuksak natijalarga erishishmoqda.

Masalan, suggestopediya metodi boʻyicha ingliz tilini umuman bilmaydigan kishilar sanoqli haftalar ichida uni chuqur oʻzlashtirib olishga va ingliz tilida erkin soʻzlashishga erishishgan. G.Lozanov metodikasini oʻrgangan ingliz tadqiqotchilari

bu jarayonni izohlab berishgan: tashqaridan nihoyatda soddagina ko‘ringan psixoterapevtik mashg‘ulot kursida ingliz tilini o‘rganishga chog‘langan kishilar avval bo‘shashtiruvchi mashqlar vositasida mushaklarini chuqur bo‘shashtirishgan, so‘ngra ular bilan diqqatni yaxshilash mashqlari o‘tkazilgan, ya‘ni, maxsus tanlangan past musiqa sadolari ostida asta-sekinlik bilan takror-takror aytib borilgan inglizcha so‘z va gaplarni tinglashgan. Qarangki, shu oddiygina mashqlar boshqa holatda o‘rganish uchun bir necha yillarni sarflashga to‘g‘ri keladigan o‘zga bir tilni bir necha o‘n kun ichida o‘zlashtirishga imkon yaratib bergan.

Haqiqiy mo‘jizaning o‘zginasi. Lekin bu jarayonning ilmiy asosi mavjud.

Psixologlar mushaklarni bo‘shashtirish hamda diqqatni muayyan hodisotga qaratish orqali xotiradan ko‘tarilgan ko‘pgina ma‘lumotlarni eslash mumkinligini amaliy isbotlashgan.

AQSH Ayova shtati universiteti talabalari suggestopedagogika metodi vositasida 1 yilga mo‘ljallangan ispan tili kursini 10 kunda (kuniga 4 soatdan shug‘ullanib) o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘lishgan.

Qarangki, tajribalarning ko‘rsatishicha, qadriyatlar ham joy tanlar ekan, o‘zi yaratilgan zaminda foydali bo‘larkan. Uzoq Sharqda bunyod bo‘lgan qadriyatlar aynan shu zamin kishilariga asqotar ekan. Suggestopedagogika bilan shug‘ullangan kanadaliklar amerikalik yoki bolgariyaliklar kabi naf ola bilishmagan. Demak, sharqona qadriyatlarning ahamiyatini anglashimiz, ta‘lim-tarbiyada ota-bobolarimiz merosidan foydalanishimizning zarurligini genetik xotiramizning o‘zi ham talab qilmoqda.

Bundan necha asrlar avval bizning bobolarimiz ham inson imkoniyatlarini o‘rganib, Ollohni dildan qo‘ymay, ta‘lim-tarbiyada mo‘jizalar bunyod etishganiga ishonasizmi? Aslida bugungi kunda butun dunyoni zabt etgan, ta‘lim jarayonida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchini faollashtirish, o‘quv nagruzkasi yoki boshqa sabablar tufayli yuzaga kelayotgan ruhiy zo‘riqlashlarni yo‘qotish, asabni mustahkamlash maqsadida qo‘llanilayotgan Sharq (Hindiston, Xitoy), meditatsiya san‘ati eng qadimgi davrlarda chuqur diniy asosga qurilgan.

Sufiylik tariqati namoyondalari (Ahmad Yassaviy, Bektoshiy, Najmiddin Kubrolar) ranglar, doiralar, nuqtalarni qo‘llab o‘tkazgan mashg‘ulotlari orqali shogirdlarida chuqur ruhiy osoyishtalik, donolik, dunyo va kadam sirlarini kashf etish layoqatlarini shakllantirishgan. Ularda valiylik sifatini uyg‘otishgan. Ularning shogirdlaridan so‘ragan savollari hozir bizga juda ajablanarli tuyuladi: “Ayt-chi, qalbingni qanday rangda ko‘ryapsan: ko‘kmi, qizilmi, sariqmi, qorami, qizilmi, balki rangsizdir?”. Savolning javobi shogirdning ruhiy holati, Ollohni, olamni va odamni taniy olish darajasini belgilab bergan.

Valiylik nima? Valiy arabcha “do‘st” demakdir. Ba‘zi tarixchilarning ta’kidlashlaricha, valiy haqidagi tushunchani birinchi bo‘lib tasavvufga kiritgan va

bu haqida alohida kitob yozgan shaxs Hakim Termiziydir. Valiylarning muhim belgilaridan biri valiylarning karomat qila bilish qobiliyatiga ega bo'lishidir. "Karomat" "karuma" – "yakrumu" fe'ildan olingan masdar bo'lib, yuqorilik va sharaf ma'nosini anglatadi. Karomat sodir bo'lganidan so'ng valiylarning ishonchi yana ham ziyoda bo'lib, dunyodagi zuhdi-taqvosi kuchayib, havoyi nafs da'vosi yo'qolishidir.

Qizig'i shundaki, yevropalik olimlar o'zlariga begona madaniy bilimlarni (xususan, meditatsiyani), psixologik-pedagogik, ta'limiy qadriyatlarni ijodiy-kreativ o'zlashtirib hamda tatbiq etib, biz yuqorida ta'kidlagandek, ta'lim taraqqiyotida yuksak natijalarga erishishmoqda. Ularning tadqiqotlari haqida tagi puch, ma'nisi yo'q deb hisoblagan minglab kishilar, ilm egalari uning natijalarini ko'rgach, hayrat barmoqlarini tishlashmoqda. Nega biz o'z zaminimizda amal qilgan va dunyoga minglab allomalarni taqdim etgan ushbu merosni tuzukroq o'rganib, amaliyotga tatbiq etishning kreativ, zamonaviy yechimlari haqida o'ylab ko'rmayapmiz?!

Bizningcha, pedagogika oliy o'quv yurti talabalari oldiga shu kabi savollarni qo'yish fursati yetdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Медитация и обучения. - <http://www.prosvetlenie.org/wiki/4/7.html>
2. Valiylar va karomatlar. – <http://old.islom.uz/>
3. M.Tojiyev, B.Ziyomuhammadov. Milliy pedagogik texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiqi va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni. – T.: Mumtoz so'z, 2010. – 365 b. 132-b.
4. Radle, Paul. 2008. Suggestopedia. 17 Nov.2013 <<http://www.vtrain.net/lang-sugg.htm>>.



O'QUVCHILARGA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA AXBOROTLASHGAN TA'LIM RESURLARIDAN FOYDALANISH

L.M. Karaxanova,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI "Tabiiy fanlarni o'qitish texnologiyalari bo'limi" mudiri, p.f.f.d (PhD), katta ilmiy xodim

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimidagi amaldagi axborotlashgan ta'lim muhitining alohida komponentlari bo'lgan axborot tizimlari, ma'lumotlar banklari, muassasa, tashkilot, pedagog va o'quvchilarning veb-saytlari, axborot resurs markazlari, elektron axborot-ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar, media va videodarslar, elektron hujjatlar almashinuv tizimi, videokonferensiya aloqalari,

internet tarmog'idagi on-layn tanlovlar tizimdagi barcha ishtirokchilarni faol foydalanuvchilarga aylanishiga, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga keng joriy etilishiga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy elektron ta'lim resurslari, o'rganish, mustaqil ta'lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar birgalikda "Elektron ta'lim resurslari"ni tashkil etadi. Elektron ta'lim resurslari deganda, foydalanuvchi, ya'ni ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda avtomatik rostlanish imkonini beruvchi, egallangan bilimni avtomatik nazorat kilish tizimi bilan birlashgan o'quv materiallarini uzatish (yetkazish) tizimi tushuniladi.

O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan talablar, kasbiy-pedagogik kompetensiyasidan kelib chiqqan holda biologiya darslarini tashkil etishi zarur. O'rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadiga muvofiq loyihalangan dars ishlanmasida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish kutilgan ijobiy natijani berishiga kafolatlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining biologiya fanini o'qitishning maqsadi – o'quvchilarga tirik organizmlarning tuzilishi, ko'payishi, kelib chiqishi, xilma-xilligi, o'zaro munosabatlari, muhofazasi, tabiat va inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlarni berish, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishdan iborat.

Biologiya o'qitishning vazifalariga :

- asosiy biologik tushunchalar, nazariyalar va qonuniyatlar bilan tanishtirish;
- tirik organizmlarning yashash muhitiga moslanishlarining vujudga kelish mexanizmlari haqida ma'lumot berish;
- organizmlarning individual va tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari bilan tanishtirish;
- o'quvchilarning o'zlarining va o'zgalarning salomatligini saqlashga, sog'lom turmush tarziga rioya qilishga yo'naltirish;
- biologiya ta'lim mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika yutuqlari bilan bog'lanishini ta'minlash asosida o'quvchilarning ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;
- tabiat va uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda bo'lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;
- biologik bilimlar zaminida mahalliy o'simlik va hayvon turlari, seleksiya yutuqlari, qadimda yashab ijod etgan buyuk allomalar va hozirgi olimlarning biologiyaga oid ishlari bilan tanishtirish orqali o'quvchilarning milliy istiqlol va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, biologiyadan olgan bilimlarni hayotda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir ¹.

¹ / <http://rtm.uz>.

Uzluksiz ta'lim tizimining deyarli barcha o'quv muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlarida, jumladan biologiyani o'rganish davomida ham hozirgi kunda deyarli har bir mavzu uchun taqdimot materiallarini tayyorlash va o'quv jarayoniga joriy etish eng maqbul vositalardan sanalmoqda. Ya'ni hozirgi kunda o'quv jarayonlarini elektron vositalarsiz tasavvur qilish juda qiyin.

Davlat ta'lim standartining umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun umumta'lim fanlaridan o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo'yiladigan umumiy talablarda quyidagilar o'z aksini topgan: "Darsliklarning multimediali ilovalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animasiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi hisoblanadi va har bir umumta'lim o'quv predmeti mazkur talab asosidagi elektron ta'lim resursiga ega bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi².

O'quv fanlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan namoyish vositalar ham ayni bir amaliy dasturlar asosida yaratiladi. O'qituvchidan bunday amaliy dasturiy vositalarni tayyorlash va joriy etish kompetensiyasiga ega bo'lishi talab etiladi. Yoki bevosita dasturlovchilar mehnatiga ehtiyoj seziladi. Shunday bo'lsa-da, ko'p hollarda ikki fanning o'zaro integrativ yondashuvi asosida ko'plab ilmiy manbalarni o'zida aks ettirgan elektron vositalar yaratilishiga erishilmoqda.

Hozirgi kunda, respublika multimedia markazi tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv predmetlari doirasida juda ko'plab elektron multimediali resurslar yaratilgan. Ular orasida elektron darsliklar, elektron qo'llanmalar, videodarslar, videoroliklar, taqdimotlar, elektron ishlanmalar, virtual laboratoriya mahsulotlari shular jumlasidandir. Mazkur materiallarning ko'pchiligi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchi-pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan, markaz studiyasida tayyorlangan, o'quv jarayoniga joriy etishga tayyor holatga keltirilgan. Dasturiy mahsulotlar ta'lim portallari va saytlariga joylashtirilgan bo'lib, respublika umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari va o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, ulardan foydalanish ancha qulay holatga keltirilgan.

Ta'lim jarayonidagi kommunikativlik ham o'rganilayotgan jarayonda o'quvchi shaxsini operativ aloqaga kirishishi, elektron resurs mahsulotlaridan foydalanish va qo'llash ko'nikmalarini oson o'zlashtira olishga yo'naltirilishi talab etiladi. Ya'ni

² (o'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.10.2018 y., 09/18/858/2095-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

o'quvchida elektron mahsulotlardan o'quv jarayonining darsda, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham qo'llay bilishi natijasida kommunikativligiga ega bo'lish kompetentligi ham rivojlanib boradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, darsdan tashqari ishlarni bajarish bilan birgalikda, to'garak mashg'ulotlarini samarali tashkil etishni takomillashtirish amalga oshiriladi. Biologiyadan tashkil qilingan to'garak mashg'ulotlarida elektron ta'limiy resurslardan foydalanish o'quvchilarning fanni yanada mukammal o'rganishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Джураев Р. Х., Карахонова Л. М. Медиаобразование как фактор повышения качества обучения школьников //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2013. – Т. 11. – №. 2. – С. 322-323.
2. Карахонова Л. М. эффективное использование электронных образовательных ресурсов в обучении биологии //Наука и образование сегодня. – 2020. – №. 6-1 (53). – С. 41-42.
3. Musokhonovna K. L. ICT- as a means of achieving new educational results in teaching natural disciplines in secondary schools //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – P. 315-321.
4. Karakhonova L. M. Using the electronic educational resources in biology lessons //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILOSOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY. – 2019. – P. 35-39.
5. Джураев Р. Х., Карахонова Л. М. Педагогическое сопровождение одаренных детей образовательными учреждениями // Фан, таълим ва амалиёт интегратсияси. ИСЧН: 2181-1776. [Бол. 3 Но. 4 \(2022\)](#).
6. Kharaxonova L. M. SPECIFIC ASPECTS OF MEDIA EDUCATION AND ITS USE IN HIGH SCHOOLS //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 3. – P. 278-284.

DEONTOLOGIYA VA KASBIY DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNING TA'LIM TIZIMDAGI O'RNI

A.E.Kenjaboyev,

Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Jahonda bo'layotgan ulkan rivojlanishlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida shaxs ijodkorligining ahamiyati va mavqeyi sezilarli darajada yuksalishi ko'pincha yangi innovatsion texnologiyalar va bunyodkor

g'oyalarning yuqori sur'atlar bilan ta'lim-tarbiyaga jarayoniga kirib kelishiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ta'limda o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo'lining tanlab olinishi, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonda belgilangan vazifalar doirasida "Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha Milliy Kengash tashkil etish, uning vazifalari orasida – o'qituvchi kasbining maqomi va obro'sini ko'tarish, o'qituvchilarning moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash, samarali mehnat faoliyati uchun munosib sharoitlar yaratish" belgilangan. Shu bilan birgalikda, 2019-yil 10-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmonda belgilangan vazifalar asosida jahon talablariga muvofiq keluvchi, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan va aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu yo'nalishda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarning yangi avlodi ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga hamda ijtimoiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga ega shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifalari belgilangan. Bugungi kunda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatbardosh, keskin o'zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya sohasida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar bu borada quyidagi ziddiyatlarning mavjudligini ko'rsatmoqda:

-kasbiy faoliyatning turli yo'nalishlarida talabalarning faol ta'lim olish shakllariga bo'lgan ehtiyoji va ijtimoiy zaruriyatining to'laqonli qondirish lozimligi, shuningdek, pedagogik maslahat hamda psixologik yordam bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar mazkur yo'nalishdagi o'quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish uchun yetarli darajada kasbiy pedagogik malakaga ega emasliklari;

-soha mutaxassislari kasbiy takomillashtirishda talabalar tomonidan ta'lim tamoyillari, mazmuni, metod va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoit yaratilmaganligi hamda bilim ko'nikmalarining shakllanmaganligi;

-oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlash, o'quv rejalari va fanlari bloklararo va predmet doirasida integratsiyalashmaganligi. Shu bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya tizimida ba'zi bir salbiy holatlar uchramoqdaki, bu holatlarning asosiy

sabablaridan biri o'qituvchilarning professional madaniyatining pastligi, pedagogik taktikaning yo'qligi va o'z kasbiy burchini yetarli darajada bajara olmasligi hamda o'smirlarning individual xususiyatlarini bilmasligidir. Shu sababli bugungi zamonaviy o'qituvchi professional kompetentlikka ega shaxs sifatida o'z kasbiy burchini anglagan holda ta'limda yosh avlod tarbiyasida faol qatnashishi lozim.

Deontologiya - inson tomonidan talab darajasida xulq normalarini bajarilishi, norma va qoidalarni o'rganuvchi fandır. Deontologiya tushunchasi kasbiy etikada keng qo'llanilib har bir kasb doirasida kasbning odob, xulq normalari haqida nazariy jihatdan tushuncha beradi. Xususan, meditsina, qonunchilik, sud, pedagog, quruvchi hamda davlat boshqaruvi tizimida burch, odob, ahloq normalari mavjud. Deontologiya tushunchasi har qanday kasbiy sohaga tegishlidir jumladan, pedagogik, psixologik, tibbiy, yuridik va boshqalar. Pedagogik deontologiya fanlari va o'z faoliyati sohasida o'qituvchining hulq-atvori qoidalari va normalarini ishlab chiqadi. Real hayot sharoiti va talablariga muvofiq odatlar va tadbirlar bilan bog'liq bo'lgan. U quyidagi tarixiy misollarni ko'rib chiqadi o'z rivojlanishida o'qituvchining o'zini haqidagi g'oyalarni aniqlashtiradi, davlat va shaxs o'qituvchi va uning kasbiy talablari xatti-harakatlarini o'rganadi.

Ta'lim va tarbiya berishda "...ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm, shogird dilida ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu ustoz juda ham yumshoq ko'ngilli bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning fe'l-atvoriga qarab ta'lim-tarbiyaning "qattiq" yoki "yumshoq" usullaridan foydalanishi mumkin" deydi. Bunda ustoz mudarrisga quyidagi talablarni qo'yadi:

Birinchi yo'l-tarbiyalanuvchilar o'qish va o'rganishga ishtiyoqmand bo'lsalar ta'lim-tarbiya jarayonida mudarris tomonidan yumshoq usullar qo'llaniladi. Bunda u qanoatbaxsh so'zlardan foydalanadi, chorlovchi ilhomlantiruvchi gaplar aytib o'quvchiga ko'nikma va malakalarni vujudga keltiradi, natijada o'quvchining iqtidori uyg'onib, g'ayrat-shijoati bilan bilim olishga, kasb egallashga intiladi;

Ikkinchi yo'l-tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsalar, mudarris tomonidan qattiq, ya'ni majburlovchi usullar qo'llaniladi. Bu asosan gapga ko'nmovchi ba'zi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu usul natijasida o'quvchi nazariy bilimlarni o'rganishga astoydil kirishadi, fazilati yaxshi bo'lib, kasb-hunarlarni va juz'iy san'atlarni egallashga intiladi. Maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb hunar ahillariga aylantirishdir.

Ma'lumki, barcha davrlarda ham o'qitish mazmuni, ta'lim tizimi ijtimoiy taraqqiyot bilan o'zaro muvofiqlikda rivojlanib kelgan. Ro'y berayotgan ijtimoiy islohotlar barchasi ma'lum darajada ta'lim mazmunida o'z aksini topadi. O'zbekiston Respublikasida 2020-yilda yangi tahrirda "Ta'lim to'g'risida" gi

qonunni qabul qilinishi uzluksiz ta'lim tizimida yangi bir qator vazifalarni amalga oshirishga zamin yaratildi.

Mamlakat kelajagi barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimga insonlarga bog'liq. Shu bois, oxirgi to'rt yilda ta'lim sifatini yaxshilash o'qituvchilar mavqeyini yuksaltirish bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Mamlakatimiz yangi davrga qadam qo'ymoqda. "O'zbekiston 2022-2026- yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi"ning to'rtinchi ustuvor yo'nalishi aynan ta'lim sohasida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyev bu hayot-mamot masalasi ekanini ta'kidladi: "Bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqimiz yo'q, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Bunga barcha e'tiborimiz va resurslarimizni safarbar qilamiz. Qiyin yo'lni tanlayapmiz lekin shu yo'l muammolarni yechadi" dedi. Endilikda "O'zbekiston 2022-2026- yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" asosida belgilangan vazifalar doirasida xalq ta'limining tizimli rivoji uchun budjetdan 300 milliard so'm mablag' ajratiladi, yangi qurilish talablaridan kelib chiqib yangi maktablar qurilishiga e'tibor qaratiladi, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimli isloh qilinadi, darsliklarning yangi avlodi shakillantiriladi, maktab o'quv yuklamalari qayta ko'rib chiqiladi, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, sport va san'at bilan shug'ullantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ta'lim samaradorligining muhim omili o'qituvchining qobiliyati va mahoratiga bog'liqdir.

Zamonaviy o'qituvchining kompetentligi komponentlari:

Bilimdonlik, tashkilotchilik, izlanuvchanlik, adolatlilik, kommunikativlik, yuksak ma'naviyatlilik, nazoratni o'z vaqtida o'rnatishi, o'z xisssiyotini jilovlay olish, g'oyaviy siyosiy bilim.	Tashabbuskorlik, yuqori imij, aktyorlik, notiqlik, mahorati, qaror qabul qilishga variativlik, qonun doirasida ishlash, yetakchilik qobiliyati, sadoqatlilik.	Kasbiy refleksiya mehnatga ijodiy munosabat, bir so'zlilik, yangilanishlarni tez qabul qilish, natijani oldindan ko'rish mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik.
--	---	--

G'oyaviy siyosiy bilim mukammal bilim, qobiliyat, kreativ tafakkur, komillik, halollik adolatlilik, tashabbuskorlik, kommunikativlik, insonparvarlik, yangliklarni tez qabul qilish, mehnatga ijodiy yondashuv, kasbiy refleksiya, yuqori imij, tanqidiy fikrlash, pedagogik deontologiya aktyorlik mahorati va boshqalar. Professor A.Musurmonova fikriga ko'ra "mazkur kompetentlik komponentlari zamonaviy o'qituvchining yutug'ini kafolatlaydigan mezonlar hisoblanadi".

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda mehnat bozorida yuzaga keladigan raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida kasbiy deontologik kompetentlik sifatlarini tarkib toptirishni asosiy vazifa sifatida belgilashi lozim;

- pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va kasbiy bilimlarini ta'minlash zarur;
- pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida ijtimoiy maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda komunikativ) shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi;
- yoshlarimizning taqdiri prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ta'lim tarbiya uchun ma'sul bo'lgan, o'z burchi va vazifalariga mas'uliyatlilik bilan yondashadigan pedagoglarga bog'liqdir;
- bugungi ta'lim – tarbiya samaradorligi o'qituvchi pedagogning deontologik kasbiy kompetentligiga bog'liq, shu sababli o'qituvchi o'zini kompetensiyaviy yo'nalishini refleksiya qilib borishi lozim;
- professor – o'qituvchilar o'z shogirdlariga deontologik talablarni uzluksiz singdirib borishlari maqsadga muvofiqdir;
- pedagog qalbidagi mehnat shogirdlariga ko'rsata olishi hamda o'z kasbiy burch va mas'uliyatni anglagan holda pedagogik mahoratini oshirib borishi bugungi jamiyatning asosiy talabi hisoblanadi bu esa barkamol avlodni tarbiyasini yanada yuksaltirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.



TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI KOMPETENTLIGINING MAZMUN MOHIYATI

D.A.Kenjaboyeva,

Termiz davlat universitetining Xorijiy filologiya fakulteti
chet tillari kafedrası o'qituvchisi

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi – jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlariga ega bo'lish degan xulosaga kelinadi. Ta'limda yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan kompetentli yondashuvning paydo bo'lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalari 1960-yillarning oxiri 1970-yillarning boshlarida paydo bo'ldi va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi.

Kompetentlik – deganda ko‘pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo‘luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko‘nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo‘naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo‘lishi kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko‘nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog‘liq. Kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kompetentlikning asosiy elementlari Davlat ta‘lim standartlarida o‘z ifodasini topgan. Rahbar va pedagog xodimlari bilan o‘zaro to‘g‘ri munosabatlarni, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o‘rin tutuvchi tilni o‘zlashtirish, jamoada ishlash ko‘nikmalari, jamoada turli xil ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishni bilishni o‘z ichiga oladi.

Yevropa Kengashi dasturi bo‘yicha Bern shahrida bo‘lib o‘tgan simpoziumda (1996-yil) «kompetensiya» tushunchasi «o‘quv», «kompetentlik», «qobiliyat», «mahorat» singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta‘lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999-yil) ta‘lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondoshuv e‘tirof etildi.

Pedagogning kompetentligi – bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas‘uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O‘z sohasini, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir.

Pedagogik kompetensiyaning shakllanish bosqichlari:

Qobiliyatni aniqlash

Tarbiyalash va shakllantirish

Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish)

Ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish)

Rahbarlik cho‘qqisi

O‘zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligining o‘rganilishi

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi:

Pedagogning kasbiy kompetentligi. Pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan bo‘lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi:

Autokompetentlik (o'zini ijtimoiy rivojlantirish);

Ekstremal kasbiy kompetentlik (kasbiy rivojlantirish olish) (kutilmagan vaziyatlarda ishlay olish).

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

“Kompetentlik” so'zining ma'nosi xabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi.

Kompetensiya - shaxsiy sifat bo'lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo, pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo shu yerda. O'qituvchi o'quvchilarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak” deb ta'kidlaydi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari shu jumladan, ta'lim muassasalari pedagog kadrlarni tayyorlashda e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda globallashtirish sharoitida pedagog kadrlar zimmasiga juda katta kompetensiyaviy talablar qo'yilmoqda, ularga javoban kuchli metodologik bilim, katta tajriba, ilmiy nazariy salohiyat talab etiladi.

Bo'lajak mutaxassislarda ushbu malaka talablarini shakllantirish samaradorligi OTM rahbar va pedagog kadrlari kompetentlik darajasiga bog'liqdir. Shu o'rinda kompetensiya tushunchasiga to'xtalib o'tsak, “kompetensiya” lotincha so'z bo'lib o'zbektilida lug'aviy ma'nosi “inson yaxshi biladigan”, “tajribaga ega bo'lgan” kabi ma'nolarni anglatadi.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish, har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritib olishi zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

Kompetensiya u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik “kompetensiya” (lotincha compete-erishaman, munosibman, “mos kelaman”) shuningdek, “Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari mazmunan bir xil maqsadga qaratilgan bo‘lsada, bir-biridan qisman farq qiladi. Kompetentlik ko‘proq amaliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib olingan kompetensiyaviy bilimlarning amaldagi ijrosidir.



QORI NIYOZIY VA UNING SHARQ UYG‘ONISH DAVRI OLIMLARI HAQIDAGI QARASHLARI

D.M.Malikova

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish nazariyasi va metodikasi” bo‘lim mudiri,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyozov 1897-yilda Xo‘jandda etikdo‘z oilasida tug‘ildi. U mehnat faoliyatini yoshlik chog‘laridan boshlagan. 1917-yil yigirma yoshida Farg‘ona viloyatida o‘zining birinchi maktabini ochgan. 1920 -yil bu maktab Qo‘qon shahridagi dorilmuallimlik ta‘lim-tarbiya kursi bilan qo‘shilib, Farg‘ona viloyat ta‘lim-tarbiya texnikumiga aylantirilgan va Qori Niyoziy unga direktor qilib tayinlangan. 1926-yilda Toshkentda O‘rta Osiyo davlat universitetining fizika-matematika fakultetiga o‘qishga kirib, uni 1929-yilda tugatgan. 1931-yilga qadar shu universitetda o‘qituvchi, professor, 1931–1933-yillarda rektor bo‘lib xizmat qilgan. 1934–1936-yillarda Toshkent davlat pedagogika instituti va boshqa oliy o‘quv yurtlarida matematika kafedralarini boshqargan. 1937–1938-yillarda O‘zbekiston Xalq Maorifi Komissari va Fanlar qo‘mitasida prezidium raisi vazifalarini bajargan. 1939–1943-yillarda O‘zbekiston Xalq komissari raisining o‘rinbosari va Butunittifoq Fanlar akademiyasining O‘zbekiston filiali prezidiumining raisi (1940-1943) bo‘lib ishlagan. 1943-1947-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasida prezidentlik

vazifasini bajargan. So'ngra 1960-yilga qadar Fanlar akademiyasi prezidiumining a'zosi, fizika-matematika bo'limi raisi bo'lib xizmat qilgan.

Qori Niyoziy Yaponiya, Fransiya, Italiya, Polsha, Bolgariya, Afg'oniston, Hindiston mamlakatlarida bo'lgan ilmiy anjumanlarda, o'z ma'ruzalar bilan ishtirok etgan.

Ijtimoiy hayotda, maorif va ilm-fan sohasida qilgan xizmatlari davlatning yuqori ordenlari, Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti laureati unvoni bilan taqdirlangan.

Yirik olim Qori Niyoziy fanning tarixiy ildizlarini ham alohida sinchkovlik bilan o'rganib chiqqan. Nafaqat zamonaviy olimlarning ilmiy ishlarini balki, o'rta asr Sharq Uyg'onish davri olimlarining ijodiy ishlariga e'tibor berib, ularning mehnatini tengsiz baholagan. Yoshlarga o'tmish olimlarining ishlarini o'rganib, ularni chuqur tahlil qilishni ta'kidlagan. Jumladan, u o'zining ma'ruzalaridan birida shunday deydi.

Akademik Toshmuhammad Qori Niyoziyning bu audio ovozi o'tkan asrning 40-yillari so'ngida yozib olingan.

"Xalqning eng yaxshi farzandlari yozchiroq va shamning xira nuri ostida ma'naviy boylik yaratganlar. Mashaqqatli mehnat natijasida moddiy madaniyat bunyod etganlar. Shunday murakkab sharoitda ijod etkan ajdodlarimizning mehnatsevarligiga ularning sabr-u matonatiga qoyil qolasan kishi. O'rta Osiyo eng qadim madaniyat o'choqlaridan biridir. Hozirgacha saqlanib kelgan qo'lyozmalar va boshqa xilma xil madaniy yodgorliklar shundan dalolat beradi. Ma'munning topshirig'iga binoan 827-yilda fan tarixida olamshumul tadbirlardan biri amalga oshirildi. U ham bo'lsa yer sharining o'lchamlarini aniqlash maqsadida uning gradusga nisbatan o'lchasidan iborat edi. Bu tadbir bevosita Xorazmiyning ishtiroki va uning rahbarligi ostida bajarildi. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, bu fan tarixida g'oyat darajada favqulodda katta va inqilobiy qadamdan iborat edi. Bu o'lchovning ilgari erotasfen usulidan farqi shundaki, unda chiziqli masofa meridian bo'ylab bevosita o'lchov bilan burchak darajasi esa yulduzlarning meridian ustidagi vaziyatlarini kuzatish yo'li bilan aniqlangan edi. Gradusi 1 ga teng bo'lgan meridian uzunligi birinchi marta 56 km. Ikkinchi marta esa 56 yu 3/2 arab mili ya'ni o'rtacha hozirgi o'lchov bilan 112 km ga barobar bo'lib chiqdi. Bu o'z zamonasi uchun ancha aniq natija edi. Abul Abbos Ahmad Binni Muhammad Farg'oniy yoki latincha Alfraganus nomi bilan mashhur bo'lgan olim ijodiy faoliyati ham juda katta va muhim o'rin ishg'ol etadi. Bu olimning qalami bilan yozilgan asarlar ichida astronomiya asoslari nomli katta kitob ayniqsa qimmatlidir. Bu kitob o'z zamonasining eng yaxshi astronomik monografiyasi shu bilan birga astronomik bilimlarning o'ziga xos ensiklopediyasi hamdur. Farg'oniyning lotin tiliga tarjima qilingan asarlari XV asrning o'rtalarida ham Yevropada keng tarqalgan edi.

Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi fan va madaniyatning bir qadar ilgari siljishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Bir qancha ulug' olimlarning ijodiy faoliyati xuddi ana shu davrga tog'ri keladi. Olimlardan atoqli faylasuf Abu Nasr Muhammad Farobiy, mashhur ensiklopedist olimlar Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, mexanik, fizik matematik va astronom Muhammad ibn Ahmad Xorazmiy. Geograflar Abu Abdullo Jayhuniy, Sharoifzamon Umar Voziy, matematik va astronomlar Abu Mahmud Ho'jandiy va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Bu olimlarning deyarli hammalari O'rta Osiyoning farzandlaridur.

Jahon fani xazinasida bu olimlarning hissalarini g'oyat darajada katta va muhimdur. Ijtimoiy fanlar sohasida ishlagan bir guruh olim va shoirlarning ijodiy faoliyati ham ana shu davrga tog'ri keladi. Bu davrda Majid al bin Admanni "Tarixi mulki Turkiston", Yusuf Xos Hojibning didaktik asari "Qutadg'u bilig", Xorazmlik filolog Abul Qosim Zamaxshariyning bir necha yirik asarlari, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari kabi ulkan ilmiy asarlar maydonga keladi. XI asrning birinchi 10 yilligida Xorazmda mashhur Ma'mun akademiyasi tashkil qilinadi. Bu yerda Beruniy atrofiga o'sha zamonning bir guruh olimlari jumladan Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Binni Iroq, Abu Sah Nasihiy va medik Abul Hasan Hammal va boshqa olimlar to'planib ish olib borganlar".

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, T.N. Qori Niyoziy sobiq ittifoq davrida ham Markaziy Osiyo fani hamda olimlarini o'rganishdan qo'rqmagan. Ularning ilmiy ishlariga befarq bo'lmagan. Yoshlarga mehnatdan, izlanishdan, o'z ma'naviyatini moddiy hamda ma'rifiy merosini chuqur o'rganishni qayta-qayta takrorlagan. Ma'naviyati, ma'rifati boy yurtning farzandlari kelgusi avlodlarga ham o'zlaridan munosib ilmiy meros qoldirishini qayd etib o'tgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqar Zunnunov. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2004.
2. <https://newspaperarchive.com/obituary-clipping-mar-18-1970-1737523/>
3. <https://fayllar.org/1-t-n-qori-niyoziyning-hayot-yoli-t-n-qori-niyoziyning-asarlar.html>.
4. "Qori Niyoziy" # nodir ovozlari rukni @mtrkaudiokitoblari.



NUTQNING TARBIYAGA AHAMIYATI

L.R.Muminova

RBIMM pedagogika fanlari doktori, professor

Har bir oqil insonning va jamiyatning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, hayotning ma'nosi qobil farzandlar o'stirish, ularni ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko'rish, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir.

Hozirgi yoshlarimizni har jihatdan mukammal, barkamol, keng dunyoqarashga, ijodiy tafakkur, intellektual salohiyatga ega bo'lgan shaxslar etib tarbiyalashimiz zarur. Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning bilimdonligi, ma'naviy kamoloti, g'oyaviy yetukligi davrimizning dolzarb vazifalaridandir. Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri, ya'ni ijtimoiy himoyaga muxtoj bolalar bilan bog'liq muhim vazifalar va tizimdagi holat xususidagi masaladir. Bugun yurtimizdagi har bir bolaga davlatimizning barcha haq-huquqlarini to'liq foydalanadigan fuqarosi sifatida qaralishini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Ta'lim respublikamizning ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor deb e'lon qilingan, demak O'zbekistonimizning kelgusi rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash hozirgi kunning eng muhim vazifasi sanaladi.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida tilimizni, dilimiz va dinimizni, o'zbekning o'zligini har jihatdan asrab-avaylab, barkamol avlodlarni voyaga yetkazib keldilar. Bunday fazilatlar asl e'tiborga ko'ra bizning xalqimizga munosibdir va bu bilan har qancha g'ururlansak arziydi.

Har bir oqil insonning va jamiyatning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, hayotning ma'nosi qobil farzandlar o'stirish, ularni ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bugungi kunda yoshlarimizni har jihatdan mukammal, barkamol, keng dunyoqarashga, ijodiy tafakkur, intellektual salohiyatga ega bo'lgan shaxslar etib tarbiyalashimiz zarur. Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni bilimdon, ma'naviy kamol topgan, g'oyaviy yetuk insonlar qilib tarbiyalash hozirgi zamon pedagoglar-tarbiyachilar va ota-onalar oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardandir.

Bola shaxsining har tomonlama rivojida nutq benuqson bo'lishining ahamiyati katta. Chunki nutq – kishilararo aloqa quroli, barcha sohalarda qudratli muomala vositasi. Nutq kishilarning tug'ma qobiliyati emas. Nutq bolalarda asta-sekin rivojlanadi. Bolalar o'sib rivojlangan sari nutqi ham rivojlanib boradi. Bolalarning nutqi me'yorida bo'lishi uchun bosh miya po'stidagi nutq markazi to'liq rivojlangan

bo'lishi, ularning sezgi organlari – eshitish, ko'rish, idrok yetish etarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Ayniqsa nutqni harakatga keltiruvchi va nutqni eshituvchi analizatorlarning rivojlangan bo'lishi juda muhimdir.

Agar bola yangi, aniq taassurotlar olib turmasa, uning harakatlari va nutqining rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratib berilmasa, bu holda bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi orqada qoladi. Bolaning nutqi juda yoshligidan boshlab atrofdagi predmetlarni tanish, atrofdagilarning ovozi eshitish orqali shakllanadi.

Bola nutqining rivojlanish jarayoni o'z vaqtida to'g'ri kechishi uchun maxsus sharoitlar mavjud bo'lishi, bola psixik va somatik jihatdan sog' bo'lishi, normal aqliy qobiliyatga ega bo'lishi, normal eshitishi va ko'rishi, yetarli darajada psixik faollikka ega bo'lishi, gaplashishga ehtiyoj sezishi va to'g'ri nutq muhiti sharoitida o'sishi lozim.

Garchi nutqning to'g'ri tarkib topishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajriba, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq bo'lsa-da, ba'zi sabablar tufayli bola nutqi to'g'ri rivojlanmaydi, bola ilk yoshidan nutqsiz bo'lib voyaga yetib boradi. Ilk yoshdagi nutqsiz bolalar dizontogenezing xususiyatlari erta aniqlash, ularni logopedik ko'rikdan o'tkazish metodikasi, nutqini rivojlantirish bo'yicha korreksion-logopedik ishning tizimli ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq.

Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi.

Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish lozim.

Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi. Masalan, 1 yosh-u 4 oylik bola gapirmayapti. Pedagog bolaning normal rivojlanishida birinchi so'zlar qachon paydo bo'lishini bilsa, u holda u bu bolaning normal yoki nonormal rivojlanayotganligini hal qila oladi.

Bola nutqining rivojlanish xususiyatlarini bilish, nutq buzilishlariga to'g'ri diagnoz qo'yish uchun ham zarurdir. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda to'g'ri va aniq tarbiyaviy-tuzatish ish rejasini tuzish uchun bola nutqining rivojlanish qonuniyatlarini bilish zarur hisoblanadi.

Bola nutqining rivojlanish jarayoni o'z vaqtida to'g'ri kechishi uchun maxsus sharoitlar zarurdir. Buning uchun:

- bola ruhiy va jismoniy jihatdan sog' bo'lishi;
- normal aqliy qobiliyatga ega bo'lishi;

- normal eshitishi va ko‘rishi;
- yetarli darajada ruhiy aktivlikka ega bo‘lishi;
- gaplashish ehtiyojiga ega bo‘lishi;
- to‘g‘ri nutq muhitiga ega bo‘lishi lozim.

Bolada nutqning normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o‘zlashtirib olishga, tevarak-atrof haqidagi bilim va tasavvurini kengaytirishga imkoniyat yaratadi.



MUSIQA VA MATEMATIKA

I.B.Matyakubov,

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Maktabgacha va musiqa ta‘limi” kafedrası

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v\b

Musiqa savodi bo‘yicha bilimlarni yetkazishda fizika (tovush va tovushning fizik xossalari, ovoz kuchi, tembri, tovush amplitudasi va hokazo) matematik o‘lchovlar, notalar cho‘zimlarini turkumlanishiga bog‘lab tushuntirish ma‘lumotlarni o‘quvchilar tomonidan oson o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Musiqa alohida fan sifatida e‘tirof etilguncha matematika ilmining tarkibiy qismi sifatida o‘rganilganligi tarixdan ma‘lum. Tarixning guvohlik berishicha buyuk allomalar Muso Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, arab olimi Al Kindiylarning matematika, falsafa, falakiyotga oid asarlarida musiqaning nazariy tamoyillarini yoritish uchun maxsus bo‘limlar ajratilgan. Masalaga mantiqan yondashganda ham musiqaning nazariy asosi bo‘lgan tovushlar cho‘zimi, ritmik tuzilishi, ton tuzilishi, o‘lchamlari, hissalarini ijro etishdagi vaqt hajmi, barchasi aniq matematik hisoblarga asoslanadi. Shuningdek, intervallar o‘lchamlari, dirijiorlik o‘lchovlari, hatto raqs harakatlari ham ma‘lum matematik hisoblashlar orqali bajariladi. Albatta, musiqa darslarida nazariy qoidalarni tushuntirishda mana shunday fizik va matematik qonuniyatlardan hamda shu fanlarga daxldor asboblardan (kamerton, metronom) foydalanish o‘quvchilarda yaxshi taassurot qoldirishi shubhasiz. Buyuk bobokalonlarimiz musiqa va matematika fanlari bir-biriga chambarchas bog‘liq ekanligini o‘zlarining qarashlari, ilmiy tadqiqotlarida yozib, tadqiq qilib kelishgan.

Abu Ja‘far (Abu Abdulloh) Muhammad ibn Muso al Xorazmiy (783, Xiva – 850, Bag‘dod) – xorazmlik riyoziyot, falakiyot, jug‘rofiya va b. fanlar tarixidagi ilk qomusiy olimlardan. Zahiriddin va Firdavs qo‘lida tahsil olgan va birga ishlagan. Dastlabki ma‘lumotni Xiva shahrida olgan va yetuk olim bo‘lib shakllangan. Bunda arab istilosidan so‘ng muayyan darajada saqlanib qolgan qadimgi Xorazm

fani an'analari asosiy rol o'ynagan. Xalifa Horun ar Rashidning o'g'li va uning Xurosondagi voliysi al Ma'mun huzuriga – Marvga taklif etilgan. 819-yilda Bag'dodni egallagan al Ma'mun Markaziy Osiyolik olimlardan Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Habash al Hosib Marvaziy, Abul Abbos Javhariy va boshqalarni o'zi bilan olib ketib, o'ziga xos ilmiy jamoa tashkil etgan. Bu jamoa fan tarixidagi dastlabki rosmiyan akademiya deb qaraladigan ilmiy muassasa – “Bayt ul Hikmat” (“Donishmandlik uyi”)ning asosini tashkil etgan. Bu akademiyada Xorazmiy yetakchi olim va ilmiy rahbar bo'lgan. U shu davrdan boshlab Bag'dodda al Ma'mun (813–833), so'ng al Mo'yetasim (833–842), al Vosiq (842–847) xalifaligi davrlarida yashab ijod etgan.

Xorazmiyning bizgacha o'ntacha asari to'liq, qisman yoki ayrim parchalar tarzida yetib kelgan. Al-Xorazmiy o'z asarlarida musiqiy tonlarning o'lchami, yani cholg'u asboblari ijro qilinayotganda barmoqlar torning “A” nuqtasidan “B” tomon yaqinlashishi natijasida torning tebranishi tezlashishi holatlarini yozib o'tgan bu zamonaviy tilda mikroxromatika deb ataladi va nazariy jihatdan bir oktava oralig'i 96 tondan iboratligini isbotlagan. Hozirgi zamonamizda esa bu tonlarning Yevropada 12 tasidan, Sharqda 17 yoki 24 tasidan foydalana olayapmiz xalos.

1. Prima—1 birinchi, (bir xildagi ikki tovushning unison bo'lib eshutilishi)
2. Sekunda Kichik sekunda - 0,5 - ton Katta sekunda – 1 - ton
3. Tertsiya Kichik tertsiya – 1,5 - ton Katta tertsiya – 2 - ton
4. Kvarta Sof kvarta – 2,5 - ton
- Orttirilgan kvarta yoki kamaytirilgan kvinta 3 - ton
5. Kvinta Sof kvinta – 3,5 - ton
6. Seksta Kichik seksta - 4 - ton Katta seksta – 4,5 - ton
7. Septima Kichik septima - 5 - ton Katta septima – 5,5 - ton
8. Oktava - 6 - ton

Xoja Abdulqodir Marog'iy (to'liq ismi Xoja Abdulqodir bin G'oibi al Hofiz al Marog'iy) (XIV asr 2-yarmi, Marog'a shahrida tug'ilgan — 1434/35) — sozanda (ud, chang, nay), xonanda, bastakor va musiqashunos. Amir Temur uni Bag'doddan Samarqandga olib kelgan va 1394—1405-yillarda u Sohibqiron, so'ng Shohrux Mirzo, Xalil Sulton saroylarida umrining oxirigacha xizmat qilgan. Marog'iy musiqa nazariyasi sohasida boy meros qoldirgan: “Kanz ulalhon” (“Kuylar xazinasi”), “Jome ulalhon” (“Kuylar majmuasi”), “Maqosid ulalhon” (“Kuylar hosil qilish o'rni”), (Safiuddin al Urmaviyning “Kitob uladvor”iga sharh) va boshqalar. Shuningdek, u “Kitob uladvor”ni turk tiliga tarjima qilgan. Marog'iy asarlarida Forobiy, Safiuddin al Urmaviy, Mahmud ash Sheroziylarning musiqaga oid nazariy fikrlarini rivojlantirib, qator masalalarda aniqliklar kiritgan (advor ilmini jamladi va doira usullarining 103 xilini keltirgan). Bulardan tashqari doira usullarining qancha

vaqt davomida (serkulatsiya) aylanib kelishini o'rganadi va uni naqata deya nomlaydi. U o'z davrida qo'llanilgan 45 cholg'u (ud, rubob, chang, yotug'on, ruhafzo, egri, qo'biz va boshqalar)ni o'ziga xosligi ko'rsatkich (parametr)larini hisob-kitoblar orqali tavsiflagan. Marog'iy "Udi murassa" deb atalgan torli soz ixtiro qilgan. Bastakor sifatida Sharq xalqlari musiqasida mashhur tasnif, peshrav, amal, savt shakllarida ("Tasnifi Xoja Abdulqodir", "Amali Bo'ston" kabi) kuy va ashula yo'llari, yangi (Zarbul fath, Chohor zarb singari) doira usullari yaratgan, ularning ba'zilar hozir ham ijro etiladi (turklarda "Qiyor" kuyi va boshqalar). U fors va turk tillarida g'azallar ham yozgan; g'azallari ravonligi va musiqiyligi bilan ajralib turadi. Marog'iyning merosi Eron, Ozarbayjon, Xuroson, Iroq, Turkiya, O'rta Osiyo (xususan, O'zbekiston) xalqlari musiqa tarixini o'rganishda muhim manbalardandir.

Temuriylar davrida yashagan Xoja Abdulqodir Marog'iy, manbalarda zikr qilinishicha, Sohibqiron g'azabiga uchragach, bir qancha vaqt yolg'iz yashab, qalandarona hayot kechirdi. Kunlar o'tdi. Sarkarda o'z lashkari bilan Iroqqa yurish qilish harakatiga tushdi. Bundan xabar topgan Abdulqodir Amirning qulog'iga yetib boradigan bir nazm tuzishga qaror qildi. Shunday xayol bilan, u bir abjat (**Abjad** – 1) qadimgi arab alifbosi tarkibidagi harflardan tuzilgan va har qaysi harfning son qiymatini eslab qolish uchun yasalgan sakkizta so'zning birinchisi va shartli umumiy nomi. Bu so'zlar: abjad, havvaz, hutti, kalaman, sa'ufas, qarashat, saxxaz, zazag'. Aslida arab harflarni sonlar bilan va sonlarni harflar bilan ifoda qilish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022-yil 112-son qarori asosida "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"

1. 2022/2023-o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilansin:

a) umumiy o'rta ta'lim muassasalarida:

o'quvchilarga mazkur qarorga 1-ilovadagi ro'yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi;

Musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkaziladi;

Mazkur qarorga 1-ilovadagi ro'yxatda keltirilgan milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024-o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi;

Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, musiqa ohanglari orqali va musiqa cholg'ularida ijro ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchini matematika, geometriya, algebra kabi aniq fanlarni yanada chuqurroq tushunib yetishi uchun xizmat qiladi. Yuqorida keltirib o'tganimizdek musiqa cholg'usini o'rganish jarayonida ham o'quvchi o'lchov, sur'at, cho'zim, metr, aplikatura kabi tushunchalarni matematik hisob-kitobni his qilish orqali ijro etadi.

Shu o'rinda T.N. Qori Niyoziy esdaliklaridan lavha keltirib o'tamiz: 1918-yili qizil armiya qismlarida damli cholg'ular va simfonik orkestr tashkil qilinadi. Orkestr ijrochilari orasida kornetchilar E.Egamberdiyev, I.Rustamov, klarnetchilar A.Fayzullin, Muhiddin Qori Yoqubov, Qori Niyoziy, altchilar Hasan Sodiqov va Qobul Sohibov, tenorchi O'lmas Qurbonov, baritonchi Salohiddin Isomiddinov, basda Ismoiljon Muhammadjonov nog'ora va zarbli cholg'ularda Isroilxo'ja Rustamov va boshqa millat vakillari ham bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdi-ki O'zbek olimi, pedagogi, matematigi, O'zSSR Fanlar Akademiyasi akademigi va ilk prezidenti bo'lgan Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy o'z ilmiy va ijodiy qadamlarini musiqa sohasidan boshlagan ekan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz kerakki umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa fanini soatlarini hozirgidek haftasiga bir marotaba, atigi 45 minutdan emas, kerak bo'lsa xar kuni bir soatdan (45 minutdan) dars jadvaliga qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek musiqa fani orqali o'quvchi boshqa fanlarni tez va oson o'zlashtiradi va uni qalbi orqali his qila boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. <https://kun.uz/uz/21648902>
2. <https://uz.wikipedia.org>
3. Qudratov Ismatilla, Rahmatov Ahmad SamDu "Musiqa darslarini fanlararo aloqadorligida tashkil etish imkoniyatlari" "Science and education" scientific journal-2020.
4. B.S.Salixov, B.Matyokubov "O'zbekistonda damli va zarbli cholg'ular ijrochiligi tarixi" – Toshkent-2007 yil.
5. I.B.Matyakubov "Bolalar musiqiy asarlarini akkompamentlashtirish va aranjirovkasi" – Toshkent-2022 yil.



BOLALARDA GEOMETRIK FIGURALAR HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI

N. Muminova,

MTTDMQTMOI katta o'qituvchisi (PhD)

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda tarbiyachi o'qitishning har xil usullari — amaliy, ko'rsatmali, og'zaki, o'yin usullaridan, foydalanadi. Usulni tanlashda bir qator omillar mazkur bosqichda yechiladigan dastur masalalari, bolalarning yosh va individual xususiyatlar, zarur didaktik vositalarning mavjudligi va boshqalar hisobga olinadi.

Tarbiyachining metod va usullarning asosli tanlanishiga, har bir aniq holda ulardan ratsional foydalanishga doimo e'tibor berib turishi quyidagilarni ta'minlaydi:

- elementar matematik tasavvurlarning muvaffaqiyatli shakllanishi va ularning nutqda aks ettirilishi;

- tenglik va tengsizlik munosabatlarini (buyumni soni, o'lchami, shakli bo'yicha) idrok qilish va ajratish, natijaviy munosabatlar (o'lchami yoki soni bo'yicha orttirish yoki kamaytirish) ni, analiz qilinayotgan obyektlarning miqdori, shakli, kattaligini umumiy belgi sifatida ajratish, aloqa va bog'lanishlarini aniqlash malakasi;

- bolalar o'zlashtirgan amaliy ish usullari (masalan, qarshi qo'yish, sanash, o'lchash bilan taqqoslash)ni yangi sharoitlarda qo'llashga yo'naltirish va mazkur vaziyatda ahamiyatga ega bo'lgan belgilar, xossalari, bog'lanishlarni aniqlash, topishning amaliy usullarini mustaqil izlashga yo'naltirish. Masalan, o'yin shart-sharoitlarida belgilarning tartibi, almashinib kelish qonuniyatini, umumiy xossalarni topishni o'rgatish mumkin.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy metod yetakchi metod hisoblanadi. Uning mohiyati bolalarning buyumlar yoki ularning o'rnini bosuvchilar (tasvirlar, grafik rasmlar, modellar va h. k.) bilan ishlashning jiddiy aniqlangan usullarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan amaliy faoliyatlarini tashkil qilishdan iborat.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy usulning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat: aqliy faoliyat uchun asos bo'ladigan har xil amaliy ishlarni bajarish; didaktik materiallardan keng foydalanish; didaktik materiallar bilan amaliy ishlash natijasi sifatida tasavvurlarning paydo bo'lishi; eng elementar usulda sanash, o'lchash va hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish; turmushda, o'yinda, mehnatda, ya'ni faoliyatning har xil to'rlarida shakllangan tasavvur va o'zlashtirilgan harakatlardan keng foydalanish.

Mazkur usul maxsus mashqlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu mashqlar ko'rsatish uchun belgilangan material shaklida, tashkil qilinishi yoki tarqatma material bilan mustaqil ish ko'rinishida topshiriq shaklida berilishi mumkin.

Mashqlar hamma bolalar bir vaqtda yoki bitta bola doska yoki tarbiyachining stoli oldida bajaradigan yakka tarzda bo'lishi mumkin. Hamma bolalar bajaradigan mashqlardan bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlashdan tashqari, nazorat qilish uchun ham foydalanish mumkin. Yakka-yakka tarzda bajariladigan mashqlar ham o'sha vazifalarni bajaradi-yu, ammo ular bolalar faoliyatida yo'nalish oladigan obraz (namuna) sifatida ham xizmat qiladi. Ular orasidagi bog'lanishlar vazifalarining umumiyliigi bilangina emas, balki doimo almashinib kelishi, qonuniy ravishda bir-birlarining o'rnini bosishi bilan ham aniqlanadi.

Hamma yoshdagi guruhlarda bajariladigan mashqlar o'yin elementlari kichik guruhda – surpriz moment ko'rinishida, o'xshash harakatlar, ertak qahramoni va h. k. Katta guruhlarda bunday mashqlar izlanish, musobaqa xarakterini oladi.

Mashqlar bolalarning yoshiga qarab qiyinlashtirila boriladi. Ular bir necha bo'g'inlardan tashkil topadi. O'quv-bilish mazmuniga oid o'yin-mashqlar muammo shaklida emas, ko'pchilik hollarda ularni bajarish uchun tasavvur bo'yicha harakat qilish, topqirlikni namoyish qilish, aqllilikni ko'rsatish talab qilinadi. Chunonchi, tarbiyachi kichik guruhdagi bolalardan har qaysi quyinni sabzi bilan siylashni taklif qiladi; katta guruhdagi bolalardan esa, doskaga osib qo'yilgan kartochkadagi doirachalar nechtaligini aytishni, guruh xonasidan xuddi shuncha buyum topishni, kartochkadagi doiralar miqdori bilan guruhdagi, buyumlar miqdori teng ekanini isbotlashni taklif qiladi. Agar birinchi holda mashq shartli ajratilgan bitta bo'g'indan iborat bo'lsa, ikkinchi holda 3 ta bo'g'indan iborat bo'ladi.

Kompleks mashqlar eng samaralidir chunki, ular dasturning har xil bo'limlariga doir masalalarni bir vaqtda bir-biri bilan tarkiban birga hal qilish imkonini beradi. Masalan, «Geometrik figuralar», «Kattalik», «Miqdor va sanoq» bo'limlariga oid masalalarni bir vaqtda hal qilish imkonini beradi. Bu xil mashqlar mashg'ulotlarning foydali ish koeffitsiyentini oshiradi.

Bolalar bog'chasida bunday xildagi mashqlar (ya'ni bir xil maqsadni ko'zlovchi va bir maonoda amalga oshi-riluvchi mashqlardan) keng foydalaniladi, bunday mashqlar tufayli zarur faoliyat usullari bajariladi: sanoqni, o'lchashni, eng sodda hisoblashni egallash amalga oshiriladi; bir qator elementar matematik tasavvurlar shakllanadi.

Mashqlarni tanlashda ularning tarkiban bir mashg'ulotda birga hal qilinishinigina emas, balki istiqboldagisi ham hisobga olinadi. Bir mashg'ulotdagi mashqlar sistemasi yil davomida o'tkaziladigan har xil mashqlarning umumiy sistemasiga tarkiban qo'shib ketishi kerak.

Hozirgi vaqtda mavjud; mashqlar sistemasi hamma yosh guruhlarida ushbu qoida asosida tuziladi, har bir oldin keluvchi va undan keyin keluvchi mashq umumiy elementlar, material, harakat usullari, natijalarga ega. Uzaro bog'liq va o'zaro o'xshash harakat usullari (masalan, ustiga qo'yish, yoniga qo'yish), munosabatlar (masalan, katta-kichik, ortiq-kam, baland-past, keng-tor), arifmetik amallar (qo'shish-ayirish) ni o'zlashtirishga oid mashqlarni berish vaqt jihatidan yaqinlashtiriladi yoki bir vaqtda beriladi.

Mashqlarda o'zaro bog'lanishlarning mumkin bo'lgan hamma variantlarini nazarda tutish kerak, masalan, har xil obyektlarni bir xil o'lchovda o'lchashni, bir xil obyektlarni har xil o'lchovda o'lchash, har xil obyektlarni har xil o'lchovlarda o'lchash va h. k. ni tashkil qilish mumkin. Bola mashqlarni bajarishda bir xil matematik aloqalar, bog'lanishlar va munosabatlarning har xil ko'rinishlari bilan to'qnashib, ularni oson va tez tushunib, umumlashtira oladi. Bolalarning mashqlarni bajarish jarayonidagi faollik, (mustaqillik, ijodkorlik ko'rsatishlariga qarab, reproduktiv (taqlidiy) va produktiv mashqlarni ajratish mumkin.

Reproduktiv mashqlar harakat usulini oddiy takrorlash (tiklash)ga asoslangan. Bunda bolalarning harakatlari kattalar tomonidan namuna, tushuntirish, talab, nima qilish va qanday qilishni belgilovchi qoidalar shaklida to'la chegaralanishi mumkin. Ularga qat'iy ergashish ijobiy natija beradi, topshiriqni to'g'ri bajarishni ta'minlaydi, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini oladi. Mashqlarning borishi va natijasi tarbiyachining bevosita kuzatuvida bo'ladi, u ko'rsatmalar, tushuntirishlar bolalar harakatini to'g'rilab turadi.

Produktiv mashqlar shunisi bilan xarakterliki, ularda harakat usullarini bolalarning o'zlari to'la yoki qisman ochishlari kerak bo'ladi. Bu bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ijodiy yaqinlikni talab qiladi, maqsadga yo'nalganlik va maqsadga intilishni shakllantiradi. Odatda, tarbiyachi nima qilish kerakligini aytadi, ammo harakat usulini aytmaydi ham, ko'rsatmaydi ham. Mashqlarni bajarishda bola fikrlash va amaliy sinashlardan foydalanadi, fikrlarni aytadi va ularni tekshiradi, mavjud bilimlarini ishga soladi, ulardan yangi vaziyatlarda foydalanishini o'rganadi, aqlliligi, topqirligini ko'rsatadi. Bu xil mashqlarni bajarishda pedagog bevosita emas, balki bilvosita yordam beradi, bolalarga o'ylash va yana bir marta harakat qilishni taklif qiladi, to'g'ri harakatlarni ma'qullaydi, bola ilgari bajargan shunga o'xshash mashqlarni eslatadi va h. k.

Produktiv va reproduktiv mashqlar nisbat bolalarning yoshlari, amaliy va bilimiga doir masalalarni yechish tajribalari qandayligi, matematik tasavvurlarning xarakteri va ularning bolalarda qay darajada rivojlanganligi bilan aniqlanadi.

Bolalarning yoshi kattalashishi bilan mashqlarni bajarishdagi mustaqilliklari ortadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qiluvchi va yo'naltiruvchi og'zaki ko'rsatmalar, tushuntirishlar, oydinlashtirishlar

roli orta boradi. Bolalar topshiriqni, mashqni bajarganlaridan keyin o'z harakatlarini va o'rtoqlarining harakatlarini, o'zini-o'zi va o'zaro tekshirishni o'rganadilar. Elementar matematik; tasavvurlarni shakllantirishda o'sha o'qitishning mustaqil usuli sifatida namoyon bo'ladi. Ammo uni amaliy usullar guruhiga kiritish ham mumkin. Bunda har xil o'yinlarning, har xil amaliy harakat-larning, masalan, qismlardan butun tuzish, figuralar qatorlari sanoq, ustiga va yoniga qo'yish guruhlash, umumlashtirish, taqqoslash kabi harakatlarni o'zlashtirishdagi alohida ahamiyati hisobga olinadi.

Didaktik o'yindardan eng ko'p foydalaniladi. Bola bilish mazmunini o'yin shakliga kirgan o'rgatuvchi masalani (o'yin mazmunida), o'yin harakatlari va qoidalari oldindan nazarda tutilmagan holda o'zlashtiradi. Didaktik o'yinlarning hamma turi (buyumli, stolda o'ynaladigan bosma va og'zaki turlari) elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning samarali vosita va usullaridir. Buyumli va og'zaki o'yinlar matematika mashg'ulotlarida va ulardan tashqarida o'tkaziladi, stolda o'ynaladigan — bosma o'yinlar odatda mashg'ulotdan bo'sh vaqtlarda o'tkaziladi.

Harakatli usullar va ularga mos tasavvurlar shaklidagi bilimlarni bolalar mashg'ulotdan tashqari vaqtda oladi, o'yinlar (syujetli — didaktik, didaktik va boshqa xil o'yinlar) da esa shu bilimlarni aniqlashtirish, mustahkamlash, sistemalashtirish uchun yaxshi sharoitlar yaratiladi.

Elementar matematik tasavvurlarni o'rgatish va shakllantirish metodi mashg'ulotlarda har xil turdagi o'yinlardan; uning alohida elementlaridan (sujetli, rolly, harakatli va b.), usullaridan (surpriz moment, musobaqa, izlash va b.), o'yin va didaktik boshlanishlarni kattalarning rahbarlik va o'rgatuvchi roli hamda bolalarning bilimni faollashtirishni tarkiban birga qo'shib olib borishdan foydalanishni nazarda tutadi.



TARIX DARSLARINI O'ZLASHTIRISHDA TARIXIY-BADIIY ASARLARNING ROLI

N.R.Muxitdinova,

Namangan viloyati Norin tumani 3-maktab tarix fani o'qituvchisi

Tarix darslarini oson va qiziqarli o'zlashtirish, o'rganilayotgan davr haqida tasavvur hosil qilish, kitobxonlikni o'quvchilar o'rtasida targ'ib qilish maqsadida sinf kesimida tarixiy-badiiy asarlarni tavsiya qilish juda samaralidir. Biz ushbu maqolada tarix darslarida tavsiya qilish mumkin bo'lgan ba'zi asarlarni ilmiy jihatdan asoslashga harakat qildik.

Tarix – bizning o'tmishimiz va kelajagimizdir. Ushbu fanni o'zlashtirish va o'rganish har bir insonning burchidir. Chunki o'tmishni bilmay kelajakni yaratish

mumkin emas. Tarix darslarini qiziqarli va o'quvchilarning oson o'zlashtirishlarida bizga eng yaxshi vositalardan biri bu tarixiy-badiiy asarlardir. Chunki, tarixdan ma'lumki, xaqchil, insonparvarlik va ona yurt tuyg'usini aks ettirgan asarlarga yangi avlodlarga ma'naviyat va ma'rifat nurlarini taratadi. Tarixiy asarlarda aks ettirilgan hayotiy haqiqat orqali o'tmishga nazar tashlanadi. Bunday asarlarda ming yillar oldin yashab o'tgan, vatanning har siqim tuprog'ini aziz deb bilgan otabobolarimiz, momolarimiz siymosi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Bunday asarlar o'zbek adiblari tomonidan ko'plab yozilgan. Har bir asarda vatanparvarlik, qahramonlik va mardlik kabi insoniy fazilatlar mujassamlashgan. Ana shunday asarlarni tarix darslari orqali o'quvchilarga o'rgatish orqali biz ulardagi eng oliy tuyg'ularni rivojlantiramiz.

Tarix darslari 5-sinfdan boshlab o'tiladi. Biz bu sinfdagi o'quvchilarga uncha murakkab bo'lmagan va tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo'lgan qissalarni tavsiya qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Masalan, Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Chingiz Aytmatovning "Oq kema", Sadridin Ayniyning "Eski maktab" kabi asarlari haqida o'quvchilarga so'zlab, o'qishni tavsiya qilishimiz mumkin. Chunki bu asarlar sodda tilda yozilgan va bolalarning tengdoshlarini hayotlari bayon etilgan. Ushbu asarlarni o'qish orqali o'quvchilar XIX asrning oxiri XX asrning birinchi yarmidagi hayot bilan bevosita tanishadilar va bugungi kun uchun shukronalik xissi uyg'onadi. "... Maktab deganda mening ko'z oldimga machitning tashlandiq hujrasi, bo'yra.....bolarning g'uvur-g'uvuri, "alamza al" eshitilar edi" (A.Qahhor. O'tmishdan ertaklar.T.;, "Sharq".2018.-B.149).

6-sinfda tarix darslarida inson paydo bo'lganidan boshlab ilk davlatlarning paydo bo'lish tarixi o'rganiladi. Bu yoshdagi o'quvchilarga biz tarixiy qissa va romanlarni tavsiya qilamiz. Tarixiy asarlarning ustasi Mirkarim Osimning asarlariga ko'proq murojaat qilamiz. Chunki adibning tarixiy asarlari xaqqoniyligi va tushunarli sodda tilda yozilganligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining "To'maris", "Shiroq" asarlarini, Maqsud Qoriyevning "Spitamen" asarini darslar davomida muhokama qilish o'rinli. Chunki ular bizning faxrlana oladigan otabobolarimiz va momolarimiz haqida va bu asarlarda vatanni qadrlash, uni asrash kabi g'oyalar singdirilgan.

7-sinfda o'quvchilar yurtimizning bosqinlarga boy bo'lgan davri bilan tanishadilar. Biz Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk davlat arboblari va sarkardalari, Ibn Sino, Beruniy, Farobiy, Imom al-Buxoriy, Alisher Navoiy singari allomalarning hayotlari aks ettirilgan asarlarni tavsiya qilamiz va bevosita darslar jarayonida foydalanamiz. Masalan, Narshaxiy "Buxoro tarixi", Mirmuxsin "Xo'jand qal'asi", "Me'mor", Mirkarim Osim "o'tror", "Zulmat ichra nur", "Jayxun ustidagi bulutlar", Karvon

yo'llarida", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini", "Ko'hna dunyo", Baxtiyor Abdug'afir "Sulton Jaloliddin Manguberdi" kabi asarlardir. Ushbu asarlarda yuqorida nomi keltirilgan buyuk shaxslarning hayotlari va ana shu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, urf-odatlar hamda marosimlar haqida ma'lumotlar berilgan.

o'quvchi yuqori sinfga o'tgani sari uning fikrlashi va dunyoqarashi kengayib boradi. Biz endi ularga Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" asarlarini tavsiya qilamiz. Bu ikki asar boburiylar sulolasi haqida qimmatli ma'lumotlarni berish bilan bir qatorda vatan sog'inchi, sadoqat kabi tuyg'ularni uyg'ota oladi.

Xonliklar davri haqida ma'lumot beruvchi asarlar bu doim sevib o'qiladigan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" dir.

Bundan tashqari biz Ikkinchi jahon urushi haqidagi asarlarni ham o'qishni tavsiya qilamiz. Chunki tinchlik, bag'rikenglik hamda shukronalik hissini o'quvchilarda uyg'ota olish lozim. Shu bilan bir qatorda taxlil qilish, solishtirish va o'z hayotida olgan bilimlarini qo'llay olish qobiliyatlari rivojlanib boradi. Bunda albatta tarixiy-badiiy asarlarning roli yuqori. Bunday asarlar qatoriga Said Ahmadning "Ufq", Shuhratning "Shinelli yillar", O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" kabi asarlarni kiritishimiz mumkin. Biz dars jarayonida tavsiya qilish mumkin bo'lgan tarixiy-badiiy asarlarning ayrimlarini aytib o'tdik. Ular juda ko'p va bizga eng yaxshi qo'llanmalardir. Zero har bir dars o'quvchi hayotining muhim qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor. O'tmishdan ertaklar. – T. : "Sharq", 2018. – 205b.
2. Oybek. Navoiy. – T.: "Sharq" 2015. 496b
3. Mirmuhsin. Me'mor T.: 2015. 445b
4. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – T.: "o'qituvchi", 2018.– 566b.
5. Said Ahmad Ufq. – T.: "Sano-standart" 2016. – 638b.



T.N.QORI NIYOZIY MAKTAB – MAORIF SOHASIDAGI ISLOXOTLARNING ASOSCHISI

D.Q.Malikova,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI mustaqil tadqiqotchi

Toshmuhammad Qori Niyoziy matematik olim, pedagog, jamoat arbobi va zamonaviy o'zbek maktabiga asos solgan olimlardan biri hisoblanadi. Qori Niyoziy O'zbekiston xalqlarining madaniy hayoti tarixiga doir ilmiy ishlar muallifi.

Qori Niyoziy o'zbek matematika atamashunosligi, oliy va o'rta o'quv muassasalari uchun haqiqiy matematik adabiyotlar asoschisi hamda fan tarixi bo'yicha yirik mutaxassis hisoblanadi. Uning uch yuzdan ortiq ilmiy ishlari nashr qilingan, jumladan, fan sohasida olamshumul ixtiro sifatida chuqur tan olingan "Ulug'bekning astronomiya maktabi" risolasi 1952-yilda davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Olim 1940-yildan, deyarli 10 yil davomida buyuk olim, astronom — Ulug'bekning qo'lyozma manbalarini o'rganadi va ilmiy merosi bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Bu ishlarning natijasida u Ulug'bekning astronomiya maktabi to'g'risida yirik ilmiy ish yaratdi.

T.Qori Niyoziy ko'p yillar O'zbekiston ilm-fan muassasalarining mas'ul lavozimlarida ishladi. Jamoat arbobi sifatida jonbozlik ko'rsatdi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti bo'ldi. Akademikning 3 tomlik «Matematik analizning asosiy kursi» kitobi Beruniy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosini o'rganib, «Ulug'bekning astronomik maktabi» fundamental monografiyasini yaratdi. Akademik olimning ilm-fan sohasidagi yuksak xizmatlari mustaqillik yillarida munosib baholanib, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlanadi. Toshmuhammad Qori Niyoziy fan bilan shug'ullana boshlagan vaqtda matematika fanining o'zbek tilidagi terminologiyasi yo'q bo'lib, u inson juda katta matonat bilan maktab, oliy ta'lim darsliklariga o'zbek tili terminologiyasini kiritdi, darsliklar yaratdi. Toshmuhammad Niyozovich matematika o'rganishning ahamiyati haqidagi fikrlarini shunday davom ettiradi: "Matematikaning eng qimmatbaho xususiyati shundaki, u kishining mantiqiy muhokama qobiliyatini o'stiradi. Holbuki, matematikaning formula va qoidalarini yod qilib olgan bilan uni egallab bo'lmaydi. Matematikaning joni-tafakkurda, mantiqiy muhokama bilangina oshkor qilish mumkin. Shunday qilib, mantiqiy tafakkur malakasiga ega bo'lgan kishiga har qanday fan bilan shug'ullanish uchun mustahkam zamin vujudga keladi".

Qori Niyoziy bolaning yoshlikdagi, ayniqsa, hayotning maktabgacha davri tarbiya nuqtayi nazardan g'oyat murakkabligini ta'kidlab yozadi: "Bu vaqtda bolaning tabiati ma'lum darajada "tadqiqotchi" bo'ladi. Ayni zamonda bola bu davrda har kimga va har ishga taqlid qila boshlaydi"

Qori Niyoziy samimiyat insonning eng oliyjanob fazilatlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Samimiyat rostgo'ylik bilan chambarchas bog'langan tushunchalar deb ta'rif beradi. O'qituvchi va o'quvchi orasida doimo samimiy munosabat bo'lishi lozimligini, agarda samimiyat bo'lmasa, bu munosabatning asosida biror shahsiy manfaat turadi va bu yosh avlodning tarbiyasiga zarar keltiradi deydi.

Toshmuhammad Niyozovichning fikricha, o'rtacha qobiliyat mavjud bo'lganda, mustaqil ishlab ko'p narsani o'rganish mumkin: buning birdan bir yagona kaliti — faqat sistemali mehnatda. Bunda maktabning roli mustaqil

o'zlashtirish lozim bo'lgan materialni o'qituvchining rahbarligi ostida birmuncha tezlashtiradi va osonlashtiradi, deb hisoblaydi.

Qori Niyoziy mustaqil izlashda asos qilib olingan qo'llanma katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Olim o'z tajribasiga asoslanib, o'qitishning muvaffaqiyati asosan ta'lim berayotgan fanga o'quvchilarni qiziqtirishga bog'liqligini aytadi. Shuningdek, mashq qanday sahada bo'lmasin, takomillashishning asosiy vositasidir, yosh avlodning ma'naviy o'sishi bilan mashg'ul bo'lgan kishilar ayni zamonda kuchli psixolog ham bo'lishlari kerak, deb ta'kidlaydi.

Yosh avlodning tarbiyasi oliyjanob vazifa bo'lishi bilan birga ayni zamonda u g'oyat darajada murakkab va mas'uliyat talab qiladi deydi. Qori Niyoziyning takidlashicha: "Qanday sohada bo'lmasin ijodiy hayotning ajoyib xususiyati bor: kishi ma'naviy jihatdan o'sgan sari o'zining ma'naviy kambag'alligini sezgan sari o'sishga zaruriy ehtiyoj ham kuchayib boradi. Bu jarayon qonuniy va cheksizdir".

Toshmuhammad Niyozovich o'qituvchilik kasbi haqida: "Umuman, o'qituvchining ishi, uning qaysi sinfda va nimadan dars berishidan qat'iy nazar, ijodkor bo'lishi lozim. Aks holda uning so'zlari qolipga aylanib, o'qituvchining o'zi oddiy kosibga o'xshab qolishi mumkin. Maktabda sodir bo'ladigan ko'p kamchiliklarning ildizi, ularning asosiy manbai ham shunda", deb ta'rif beradi.

U nafaqat yirik olim va pedagog sifatida, balki jamoat va davlat arbobi sifatida ham yorqin faoliyat olib borgan insondir. Qori Niyoziyning o'zbek, rus va ingliz tillarida uch yuzdan ziyod ilmiy asari, monografiyasi va maqolalari bosilib chiqqan. U o'zbek xalqi shuhratini nafaqat o'z yurtida balki, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Bolgariya, Hindiston va Afg'onistonda bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy kengashlari mazmunli ma'ruzalar qilgan. Qori Niyoziyning o'zbek, rus va ingliz tillarda uch yuzdan ziyod ilmiy asari, monografiyasi va maqolalari bosilib chiqqan. "Ulug'bek va uning ilmiy merosi", "Bosib o'tilgan yo'l haqida mulohazalar", "Hayot maktabi" kabi asarlari sevimli kitoblarga aylangan.

Yaxshidan bog' qoladi, deganlaridek, akademik olim yashagan uy ham bugun ilm-fan o'chog'iga aylangan. Bu uy domlaning farzandlari tashabbusi bilan «Akademik Qori Niyoziy merosi» nomidagi ilmiy-metodik markazga aylantirilgan. Bu erda yosh olimlarimiz, talaba-yoshlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tajriba almashib, bilimlarini mustahkamlab boradi. Shu ma'noda domlaning xizmatlarini barchamiz yuksak qadrlaymiz, u kishi qoldirgan ilmiy merosni yanada sayqal toptirish yo'lida astoydil xizmat qilamiz.

Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimi, ilm-fan rivojiga munosib hissa qo'shgan, xususan, matematika, tarix, madaniyatshunoslik hamda pedagogikaga oid boy ilmiy va adabiy meros qoldirgan ma'rifatparvar olim xotirasi hamisha barhayot. Bugun uning shogirdlari, yosh olimlar ilm-fan sohasidagi taraqqiyot an'anasini munosib davom ettirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.N.Qori Niyoziy. Hayot maktabi, O'zFA "Fan" nashriyoti – Toshkent,1970
2. Tajaddinov N. Birinchi professor // Hurriyat. – 2010. – 5 may.
3. Ubaydullayev A. O'zbek matematika terminologiyasining asoschisi // Ma'rifat. – 2007. – 12-sentabr.
4. Fozili zamon // Qishloq hayoti. – 1987. – 4 sentabr.
5. Fayziboyev, E. O'zbek matematik tilini yaratgan // O'zbekiston ovozi. –2007. – 25 sentabr.
6. <https://arboblar.uz/uzkr/people/kary-niyazov-tashmukhamed>



MAXSUS PEDAGOGIKA TARAQQIYOTIDA TA'LIM OLUVCHI NOGIRONLIKKA EGA BO'LGAN TALABALARGA SENSOR MUHITNI YARATISH STRATEGIYALARI.

L.R.Muminova,

pedagogika fanlari doktori, professor

X.D.Kalbayeva,

RBIMM.

Inkluziv ta'lim an'anaviy va maxsus ta'lim tizimi asosida rivojlanadi hamda sog'liq imkoniyatlari cheklangan shaxslarning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish yo'lida ikkala ta'lim turlarini birlashtiradi. Inkluziv ta'limning barqaror rivojlanishida huquqiy asoslar, maxsus moddiy-texnik baza, tashkiliy, ijtimoiy-pedagogik va psixologik muhitning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Inkluziv ta'limning rivojlanishini huquqiy asoslari xalqaro huquq me'yorlari asosida tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (20-modda)da inkluziv ta'lim barcha ta'lim oluvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlariga muvofiq, ta'lim olishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim shakli sifatida tafsiflanadi [1,2].

Demak, mazkur ta'lim shakli nogironligi bo'lgan, sog'liq imkoniyatlari cheklangan insonlar munosib ta'lim olishi, shaxsiy rivojlanishi, kasb egallashi va ijtimoiy moslashuvi, mavjud kamchiliklarni tuzatish, maxsus pedagogik yondashuvlar, eng muqobilb usullar asosida korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida joriy etiladi. Hozirgi kunda davlat tomonidam berilgan imtiyozlar tufayli oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning umumiy sonining taxminan 1-3 foizini eshitishida,

ko'rishida, tayanch-harakat a'zolaridagi nuqsoni bo'lgan, shuningdek, somatik kasalliklari tufayli nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil etadi. Ushbu toifadagi talabalar samarali va sifatli ta'lim olishlari uchun oliy ta'lim muassasalarida zarur shart-sharoitlar yaratilish zarurati yuzaga keladi. Oliy o'quv yurtlarida birgalikda o'qiish jarayonida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun adaptiv ta'lim dasturlari, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, maxsus darsliklar, o'quv qo'llanmalar va didaktik materiallar, jamoa bo'lib va individual foydalanish uchun mo'ljallangan assistiv texnologiyalari qo'llash, talabalarga zarur yordam ko'rsatadigan assistent (tyutor) xizmatlarini taqdim etish, bino va inshootlarda to'siqsiz erkin harakatlanishni imkoniyatlarini ta'minlash- standart sharoitlardir [1,2,3,4, 5].

Oliy ta'lim muassasasida hammabop muhitni yaratilishi imkoniyati cheklangan talabalar to'siqsiz erkin harakatlanishini ta'minlash bilan bog'liq. Buning uchun pandus, tutqich, avtomatik eshik ochuvchilar, mobil liftlar va boshqa jihozlar o'rnatiladi. Oliy o'quv yurtlarida inkluziv ta'lim talabalarga ularning ehtiyojlari va imkoniyatlariga muvofiq individual yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, turli xil sog'liq muammolari bo'lgan talabalar uchun auditoriya va ish joylarini jihozlash uchun maxsus texnik vositalar va dasturlar qo'llaniladi. Tayanch harakat tizimi buzilgan talabalar uchun moslashtirilgan kompyuter uskunalari talabalarga tengdoshlari bilan teng ravishda o'quv materiallari bilan samarali ishlashga ko'maklashadi. Bunda quyidagi texnik yechimlar qo'llaniladi. Maxsus pedagogika taraqqiyotida oliy ta'lim oluvchi nogironlikga ega bo'lgan talabalarga sensor muhitni yaratish strategiyalari, yordamchi texnologiyalarni joriy etilishini taqozo etadi [4, 5].

1. Moslashtirilgan kompyuter tugmalari kompyuterda eng ko'p foydalanadigan buyruqlarga qulay kirishni ta'minlaydi. Odatda, turli xil rangdagi ushbu simsiz qurilmalar kompyuter sichqonchasi tugmalarining funksiyalarini bajarish uchun ishlatiladi.

2. Moslashtirilgan joystiklar kompyuter sichqonchasini muqobil turi sifatida turli xil boshqaruv variantlari, shuningdek almashtiriladigan nasadkalar bilan qo'llaniladi. Talabalarining ehtiyojlariga qarab, sichqoncha kursorini ko'chirish uchun to'pcha yoki tutqichdan foydalaniladi.

3. Klaviatura tugmalari katta o'lchamlari va ular orasidagi masofa bilan farqlanadi. Maxsus chuqurchalar mavjudligi tufayli bir vaqtning o'zida bir nechta tugmachalarni bosilib ketishni oldini olish mumkin.

4. Maxsus moslashtirilgan mebel - balandligi sozlanuvchan stollar, mikroliftli stol, kengligi sozlanuvchan stol usti, maxsus stellar va b. nogironligi bo'lgan shaxslar ishlashi uchun qulaylik yaratadi.

Eshitish qobiliyati pasaygan talabalar uchun surdotexnika vositalaridan foydalanib, qulay muhit yaratiladi. Talabalarga qulay bo'lgan shaklda kerakli ma'lumotlarni yetkazishga xizmat qiladigan radio va audioskunalar eshitish qobiliyatini tiklash va tuzatish uchun qo'llaniladi. Simsiz uskunalar talabalar va o'qituvchilarning harakat erkinligini cheklamaydi, bu ayniqsa jismoniy tarbiya va musiqa mashg'ulotlari uchun muhimdir.

Signalni qayta ishlashga ega raqamli FM tizimlar – ta'lim oluvchilar uchun transmitter (o'tkazuvchi)lar, talabalar uchun induksion qabul qiluvchilar – bularning hammasi ta'lim jarayonida mukammal simsiz aloqani ta'minlaydi. Umumiy ma'ruzalar chog'ida eshitmaydigan talabalar individual ovoz kuchaytirgichlaridan foydalanadilar, bunda maxsus regulyator talabalar ehtiyojlari va xonaning akustik xususiyatlariga muvofiq ovoz balandligini moslashtirilishini ta'minlaydi.

Axborot induksion tizimlari eshitish moslamalari foydalanuvchilari uchun mikrofonlar, karnaylar yoki ogohlantirish tizimlaridan aniq ovozni eshitishlari mumkin bo'lgan zonani yaratishga imkon beradi. Buning uchun individual ovoz kuchaytirgichini T rejimiga o'tkaziladi. Induksion tizimlar umumiy va sport zallarida, shuningdek o'quv xonalarida o'rnatiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ishlatiladigan o'quv materiallarining katta qismi ko'zi ojiz talabalar tomonidan idrok etishi qiyin bo'ldan vizual shaklda, darsliklarda, yozuv taxtalarida va kontur xaritalarida, shuningdek modellar va turli xil grafik materiallarda taqdim etiladi. Vizual materialni moslashtirish yoki muqobil uzatish uchun, ko'rish qobiliyati past talabalarning maxsus ehtiyojlarini hisobga olgan holda, maxsus texnik vositalar qo'llaniladi.

Ko'rishda muammolari bo'lgan talabaning ish joyini jihozlashning zaruriy sharti – kompyuter bilan ishlash uchun maxsus dasturlardan, shuningdek tegishli atrof-muhit qurilmalaridan foydalanish imkoniyatidir. Ekranga kirish dasturlari (SuperNova)dan foydalanib o'quv ma'lumotlarining yetishmasligini bartaraf etish mumkin bo'ladi. Shuningdek, ko'zi ojiz foydalanuvchilar Brayl displeyi, yuqori sifatli nutq sintezatori, ekranni kattalashtirish dasturi va boshqa dasturlar imkoniyatlari bilan qo'llab-quvvatlanadi. Ko'rishda muammolari bo'lgan talabaning ish joyining ajralmas qismi ko'chma Brayl displeyidir. Ushbu jihoz Brayl usulida kirish, kompyuter, planshet yoki smartfonlarda matnli ma'lumotlarni olish uchun ishlatiladi. Brayl printerlari Brayl shrifti shaklida maxsus qog'ozga grafik va matnli ma'lumotlarni chiqarishni ta'minlaydi, uning to'g'ri ishlashi uchun maxsus dasturiy ta'minotdan foydalaniladi.

Darsliklar (kitoblar, jurnallar) sahifalarida matnni tan oladigan va uni ovozi o'qib chiqaradigan innovatsion skanerlar ko'plab tillarda va turli xil ovozda o'qishga xizmat qiladi. Ko'chma yoki statsionar video kuchaytirgichlar ko'zi zaif ta'lim oluvchilar uchun matnni o'qish va kichik rasmlar bilan tanishish imkonini beradi.

Oliy o'quv yurtlarida nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitishning maxsus vositalarini joriy etish, reabilitatsiya vositalari va texnik jamg'armalari yordamida ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi shakllari, yangi strategiyalarni ishlab chiqish bugungi davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2022-y 23.09 o'RQ-637-son).

2.O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni (15.10.2020-y O'RQ-641-son)

3.Байрамов В.Д., Тюрин А.В. Теоретические аспекты создания инклюзивной среды профессионального образования// Вестник Московского государственного гуманитарно экономического Института. № 2(14). 2013. С.10-15.

4.Михальчик Э.В. Исследование педагогических условий реализации инклюзивного образования в вузах// Психологическая наука и образование, 2015. – Т.20. №2. – С. 5-14.



ZAMONAVIY TA'LIMNING RIVOJLANISHI ASOSLARI AQLLI MAKTABLAR YARATISHDA (MALAYZIYA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)

N.R.Muxitdinova,

Namangan viloyati Norin tumani 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani
o'qituvchisi

Dunyo mamlakatlari XXI asrda ta'lim rivoji davlatning asosi ekanligini anglab yetdi va eng yaxshi sarmoya ta'limga jalb etish boshlandi. Raqobatga dosh bera oladigan, texnologiyalar va mahoratli pedagoglar bilan ta'minlangan maktablar tashkil qilindi. Bugungi kunda yurtimizda ham bu borada jadallik bilan islohotlar amalga oshirilmoqda. Milliy ta'lim tizimini yaratishda ta'lim rivoji bo'yicha dunyo reytingida 50 talik davlatlarning ta'lim tizimini o'rganish va muvaffaqiyatli metodlarini o'zimizga moslashtirishimiz muhim vazifalardan biri. Biz ushbu maqolada Malayziya ta'lim rivojini o'rganib, ilmiy asoslashga harakat qildik.

Ta'lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish bo'yicha Malayziya Yevropa davlatlaridan andoza olgan. AQSHning News& World Reporting natijasiga ko'ra 2017 -yilgi "ta'lim bo'yicha eng yaxshi davlatlar" reytingiga ko'ra, Malayziya Ukraina va Meksika o'rtasida joylashgan dunyoda 43-o'rinni egallaydi. Osiyo davlatlaridan Yaponiya 10-o'rin, Singapur 20-o'rin, Janubiy Koreya 22-o'rin va

Xitoy 25 o'rinda. Bugunning dolzarb masalasi bu zamonaviy ta'lim. Malayziya ham boshqa davlatlar singari maktablarda texnologiyalardan foydalanish bo'yicha dunyo davlatlari bilan tenglash va ustunlikka ega bo'lishni oily darajaga olib chiqdi. Buning uchun mavjud ta'lim tizimi o'rganildi. Ushbu tadqiqod ishtirokchilari Jonor shahridagi qishloq va shahar hududlaridagi 30ta umumta'lim maktablarini qamrab olishdi. Tadqiqotchilar maktablarni borib ko'radi va 120 o'qituvchi, 120 o'quvchidan intervyu oladi. Bundan tashqari, namunaviy maktablarning video yozuvlari taxlil qilinadi va Malayziya davlat litseylarida amalda texnologiyadan foydalanish aniqlandi. Natija shuni ko'rsatadiki, nazariya va amaliyot bir-biriga mos kelmaydi. Ushbu tadqiqod Malayziya Ta'lim vazirligiga o'qituvchilar hamda o'quvchilarning ta'limdagi texnologiyadan ko'proq foydalanish to'g'risidagi umumiy tasavvurlari, ularga ta'limdagi texnologiyalardan ko'proq foyda olish uchun samarali yechimlarni topishga yordam beradi.

Ta'limda AKTdan foydalanish darajasi tobora Malayziyada o'sib bormoqda. Elektron va aqlli maktablar tashkil qilish uchun "Smart maktablar" deb nomlangan loyiha ishlab chiqildi. Malayziyaning "Smart School" loyihasi 1999-yil yanvar oyidan boshlangan va 2002- yilda yakunlangan. Ushbu loyiha uchun 78 millon dollar ajratilgan va byudjetning 38 foizi tayyorgarlik uchun sarflangan. Yagona qidiruvga asoslangan o'quv dasturlari, malay va ingliz , fanlar, matematika kurslariga yozilgan materiallar to'plami. Aqlli maktablarning texnologik infratuzilmasi IT va nodavlat uskunalarini, mahalliy tarmoq va boshqa tarmoqlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Malayziyada Ta'lim Vazirligi aqlli maktab o'quv dasturining besh xususiyatini quyidagicha tavsiflaydi: Umumiy fikrlash qobiliyatini, samarali muloqot ko'nikmalarini va hissiy va ijtimoiy rivojlanish; hayotiy ko'nikmalar, til va axloqiy qadriyatlar bilimlarini birlashtirish; vertikalning integratsiyasi baholash usuli; ko'p tarmoqli va fanlararo o'quv dasturlarini birlashtirish; texnologiyalar integratsiya sifatida o'quv va o'quv jarayonidagi vosita.

Malayziyada aqlli maktablarning xususiyatlari shundaki maktab o'quvchilari javob olish uchun ma'lumot va manbalardan Internetda foydalanishadi.

Aqlli maktablarda baholash ham electron shaklga amalga oshiriladi va o'quvchining ota-onalari ham bevosita ishtirok etib borishadi.

Smart maktablarda o'qituvchining roli asosan o'quvchilarni baholash va ularni kuzatishga o'zgaradi. Bunda albatta iqtidorli va ijodkor AKTdan samarali foydalana oladigan pedagog muammosi faydo bo'ladi. Bartaraf etish uchun qisqa muddatli malaka kurslari tashkil etiladi.

Aqlli maktablarda texnologiyalar turli xil rollarga ega. Masalan, maktabni boshqarishda yordam beradigan o'quv va o'quv jarayoni. Maktablarni jihozlash quyidagilarni o'z ichiga oladi: multimediya darslari va jamoaviy ish uchun electron

pochta orqali o'quv xonalari; kutubxona yoki Media Center multimedia dasturiy ta'minoti, masalan, markaziy ma'lumotlar bazasi va tarmoq manbalar uchun Internetga kirish; kompyuter laboratoriyasi va audiovizual jihozlar; audiovizual moslamalar, videokonferensiyalar xonasi, mashg'ulotlar uchun markazlashtirilgan boshqaruv xonasi bo'lgan studiya ovoz va tasvir studiyasi; o'qituvchilar xonasi, dars rejalari va har bir mavzu va ma'lumotlar bazasining batafsil tarkibiga onlayn kirish imkoniyati; axborot va resurslarni boshqarish tizimlari, elektron pochta kabi zamonaviy aloqa vositalari va xokazolar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Malayziyada aqlli maktablarning rivojlanishi texnologik jihatdan muvaffaqiyatli bo'lgan, ammo mashg'ulotlar asta-sekin rivojlandi. O'qituvchilar bunga tayyor emas va ular qarshiliklar ko'rsatishadi. Chunki bunday maktablarda AKTdan foydalanishning talabchanligi va ish hajmining ko'payishidan tashvishlanishadi. Ammo ta'lim vazirligi tomonidan rejali malaka oshirish kurslari bu jarayonni ham bartaraf eta oladi. Bu maktablarni tashkil etishning yana bir qiyinchiliklari bu maktab va uni AKT va Internet bilan uzviy ta'minlay olish. Bunda multimediya vositalarini yaratish katta mablag' talab qiladi. Buning uchun davlat byudjeti moliyalashtirishni amalga oshiradi.

O'zbekistonda ham bu borada ilk qadamlarni qo'yish boshlanmoqda. Masalan KUNDALIK.UZ ning barcha maktablarga joriy qilinayotgani. Bu borada yagona loyiha ishlab chiqib, amaliyotga bosqichma-bosqich tadbiq etish lozim.

Xulosa qilsak, bugungi davrning eng muhim xususiyatlaridan biri bu ilmiy, texnologik va ijtimoiy rivojlanish. Dunyoning deyarli barcha davlatlari bu borada jadallik bilan ish olib bormoqda. Bu shuni anglatadiki, ta'lim tizimi ham zamonaviy jamiyat rivojiga mos kelishi kerak o'zgarishlarni va kelajakdagi o'zgarishlarni bashorat qilish va kelajakda yo'l-yo'riq olish uchun qulay o'zgarishlar yaratish uchun. Shu munosabat bilan ta'lim tizimidagi talablarni qondirish uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan yondashuvlardan biri ko'plab rivojlangan davlatlar ma'lumot va tajribalaridan foydalanib, zamonaviy milliy ta'lim tizimini yaratish. Malayziya bu jarayonni amalga oshira oldi. Loyihaga ko'p mablag' va kuch sarflandi. Mamlaktimizda ham bunday loyihani amalga oshirishning uzoq va mashaqqatli yo'lining ilk qadami bu maktablarning infratuzilmasi va AKT vositalari bilan ta'minlash yoki takomillashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ali, W.Z.W., H.M. Nor, A. Hamzah and N. H. Alwi, The conditions and level of ICT integration in Malaysian smart school. International Journal of Education and Development using Information and Communication Technology (IJEDICT), 5,(2): 21-31 2009.

2. www. Eprints.rclis.org Smart schools an Innovations in Education Malaysian's Experience.

3. Shafiye Ebrahimi Technology use in Malaysian high schools.
meritresearchjournals.org.



TOSHMUHAMMAD NIYOZOVICH QORI NIYOZIYNING HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHDA SMART TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH


T.V.Mamadaliyev

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch doktoranti

Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy (1897-1970) – sovet o'zbek matematigi va fan tarixshunosi, akademik (1943) va o'zbek SSR fanlar Akademiyasi birinchi prezidenti (1943-1947). Fizika-matematika fanlari doktori. O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1939) hisoblanadi. [1.1] Biz olimning hayoti va fanga qo'shgan xissalarini o'rganishda Smart texnologiyalardan foydalanish haqida to'xtalib o'tamiz. Biz bunda Android book maker dasturidan foydalangan holatda ish olib bordik.

Android Book App Maker dasturi android operatsion tizimli mobil qurilmalar uchun kitob yaratuvchi dastur hisoblanadi. Dasturni qulayligi mobil telefon orqali kerakli ma'lumotlarimizni kitobga joylagan holda internet tarmog'i mavjud bo'lmagan joylarda ham bimalol foydalanish imkoni mavjud. [2.1]

Dastlab Android Book App Maker Cracked dasturiga kiramiz. 1. New tugmasini bosamiz. Shunda kitob sozlamalari kiritiladigan oyna ochiladi. (1-rasm)





(1-rasm)

Config book oynasidan Basic info bo'limi ochiladi (2-rasm)

(2-rasm)

1. Book name ga kitob nomi (T.N.Qori Niyoziy hayoti va ijodi)
2. Author ga kitob muallifi (Mamadaliyev Toxirjon Valijon o'g'li)
3. Categoryga kitob janri (Tarixiy)
4. WebSitega saytingiz bo'lsa nomi yoki e-mail nomini yozasiz (mamadaliyevtoxirjon7@gmail.com)






5. Descriptionga izoh (Ushbu Smart kitob T.N.Qori Niyoziyning hayoti va ijodi asosida tayyorlangan)

Book icon bo'limiga o'tamiz va ilova uchun rasm tanlaymiz. Berilgan uch xil o'lchamda rasm tanlaymiz. (3-rasm)

(3-rasm)

Book Cover bo'limiga o'tamiz va kitob yuzi uchun rasm tanlaymiz. Faqat .png formatidagi rasm tanlash mumkin. Agar tanlamoqchi bo'lgan rasm boshqa formatda bo'lsa paintdan fotmatini .png ga o'tkazish kerak. (4-rasm)



(4-rasm)

Display Config bo'limiga o'tamiz.

Font size ga shrift o'lchamini belgilaymiz.

Line Space ga chiziq intervalini kiritamiz.

Font Name dan shrift turini belgilaymiz.



Screen stays turning on while reading ekranni doim yoniq turadi.

Font color dan shrift rangini Day mode(kun rejimi) va Night mode(tun rejimi) uchun kiritamiz.

Background dan orqa fon rangini Day mode(kun rejimi) va Night mode(tun rejimi) uchun kiritamiz. (5-rasm)

(5-rasm)

Internatsional bo'limiga o'tamiz.


Til sozlamalari kiritiladi.

Til sozlamalariga o'zgartirish kiritmasangiz kitob menyulari inglizchada yoziladi.

OK tugmasi bosiladi.

Endi New tugmasini bosmang. Bu tugma yangi kitob tayyorlash uchun. Kitob sozlamalariga o'tish uchun Config tugmasini bosang. (6-rasm)

(6-rasm)



1. Kitob matni sifatida .txt formatdagi fayllarni import qilish uchun va kitob matni uchun bo'sh sahifa ochish tugmalari bor.

2. Word fayllarini import qilish uchun.

3. Kitob mundarijasini shakllantiradigan tugmalar to'plami.

4. Kitob matni va rasmini kiritishga oid amallar.
5. Yaratilgan kitoblar ro'yxati.
6. Kitob tayyorlash.

Chapter da sahifani nomlash mumkin. (7-rasm)


(7-rasm)

Kitobni Tayyorlash(build)

Create new keystore bandini tanlang va next tugmasini bosing va chiqqan oynadan ham next tugmasini bosing. Endi back tugmasini bosing.

Use existing keystore bandini tanlaysiz

Location dan kalit tanlash uchun



Password ga parol teriladi 123456 teriladi.

Next tugmasi bosiladi. (8-rasm)


(8-rasm)

Destination APK File da

kitabni qayerga saqlashimizni belgilashimiz kerak.

Package prefix da ilova paketini nomini yozasiz.

Effect dan kitob ko'rinishini turini tanlaysiz. (9-rasm)




(9-rasm)

Paket nomini yozish qoidalari:

1. sonlardan va maxsus belgilardan foydalanish mumkin emas va joy tashlash(Space) mumkin emas.
2. Ruscha harflardan foydalanish mumkin emas.

Kitob tayyor bo'ldi. Papkani rasmi qo'yilgan birinchi havoladan uni ochib ko'rishingiz mumkin. So'ngra dasturni bimalol Android telefonga yuklab olish mumkin. (10-rasm)



(10-rasm)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tajaddinov, N. Birinchi professor // Hurriyat. – 2010. – 5 may.
2. <https://arboblal.uz/uz/people/kary-niyazov-tashmukhamed>.
3. <https://qnbuz.net/blog/3059/kompyuter-da-android-uchun-kitob-tayyorlash>
4. <https://uzpfiti.uz/>



OLIY TA'LIMDA TALABA FANLARNI O'ZLASHTIRISHINI SHAXSIY VA QIZIQARLI TAJRIBASI (MOTIVATSION QOBILIYATLARI)GA AYLANTIRUVCHI STRATEGIK PRINSIP

Z.M.Mamajonova,

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Pedagog-psixologlarning ilmiy meroslarini qaytadan tahlil qilish natijasida, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga nisbatan bir qancha ishlarni amalga oshirish vazifasi oliy ta'limdagi o'qitish jarayonlarini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Kadrlarni tayyorlashda yangicha yondashuvlar integratsiyasini amalga oshirish kerakligini anglatmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilaganidek, "... pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish..."[1] kabi vazifalarni oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning motivatsion qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'limdagi o'zgarishlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq qilishda o'z samarasini beradi [2,44-50]. Talabalarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish va uni rivojlantirish bo'yicha maqsadli pedagogik ish zaruriyati, talabalarning egallagan mutaxassisligiga bo'lgan munosabati mashg'ulotlar samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Talabalarning fanlarni o'zlashtirish jarayonini shaxsiy va qiziqarli o'rganish tajribasiga aylantirish uchun texnologiyalardan foydalangan holda dars sifatini oshirish, hamkorlikda, loyihaga asoslangan o'rganish imkoniyatlarini yaratilishi va raqamli materiallardan foydalanishlari mumkin. Misol uchun, o'qituvchilar talabalarning o'rganishi bo'yicha real vaqt rejimida fikr-mulohazalarini yig'ish imkonini beruvchi ma'lumotlar va tizimlashgan ma'lumotlardan foydalanishlari, shundagina ularning tushunishdagi kamchiliklarni tezda aniqlashtirishi va o'zlashtirish ehtiyojlarini qondirish uchun ko'rsatmalarni moslashtirish imkonini oladilar. Bunda strategik prinsiplarga amal qilish muhim sanaladi.

Strategik prinsip – ko'rsatmalarni moslashtirish orqali amalga oshiriladigan vazifa (masalan, pragnoz qilish va o'quv muhitini loyihalashda individual sifatlardan foydalanish).

Oliy ta'limdagi o'qituvchilar vaqt o'tishi bilan o'qitish yondashuvini yaxshilash va rivojlantirish uchun ma'lumotlarni to'plash va ishlatish bilan birga, talabalarning o'rganishini yaxshiroq qo'llab-quvvatlaydigan va osonlashtiradigan o'quv tajribalarini ishlab chiqish uchun texnologiyadan foydalanishlari maqsadga muvofiq.

O'quv fanlar integratsiyalashganda ta'lim natijalari yaxshilanadi. Texnologiyani qo'llab-quvvatlaydigan o'quv muhitida o'qituvchilar o'quv tizimlarini baholash ma'lumotlaridan ko'rsatmalar va resurslar talabalarning o'qishiga qanday ta'sir qilishini tushunish orqali kelajakdagi amaliyotga rahbarlik qilishlari mumkin.

Tajriba-sinov davrida talabalarda qayd etilgan kamchiliklarni tuzatish maqsadida biz talabalarning motivatsion qobiliyatlariga ko'ra tabaqalashtirish mezonlarini quyidagi xislat hamda sifatlar asosida amalga oshirishni tavsiya qildik:

№	Shaxsiy xislatlari	Shaxsiy sifatleri
1.	Ijtimoiy	Dunyoqarashi: ma'naviy, estetik, mehnat
2.	Tajriba	Anglaganligi, ilmiyligi, mahorati, ko'lami
3.	Aqliy	Tasavvuri, diqqati, fikrlash kengligi, xotirasi
4.	Irsiy	Zehnlik, topqirlik, ziyraklik, ixtirochilik, ishchanlik, hozirjavoblik, mantiqiylik, sog'lom fikrlilik

Faoliyatni samarali tashkil qilish nuqtayi nazaridan talabalarni qobiliyatlarni aniqlab, tabaqalashtirishda keltirilgan shaxsning xislatlari va sifatlarini uning barcha sohalardagi faoliyat ko'rsatkichlarining umumiy majmuasi sifatida qarab, talab etilayotgan xususiyatlar salmog'ini oshirishga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Buning uchun yuqorida qayd etilgan shaxs sifatlarini tahlil qilib, ulardan talabning motivatsion qobiliyatini rivojlantirishning asosi sifatida qarashimiz mumkin:

- mushohada ko'lami, ya'ni xal qilinayotgan muammoni e'tibordan qochirmagan holda, diqqatni kengroq taqsimlay olish;
- hozirjavoblik, ya'ni masala yechimi uchun talab qilinadigan ma'lumotlarni tez xotirlay olish;
- muammoni tahlil qila olish qobiliyati, ya'ni tadqiq qilinayotgan obyektga nisbatan muqobil baholardan mosini tanlay olish;
- muammo yechimini tez va oson topa bilish, topqirlik;
- nutqning ta'sirchanligi, ya'ni muammo, g'oya yechimlarini to'g'ri va tushunarli ifodalay olishi;
- ishni oxirigay etkaza olishi, ya'ni ko'zlangan g'oyasini to'siq va qiyinchiliklarga qaramasdan oxirigacha amalga oshirish;
- tafakkur moslashuvchanligiga ega bo'lish, ya'ni vaziyatga mos ravishda fikrlash yo'nalishini o'zgartira olish.

Buni amalga oshirishda mualliflikdagi "amal va xato" texnologiyasidan foydalanish samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

"Amal va xato" texnologiyasi.

Ko'rsatma: Talabalarga topshiriqni bajarish uchun

1. Bir nafar sherik tanlash imkoniyati beriladi.

2. Yakka tartibda o'z ixtiyorlaridan kelib chiqib bitta mavzu tanlashi mumkinligi aytiladi.

3. Talabaga tanlangan mavzu asosida o'z ijodlarini namoyish etishga tayyorgarlik uchun kun belgilanadi.

Har bir topshiriqning asosini topshiriq beruvchi belgilab beradi.

Masalan, asos video rolik tayyorlash. Ixtiyoriy mavzu tanlandi: "Men mavzuni tushuntira olamanmi?" bu mavzuga talaba sherigi bilan birgalikda tayyorlanadi. Tayyorlangan video rolik guruhda namoyish etiladi va tahlil qilinadi.

Ushbu texnologiyaning maqsadi: bo'lajak o'qituvchi (talaba)larda mushohada qilish, diqqatni kengroq taqsimlay olish, hozirjavoblik, muammoni tahlil qila olish, topqirlik, muammo yechimini tushunarli ifodalay olish, ishni oxiriga yetkaza olish, qaror qabul qilish, tafakkur moslashuvchanligiga ega bo'lish, ya'ni motivatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga erishishiga yordam beradi.

Demak, talaba (bo'lajak o'qituvchi) ga individual yondashuv asosida motivasion qobiliyatlarini rivojlantirish uchun strategik prinsiplar asos qilib, olinsa, raqamli texnologiya materiallaridan foydalanilsa, texnologiyani qo'llab-quvvatlaydigan o'quv muhiti yaratilsa, talabani berilayotgan ko'rsatmalarni bajarishi va o'zlashtirishi osonlashadi. Natijada, o'rganilayotgan fanlar shaxsiy va qiziqarli o'rganish tajribasiga aylanadi.



TALABALARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA O'QUV TA'LIM STRATEGIYALARI VA MAQSADNI BELGILASH

L.Z. Namazbayeva,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch doktoranti

O'z oldiga maqsad qo'yganlar
katta natijalarga erishadilar.

(Suqrot)

Inson faoliyati – bu atrofdagi dunyoni, uning yashash sharoitlarini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatining o'ziga xos turi sanaladi. Inson faoliyati jarayonida moddiy, ma'naviy va madaniy obyektlar yaratiladi, tabiat va insonning o'zi esa takomillashadi.

Kognitiv(bilish) va transformatsion funksiyalarni bajaradigan odamning tadqiqot faoliyati muhim ahamiyatga ega, chunki bu odamning atrofidagi dunyo bilan faol munosabatlarining shakli, mustaqil ravishda yangi bilim olish vositasi, taraqqiyot harakati, hayotga intellektual va ijodiy munosabat manbai, ma'lum moddiy yoki ma'naviy mahsulotni ijodiy yaratish asosini tashkil etadi.

Shu munosabat bilan, Oliy ta'limning Davlat standarti talabalarning loyiha va tadqiqot faoliyatini o'quv jarayonida amalga oshirish orqali ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu talabalarga mustaqil ravishda yangi bilimlarni eksperimental yo'l bilan o'zlashtirishga, tadqiqot madaniyatiga amal qilish, tahlil va sintezni o'zlashtirish, abstraktsiya va umumlashtirish, qurilish nazariyasi va amaliyotga o'tish kabilarga imkon beradi.

Tadqiqot faoliyatida muhim kognitiv va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan talabaning maqsadli faoliyati, bu uning keyingi rivojlanishini rag'batlantiradi, o'z-o'zini rivojlantirishga hissa qo'shadi, kasbiy va shaxsiy taqdirini belgilash, ijodiy individuallikni shakllantiradi[1].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda talabalarning tadqiqot faoliyati bo'yicha cheklangan miqdordagi ishlari aniqlandi, shuning uchun talabalarning tadqiqot faoliyati muammosiga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Zamonaviy jamoada muhim o'rin egallagan tushunchalar orasida ("rivojlanish", "innovatsiya" bilan birga) "strategiya" so'zi ham alohida bir o'rinni egallaydi. Umuman olganda, strategiya tushunchasi odamlarning maqsadli faoliyati uchun yetarlicha aniq va barqaror ko'rsatmalarni belgilaydigan o'ziga xos nazorat, boshqarish sifatida talqin qilinishi mumkin.

Bu atamani nafaqat siyosat, iqtisod, menejmentga bag'ishlangan asarlarda, balki inson bilimining turli muammolarini muhokama qilishda ham uchratamiz. Ta'limsohasidagi tadqiqotlar bundan mustasno emas, bu yerda "strategiya" tushunchasi juda intensiv qo'llaniladi (ko'pincha pedagogika, psixologiya va sotsiologiyada to'qnash kelganimizda). Strategiya so'zi ta'limda ko'pincha quyidagi so'zlar bilan ishlatiladi: "ta'lim strategiyasi", "ta'limiy strategiya", "pedagogik strategiya", "o'qitish strategiyasi", "o'quv-ta'limiy strategiya" va boshqa. Ish jaraoyonlarida esa "rivojlanish strategiyalari", "tayyorgarlik strategiyalari" va boshqa strategiyalar haqida ham gap boradi[2].

N.V. Shuvalova tomonidan qo'llaniladigan "ta'lim strategiyasi" iborasini falsafiy tushunish doirasida ko'rib chiqamiz. Uning fikricha, ta'lim strategiyasi - bu "pedagogik usullarni tanlash bo'yicha qabul qilingan umumiy nuqtayi nazar va harakatlar rejasi demakdir", "umumiy kasbiy reja, shu jumladan ta'lim mazmuni va uning metodologiyasi, professional hamjamiyatda o'z-o'zini tarbiyalash va kasbiy aloqalar"

Strateriya atamasi 3 xil holatda ishlatilishi mumkin.

1. "Strategiya" atamasi bugungi kunda ikki xil holatda: ta'lim faoliyatini tashkil etishda va pedagogik jihatlariga nisbatan qo'llaniladi.

2. "Strategiya" atamasi turli darajadagi obyektlarga nisbatan qo'llaniladi.

3. Ushbu holatning o'ziga xos xususiyatlari strategiyalarni tizimlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin[3].

Pedagogik strategiya – ta’lim-tarbiya va pedagogika fanida aniq belgilangan maqsadlarga erishishga yo’naltirilgan asosiy hakaratlarning uzoq va qisqa muddatli dasturidir.

Maqsadlarni belgilash ta’lim strategiyasining bir qismi bo’lib, ta’limstrategiyasining asosidir. Maqsad deganda ta’limning yakuniy natijasining subyektiv tasviri tushuniladi. Maqsad qo’yish o’quv jarayonida nima va qanday amalga oshirilishini hal qilishni anglatadi. Bu talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish va boshqarishning puxta o’ylangan usulidir. Tadqiqotchilik faoliyati tadqiqotchilik qobiliyatdan kelib chiqadi. Qobiliyatning shakllanishi kichik yoshdan, ya’ni maktabgacha ta’limdan boshlanib, uzluksiz ta’lim tizimi yo’lida yanada takomillashib boradi. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda, uzluksiz ta’limolish doirasida universal ta’lim faoliyatini rivojlantirish dasturi talabalarning tadqiqot usullarini va texnologiyalarini qo’llash bo’yicha tadqiqot ko’nikma va malakalarini shakllantirishni o’z ichiga oladi.

Har qanday maqsad aniq shakllantirilgan, tushunarli, erishish mumkin, tekshirilishi mumkin va aniq bo’lishi kerak.

Ta’lim strategiyasidagi maqsad qisqa muddatli (bir dars yoki mavzu uchun), o’rta muddatli (masalan, bitta fan kursini o’rganish) va uzoq muddatli (bir necha o’quv yili yoki butun oliygoh hayoti uchun) bo’lishi mumkin[4].

Masalan, talaba o’z sohasining yetuk mutaxassisi bo’lishni xohlaydi. Uning uchun uzoq muddatli maqsad ma’lum bir oliygohda o’qish va ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining yoqori cho’qqisiga erishishdir. Uning atrofida ta’limstrategiyasini qurish kerak: o’z mutaxassislik faniga tayanish, yo’nalishiga uzoq bo’lgan fanlarga kamroq vaqt ajratish, tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirish maqsadida har xil ilmiy to’garaklarga, halqaro va respublika anjumanlarida faol ishtirok etishga va boshqalar.

Vazifalar maqsaddan kelib chiqadi. Maqsadlardan farqli o’laroq, ta’limstrategiyangizda ular bir nechta, xattoki xoxlagancha ko’p bo’lishi mumkin.

Agar vazifa masalani tushunishga qaratilgan bo’lsa, ular “aniqlash”, “eslab qolish”, “ta’riflash”, “taqqoslash”, “tushuntirish”, “kuzatish”, “muhokama qilish”, “xulosalash” va hokazo kabi tushunchalar shakllantiriladi. Agar siz biron bir harakatni amalga oshirmoqchi bo’lsangiz, unda “amalda qo’llash”, “namoyish qilish”, “hal qilish”, “taqdimot etish” va boshqalar mos keladi.

Tadqiqot vazifalari

Davlat Ta’lim Standartiga muvofiq, tadqiqot ishi talabani tayyorlashning majburiy qismidir. Ushbu ish natijasida talaba o’z faoliyatini rejalashtirish, tashabbus ko’rsatish, tadqiqot jarayonida qo’yilgan savollarga javob topish, o’z ishining borishini tahlil qilish va olingan natijalarni baholash, namoyon ettirishishi kerak.

Tadqiqot ishining bosqichlari:

1. Tadqiqot yo‘nalishini tanlash. 2. Tadqiqot mavzusini tanlash. 3. Gipotezani shakllantirish. 4. Ishning bosqichlarini rejalashtirish. 5. Tadqiqot predmeti bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash. 6. Tadqiqot ishlarini olib borish. 7. Natijalarni baholash. 8. Ishlarni ro‘yxatga olish[5].

Tadqiqot yo‘nalishini tanlash va tadqiqot mavzusini tanlash.

Tadqiqot bo‘yicha ish aniq bir masala bilan shug‘ullanish istagi bilan boshlanadi. Tadqiqot nima haqida bo‘lishini, kelajakdagi faoliyatda foydali bo‘lishini tushunish, tanlangan yo‘nalishda tadqiqotchi sifatida o‘zining kuchli tomonlarini ro‘yobga chiqarishi kerak. Yaxshi tadqiqot mavzusi avvalambor talabaning o‘zini va ilmiy rahbarni qiziqtiradigan, aniq, qisqa, to‘g‘ri shakllantirilgan bo‘lishi kerak.

Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun tadqiqotning yangiligi, uning dolzarbligi muhim omil hisoblanadi.

Gipotezani shakllantirish.

Tekshirish va nazariy asoslash yoki tasdiqlashni talab qiladigan ilmiy taxminni shakllantirish. Asosiy tadqiqot gipotezasi tadqiqot mavzusini shakllantirishdan kelib chiqishi kerak.

Ishni rejalashtirish bosqichlari.

Tadqiqot maqsadi sari izchil harakat qilish uchun ishingizning batafsil tuzilgan rejasini bo‘lishi kerak. Bu ishning tartibga solinishiga, yanada maqsadga muvofiq ravishda bajarilishiga bundan tashqari, ma’lum bir ritmda ishlashda va tartibga solishda yordam beradi. Talabalar maqsadga erishish yo‘lidagi barcha muhim fikrlarini doimo yozib olishlari va muhokama qilishlari kerak. O‘quv jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishi orqali tadqiqotchilik qobiliyati rivojlanadi. Pedagog bu qobiliyatni yo‘naltiruvchi va tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshiruvchi subyektdir. Talabani mustaqil fikrlashga, xulosalashga, yakunlashga undaydi. Pedagogda katta mas‘uliyat zimmasi yotadi. Talabaning qilayotgan xato va kamchiliklarini darhol aniqlab olish kerak. Bir-biringizni yaxshi tushunishga va ta’lim strategiyasining maqsad va vazifalarini to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qilinishi lozim. Shundan so‘ng, muvaffaqiyat mezonlarini muhokama qiling. Reja – bu talabaning oldiga qo‘yilgan maqsadlariga qanday erishishidir. Unda talaba va ilmiy rahbar (yoki fan o‘qituvchisi) butun o‘quv jarayonini mukammal, eng kichik detallarigacha puxta o‘ylab ko‘rishi kerak bo‘ladi. Rejani amalga oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlar ham muhim o‘rin tutadi.



KREDIT-MODUL TIZIMI VA TA'LIM

C.N.Najiyeva

SamDCHTI pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Kredit-modul tushunchasi ikki so'zdan iborat: "kredit" va "modul". Kredit. Oliy ta'lim sohasida kredit ko'pchilikka bank va moliya sohasi orqali tanish bo'lgan qarzdorlik yoki moliyaviy majburiyat tushunchasini anglatmaydi. Shuning uchun oliy ta'lim sohasida kredit so'zi ko'pincha "akademik" so'zi bilan birga ishlatiladi. Akademik kredit – oliy ta'limning muayyan bosqichida ushbu ta'lim darajasini qo'lga kiritish maqsadida talaba tomonidan muntazam ravishda to'plab boriladigan ramziy o'lchov birligi. Bu birlik talaba ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini bajarganligi va muayyan o'qish natijalarini muvaffaqiyatli tarzda egallaganligini anglatadi. ECTS tizimida o'quv dasturi bir necha modullardan tashkil topadi. Talaba kreditlarni faqat modullar orqali qo'lga kiritishi mumkin.

Ta'lim tizimlarini odatda ikki toifaga bo'lish mumkin: o'qituvchiga yo'naltirilgan va talabaga yo'naltirilgan ta'lim. Ularni oddiy qilib quyidagicha tasvirlash mumkin: o'qituvchiga yo'naltirilgan ta'lim tizimida ta'limga, o'quv dasturlariga, dars jarayonlariga qat'iy ravishda OTM, uni nazorat qiluvchi tashkilot va o'qituvchi xohishi nuqtayi nazaridan yondashiladi. Bunda talabalar nimani, qancha, qanday usulda o'rganishi kerakligi masalalarini belgilashda mehnat bozori vakillari va talabalarining ehtiyojlar, fikrlari ko'p ham e'tiborga olinmaydi. Ta'lim jarayonini boshqarish va tashkil etish ancha markazlashgan tarzda amalga oshiriladi. Bunda yana o'qituvchiga bilimning yagona manbai sifatida qaraladi. Talabalar asosan nafaol tinglovchi sifatida shakllanadi chunki ta'lim jarayonlari ularni faollikka undamaydi (darslar asosan ma'ruza shaklida tashkil etiladi). Bunday ta'lim tizimida talabalarda mustaqil fikrlash, o'z fikrlarini ifoda etish, munozaraga kirishish, muammolarga tanqidiy yondashish, o'zlari uchun o'zlari qaror qabul qilish salohiyatlari shakllanmaydi.

Talabaga yo'naltirilgan ta'lim bu o'qituvchiga yo'naltirilgan ta'limning teskarisi desak to'g'ri bo'ladi. Ushbu tizimda ta'limga OTM, uni nazorat qiluvchi tashkilot yoki o'qituvchilar nuqtayi nazaridan emas balki talabalar nuqtayi nazaridan yondashishni talab etadi. OTMlar, ularni nazorat qiluvchi tashkilotlar va o'qituvchilar ta'lim jarayonlarini tashkil etuvchisi bo'lsalarda, ular asosan muvofiqlashtiruvchi vazifasini o'taydilar, ya'ni o'quv dasturlari, hususan talaba nimani, qancha, qanday usulda o'rganishi kerakligi talabalarining qiziqishlari, ehtiyojlari, mutahassislik va mehnat bozori talablarini chuqur tahlil qilgan holda, ya'ni "pastdan tepaga" qarab (bottom up) shakllantiriladi.

Bunda yana o'qituvchiga bilimning yagona manbai sifatida qaralmaydi. Talabalar ta'lim jarayonlariga faol jalb etiladi. Ta'lim tizimi talabalarda mustaqil fikrlash, o'z bilimini boshqalar bilan ulashish, o'zi uchun o'zi qaror qabul qila olish salohiyatlarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Talabaga yo'naltirilgan ta'lim ECTS kredit – modul tiziming quyidagi qoidalarida o'z aksini topgan:

O'quv dasturlari va o'quv rejalari ta'limdan kutilayotgan aniq o'qish natijalari asosida shakllantiriladi. Ya'ni OTM o'quv dasturlarini va o'quv rejalarini yaratish jarayonida o'z oldiga talaba mazkur o'quv dasturi so'ngida nimalarni bilishi, tushunishi va qila olishi kerak degan savollarni qo'yadi va o'quv dasturlarni shu savollarning javoblari asosida shakllantiradi. O'qish jarayonlari ancha maqsadli tashkil etiladi. Bunda OTM faoliyatiga u talabalarga nimalar “o'rgatilganligi” ga qarab emas, balki talabalar undan nimalarni “o'rganganligi” ga qarab baholanadi. Bunda yana OTMlarning vazifasi talabalarga nafaqat bilim berish, balki ularda ko'nikma va mahoratlar shakllantirish ham ekanligi belgilgan.

Talabalar fanlarni ma'lum darajada o'zlari tanlash huquqiga ega bo'lish orqali o'zlarining o'quv dasturiga ega bo'lishadi. Ta'limdagi bu hususiyat orqali talabalar o'zlari qiziqqan fan va yo'nalishlarni chuqurroq o'rganish, talabalik davridan samarali foydalanish, o'z salohiyatlari to'liq ro'yobga chiqarishga va o'zlari uchun o'zlari qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. ECTS kredit – modul tizimi talabalarining ta'lim jarayonlariga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni talabalarga oldindan, tushunarli, to'liq va shaffof tarza yetkazishni talab qiladi. Bunda OTM talabalarga ular butun o'qishlari davomida qaysi fanlarni o'zlashtirishlari zarur yoki mumkinligi, ulardan kutilayotgan o'qish natijalari, talabalar qanday usul va mezonlar asosida imtihon qilinishlari haqida oldindan to'liq va shaffof tarzda ma'lumot berishi kerak bo'ladi.

Har bir OTM o'quv yili boshida o'zining o'quv dasturlari bo'yicha dastur katalogini ishlab chiqishi va uni talabalarga taqdim etadi. Dastur katalogi OTM veb sahifasiga joylashtirish yoki boshqa usulda talabalarga taqdim qilinishi mumkin. o'quv dasturidagi har bir fan muayyan ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan holda kodlanadi. O'quv dasturida har bir fan uning darajasi, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, tanlov yoki majburiy fan ekanligi va shu kabi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan holda kodlanadi va bu kodlar mazmuni haqida talabalarga tushuntiriladi.

O'qituvchilar tomonidan o'z fanlari bo'yicha fan dasturlarini tayyorlanishi va talabalarga taqdim etilishi. ECTS kredit – modul tizimida har bir o'qituvchi OTM o'quv dasturdagi u o'qitishi kerak bo'lgan har bir fani bo'yicha “fan dasturini” ishlab chiqadi va uni semestrning dastlabki haftasida talabalarga taqdim etadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ECTS kredit – modul tizimi OTMlar o'zlarining o'quv dasturlarini ishlab chiqishda muayyan qoidalarga amal qilishni talab etadi. Bu degani o'quv dasturlari, o'quv rejalari OTM darajasida tayyorlanadi. Bu oliy

ta'limni boshqarishning markazlashgan tizimiga qaraganda ancha samarali, rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan usullaridan biridir. Chunki OTMlar individual tarzda zamon, mehnat bozori talablariga tezroq moslashish, ushbu ehtiyojlarga tezroq javob qaytarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qolaversa OTMlar o'zlarining imkoniyatlarini, afzallik tomonlarini, ta'lim tizimida o'z o'rinlariga ega bo'lish uchun aynan qaysi yo'nalishlarga sarmoya qilishlari kerakligini o'zlari yaxshi bilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoniga Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. Azizxo'jayev N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.:2018. B-61.
3. "Agrar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Prezident qarori (PQ-4795, 30.07.2020 y.).
4. "Bolonya deklarasiyasi bo'yicha kreditli ta'lim" mavzusidagi ma'ruza Oliy maktab o'quv va tarbiyaviy ishlari bo'yicha prorektori Jahongir G'aniyevning 2020-yil 26-dekabr.



T. N. QORI NIYOZIY – USTOZLARNING USTOZI

B.A. Olimov

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI v.v.b. professori

"Tomirlarda buyuk bobolarining qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur".

SH.M.Mirziyoyev

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati, fan-texnika taraqqiyoti tarixini o'rganish katta ilmiy ahamiyatga egadir. Markaziy Osiyoda qadimdan matematika, fizika, astronomiya, tibbiyot, kimyo, to'qimachilik, me'morchilik, ma'danshunoslik, kulolchilik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik keng rivojlangan. Mustaqillik sharofati bilan buyuk ajdodlarimiz nomi va ularning jahon ilm-fani va madaniyatiga qo'shgan ulkan merosini o'rganish uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Oliy Majlisga Murojaatnomasida" – Biz o'z oldimizga

mamlakatimizda Uchinchi Renessans -poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Bobur, Qori Niyoziy larni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak".

2022-yil sentabrda, yirik davlat va jamoat arbobi, akademik Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziyning tavalludiga 125 yil bo'ladi. Shu munosabat bilan biz u kishining ibratli xayot yo'llarida nazar tashlab, O'zbekiston fani va madaniyati ravnaqi uchun, olimlarning yangi avlodini tarbiyalab yetishtirishda sarflagan xizmatlari yana bir bor eslab, ulug' USTOZ ga bo'lgan o'z e'htiromimizni bildirishni lozim topdik.

Qori-Niyoziy nafaqat matematika fani rivojiga katta hissa qo'shgan buyuk olim, O'rta Osiyo olimlar va mutafakkirlarining boy ilmiy – madaniy merosini o'rganish, targ'ibot va tashviqot qilishga munosib ulush qo'shgan, fikr qamrovi keng olim va pedagog sifatida ham katta ilmiy meros qoldirdi.

1917-yil endigina barpo bo'lgan hukumatning odida turgan eng muhim, jangovor masalalardan biri – yosh avlodni tarbiyalash, yangi maktablar tashkil qilish edi. Farg'onada birinchi bo'lib Qori Niyoziy yangi maktab barpo qilish baxtida muyassar bo'ldi. Yangi maktab uchun sobiq rus-tizim maktabining binosi berildi. Keyingi eng murakkab masala - maktabni oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalasi turardi, chunki mahalliy aholi orasidan o'qituvchilik talabiga to'la javob beradigan kishilarni katta muammo edi. Hatto Qori Niyoziyning o'zida ham na tajriba va na yetarli ma'lumot bor bo'lib, u kishi bittirgan rus-tizim maktabining bergan ma'lumoti faqat boshlangich tizimga mos kelar edi.

O'zbekistonda birinchi universitet tashkil qilingandan keyin darslarni ko'pchiligi rus tillaridan olib borilardi. Talabalarning ko'pchiligi rus tillarni bilmas edilar. Mahalliy talabalarda ma'ruza o'qiydigan, yuqori ma'lumotli mahalliy kadrlar yo'q edi. Shu sababli, 1928-yili universitet ma'muriyati taklifi bilan professor V.I. Romanovskiy rahbarligdagi matematika kafedrası o'zbek tilida ma'ruza o'qishni 5-kurs talabasi Qori Niyoziyga topshirilgan.

Matematika domlasi har bir yangi tushunchani misollarda, ayniqsa hayotiy misollarda tushuntirishga, tadbiq qilib ko'rsatishga usta bo'lishi kerak.

Qori Niyoziyning boshqa fanlardan farqliroq matematika faniga qo'shgan hissasi, uning uch tomlik «Matematik analizning asosiy kursi» kitobi davlatimizning buyuk mukofotiga sazovor bo'ldi. O'rta Osiyo olimlarning ayniqsa Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosini o'rganib, «Ulug'bekning astronomik maktabi» ni yaratdi. Qori Niyoziyning o'zbek, rus va ingliz tillarida bir necha yuzdan ortiq ilmiy asarlari, monografiya va maqolalari bosilib chiqqan. U o'zbek xalqi shuhratini nafaqat o'z yurtida balki, chet davlatlarda Italiya, Fransiya, Yaponiya, Bolgariya, Afg'oniston va Hindistonda bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy anjumanlarda o'zing

ma'ruzalari bilan qatnashgan. Bunday xizmatlari uchun Qori Niyoziy domlani ilm-fan sohasidagi yuksak xizmatlari uchun mustaqillik yillarida munosib baholanib, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi.

Bundan tashqari Qori Niyoziy Respublika xalq ta'limi, fan va madaniyati rivoji uchun shu darajada ko'p ishlar qilganki, u kishi davlatimiz mukofotlaridan singari O'zbekiston ziloyilarining oqsoqoli deb bejiz aytishgan.

Buyuk ajdodlarimiz ilmiy va ma'naviy merosining jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasini bilish, bundan fahrlanibgina qolmay, uni rivojlantirishga hissa qo'shish bugungi yosh avlod zimmasidagi sharaflı vazifadir. Yoshlarimiz buyuk bobolariga munosib avlod bo'lishlari uchun ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy meroslarini o'rganishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan yig'ilishdagi hamda Oliy Majlisga Murojaatnomasi ma'ruzasi. 31.10., 23.12. 2020-y.



BOLALAR IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA OTA-ONA VA MAKTAB HAMKORLIGINING XUSUSIYATLARI

M.A.Pazilov,

Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Har bir bolaning kelajakda komil inson bo'lishida ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Ta'lim-tarbiya bir-biriga bog'liq bo'lib, bola maktab yoshiga yetgach ota-ona bergan tarbiyasi o'quv muassasasida ta'lim bilan hamohanglikda mustahkamlanib boriladi. Sababi bugungi kunda maktab va ota-onalar hamkorligi yo'lga qo'yilgan. Hamkorlikning asosiy maqsadi kelajak avlod ta'lim-tarbiyasida taraflarning majburiyatlarini orttirish, tarbiyaning bir taraflama shakllanishining oldini olish, «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» prinsipi asnosida, jarayonda keng jamoatchilikning ham ishtirokini ta'minlash orqali III-renessans davri poydevorining mustahkam bo'lishini, bolalarimiz ixtidorini ilm-fan taraqqiyoti negizida shakllantirishdan iborat.

«O'tmishsiz kelajak yo'q» deydi dono xalqimiz. Ajdodlarimizning hayot yo'liga nazar tashlar ekanmiz, mutafakkir olimlarimiz Xorazmiy, Farg'oniy, Buxoriy, Termiziy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Ajiniyoz, Berdaqlarning buyuk siymolari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Sababi, ular o'zlarining iqtidori va qobiliyatlari bilan ilm-ma'rifat dunyosiga o'z hissalarini

qo'shib, «Sharq Allomalari» degan ulug' e'tirofga sazovor bo'lgan. Ularning falsafa, matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, pedagogika, psixologiya fanlari sohasiga qo'shgan buyuk hizmatlarini bugungi kunda jahon ilm-fani tan olganligi ayni haqiqat.

Ajdodlarimiz bosib o'tgan yo'llarini muqaddas bilib, ularning faoliyatini davom ettirgan Komil Xorazmiy, Axmad Donish, Furqat, Abduqodir Shokuriy, Maxmudho'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadridin Ayniy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Seyfulg'abit Majitovlar maktab ta'lim-tarbiyasining rivojlanishida o'z hissalarini qo'shib kelgan. «Ular milliy uyg'onishning asosini ta'limni o'quv dasturlarini isloh qilishda ko'rdilar, ta'limning yangi tizimini amalga oshira boshladilar» [1]. Lekin ularning deyarli ko'pchiligi o'sha paytda hukmronlik qilgan Sho'ro davri qurboni bo'lganligi barchaga ma'lum.

O'zbekiston Islom madaniyatining rivojlangan davlati, ilm-fan, ma'rifat taraqqiy etgan maskan. Bu zaminning har bir farzandi biz keltirgan buyuk insonlarning nomlarini, ularning mehnat faoliyatlarini, hayot saboqlarini o'rganishi, bilishi, kerak bo'lsa yod olishi zarur. Sababi, ularda hayot va turmush chig'irig'idan o'tkan, ilm-fanga yo'g'irilgan tajribalar mavjud. Ularning jismida jam bo'lgan iqtidor va qobiliyat bugungi kun yoshlarida yo'q deb aytish qiyin.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida o'z o'rnini va nomiga ega, jahon hamjamiyati e'tirofiga sazovor bo'lib kelayotgan yuksak iqtidor egalari mavjud. Bu haqda ma'rifat darg'asi Toshmuhammad Niyoz o'g'li Qori Niyoziy «Hayot maktabi» kitobida (1970-yil) «... har bir normal qobiliyat egasi bo'lgan kishi bu kabi natijaga ega bo'lishi mumkin. Buning asosiy sharti vaqtdan to'g'ri foydalanish yoki boshqacha qilib aytganda, kundalik sistemali ijodiy mehnatdan iborat»[2] -deb ta'kidlab o'tadi.

Keyingi yillarda farzandlarimizning iqtidorini erta aniqlash, ularning ilmiy va ijodiy ishlariga qulay shart-sharoitlarni yaratish, ularni qo'llab-quvatlash, iqtidorini har taraflama rivojlantirish maqsadida ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilmoqda. Qolaversa, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning qiziqishlari bo'yicha to'garaklar faoliyat yuritib, maktabdan tashqari ta'lim maskanlarida iqtidorli bolalar o'z qiziqishlari bo'yicha ta'lim olishmoqda. Shu o'rinda hurmatli Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning «...bunday islohotni, bunday shiddatli jarayonni hech kim, hech qanday kuch, to'xtata olmaydi. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila bugun o'z hayotida his etishi kerak»[3] -degan so'zi yodimizga tushadi. Ammo bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlar xalqimizga biz o'ylaganchalik darajada yetib borayaptimi? Ota-onalar zamonaviy sharoitda ta'lim olayotgan farzandlarining o'qishiga qanday baho

bermoqda va oila davrasida farzandining ta'limi, olayotgan bilimi haqida suhbat olib boradimi? kabi savollar pedagogika soxasida savolligicha qolmoqda.

Sababi, huddi shu savollar bilan ayrim ota-onalarga yuzlanganimizda «Yaratilayotgan sharoitlardan xabarimiz bor, lekin o'kish jarayoniga qiziqib ko'rmadim», «Bolam o'qishi haqida uyda umuman gapirgisi kelmaydi», «Bolam 6 oydan beri to'garakga qatnayapti uyga charchab keladi, shundan bezovta qilgimiz kelmaydi», «Vaqt yo'q, bolamni o'qituvchilari o'qitiyabti-yu, o'zlari bir narsa qilar» va boshqa javoblarni eshitib bir tarafdin hursand bo'ldik. Chunki halqimizda ta'lim sohasiga ishonchi ortgan, ular farzandlarining kelajagini ta'lim maskanlarida ko'rmoqda, o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatiga, mehnat faoliyatiga ishonadi. Eng asosiysi farzandlari o'qish orqali hayotda o'z o'rnini topa olishini tushunib, kelajagiga katta umid bilan qaramoqda. Lekin farzandlarimizning ta'lim-tarbiyasi faqat bir tomonlama olib borilayotganligi, ota-onalar farzandlarini o'qitish yoki to'garaklarga berish orqali o'zlarining farzand tarbiyalashdek majburiyatlarini boshqalarga ishonib topshirayotganligi, farzandining jismoniy holatini o'ylab aqliy holatini esidan chiqarib qo'yayotganligi achinarli holat.

Uzoqqa ketmaymiz yaqin 20-30 yil orqaga nazar tashlaydigan bo'lsak katta yoshli insonlar bilan salomlashgan maktab o'quvchilardan maktabda necha soat o'qiganligini, nimalarni o'qib o'rganayotganligi, hattoki ayrim xollarda fanlardan savollar berishini, agar o'quvchi javob berolmasa, o'qituvchidan shuni so'rashini tayinlardi yoki o'zlari javobini aytib «ishonmasang o'qituvchingdan so'rab ko'r» derdi. Oilalarda esa farzandlarining dars tayorlash jarayoni ota-onalar tomonidan nazorat qilinardi, fanlardan tushunmagan joylarini ota-onalar tushuntirishga harakat qilardi. «Bolam o'qishda paytida uning kitoblarini o'qiyman, sababi, u savol bersa javob berolmay qolmayin deymanda» degan onaxonimizning o'sha paytlarda aytgan so'zlari yodimdan ketmaydi.

Mana shunday xolatlar ko'z o'ngimizda gavdalanar ekan maktab va ota-onalar hamkorligi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Chunki ta'lim maskanlarida bola 4-5 soat bilim olishi, aqliy faoliyatini yetilishtirishi mumkin, ammo oilada ana shu olgan bilimlari takomillashishiga ota-onalar ham harakat qilishi kerak. Bolaning o'qituvchilari sezmay qolgan qobiliyatlari bo'lishi mumkin. Bunda esa ota-onalar o'zlari bosh bo'lib, farzandini ruxiy jihatdan qo'llab-quvatlashi, qobiliyatining takomillashishida tashabbus ko'rsatib, kerak bo'lsa o'qituvchilari bilan ham muzokaralar olib borishi, ular bilan birga yelkama-yelka turishi lozim.

O'qituvchi esa «o'z kasbini va eng asosiysi o'z o'quvchilarini yaxshi ko'radigan, ularning kelajakda jamiyatimiz faol ishtirokchilari bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning barkamol shaxs sifatida yuksalib, inson sifatida kamol topishida asosiy rol o'ynashi kerak» [4].

So‘zimiz so‘ngida yuqorida I-II-Renesans davri vakillari, ularning ijod yo‘llari haqida bejizga to‘xtalib o‘tmadik, sababi, bugungi kunda ilm, kasb-hunar o‘rganaman degan har qanday insonga sharoit mavjud. Ilmli, iqtidorli farzandlarni yuzaga chiqarishni orzu qilgan o‘qituvchilarga imkoniyatlar cheksiz, faqat ilmiy izlanish va kasbiy ijodkorlik maqsad sari intilishning ezgu yo‘li hisoblanadi. Qolaversa, ta‘lim-tarbiya ishlarida faqatgina ta‘lim sohasi vakillari emas, balki oila va keng jamoatchilikning ham vazifasi ekanligini tushuntirib o‘tgimiz keldi. Bugungi kunda ota-onalarimizni farzand ta‘lim-tarbiyasida e‘tiborsizlikda ham ayblamoqchi emasmiz, faqat farzandi oldidagi muqaddas burchlarini ado etishida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarning oldini olish va «...ota-onalar, bir tomondan tarbiyachilar yoki o‘quv yurtidan nimalarni talab qilishlari, ikkinchi tomondan, o‘z bolalaridan nimalarni talab qilishlari to‘g‘risida sog‘lom va ravshan tushunchaga ega bo‘lishlari lozim» [5] ekanligini tushuntirishni ma‘qul ko‘rdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

e-mail: zulfizar1981@gmail.com Tel: 97 060-43-81

1. A.Zunnunov «Pedagogika nazariyasi». Toshkent 2006-y. 57-bet.
2. A.Zunnunov «Pedagogika nazariyasi». Toshkent 2006-y. 77-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24.01.2020 president.uz
4. J.Hasanboyev, X.To‘raqulov, M.Xaydarov va boshqalar «Pedagogika fanidan izohli lug‘at» (qayta ishlangan nashri) Toshkent 2009. (604-bet).
5. K.D.Ushinskiy «Tanlangan pedagogik asarlar» Toshkent 1959-yil. 121-bet.



PROFESSIONAL TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARINING MOBIL-METODIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Y.Sayfiyeva,

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

Respublikamizda mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta‘lim klasteri sharoitida talabalar kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu jumladan professional ta‘lim yo‘nalishi talabalarining mobil-metodik kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

to'g'risida"³gi Farmonida³, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish masalalari belgilab berilgan.

Mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda professional ta'lim yo'nalishi talabalarining mobil-metodik kompetensiyalarni rivojlantirish hamda bu yo'nalish bo'yicha kadrlarni tayyorlashda ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishga yangicha yondashish ta'lim samaradorligini oshirishda yuqori natijalarga erishish uchun zamin yaratadi.

O'n yil avval ingliz tilidagi pedagogik adabiyotlarda paydo bo'lgan mobil ta'lim "Mobile-learning" atamasi so'nggi paytlarda mamlakatimizda ko'proq qo'llanila boshlandi. Ko'pgina olimlar va o'qituvchilar axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'limning kelajagi mobil aloqaning keng tarqalishiga, smartfon va iPhonelarning ommalashishiga, ko'plab ta'lim dasturlari va ishchi dasturlarining paydo bo'lishiga, shuningdek, imo-ishora interfeysi kabi yangi texnologiyalarga bog'liqligiga ishonch bildiradilar. "Mobile"so'zi ta'rifi, birinchi navbatda, pedagogik jarayonning ikkita asosiy komponentini tavsiflaydi: o'quv vositalaridan foydalanish va ta'limda o'zaro ta'sirni amalga oshirish shakllari.

Bugungi kunda talaba o'quv materiallari va dasturlari, ta'lim resurslaridan bir zumda foydalanishi, topshiriqlarni bajarishi, istalgan vaqtda va istalgan joyda o'qituvchi bilan muloqot qilishi mumkin. Ta'lim shakli o'zgarib borishi bilan talabalar ta'lim muassasasida ushbu ta'lim shakliga, zamonaviy hayot va mehnat sharoitlariga moslasha boradilar. Ta'limning bunday shakli zamonaviy kompetensiyaga yo'naltirilgan konsepsiyaga ham mos keladi.

Bunda asosiy e'tibor zarur ma'lumotlarni mustaqil ravishda izlash, muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini aniqlash, olingan bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va amaliyotda qo'llash qobiliyatini o'rgatishga qaratiladi. SHunday qilib, mobil ta'lim ta'limga yangi sifat beradi, zamonaviy shaxsni tarbiyalash tendensiyalarini to'liq aks ettiradi, istalgan vaqtda va joyda ma'lumotlardan doimiy foydalanishni ta'minlaydi hamda o'quv jarayonini moslashuvchan, qulay bo'lishiga olib keladi.

Ta'lim jarayoniga eng yangi texnologiyalarni muvaffaqiyatli integrasiyalashning asosiy shartlaridan biri bu o'qituvchi va talabalar kompetensiyalarini tegishli darajada rivojlantirishdir. Bu esa talabaning o'quv faoliyati jarayonida mobil-metodik ko'nikma va malakalariga ega ekanligini bildiradi. Shu bilan birga, mobil ta'limning samaradorligi, ehtimol, ko'proq darajada, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining rivojlanish darajasiga bog'liq.

³ o'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida.

Mobil ta'limda o'qituvchining ko'rsatma beruvchi, qo'llab-quvvatlovchi va yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, talabalarning mobil-metodik kompetensiyalari mobil texnologiyalardan professional maqsadlarda foydalanish metodikasini anglatadi. Bu kompetensiya, mobil texnologiyalar yordamida an'anaviy sinflarda mobil axborot muhitini yaratish bilan belgilanadi. Boshqa tomondan, mobil texnologiyalar zamonaviy ta'limning ustuvor tamoyili sifatida interfaollikni amalga oshirishga yordam beradi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun mobil texnologiyalarni integrasiyalashning samarali modelini ishlab chiqish va yaratish o'qituvchidan ma'lum darajadagi professional malakani talab qiladi. U mobil texnologiyalarning professional ta'limga ta'sirini baholash, ularni an'anaviy sinflarga muvaffaqiyatli integrasiyalashuvi uchun metodikani moslashtirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayonida foydalanish uchun mos keladigan mobil ilovalarning navbatdagi guruhi multimedia vositalari va materiallaridir. Qizig'i shundaki, bugungi kunda biz nafaqat vizualizasiya haqida, balki o'quv materialini jonlantirish zarurati haqida gapiramiz. Shunday qilib, rasmlar va sxemalar o'rnini audio va ko'rgazmali diapazonni o'z ichiga olgan sintezlangan materiallar (videokassetalar, disklar, fleshkalar, raqamli formatdagi hikoyalar va boshqalar) egallay boshladi. Multimediya materiallariga asoslangan reseptiv darslar, animasion ko'rgazmalar va smart-doskalar bilan jihozlangan o'quv xonalari, noutbuklar, planshetlar va smartfonlardan foydalanish majburiy bo'lmasa-da, barcha talabalar o'z mobil vositalarini darsga olib kelishlari afzal hisoblanadi, ya'ni aksariyat axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan topshiriqlarni mobil qurilmalarda bajarish professional ta'lim yo'nalishi talabalarining mobil-metodik kompetensiyalarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Demak, mobil qurilmalarning yoshlar o'rtasida keng tarqalishi va ommalashishi ularning ta'lim jarayonida o'z-o'zidan qo'llanilishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, professional ta'lim yo'nalishi talabalarining mobil-metodik kompetensiyalarni rivojlantirishda mobil texnologiyalar asosida yaratilgan yangi formatdagi vazifalarni an'anaviy shaklga joriy etish, mavjud ta'lim dasturlarini mobil qurilmalar yordamida o'zlashtirish, ta'lim jarayonini interaktiv qo'llab-quvvatlash, talabalarning mobil-metodik ko'nikma va malakalarini rivojlantirish ta'lim jarayonida mobil qurilmalar va texnologiyalardan tizimsiz foydalanish bilan bog'liq muammolarning bartaraf etilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida.

2. Титова С.В. Мобильное обучение сегодня: стратегии и перспективы // Вестник Московского университета. Сер. XIX. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2012. № 1. – С. 9-23.

3. Куклев В.А. Становление системы мобильного обучения в открытом дистанционном образовании // Школьные технологии. 2010. № 4. – С. 45-52.



MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI TAHLILI

Z.R. Saidova,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch doktaranti

Ta'lim va tarbiya mamlakat taraqqiyoti va uning kelajagi kafolati ekani isbot talab qilmaydigan haqiqat. Butun dunyoga yetarlicha xavf solgan koronavirus pandemiyasi ta'lim sohasiga ham karantin sharoitida ta'lim muassasalari vaqtincha yopilgan bo'lsada, o'quvchi va talabalar uchun ta'lim jarayoni to'xtamadi. Darslar televideniye, masofaviy ta'lim tizimlari orqali masofaviy tarzda olib borildi. Hususan, Oliy ta'lim tizimida ham ta'lim jarayonlari masofaviy tashkil etildi. Oliy va o'rta maxsus vazirligining 2020-yil 27-martdagi «Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish to'g'risida»gi 233-sonli, 2020-yil 10-apreldagi «Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini masofaviy ta'lim orqali samarali davom ettirish hamda 2019/2020 o'quv yilini yakunlash to'g'risida»gi 257-sonli buyruqlari asosida Respublikamizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarida talabalar uchun masofaviy ta'limni oliy ta'lim muassasasi xususiyatiga muvofiq metod va texnologiyalarda joriy etilib, shu asosida o'qitish tashkil etildi.

Masofaviy o'qitish o'qituvchining o'qitish jarayonidagi rolini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Endi o'qituvchi o'zlashtirish jarayonini muvofiqlashtirishi, yangiliklar va innovasiyalarga mos ravishda o'qtayotgan fanini muntazam mukammallashtirishi, saviya va ijodiy faoliyatini yanada chuqurlashtirishi talab etiladi. O'qituvchi o'quv materiallari va mazmunini har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga qarab moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu albatta ta'lim samaradorligini oshishiga olib keladi.

Shu sababli masofaviy ta'limning quyidagi asosiy xarakteristikasida ham ushbu omil o'z o'rnini topgandir:

- kommunikativ tarkibiy qism va uning amalga oshirilishi;
- o'quv materiallarini yetkazish, uning tarkibini to'g'ri tanlash va asoslash;
- o'quv mazmunini talabaning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga moslashuvchanligini ta'minlash tizimining mavjudligi.

Masofaviy o'qitishning ta'lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo'lib, ular quyidagi qo'llanish shartlari bilan farqlanadi:

- geografik shartlar (masalan, mamlakat hududi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);
- mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi;
- kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;
- ta'lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo'llanish darajasi;
- ta'limda qo'llaniladigan an'analar;
- masofaviy o'qitish tizimi uchun ilmiy- pedagog kadrlarning mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar.

Masofaviy ta'limning asosiy texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

INTERAKTIV texnologiyalar:

- Internet masofaviy ta'lim portali.
- Video va audio konferensiyalar.
- Elektron pochta orqali ta'lim.
- Internet orqali mustaqil ta'lim olish.
- Masofadan boshqarish tizimlari.
- Onlayn stimulyator va o'quv dasturlari.
- Test topshirish tizimlari.

INTERAKTIV bo'lmagan texnologiyalar:

- Video, audio va bosma holda chop etilgan materiallar.
- Televizion va radio ko'rsatuvlar.
- Disklarda joylashgan dasturlar.

Video va audio konferensiyalar – bu Internet va boshqa telekommunikatsion aloqa kanallari yordamida ikkita, uzoqlashgan auditoriyalarni telekommunikatsion texnologiyalar orqali bir- biri bilan bog'lab ta'limni tashkil etish yo'li. Lekin, video va audio konferensiyalar uchun katta hajmda maxsus texnika, yuqori tezlikga ega bo'lgan aloqa kanali va o'qitishni tashkil qilish uchun xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni jalb etish zarur bo'ladi.

Internet orqali mustaqil ta'lim olish – bu ko'pgina Internet saytlarida joylashgan katta hajmdagi ma'lumotlar ustida mustaqil ravishda ishlash va yangi bilimlar olish yo'li.

Elektron pochta orqali ta'lim esa eng ommaviy Internet xizmatlaridan foydalanib, talaba va o'qituvchi o'rtasida xatlar orqali muloqot o'rnatib ta'lim olish yo'li. U yordamida xar xil test, topshiriq, savol-javob va ko'rsatmalarni (matn, grafika, multimediya, dasturlar va boshqa ko'rinishlarda) jo'natib qabul qilishimiz mumkin.

Uzoqdan boshqarish tizimlari – murakkab dastur, tizim va uskunalarni real holatda boshqarish va ularda ishlash imkoniyatlarini yaratuvchi maxsus tizimlar yordamida bilim olish yo‘li. Uzoqdan boshqarish tizimlarning asosiy vazifasi talabaga faqatgina amaliy bilimlarni berishdan iboratdir.

Stimulyator, elektron darsliklar va o‘quv dasturlar – bu asosan nazariy va amaliy bilimlarni kompyuter dasturlari orqali talabalarga onlayn holatida uzatish yo‘li. Stimulyator va elektron darsliklar hozirgi kunda ta‘lim sohasida juda keng qo‘llanilyapti.

Test topshirish tizimlari – bu maxsus dasturlar yordamida talabalarning amaliy va nazariy bilimlarini tekshirib, baholashda foydalaniladi.

Internetning masofaviy ta‘lim portali bu maxsus Internet saytlar (on-layn resurslar). Ushbu saytlarning asosiy vazifasi - ta‘lim jarayonini tashkil qilish yoki talaba va o‘qituvchi o‘rtasida elektron on-layn muloqotni o‘rnatish, o‘qituvchilarga o‘quv materiallarini saytga kiritish, talabalarga ushbu ma‘lumotlar ustida ishlashga hamda boshqa masofaviy ta‘lim servislaridan foydalanishga imkoniyat yaratishdan iboratdir.

Masofaviy ta‘lim texnologiyasini tanlash va masofaviy ta‘limda o‘quv jarayoni Texnologiyaning hammabop erkin foydalanish imkoniyatining mavjudligi uni tanlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. U asosan tanlangan guruh tarkibi va o‘quv muhitiga (foydalanuvchi joylashgan joy: uy, ish joyi, universitet, o‘quv markazi) bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, o‘quv guruhining barcha a‘zolari uchun texnologiya qulay bo‘lishi, foydalanuvchilardan qo‘shimcha vositalar talab etmasligi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

2. O.D.Raximov, O.M.Turg‘unov, Q.O.Mustafayev “Oliy ta‘limda masofaviy o‘qitishni tashkil etish” Uslubiy qo‘llanma. Qarshi-2012y

3. O.D.Raximov, Q.O.Mustafayev, N.I.Zoirov “Masofaviy ta‘limning didaktik ta‘minoti”. Uslubiy qo‘llanma. Qarshi-2012.

4. Samar A. Ahmed, Nagwa N. Hegazy , Hany W. Abdel Malak, W. Cliff Kayser, Noha M. Elrafie, Mohammed Hassanien, Abdulmonem A. Al-Hayani, Sherif A. El Saadany, Abdulrahman O. Model for utilizing distance learning post COVID-19 using (PACT)TM across sectional qualitative study. Ahmed et al. BMC Medical Education (2020) 20:400, <https://doi.org/10.1186/s12909-020-02311-1>



PEDAGOGLIK KASBINING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI ROLI

R.S. Sadikova,
OshDU o'qituvchi

Mamlakatimizda barcha sohalarda bo'layotgan islohotlar, ijtimoiy o'zgarishlar, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda ham o'z aksini topmoqda. Bugungi kunda odob-axloq ilmiga, ma'naviyat masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimiz yoshlarining katta bir qismini qamrab olgan soha - oliy va o'rta maxsus o'quv tizimida ma'naviyat masalasini oqilona va maqsadga muvofiq tashkil etish umumdavlat siyosati miqyosidagi vazifadir. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitusiyaviy huquqlaridan biri – bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi deyilgan.

Tarbiya jarayonining asosiy yetakchisi hisoblangan pedagog kadrlarda pedagogik faoliyatga mos va xos sifatlarni shakllantirish natijasidagina yoshlar tarbiyasini maqsadga muvofiq tashkil etish lozim bo'ladi.

Kasbning inson oldiga qo'yadigan talablari majmuasi psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy va pedagogik jabhalarni qamrab oladi. Kasb va ixtisos asoslarini egallovchi yoshlar shu fanlarning barcha talablariga moslashishi orqali mutaxassislik layoqatini rivojlantira boradi. Pedagogik ixtisoslikka munosiblik quyidagilarni aks ettiradi:

- 1) jamiyat ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksak darajadagi qarashlar, e'tiqodlar, ideallar shakllanganligi;
- 2) bolalarga nisbatan mehr-muhabbat, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini tushunish ko'nikmasining mavjudligi;
- 3) pedagogik kuzatuvchanlik (persektiv qobiliyat);
- 4) hayot va faoliyatning u yoki bu jabhalarida odamlar xatti-harakatlarining xususiyatlarini oqilona tushunish va izohlashga qobillik;
- 5) o'zgaruvchan shart-sharoitlarda omilkorlik bilan mo'ljal olish qobiliyati;
- 6) tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatlarga egalik;
- 7) umumiy va bilishga oid qiziqishlarning ko'pqirraliligi;
- 8) maqsadga erishish yo'lida irodaviy zo'r berishga tayyorlik va sobitqadamlilik kabilar.

Ushbu ko'rsatilgan xususiyatlarni o'zida mujassam etgan pedagog kadrlar yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashga tayyor bo'lishadi. Pedagog professiogrammasining psixologik jihatlarida quyidagi tomonlarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1. O'qishga munosabat va intellektual sifatlar; bilimlarning chuqurligi, turli o'quv fanlarini o'zlashtirishning intellektual (aqliy) imkoniyatlari, salohiyatlilik va qiziquvchanlik, ijodiy faoliyatga qobiliyat, ma'naviy qiziqishlarning ko'lami, fikrni bayon qila olish uquvi, o'qiganlilik, ma'lumotlilik.

2. Axloqiy-irodaviy fazilatlar: serharakatlilik, tirishqoqlik, mustaqillik, hissiy faollik, irodaviy qat'iyatlilik, odoblilik, ezgulik, bolalarga mehr-muhabbat, dilkashlik, rostgo'ylik, haqgo'ylik, kamtarlik, xushmuomalalilik, vazminlik (bosiqlik).

3. Ishbilarmonlik xislatlari: tashkilotchilik qobiliyati, mehnatsevarlik, so'ziga sodiqlik, o'ziga tanqidiylik, prinsipiiallik, qiyinchiliklarni yengish uquvi, tashabbuskorlik, do'stlar orasida nufuzga egalik va boshqalar.

Mutaxassisning kasbiy tayyorligi unda kasbiy bilimdonlikni kerakli darajasini kasbiy mahoratini hamda o'zini boshqarish, o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirishga, o'zining kasbiy (ma'naviy shaxsiy va jismoniy) imkoniyatlarini hal etishga yo'naltira bilish qobiliyati mavjudligini nazarda tutadi. Mutaxassisning kasbiy tayyorligining asosiy va eng murakkab tomoni (psixologik tomoni) - mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Bu mutaxassis psixikasi ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarni hal etishga o'zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo'nalganligi darajasidir.

Hozirgi davrda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni ma'rifatli va yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash oliy o'quv yurtlarining ham zimmasidagi mas'uliyatli vazifadir. Yoshlarga ma'naviyat tarbiyasi berishning bosh maqsadi ularda mustaqillik tafakkurini shakllantirishga qaratilmog'i lozim. Mustaqillik tafakkuri esa, yoshlarda respublikaning istiqboli va istiqoli haqida qayg'urish, o'zining va o'z xalqining, vatanining qadru-qimmati, or-nomusini anglab, uni himoya qilish, yuksak g'oyalar, yangi fikriy kashfiyotlar og'ushida mehnat qilib, iste'dodi, bor imkoniyatini, yurt istiqboli, eliga baxshida etish kabi buyuk xislatlarni shakllantirishdan iboratdir. Shu jihatdan ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga e'tibor mustaqilligimizni mustahkamlash vazifalaridan kelib chiqmoqda. Ma'naviy va ma'rifiy ishlar tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u o'z yo'nalishiga ko'ra barkamol, komil insonni tarbiyalash maqsadini qo'yar ekan, bu vazifani ado etish murakkab va chuqur mazmunli vazifalarni bajarishni talab etadi. Shu jihatdan bo'lg'usi pedagog kadrlar kelajakdagi faoliyatlarida o'z oldilariga mazkur vazifalarni bajarishga tayyorgarlikni qo'yishlari va o'zlarida ushbu jarayonlarga mos xususiyatlarni shakllantirib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.O.Khimmataliyev, K.T.Olmov, B. B. Ergashev, Kh.T.Chulponova, R.M.Abdullayeva. Mechanisms of Professional Competence Development in Future Teachers based on Pedagogical and Technical Knowledge. Annals of the Romanian

Society for Cell Biology. ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 2, 2021, Pages. 2950 – 2958. Received 20 January 2021; Accepted 08 February 2021.

2. Karimova V.M. va boshqalar. Pedagogika.Psixologiya. O'quv qo'llanma.– T. 2017. 387 b.

3. Shomurotova N.N., Abdullayeva R.M. Oliy ta'lim sifatini ta'minlashning muhim masalalari. «TA'LIM FIDOYILARI» ilmiy-uslubiy jurnal. 4-son, 1-jild, aprel 2021. 603-609 b.



СТРАТЕГИЯ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ МЫСЛИТЬ КРЕАТИВНО

Г.Х.Ташмухамедова,

Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми, старший преподаватель кафедры «Системы телестудий и приложения» факультета «Телевизионные технологии»

Изменения, происходящие в образовательной политике, влияют на характер профессиональной подготовки специалистов технических вузов. Социально-экономические преобразования общества в целом, рыночный и конкурентный характер отношений образовательных учреждений, усиление гуманитаризации системы образования актуализируют инновационное обучение студентов, способствующее эффективному разрешению возникающих проблем. Именно инновационная деятельность ориентирует студента на будущее, на новейшие достижения науки, а инновационно работающие образовательные учреждения приобретают конкурентные преимущества и тем самым опережают в своем развитии другие структурные элементы системы образования. Под инновационным обучением принято понимать обучение, которое обеспечивает превращение идей в нововведение, а также формирует систему управления этим процессом

Инновационный учебный процесс связан с процессами самоопределения, т. э. с построением отношения к новому, изменением себя, своей профессиональной позиции, преодолением препятствий в процессе самореализации.

Согласно теории В. А. Сластенина и П. С. Подымовой структура инновационной деятельности педагога включает следующие компоненты: мотивационно-целевой, креативный, технологический (операционный), рефлексивный (контрольно-оценочный).

Остановимся более подробно на рассмотрении креативного компонента.

Креативность в учебном процессе рассматривается как способность к творчеству, принятию и созданию нового, нестандартному мышлению,

генерированию большого числа оригинальных и полезных идей. Креативность личности определяет ее готовность изменяться, отказываться от стереотипов, помогает находить оригинальные решения сложных проблем в ситуации неопределенности; это внутренний ресурс человека, который поможет студенту успешно самоопределиваться в обществе.

Конечной целью обучения должен стать компетентный, конкурентоспособный выпускник, обладающий креативностью, актуализирующейся в его профессиональной деятельности. Этому, на наш взгляд, способствует *педагогическое условие* – обеспечение проблемного характера образовательного процесса будущих бакалавров технического образования.

Развитие креативности студентов происходит за счет того, что создание проблемной ситуации происходит с помощью моделирования реального творческого процесса и управления поиском решения проблемы. При этом осознание, принятие и разрешение этих проблемных ситуаций происходит при оптимальной самостоятельности студентов, но под общим направляющим руководством педагога в ходе совместного взаимодействия.

Движущей силой любого развития, в том числе и развития креативности студентов, является преодоление соответствующих противоречий. А преодоление этих противоречий всегда связано с умением адекватно оценить ситуацию, выявить причины возникновения трудностей и проблем в деятельности (профессиональной, личностной), а также спланировать и осуществить специальную деятельность по преодолению этих трудностей (противоречий). Следовательно, учебный процесс должен моделировать процесс возникновения и преодоления противоречий, но на учебном содержании. Формирование профессионального мышления студентов – это по сути дела выработка творческого, проблемного подхода. Вузовская подготовка должна сформировать у студентов необходимые творческие способности.

Принципиально важен тот факт, что новые знания даются не для сведения, а для решения проблемы или проблем. Решение проблемы требует включения творческого мышления. Репродуктивные психические процессы, связанные с воспроизведением усвоенных шаблонов, в проблемной ситуации просто неэффективны. При проблемном обучении процесс мышления включается лишь с целью разрешения проблемной ситуации, оно формирует креативность, необходимую для решения нестандартных задач.

Для достижения главной дидактической цели преподаватель, занимающийся проблемным обучением, должен уметь планировать проблему, управлять процессом поисков и подвести студентов к ее разрешению. Чтобы

уровень мотивации студентов в процессе проблемного обучения не понизился, соответственно должен возрастать от курса к курсу уровень проблемности.

Таким образом, с помощью проблемного обучения у студентов формируется способность к переносу ранее усвоенных знаний и умений в новую ситуацию; комбинированию новых способов решения из элементов ранее известных методов; построению оригинальных решений, не применяя ранее известных аналогичных методов.

Креативность предполагает видение новой проблемы в знакомой ситуации и нахождение способов ее решения, способность самостоятельно комбинировать и преобразовывать уже известные способы профессионально-педагогической деятельности.

Одним из важных и эффективных средств развития креативности личности, на наш взгляд, следует рассматривать художественную фотографию.

Привлечение к художественной фотографии не только увеличивает диапазон визуальных впечатлений и творческих возможностей личности, но и качественно обогащает структуру зрительного и эстетического восприятия и творческого воображения, давая определенные возможности для собственного осмысления и переживания по какому-то объекту, предмету, объекту.

Для развития креативности будущих бакалавров технического образования в вузе необходимы определенные педагогические условия. Под *педагогическими условиями* мы понимаем обстоятельства, связанные с педагогической деятельностью, которые определяют результативность учебного процесса, так как создают наиболее благоприятную среду для его протекания.

Использованная литература:

1. Лазарев В. С. Управление нововведениями — путь к развитию школы // Сельская школа. – 2003. № 1. – С.16
2. Сластенин В. А., Подымова Л. С. Педагогика: инновационная деятельность. – М.: Магистр, 1997.– С. 224.
3. Ефремов, А.В. Методические рекомендации по организации учебного процесса (реализация экспериментальных программ) / А.В.Ефремов, э.Л. Белкин. – М., 2002.– С.137.
4. Мелик-Пашаев, А.А. Ступеньки к творчеству - 2 изд., Мелик-Пашаев А.А., Новлянская З.Н. – М.: Бином. Лаборатория знаний. – 2012. – С.238.



PEDAGOGIKA FANI TARAQQIYOTIDA TA'LIM OLUVCHILARNI GENDER XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLIISH MASALALARI

X.M.Tojiboyeva,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI direktor o'rinbosari, pedagogika fanlari
doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Gender tushunchasi fanga yigirmanchi asrning o'rtalarida kirib kelgan. Bu tushuncha dastlab sotsiologiyada ilmiy talqin etilgan. Bunda genderning biologik va ijtimoiy munosabatlari o'rganilgan. Genderning o'ziga xos xususiyatlari biologik jins nuqtayi nazaridan yondashilgan holda turli modifikasiyalarda izohlangan. Inson hayotining ijtimoiy parametrlarini biologiyalashtirish amalga oshirilgan.

Erkaklar va ayollar orasidagi ko'plab biologik-psixologik farqlar genderning biosentrik konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. O'tgan davr mobaynida gender muammosiga sotsiologiya, aksiologiya, psixologiya hamda pedagogika fanlarida muayyan darajada murojaat qilinib, uning o'ziga xos modeli shakllantirildi. Turli-tuman yondashuvlarga qaramasdan gender talqinining sotsiologik, aksiologik, psixologik, pedagogik, biologik talqinlari orasida umumiylik mavjud. Gender muammosiga nisbatan turli yondashuvlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularning asosini shaxs madaniyatining alohida jihatlariga e'tibor qaratish va ta'lim jarayonida uni rivojlantirish muammosi tashkil etadi.

Gender madaniyatining tarkibida qadriyatlar muhim o'rin egallaydi. Jinsga qarab qadriyatlarga amal qilish ko'nikmasini aniqlash ko'p jihatdan shaxs madaniyatining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Gender madaniyati shaxsning yoshi va egallagan kasbi bilan bog'liq holda rivojlanib boradi. Uning dastlabki ko'rinishlari esa umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarkib topadi. Gender konsepsiyasi doirasida shaxsning madaniy darajasini ifodalovchi qadriyatlar muhim o'rin egallaydi.

Ommaviy madaniyat tahdidlari kuchayotgan bugungi kunda qizlarda o'g'il bolalarga xos, o'g'il bolalarda qizlarga xos qadriyatlar yetakchilik qilmoqda. Bugungi kunda gender madaniyati shaxsning ijtimoiy mavqeini belgilamoqda. Bunday munosabatlar ikki tomonlama xarakter kasb etmoqda. Ijtimoiy mavqeyidagi o'zgarishlar qadriyatlar tizimiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Gender tiplar madaniy hodisalar bilan aloqadordir. Gender tiplar nafaqat jamiyatda balki madaniy hodisalar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Biz ommaviy hamda xos madaniyatni qiyoslashning o'ziga xos mezonlarini ko'rib chiqishga harakat qildik. Gender madaniyati ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish imkoniyatini beradi.

Gender munosabatlar doirasida o'smir yoshdagi o'g'il bolalar qiyofasida quyidagilar namoyon bo'lmoqda: qo'rslik, xudbinlik, itoatsizlik, mustaqil fikriga ega emaslik, salbiy his-tuyg'ularga moyillik, meshchanlik, boqimandalik, dabdabaga o'chlik, ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolish, tajovuzkor o'yinlarni o'ynashga moyillik, kitob o'qimaslik, dabdabaviy hayot orqasidan quvish, shou-biznes vakillariga taqlid qilish kabilar.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolish holatlari eng ko'p uchraydigan hodisalardan biri hisoblanib, ommaviy madaniyat tarafdorlari shu yo'l bilan o'smir yoshdagi o'g'il bolalar ongini zaxarlamoqdalar. Ularning xarakterida tajovuzkorlikning ustivorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Aksariyat o'smir yoshdagi o'g'il bolalar kelajakda an'anaviy oila qurishga qarshi bo'lmoqdalar. Ularning aksariyati oilaviy hayotda bajaradigan rollarini aniq tushunmayaptilar yoki buni eskilik sarqiti sifatida baholaydilar. Erkin oilaviy hayot g'oyasini qo'llab-quvvatlovchi o'smirlar guruhi shakllanmoqda. Bu esa kelajakda oilaviy qadriyatlarning qadrsizlanishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda ota-ona va farzandlar orasidagi ziddiyatlarning aksariyati o'smir yoshdagi o'g'il va qiz bolalar ishtirokida vujudga kelmoqda. O'smir yoshdagi o'g'il bolalar xatti-harakatlarida o'zbekona qadriyatlarning o'rni tobora kamayib bormoqda.

Madaniyat nuqtayi nazaridan yondashganda qiz bolalar bilan o'g'il bolalarning mavqeyi teng bo'lgani holda ularning har biri gender o'ziga xosligini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bunday yondashuv ularning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Aks holda o'g'il va qiz bolalar orasida ziddiyatlar vujudga keladi. Mentalitetga xos stereotiplar shakllanmay qoladi. Shu bilan bir qatorda o'g'il va qiz bolalarda jinsga xos rollarning taqsimlanishi murakkablashadi. O'g'il va qiz bolalarda milliy madaniyatga xos bo'lgan dunyoqarash va rollarning shakllanishi natijasida ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi amalga oshib, jamiyatdagi mavqeyi ortadi.

Biz ta'lim-tarbiya jarayonida uzoq davrlar mobaynida o'quvchilarning gender xususiyatlariga e'tibor qaratmadik. Buning natijasida o'g'il bolalarda jur'atsizlik, qiyinchiliklardan cho'chish, yashash uchun oson yo'lni tanlash, meshchanlik, ota-onaga bog'lanib qolish, ularning ko'magidan umidvor bo'lib yashash, xudbinlik sifatlari shakllangan bo'lsa, qizlarda shaddodlik, betgachoparlik, molparastlik, urf-odatlarimizga bepisandlik, uy-ro'zg'or ishlariga uquvsizlik, yengil hayot kechirish yo'llarini izlash, hashamatga berilishga moyillik kabi xulq-atvor stereotiplari shakllandi. Natijada bunday yoshlar mustaqil hayotga qadam qo'ygach, turmushning ilk qiyinchiliklari oldida esankirab qolmoqdalar. Aksariyat qizlarda muomalamuloqot madaniyati ko'nikmalari, burch va mas'uliyat hissi yetarlicha shakllanmaganligi kundalik turmushda qaynona-kelin va atrofdagilar orasidagi

munosabatlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Muloqot madaniyati ko'nikmalarini yetarlicha shakllanmaganligi tufayli qizlarda iffat, nazokat, shirinso'zlik, xushtavozelik, mehmondo'stlik, atrofdagilarga iltifot bilan munosabatda bo'lish kabi sifatlar shakllanmasdan qolib ketmoqda.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, biz o'quvchilarda kommunikativ hamda umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ham gender xususiyatlarni hisobga olishimiz, tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini tanlashda o'g'il va qiz bolalarning har biriga xos bo'lgan sifatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Yoshlar ongiga asl madaniyat namunalari ko'ra ommaviy madaniyatni targ'ib qiluvchi vositalarning tez va oson o'rnatilishiga borayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Buning asosiy sababi mazkur vositalarning shakllanish jozibadorligi, o'zlashtirish uchun osonligi, hammasi ham va yoshlar ruhiyatiga yaqinligidir.

Pedagogik jamoatchilik oldida turgan muhim vazifalardan biri bunday salbiy holatlarni bartaraf etish uchun madaniy bo'shliqlarni aniqlab, uni bartaraf etishning ta'sirchan yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat. Chunki, xalqimiz hayotida o'zining hayosi, ibosi, sadoqati, bardoshi bilan asrlar davomida millatimiz yoshlariga ibrat bo'lib kelgan muhabbat afsonalari borki, ular ko'p asrlar davomida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilgan.

Inson psixologiyasidan ma'lumki, nimaiki ta'qiqlansa, o'sha narsaning qiziqarli, sirli, jozibador bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. Qolaversa, sevilish, sevilish, uni izxora qilishga imkoniyat izlash har bir o'smir va yosh tabiatiga xos holatdir. Yosh avlodning ruhiy barkamolligini ta'minlovchi omillardan biri tabiat qonunlarini inkor etmasdan turib, ularni ezigulik sari ruhlantirishdan iborat.

Biz yoshlarni ijtimoiylashtirish haqida juda ko'p gapiramiz. Biroq bu sohada ilmiy pedagogik va amaliy harakatlarimiz yetarli emas. Bunda ikki holatga guvoh bo'lish mumkin:

1. Amalga oshirilayotgan ishlarning qamrovi juda torligi va milliy madaniy ildizlarimizdan uzilib qolganligi.

2. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan izlanishlarning qog'ozlardagina muhrlanib qolayotganligi bilan izohlanadi.

Biz bugun o'quvchi va talaba-yoshlarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirish asosida ular ommaviy madaniyatga qarshi kurashchanlikni shakllantirish haqida fikr yuritay ekanmiz, ta'lim oluvchilarda birinchi navbatda milliy madaniy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik manbalar, vositalarni bugungi kun talablari, o'smir yoshdagi o'quvchilar ruhiyati, madaniy-ma'naviy ehtiyojlari, jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda saralab taqdim etishga erishishimiz lozim. Shaxsning madaniy dunyoqarashini jamiyat va davlat talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda rivojlantirishda milliy madaniyat namunalari,

qarashlar bilan dunyodagi ilg'or xalqlarning umuminsoniy xarakter kasb etadigan madaniy boyliklarini integratsiyalashtirgan holda yoshlarga taqdim etish maqsadga muvofiq. Chunki shaxsda madaniy dunyoqarashni rivojlantiruvchi manbalar sirasiga asotirlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, tosh bitiklar, yozuv namunalari, uzoq davrlar mobaynida yetib kelgan madaniy-diniy qarashlar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [Инчхонская декларация – Образование-2030: обеспечение всеобщего инклюзивного и справедливого качественного образования и обучения на протяжении всей жизни// https://unesdoc.unesco.org/](https://unesdoc.unesco.org/)

2. Tojiboyeva X.M. "Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari" // Monografiya. – Toshkent: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2021. – 208 bet.

3. Верн, Ш. Гендерная психология. – СПб: Прайм-Еврознак Нева, 2002. – С.318.



ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA IBORALAR LUG'ATI USTIDA ISHLASH USULLARI

S.S.To'rayeva,

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri so'z va iboralar lug'ati ustida ishlashdir. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida bajariladigan lug'at ishi o'quvchi nutqini so'z va ibora bilan boyitishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi ona tili o'qitish metodikasi so'zning lug'ati ustida ishlash usullarini metodik jihatdan asoslab amaliyotga joriy etganligi barcha metodistlarga ayon. Ammo nutqimizning ko'rki bo'lmish – iboralar lug'ati ustida ishlashning aniq metodlari ishlab chiqilmagan.

Tilshunos va metodist olim professor B. Mengliyev shunday deb yozadi: Ona tili ta'limi jarayonida asosiy diqqatni o'quvchining so'z boyligini oshirish, so'zlarining ma'no nozikliklari, farq va o'xshashliklarini his etish, anglab etish... ko'nikmalarini shakllantirish, malakasini o'stirishga qaratish zarur. Bu fikr yuqori sinflar ona tili ta'limiga oid bo'lsa-da, bizningcha boshlang'ich ta'limga ham birday tegishli. B.Mengliyev tilga olgan vazifalarni amalga oshirish uchun boshlang'ich sinflarda leksik ishlarni o'tkazish metodikasini puxta ishlab chiqish zarur.

Iboralar lug'ati ustida ishlash quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

I bosqich. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga iboralar ma'nosini tushuntirish usullari. Bunda ona tili metodikasida juda kam ishlangan boshlang'ich sinf o'quvchilariga iboralarni obraz yordamida tushuntirish usullari kiritiladi.

II bosqich. Nutqimiz bejirimligi va ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim vosita bo'lmish iboralarni o'quvchilar nutqiga kiritishga doir topshiriqlardan unumli foydalanish.

III bosqich. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida iboralarlarning ma'noviy guruhlari (sinonim, antonim, omonim so'zlar) ustida ishlash metodikasi.

IV bosqich. Yangi iboralarni o'quvchilarning faol lug'atiga kiritish usullari.

V bosqich. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iboralar lug'atdan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

Boshlang'ich sinflarda ibora ma'nosini tushuntirish usullari

Boshlang'ich sinfnining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.

So'z ustidagi ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. So'zning to'g'ri adabiy orfoepik talaffuzi va o'qilishini o'rgatish;
2. So'z ma'nolarini tushuntirish;
3. O'quvchilar nutqiga yangi so'zlarni kiritib borish, ya'ni lug'atini boyitish;
4. Lug'atidan o'rin olgan so'zlarni kerakli o'rinda maqsadga muvofiq tanlab olishga o'rgatish;
5. So'zlarni uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llashga o'rgatish;
6. So'z minimumiga kiradigan so'zlarni imloviy jihatdan to'g'ri yozishga o'rgatish.

Boshlang'ich sinf ona tili darsligida uchraydigan o'quvchilar uchun noma'lum bo'lgan yangi so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish usullari bu yuqorida sanab o'tilgan 2- va 3- yo'nalishga to'g'ri keladi. Shu bilan birga bu bilan bog'liq ravishda 4-,5- yo'nalishlarni ham o'z ichiga oladi.

O'quvchilarga notanish yoki yaxshi tanish bo'lmagan iboralarning lug'aviy ma'nosini ko'pincha matn aytib turadi. Bunday hollarda ular bu kabi ibora ma'nosini mustaqil, o'qituvchining maxsus tushuntirishsiz bilib oladi. Matndan bilinib turmaydigan iboralarning ma'nosi esa albatta o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Metodikada bolalarga noma'lum so'z ma'nosini tushuntirishning bir qancha usuli ishlab chiqilgan. Bu usullar so'zning xususiyati va ma'nosiga bog'liq holda turlicha bo'ladi. Ammo iboralar ma'nosini tushuntirish so'zlar ma'nosini tushuntirishdan tubdan farq qiladi. Chunki ibora aksar holda ko'chma ma'noda bo'ladi. Ikki va undan ortiq so'z birikmasi yoki gap ko'rinishida ifodalanadi.

Masalan, o'quvchilarga holat ma'nosiga ega bo'lgan iboralarni izohlashda ko'rgazmalilikdan foydalanish mumkin. Bunda o'sha ibora bilan nomlanadigan holatning rasmi ko'rsatiladi. Natijada o'quvchiga tasavvur uyg'onadi. Ko'rsatilgan holatning ko'chma ma'noda qanday ma'no ifodalab kelayotgani tushuntiriladi.

Noma'lum so'z va iboralarning ma'nosini tushuntirishda rasmning ahamiyati haqida K. D. Ushinskiy shunday deb yozgan edi: "Bola tabiati ko'rgazmalilikni talab qiladi. Bolaga qandaydir 5 ta noma'lum so'zni o'rgating, u ular ustida uzoq va behuda aziyat chekadi. Lekin 20 ta shunaqa so'zni rasmlar bilan bog'lasangiz, bola ularni uchib o'rganadi." Shu bilan birga metodist olim frazeologik materialga o'rgatishga katta e'tibor qaratish zarurligini ham o'z asarlarida qayd etib o'tgan. U "bola obyektlarga odamlarning ko'zi bilan qarashga va unga mos so'zni o'rniga qo'yib aytishga qodir bo'lishi uchun alifbo davridan boshlab, maktab darsliklariga frazeologizmlarni kiritish kerak" deb aytgan edi.

Ibora ma'nosini ko'rgazmali tushuntirish imkoni bo'lmaganda o'qituvchi "semantik izohlashlar"dan birini qo'llab, iboraning ma'nosini qisqa so'zli izohli yo'llar orqali o'quvchida tasavvur hosil qilish kerak.

Boshlang'ich sinfda semantik izohning quyidagi usullarini qo'llash mumkin:

1. O'quvchilarga tushunarsiz iboraning ma'nosi unga mos so'z keltirish orqali ochiladi, bunda tasavvur usulidan foydalaniladi. Ya'ni matndan ajratib olingan ibora ifodalab kelayotgan voqelik bilan taqqoslanadi va ibora lug'ati tahlil qilinadi, masalan: *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi – xafa bo'ldi, hushi boshidan uchdi – qo'rqdi, og'zi qulog'ida – xursand va hokazo*. Avvalo ibora ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lishi tushuntiriladi. Iboradagi har bir so'z ma'nosi so'nrga hammasi birgalikda qanday ma'no anglatish ustida ishlanadi. Bu usulni qo'llaganda o'qituvchi shuni nazarda tutishi kerakki, ibora ma'nosini izohlashda o'quvchilar har bir izohlovchi so'zning ma'nosini yaxshi tushungandagina maqsadga erishish mumkin. Shuning uchun iborani izohlashda olinadigan so'z ma'nosi bolalarga yaxshi ma'lum bo'lgan, umumiste'mol bo'lishi kerak.

2. Ibora ma'nosini, o'sha ibora bilan ataladigan obyekt (narsa, belgi, holat, harakat)larni sanab o'tish orqali tushuntirish mumkin. Masalan, *kapalagi uchib ketdi – nimadandir qattiq qo'rqdi...*, *to'nini teskari kiyib oldi – qaysarlik qildi, gapidan qaytmadi, gapida turib oldi...*

O'quvchilarning ibora ma'nosini o'zlashtirishdagi psixologik xususiyati ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Chunki, ibora ma'nosini o'quvchi ongida tasavvur eta olsagina uni nutqida faol qo'llay boshlaydi.

3. O'quvchiga ibora ma'nosini tasviriy yo'l bilan tushuntirish. Bunday izohda ibora tasviri orqali ma'nosi haqida zaruriy axborot beriladi. Masalan, ***qulog'iga gap kirmaydi*** – *gapga quloq solmaydi, o'zi bilan o'zi ovvoraligi uchun bironi gapini*

tinglamaydi, yerga ura ko'kka sapchiydi – juda sho'x, serharakat, gipperaktiv, bir yoqadan bosh chiqarib – juda ahillik bilan ishlash.

Leksik mashg'ulotlarda o'qituvchi tomonidan ibora ma'nosini tushuntirishning yuqorida ko'rib o'tilgan usullaridan foydalanish faqat o'quvchilarning ularga zarur leksikani tushunishi va o'zlashtirishini ta'minlabgina qolmay, bolalarning u yoki bu ibora bilan bog'liq tushunchalar haqidagi tasavvurining kengayishi va chuqurlashishiga yordam beradi.

Shuni inobatga olish kerakki, faqatgina ibora ma'nosi bilan tanishtirish o'quvchilarning lug'at zaxirasini yangi leksik birliklar bilan boyitsada, ularni o'quvchining faol lug'atiga kirita olmaydi. Iborani boshqa so'z bilan bog'lanishlarsiz, uni nutqda qo'llashsiz o'rganib bo'lmaydi. Leksik mashqlarning asosiy vazifasi o'quvchi nutqida iboralarni tog'ri va aniq qo'llashga o'rgatishdan iborat. Shuning uchun birinchidan leksik mashqlarni gap, matndan tuzilgan, izolyatsiyalangan alohida iboralar ustida o'tkazish maqsadga muvofiq emas, ikkinchidan, ibora ma'nosi tushuntirilgandan keyin o'quvchilarga ibora aynan qanday so'zlar bilan bog'lanishini ko'rsatuvchi so'z birikmasi va gaplar tuzishni mashq qildirishi kerak. Har bir iboraning boshqa so'zlar bilan birikuvchanligini bilmasdan o'quvchilar o'rganilgan iboralarni nutqda to'g'ri va aniq ishlatishga o'rgana olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, nutqida iboralardan unumli foydalanuvchi kishining nutqi yuqorida darajada shakllanganligidan dalolat beradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitishda o'qituvchi ham o'z nutqida ulardan unumli va muntazam foydalanishi zarur. Bu o'quvchilar uchun hayotiy misol bo'ladi, ular kuzatish orqali o'qituvchisiga taqlid qila boshlaydi. Ona tilining bejirimligini anglash va uni sevishta o'rgatishda fan o'qituvchi yuqorida sanab o'tilgan usullar bilan birgalikda avvalo o'zi nutqda iboralarni to'g'ri, unumli qo'llash bo'yicha ham o'rnak bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shomaqsudov SH., Dolimov S., Dolimov U. Keng uyning kelinchagi yoki o'zbek xalq metal va iboralarining ensiklopediyasi. – T.: “Sharq”, 2020. – 640-b.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. o'qituvchi.T.:1978.
3. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent.: “Oqituvchi”, 2013. – 192-b.



TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY IJODKORLIGINI AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

N.N.Utayeva,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch doktoranti

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan islohatlar qatorida, ta'lim-tarbiya sohasini takomillashtirish, fanlarni o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarida zamonaviy shart-sharoitlar yaratish, pedagog kadrlar salohiyatini ko'tarishga qaratilgan bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham ko'p marotaba: "Odamlarimiz islohotlar samarasini kelajakda emas, balki bugun o'z hayotida his etishlari zarur" deb ta'kidlaydilar.

Zero, jadallik bilan har soha rivojlanayotgan bugungi kunda texnologik ta'lim o'qituvchilarini ham kasbiy jihatdan rivojlanishi, kasbiy mahoratini, ijodkorligini rivojlantirishga e'tiborni yanada ko'proq qaratish lozimligini taqozo etadi. Bu e'tibor va talabni amalga oshirishning muhim omillaridan biri, bo'lajak Texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbi tayyorlash, ta'lim berish jarayoniga akmeologik yondashuvini shakllantirish hamda ta'limni sifat jihatidan yuqori darajaga ko'tarish zarurligini ko'rsatadi.

Bu borada texnologik ta'lim o'qituvchilarini akmeologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarligini shakllantirish, turli qirralarini hisobla olgan holda ijodiy qobiliyatlarini ochish va rivojlantirish zarur.

Shu o'rinda akmeologiya so'zi lug'aviy jihatdan ma'nosiga to'xtalsak, akmeologiya - yunoncha akme – yetuklik, cho'qqi, kamolot, yuksalish, logos – ta'limot – insonning kasb-hunarni egallashda yuqori cho'qqiga intilishi tushuniladi. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining ta'lim jarayoniga akmeologik yondashuvi deganda – o'z mutaxassisligi bo'yicha fundamental bilimlarni chuqur egallashi, kasb-hunarning jamiyatdagi istiqboli, ijtimoiy turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini ushbu burch va mas'uliyatni ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga intilish jihatlarini o'rganishi lozimligi tushuniladi.

Texnologik ta'lim o'qituvchilarining akmeologik yondashuv asosida faoliyatini akme darajasiga ko'rsatishga intilishi orqali jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini ta'minlanadi hamda bugungi kundagi maktablarda texnologik ta'lim o'qituvchilariga qo'yayotgan talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlashga

erishiladi. Bu jarayonda bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilari o‘z ustida tinimsiz ishlaydi va ijodiy mahsuldorlikka erishiladi.

O‘qituvchining o‘z faoliyati doirasida ijodiy mahsuldorligi – yangi g‘oyalar, qarorlar, loyihalar, kasbiy faoliyat natijasida vujudga kelgan xulosalar bilan belgilanadi. O‘qituvchi dunyoqarashining chuqurligi evristik faoliyati natijasining mantiqiy asosini tashkil etadi. Texnologik ta’lim o‘qituvchining o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash sohasining kengligi hamda shaxsiy ijodiy faoliyatini tashkil etish layoqatini, nazariy-amaliy jihatdan tahlil qilish va maqsadga muvofiq tarzda loyihalashtirish imkonini beradi.

Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – pedagogning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi ma’nolarni ifodalaydi. Bu o‘qituvchining kutilmagan vaziyatlarda noodatiy g‘oyalarni vujudga keltirish layoqatidir. Bunday layoqatga ega bo‘lgan o‘qituvchilar muammoli vaziyatlarga tezkorlik bilan yechim topib an’anaviy o‘qitish usullaridan voz kechgan bo‘ladilar.

Texnologik ta’lim o‘qituvchisining kreativ potentsiali – uning shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini maqsadga muvofiq tarzda loyihalashini bildiradi.

Texnologik ta’lim o‘qituvchilarini ijodiy jihatdan shakllantirishda, unga ta’lim va tarbiyaviy jihatdan ta’sir ko‘rsatish orqali ijodiy faoliyat ko‘nikmalari rivojlantirish mumkin. Bu jarayonda esa akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy jihatdan rivojlanishi, yaratuvchilik va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllanishini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda ijodiy tafakkurini rivojlantirishda akmeologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала. –М.: Издво МПСИ; Воронеж: НПО МОДЕК, 2004.
2. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monog. – T.: Fan, 2004. – 126 b.
3. Ma’murov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimi. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017.
4. Симоненко В.Д. Основы технологической культуры. – М.: БГПУ, - 1998.-С.268.



O‘QUVCHILARIDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

D.I.Xo‘jamberdiyeva,

Surxondaryo viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası
katta o‘qituvchisi

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanib, xalqaro integrasiyaga qo‘shilmoqda. Jamiyatimizning turli sohalarida rivojlanish ketayotganligi uchun axborotlar almashuvi masalasi asosiy o‘rinda turadi.

Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan. Harakatlar strategiyasining 42-maqsadida ta’kidlanganidek, 2026- yilgacha ilg‘or xorijiy tajribalar asosida darsliklar, o‘qituvchilar uchun o‘quv qo‘llanmalari tayyorlanishi nazarda tutilgan. Shunga ko‘ra milliy o‘quv dasturi asosida o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda axborotlar bilan ishlash kompetentligini shakllantirish bo‘yicha ham takliflar berib borilmoqda.

Bugunki kunda ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv tatbiq etilgan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish maqsadida, umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini, milliy o‘quv dasturini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinib kelinmoqda, yangi darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratilib, umumta’lim fanlari bo‘yicha tashkil etiladigan darslarda o‘zlashtiriladigan o‘quv axborotlari asosida o‘quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish masalalari alohida o‘rganilib borilmoqda.

Jahonda raqamli iqtisodiyot sharoitida o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir kompetensiyalar tizimini takomillashtirish bo‘yicha milliy o‘quv dasturlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilgan. O‘quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish, axborotlarga ishlov berishning universal qurilmasi sifatida zamonaviy kompyuterlar haqidagi tasavvurlarni tarkib toptirish, ergonomik talablarga rioya qilgan holda kognitiv va kommunikativ vazifalarga yechim topishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O‘quvchilarni axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini oshirish, fikrlash vositasida qarorlar qabul qilish jarayonlarini maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb

etadi. O'quvchilarda o'qish, bilim olishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishini mustaqil strategik rejalarni, zamonaviy darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni turli texnologiyalar orqali joriy etgan holda yaratishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Insonning kelajakdagi kasbiy rivojlanishi uchun shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish pedagogikada eng muhim deb tan olingan.

O'quvchilarining axborot kompetentligi shakllantirish texnologiyalari asosida aniqlashga doir ma'lumotlar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish o'quv modullariga ham kiritilgan. Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish o'quv kursi dasturlarining mazmuniga axborotlar bilan ishlash kompetentligi shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishga oid nazariy va amaliy materiallar kiritiladi.

O'quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishning mezonlari asosida o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish modelini ishlab chiqish, o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentligini yanada rivojlantirish imkoniyatlarini oshirish.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, olimlarning doimiy qiziqishlariga qaramay mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning turli jihatlarini, kasbiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida ta'limning mazmuni, nazariyasi va metodikasi muammosini yangi ta'lim paradigmalari o'rganish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Zamonaviy o'qituvchi nafaqat kasbiy faoliyat uchun zarur miqdordagi bilimlarga ega bo'lishi, balki ulardan o'quv faoliyatida ijodiy foydalana olishi kerak: bilish faoliyatining maqsadlarini aniqlash; qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishning maqbul usullarini topish; turli xil axborot manbalaridan foydalanish; kerakli ma'lumotlarni qidirish va topish axborot, olingan natijalarni baholash; ularning faoliyati bilan hamkorlik qilishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
3. Qarshiyev A.A. "O'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi" Avtoreferati Chirchiq.: 2021.
4. Musurmonova O., Aripova M. Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan texnologiyalari. –T.: "Navro'z" nashriyoti, 2019-yil.



T.N. QORI NIYOZIYNING MATEMATIKA FANINI TADBIIQIY O‘QITISH HAQIDAGI QARASHLARI VA UNING HOZIRGI DAVRDAGI AHAMIYATI

A.I.Yusupov, G.A.Abdikayimova, I.T Xaldibayeva

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti

Ayrim insonlar matematikani abstrakt fan, o‘zlashtirish juda qiyin, bu fanni o‘rganish uchun alohida qobiliyatga ega bo‘lish kerak deb o‘ylaydilar. Matematikaning abstrakt, o‘rganilishi biroz murakkab bo‘lgan sohalari ham bor. Ilm ahliga ma’lumki, matematika fani kishilik jamiyati rivojlanishi bilan, uning talabidan kelib chiqib, shakllanib, rivojlanib borgan. Kishilik jamiyati paydo bo‘lishi bilan matematikaning dastlabki tushunchalari paydo bo‘lgan bo‘lsa, keyingi matematik bilimlar asosida fizika, astronomiya, mexanika va boshqa fanlar paydo bo‘lib rivojlana boshlagan. Matematika fani tabiatda sodir bo‘layotgan jarayonlarni ifodalashi va keng amaliy tadbirlarga ega ekanligi etuk olimlarimiz tomonidan amalda isbotlangan. Matematika fanining rivojlanish tarixiga e’tibor bersak, u o‘zining rivojlanishi davomida kishilik jamiyati hamda fan, texnika va iqtisodiyotda uchraydigan turli masalalarni yechishga tadbir yetilib kelingan. Olimlar matematikani haqiqiy olamning fazoviy formalari va miqdoriy munosabatlari haqidagi fan deb ta’riflashadi[1]. Yetuk matematik olimlar matematika fanining nazariyasini rivojlantirish bilan birga uning turli sohalarga doir masalalarni yechishga tadbirlarini ham ko‘rsatishgan. Ulug‘ vatandoshimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o‘zining mashhur “Al-jabr al muqobala hisobi haqida qisqacha kitob” ini yozishdan maqsadini bayon etib, bu kitob meros taqsimlashda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda, savdo ishlarida, yer o‘lchashda, kanallar o‘tqazishda, boshqa turli muhandislik ishlarini bajarishda, shuningdek, har qanday boshqa bilimlarni egallashda insonlar uchun kerakligini uqtiradi. Yana bir buyuk alloma Abu Rayxon Beruniy o‘z asarlarida yulduzlar hukmiga oid ilm - matematika fanlarning eng yaxshi hosilasidir deb yozib qoldirgan. Ulug‘ bobokolonlarimiz matematikaning astronomiyaga, me’morchilikka doir ajoyib tatbiqini namoyish etganlar.

Ma’lumki, yetuk o‘zbek olimi, akademik T.N.Qori Niyoziy matematika fanining rivojlanishi bilan bir qatorda fanning o‘qitilishiga, ya’ni matematika ta’limiga ham juda katta e’tibor qaratgan. Birinchilar qatorida o‘zbek tilida o‘sha davr o‘rta ta’limi va keyinchalik oliy ta’lim uchun matematika fanidan darsliklar yozgan. Ko‘p yillar maktablar hamda oliy ta’limda matematikadan dars bergan. Matematika fanini o‘qitish jarayonida uning amaliy tadbirlariga e’tibor qaratish

zarurligi, bu usul o'quvchilarni matematikani chuqur o'zlashtirishi bilan bir qatorda fanga qiziqishini ham ortirishi haqida ishonchli fikrlar, dalillar keltirgan[2].

T.N.Qori Niyoziy matematika fanini o'qitish jarayonida uning amaliy tadbiqlariga e'tibor bergan va dars davomida tadbiqiy masalalar yechishga ahamiyat qaratgan. U matematika fanini chuqur o'rganishning ahamiyati haqida ko'plab fikrlarni keltirib shunday deydi: «Matematikaning eng qimmatbaho hususiyati shundaki, u kishining mantiqiy muhokama qobiliyatini o'stira boradi». Xolbuki, matematikaning formula va qoidalarini yod qilib olgan bilan uni egallab bo'lmaydi. Matematikaning joni-tafakkurda, mantiqiy muhokamada bo'lib, undagi haqiqatlarni qat'iy ketma-ket, mantiqiy muhokama bilangina oshkor qilish mumkin. Shunday qilib, mantiqiy tafakkur malakasiga ega bo'lgan kishiga har qanday fan bilan shug'ullanish uchun mustahkam zamin vujudga keladi"[2]. Demak, matematikaning ma'lum ta'riflarini, teoremlarini, qoidalarini yoki formulalarini nazariy o'rganib olishning o'zi etarli emas. Fanni o'rganish jarayonida uning ko'proq tatbiqiy tomoniga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Hozirgi globallashuv, axborotlar oqimi ko'paygan va tezlashgan davrda fan, texnika va texnologiyalarni tez sur'atlar bilan keskin rivojlanishi va yangilanishida aniq va tezroq texnik hamda texnologik yechimlarga ega bo'lishda tekshirishlarning matematik apparati, matematik usullari, matematik modellashtirish va loyihalash katta ahamiyat kasb etadi. Keyingi paytlarda kompyuter texnologiyalarining yuqori darajada rivojlanishi sababli fan-texnika, ishlab chiqarish va iqtisodiyotning ko'plab masalalarini yechishda matematika, matematik modellashtirish, matematikaning turli usullari unumli qo'llanilmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda matematika fanini o'qitish sifatini oshirish, matematika fanlarini yanada rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Oliy matematika" kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan 2018-2019-o'quv yilidan boshlab "Oliy matematika" fanini yangicha yondashuvlar asosida o'qitish bo'yicha ilmiy-pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazilmoqda. Amaliy mashg'ulot darslarida o'rganilayotgan mavzuni tegishli ta'lim yo'nalishining umumkasbiy, mutaxassislik va turli muhandislik masalalarini yechishga qaratilgan tatbiqlari ko'rsatilib o'qitilmoqda. Masalan, energetika ta'lim yo'nalishida fanning "Hosila va differensial" bobini o'rganishda uning energetikaga doir elektr zaryadlarining harakat tezligi, tok o'tkazish tezligi, tok kuchining eng katta va eng kichik qiymatlarga ega bo'lishi kabi masalalarini hisoblashga tatbiqlari bo'yicha mashqlar ko'rsatilmoqda.

"Kompleks sonlar va kompleks o'zgaruvchili funksiyalar" bobini o'rganishda uning "Elektrotexnika"ga oid aktiv va reaktiv quvvatlarni hisoblashda, o'zgarmas va o'zgaruvchan toklarni oddiy va murakkab zanjirlarda hisoblash ishlarida, tok

tenglamasini tuzishga doir masalalarni yechishga doir tatbiqlari, shuningdek, matematikani boshqa turli muxandislik masalalarini yechishga qaratilgan tatbiqlariga doir mashqlar ko'rsatildi. Shu bilan bir qatorda talabalarning mustaqil ishlari (hisob-grafik ishlari) topshiriqlariga tatbiqiy masalalar ko'proq kiritildi.

Talabalar turli ilmiy anjumanlarda matematikaning muhandislik masalalariga tatbiqlariga doir ma'ruzalar bilan ishtiroq etishiga e'tibor qaratilmoqda. o'tkazilayotgan tajriba-sinov ishlari ilmiy, metodik va pedagogik asoslangan holda tajriba va nazorat guruhlarida olib borilib, natijalar tahlil qilinib borilmoqda. Tahlillarga asosan, yangicha yondoshuv usuli bo'yicha o'qitish natijasida bir o'quv yilidagi samaradorlik ko'rsatkichi 1.10 - 1.12 ni tashkil qildi. Bundan tashqari "Oliy matematika" fanini yangicha yondashuv asosida o'qitishda samaradorlik oshishi bilan birga quyidagi ijobiy natijalarga erishilishi ham kuzatildi:

Talabalar "Oliy matematika" fanining faqat nazariy fan emas balki tatbiqiy xususiyatlari keng ekanligi haqida zarur tushunchalarga ega bo'ldilar va fanni chuqurroq o'rganishga qiziqishlari ortdi;

Fanlararo aloqa sezilarli darajada yaxshilandi va natijada talabalarni umumkasbiy hamda mutaxassislik fanlarini o'rganishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi;

Kurs ishi (k/l), bitiruv malakaviy ishlari, keyinchalik ilmiy-tatqiqot ishlarini bajarishda matematik apparatlardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lgan talabalar salmog'i ortdi;

Talabalarning faol mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari ortdi;

Talabalarning ijodiy faolligi sezilarli darajada oshdi;

Albatta, natijada, ishlab chiqarishdagi jarayonlarni matematik mantiqiy tahlil qilish va modellashtirish ko'nikmalariga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash salmog'i yanada ortadi.

Matematik bilimlar yoshlarni o'zini anglashida, ilmiy dunyoqarashining o'sishida, ularning intellektini tarbiyalashda, aqliy qobiliyatini yanada rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Matematika fanini o'qitayotgan o'qituvchi talabalarga matematik nazariyani, rivojlanayotgan matematik g'oyani tabiat va jamiyat muammolari bilan chuqur bog'liqligini tushuntirish lozim. Sir emaski, ko'pchilik o'qituvchilar bu masalaga unchalik e'tibor berishmaydi. Yosh matematiklarni, bo'lg'usi matematika o'qituvchilarini tayyorlashda, ya'ni matematika ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari talabalariga matematik fanlarning nazariyasini va nazariy masalalarini yechishni o'rgatish jarayonida uning qanday amaliy masalalarni echishga tatbiq etilishini tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. Maxsus kurslar va seminarlarda talabalar hamda ilmiy izlanuvchilarga matematik nazariyalarning amaliy masalalarini yechishga tatbiq qila olish hamda turli matematik modellar ishlab chiqa bilish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimida matematika fanining o'qitilishida ketma-ketlikni, uzviylikni saqlash, kompetentligiga, tatbiqiylikiga e'tibor qaratish va uni o'qitish sifatini oshirish masalasi o'ta dolzarb hisoblanadi. Matematika fanini o'qitishda imkon qadar sodda, tushunarli, fanning tabiiyligini saqlagan holda va ongli ravishda qat'iyatlilikka e'tibor qilish zarur. Matematika fani o'qituvchilari mavzularning xususiyatidan kelib chiqib, mavzuning amaliyotda qo'llanilishi haqida tushunchalar berib borishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa, oliy ta'limda muhandislik, ishlab chiqarish, iqtisod, texnologiya kabi yo'nalishlarda matematika fanini o'qitishda ta'lim yo'nalishlari hususiyatlaridan kelib chiqib, o'tilayotgan mavzuning tatbiqiy tomonlariga e'tibor qaratish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yetuk olim va pedagog T.N.Qori -Niyoziyning matematika fanini o'qitishda amaliy tadbirlariga e'tibor qaratish zarurligi haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham matematika fanini o'qitish sifat va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.D.Kudryavsev, Sovremennaya matematika i eyo prepodavanie. Moskva-1980.
2. T.N. Qori - Niyoziy. Hayot maktabi. Toshkent – 1970.
3. Yusupov A.I., Ergashev J.J. "Muhandislik ta'limida "Oliy matematika" fanining o'rni va uni o'qitishga yangicha yondashuv haqida". O'zMU habarlari ilmiy jurnali, – Toshkent – 2019 yil, 1/2/1. 252-256 b.



BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING FAOLIYAT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MODELI

M.N.Shermatov,

TVCHDPU "Jismoniy madaniyat kafedrası" katta o'qituvchisi

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining faoliyati bilan bog'liq kompetensiyasini shakllantirishni ilmiy nuqtayi nazardan hamda zamon talabidan kelib chiqib o'rganish muammosi fan sohasi uchun yangi metodik mazmun kasb etadi. Adabiyotlar tahliliga ko'ra, so'ngi 10 yillikda olib borilgan aksariyat tadqiqotlarining asosiy mohiyatini fan yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni baholash qaratilgan ta'lim amaliyotda keng qo'llanilayotgan akmeologik, klasterli, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitish va baholash metodikasi bugungi kunda ham dolzarblik kasb etadi.

Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga, har tomonlama ijtimoiy hayotga tayyorlash jumladan, o'quvchilarning ta'lim natijalarini baholash masalasi (G.A.Bordovskiy, SH.Abdullayeva, B.B.Ma'murov, M.G.Davletshin, X.A.To'raqulov) va monitoring qilish metodikalariga oid izlanishlarda ta'lim jarayonini baholash takomillashuvning ajralmas sharti sifatida qaralgan. Aralash ta'lim sharoitida o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim bosqichlarini tizimli va bosqichma-bosqich aniqlash yuzasidan asosli mulohazalarni amalga oshirishga qaratilgan ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida an'anaviy, masofaviy va mustaqil (internet) ta'lim jarayonini hamda fanga oid faoliyat tushunchalarning mohiyatni anglab olish orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim oluvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda faoliyat ko'nikmalar samaradorligi:

talabalarning jismoniy holati, jismoniy madaniyatni o'zlashtirishda nazariy va amaliy ko'nikmalar uyg'unligining intensivligi, takomillashib, yangilanib boruvchi mashg'ulotlarni o'zlashtirishda mobillikning mavjudligi hamda o'quv jarayonini to'g'ri tashkillashtirishning didaktik muntazamligi;

jismoniy mo'tadillik, sog'lom turmush tarzi va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bir qator funksiyalarni (yo'naltiruvchi, namoyishli, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, faoliyatli, tashkiliy, diagnostik, axborot, motivasion) baholashni amalga oshirish bilan bog'liq.

Talabalarning jismoniy ratsional faoliyatni taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, ilmiy-pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Talabalarning faoliyat kompetensiyasini shakllantirishning quyidagi asosiy funksiyalarini ko'rsatib o'tish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Talabalarning faoliyat kompetensiyasini baholash funksiyalari

№	Funksiya	Faoliyat mazmuni
1	Ta'limiy	Kuzatish, takrorlash, bajara olish va tizimlashtirish, tahlil qilish hamda baholash.
2	Rivojlan-tiruvchi	E'tibor, xotira, o'zini baholash va boshqarish usullarini egallash.
3	Yo'naltiruvchi	Nazariy-amaliy xabardorlik, rag'batlantirish, tizimli mashg'ulot, intizom va motivlarini shakllantirish.
4	Tashkiliy	O'qitish bosqichlari, shakllari, davomiyligi, bilim olishning muntazam tizimini yaratish
5	Diagnostik	Bilim va ko'nikmalarni faoliyatda qo'llash, individual va jamoa bilan ishlashni tashxislash hamda baholash
6	Nazorat qilish	Jismoniy faollik va pedagogik kompetentlik natijalarini baholash

Talabalarning faoliyat kompetensiyasini shakllantirishda maktabdagi jismoniy tarbiya darslaridagi olgan bilimlar, ko'nikmalar majmuasi sifatida qaraladi hamda bir nechta omillarni hisobga olish kerak bo'ladi, jumladan;

- fanga oid bilimlar hajmi, jismoniy yuklamalarga chidamliligi, sportning biror turiga qiziqishi, harakatlar va javoblardagi aniqlik, ilmiylik hamda taqdimotdagi ijodiylik va mustaqillik;

- fanga oid atamalar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalarni o'zlashtirish darajasi, savollarga javob berishda mantiqiylik, harakatlar mohiyatini ochishdagi ijodiylik, harakatlarni o'zlashtirish va o'rgatishdagi yetakchi g'oyalar va tamoyillar asosida yondashganligi;

- olgan bilimlar va o'rgatish metodikalaridan nostandart vaziyatda mustaqil foydalanish, mustaqil izlanish, orttirgan tajribalari hamda faoliyatga doir amaliy xarakter kasb etuvchi vazifalarni odat tusiga aylantirish hamda bajarish (faoliyat)ini baholash.

Tadqiqotimiz mantiqidan kelib chiqqan holda, ta'lim klasteri sharoitida talabalarda faoliyat kompetensiyasini shakllantirish modelining ishlanmasi va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan pedagogik modellashtirish mohiyatini qarab o'tish zarurati tug'iladi. Pedagogik modellashtirish deyilganda, odatda, qarab o'tilayotgan pedagogik tizimining dastlabki batafsil ishlanmasi tushuniladi. Bugungi kunda ta'lim va tarbiya shakllari, metodlari, uslublari, vositalari doimiy ravishda rivojlangani sari pedagogik faoliyat ham murakkablashib bormoqda. Pedagogik tizimni modellashtirish, bu ma'lum kompetensiyalarni o'zlashtirishda pedagog muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish, tadqiqotimiz kontekstida ta'lim maqsadlari va ana shu maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning barcha komponentlarining yagona birligi sifatidagi qaraladi.

Talabalarning ijtimoiylashuvi, pedagoglar maqomini oshirish ehtiyoji ta'lim muassasalarining hayotiy va kasbiy faoliyatidagi asosiy ustuvorliklarini belgilab beradi. Bu ayni paytda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim va oliy ta'lim integratsiyasini Respublikamizdagi ta'lim klasteri tizimida amalga oshirish bilan uzviy bog'liq. Ta'lim klasteri sharoitida pedagogik kadrlar tayyorlash, ularni shaxsiy-kasbiy hamda faoliyat kompetensiyasini rivojlantirish modelini yaratish bilan birga, ta'lim klasteri sharoitida talabalarda aralash ta'lim sharoitidagi ta'lim jarayoni, uning rivojlanishi hamda pedagogik faoliyat ko'nikmasining shakllanishida ham katta imkoniyatlar tug'iladi.

Ana shu ma'noda talabalar, ya'ni bo'lajak pedagoglarning kompetentligi ta'minlash omillaridan biri – faoliyat kompetensiyasini shakllantirish modelini ishlab chiqish muhim pedagogik muammolardan sanaladi. Mazkur model talabalar kompetentligini, ya'ni faoliyat kompetensiyalarni shakllantirish, uning strukturasi,

komponentlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda ta’siri to‘g‘risida tasavvur qilishga yordam beradi. Modellashning asosiy maqsadi, oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy va jismoniy faoliyat kompetensiyalarini qanday qilib samarali shakllantirish to‘g‘risida umumiy tasavvur hosil qilish va uni amalda joriy etishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligi. - Pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyalar mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materialari. – T.: TDPU, 2015. -3 b.

2. Babaxodjayeva L.G. Aralash talim shakli – pedagogik ta’lim klasterining zamonaviy yondashuvi sifatida. Science and education, scientific journal, Vol 2, Special Issue 1, May 2021, ISSN 2181-0842

3. Babaxodjayeva L.G. J.Usarov, G.Sharipova, N.Eshnaye. —Pedagogik kompetentlik o‘quv qo‘llanma. Chirchiq-2021. —Farzay poligraf]], 200 bet

4 Babaxodjayeva L.G. SHaripov SH.S., Aripov A., Begimkulov U.Sh., Babaxodjaeva L.G. “Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti”. Monografiya. Fan nashriyoti, Toshkent 2011.

5. Бабаходжаева Л.Г., Усаров Ж. Аралаш таълимни амалиётда қўлланилиш омиллари ва зарурияти. Образование и наука в 21 веке. ИСЧН 2658 – 7998, 03.07.2021, 31-40. 36.

Бабаходжаева Л.Г., Усаров Ж. Аралаш таълим шаклини кластер ёндашувлар асосида такомиллаштиришнинг ўзига жиҳатлари. Муаллим нъм Ўзликсиз Билимлендири, ИСЧН 2181 – 7138, №2/1, 2021, 10-13.



TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSALARIDA «OLIIY MATEMATIKA» KURSINI KASBGA YO‘NALTIRIB O‘QITISH HAQIDA

A.I Yusupov, J.J. Ergashev,

I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “Oliy matematika”
kafedrası o‘qituvchilari

Dunyoning ilg‘or rivojlangan davlatlari tajribalari asosida O‘zbekistonda ham ta’lim tizimining barcha bosqichlarini, shu jumladan oliy ta’limni, ilm-fanni rivojlantirishga, shuningdek zamonaviy talablarga mos, yuqori malakali kadrlar

tayyorlash masalalariga ustuvor yoʻnalishlar sifatida juda katta eʼtibor qaratilmoqda [1,2]. Globallashuv, texnika, texnologiyalar tezkor rivojlanib, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalar joriy qilinayotgan davrda yuqori salohiyatli muxandis kadrlarga katta ehtiyoj sezilmoqda. Muxandisning faoliyati ijodiy xarakterga ega boʻlib, u yangi texnika va texnologiyalarni yaratish, mavjudlarini ishlab chiqarishga joriy qilish, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil etish boʻyicha innovasion hamda nostandart qarorlar qabul qila olishi zarur.

Shubhasiz bunday yuqori salohiyatli kadrlar tayyorlash mamlakatda taʼlimni, ilm-fanni rivojlantirish bilan bevosita bogʻliq. Zamonaviy muxandis kadrlarga qoʻyilayotgan talablar va olib borilgan tadqiqotlarimiz tahlillariga koʻra boʻlajak muxandis oʻzining mutaxassisligi boʻyicha chuqur bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi bilan birga u mantiqiy matematik tafakkur qilish, matematik apparatni, matematik usullarni oʻz sohasiga qoʻllay olish, muxandislik masalalarini matematik modellashtirish, loyiha- konstruktorlik ishlarini bajara olish, mutaxassisligi boʻyicha teran va kreativ fikrlash, ishlab chiqarish jarayoniga tez moslashish va boshqaruv kabi qobiliyatlarga ega boʻlishi talab etiladi [5,6].

Hozirgi globallashuv, axborotlar oqimi kuchaygan va tezlashgan, axborot kommunikasiyalar, katta aniqliqdagi avtomatik qurilmalar, shuningdek fan, texnika va texnologiyalarni jadal rivojlanishi va yangilanishida aniq va tezkor texnik hamda texnologik yechimlarga ega boʻlishda tekshirishlarning matematik apparati, matematik usullari, matematik modellashtirish va loyihalash katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham muxandis kadrlar tayyorlashda matematik bilimlarning oʻrni oʻta muhimdir.

Demak muxandis talab qilingan qobiliyatlarga ega boʻlishi uchun yetarlicha matematik bilimlarga ega boʻlishi talab etiladi. Matematika taʼlimi, matematika fani va uning tadbirlarini rivojlanishi boshqa fanlarni, ishlab chiqarishni rivojlanishiga, qolaversa butun jamiyatni rivojlanishiga asosiy omil boʻlib xizmat qiladi. Oʻzbekiston Respublikasida matematika taʼlimini hamda matematika va uning tatbiqlariga doir ilm-fanni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan [3,4]. Shubhasiz muxandis kadrlar tayyorlashda matematika va matematika siklidagi fanlar hamda ularni oʻqitish sifati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham muxandis kadrlar tayyorlashda oʻquv rejadagi asosiy (majburiy) fanlardan hisoblangan matematika fanini oʻqitishning sifat va samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Quyida hozirgi zamon muxandislik taʼlimida muhim ahamiyat kasb etuvchi matematika fanini oʻqitish sifat va samaradorligini oshirish boʻyicha innovasion yondashuvlar, oʻtkazilgan pedagogik sinov-tajriba natijalari haqida fikrlar bildirilgan.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “Oliy matematika” kafedrası professor-o‘qituvchilari tomonidan 2018-2019-o‘quv yilidan boshlab “Oliy matematika” fanini yangicha yondashuvlar asosida o‘qitish bo‘yicha ilmiy-pedagogik tajriba-sinov ishlari o‘tkazilmoqda. Amaliy mashg‘ulot darslarida o‘rganilayotgan mavzuni tegishli ta’lim yo‘nalishining umumkasbiy, mutaxassislik va turli muxandislik masalalarini yechishga tatbiqlari aniq mashqlarda ko‘rsatilmokda. Masalan, energetika ta’lim yo‘nalishida fanning “Xosila va differensial” bobini o‘rganishda uning energetikaga doir elektr zaryadlarining harakat tezligi, tok o‘tkazish tezligi, tok kuchining eng katta va eng kichik qiymatlarga ega bo‘lishi kabi masalalarni hisoblashga tatbiqlari bo‘yicha mashqlar ko‘rsatildi”. Kompleks sonlar va kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar” bobini o‘rganishda uning “Elektrotexnika”ga oid aktiv va reaktiv quvvatlarni hisoblashda, o‘zgarmas va o‘zgaruvchan toklarni oddiy va murakkab zanjirlarda hisoblash ishlarida, tok tenglamasini tuzishga doir masalalarni yechishga tatbiqlari, shuningdek, matematikani boshqa turli muxandislik masalalarini yechishga tatbiqlariga doir mashqlar ko‘rsatildi. Talabalar hisoblash ishlaridagi qulaylik va aniqliklarni guvohi bo‘ladilar.

Masalan, oddiy va murakkab zanjirlardagi o‘zgarmas va o‘zgaruvchan elektr toklarini hisoblash masalalarida kompleks sonlar nazariyasining qo‘llanilishi hisoblashlarni ancha soddalashtiradi, qisqartiradi va engillashtiradi. Elektrotexnika qonunlari, formulalari va hisoblash usullarini aniq bo‘lishi va fizik jarayonlarga juda yaqin bo‘lishi imkoniyatlarini beradi. Bu erda vektorlarni, turli tenglamalarni kompleks sonlar orqali ifodalash lozim. Endi kompleks sonlarni elektrotexnikaga doir masalalarni yechishga tatbiqlari bo‘yicha misollar qaraymiz.

1-masala: Elektr toki $I = 3 - 4i$ kompleks ko‘rinishda berilgan. Tokning tenglamasi yozilsin

Yechish: Tok tenglamasini yozish uchun tokning amplitudasi va boshlang‘ich fazaviy burchagini aniqlash zarur. Tokning boshlang‘ich fazaviy burchagi kompleks sonning argumentiga teng, ya’ni $\varphi = \arctg b/a$; Tokning ta’sir etuvchi qiymati-effektiv qiymati kompleks sonning moduliga teng $I_{ef} = |z| = r = \sqrt{a^2 + b^2}$. Demak, $I_{ef} = \sqrt{a^2 + b^2} = \sqrt{3^2 + (-4)^2} = \sqrt{25} = 5$ Amper; $\varphi = \arctg b/a = \arctg \frac{(-4)}{3} = -53^\circ$;

Tokning effektiv qiymati berilganda uning amplitudaviy qiymatini hisoblash uchun $I_0 = \sqrt{2}I_{ef}$ mavjud formula. $I_0 = \sqrt{2}I_{ef} \approx 1,414 \cdot 5 = 7,07$ Amper.

U holda, $I = I_0 \sin(\omega t + \varphi)$ dan $I = 7,07 \sin(\omega t - 53^\circ)$ Amper

Hosil bo‘lgan $I = 7,07 \sin(\omega t - 53^\circ)$ tenglama $I = 3 - 4i$ kompleks ko‘rinishda berilgan tokning tenglamasidir.

Elektrotexnikada aktiv va reaktiv quvvatlarni hisoblashda ham kompleks sonlardan foydalanish qulay. $\bar{S} = P + iQ$ kompleks sonning haqiqiy qismi P – aktiv quvvat, mavhum qismi Q – reaktiv quvvatdir.

2-masala: Kompleks kuchlanish $U = 43,5 + i55,6$ va tok $I = 10,4 + i9,35$ lar berilgan. Aktiv quvvat P va reaktiv quvvat Q aniqlansin.

Yechish: Dastlab kompleks ko‘rinishda berilgan kuchlanish va tokni ko‘rsatkichli shaklda tasvirlaymiz. Buning uchun kuchlanish va tokning modul va argumentini aniqlashimiz kerak. Kompleks sonning ko‘rsatkichli shakli $z = |z|e^{i\varphi}$ bunda, $|z| = \sqrt{a^2 + b^2}$, $\varphi = \arctg \frac{b}{a}$.

$$|U| = \sqrt{(43,5)^2 + (55,6)^2} = \sqrt{1892,25 + 3091,36} = \sqrt{4983,61} \approx 70,6 \text{ Volt};$$

$$\psi_1 = \arctan \frac{55,6}{43,5} = \arctan(1,278) \approx 52^\circ; \dot{U} = 70,6e^{i52^\circ};$$

$$|I| = \sqrt{10,4^2 + 9,35^2} = \sqrt{108,16 + 87,42} = \sqrt{195,58} \approx 14 \text{ Amper};$$

$$\psi_2 = \arctan \frac{9,35}{10,4} = \arctan(0,899) \approx 42^\circ;$$

$$\dot{I} = 14e^{i42^\circ} \text{ bunga qo'shma kompleks tokni olamiz } \bar{I} = 14e^{-i42^\circ}$$

$$\bar{S} = \dot{U} \cdot \bar{I} \text{ formulaga asosan}$$

$$\bar{S} = \dot{U} \cdot \bar{I} = 70,6e^{i52^\circ} \cdot 14e^{-i42^\circ} = 70,7 \cdot 14 \cdot e^{i(52^\circ - 42^\circ)} = 990e^{i10^\circ} = 990(\cos 10^\circ + i \sin 10^\circ) = 990(0,984 + i0,173) = 975 + i171;$$

$$\bar{S} = 975 + i171 \text{ Vatt}; \text{ demak, aktiv quvvat } P = 975 \text{ Vatt, reaktiv quvvat } Q = 171 \text{ Vatt}.$$

Shu bilan bir qatorda talabalarning mustaqil ishlari (hisob-grafik ishlari) topshiriqlariga tatbiqiy masalalar ko‘proq kiritildi. Talabalar turli ilmiy anjumanlarda matematikaning muxandislik masalalariga tatbiqlariga doir ma’ruzalar bilan ishtiroq etishiga e’tibor qaratilindi. O‘tkazilayotgan tajriba-sinov ishlari ilmiy, metodik va pedagogik asoslangan holda tajriba va nazorat guruhlarida olib borilib, natijalar tahlil qilinib borildi. Tahlillarga asosan yangicha yondoshuv usuli buyicha o‘qitish natijasida bir uquv yilidagi samaradorlik ko‘rsatkichi 1.10-1.12 ni tashkil qildi. “Oliy matematika” fanini yangicha yondashuv asosida o‘qitishda samaradorlik oshishi bilan birga ma’lum ijobiy natijalarga erishilishi ham kuzatildi.

Talabalar “Oliy matematika” fanining faqat nazariy fan emas balki tadbiqiy xususiyatlari keng ekanligi haqida zarur tushunchalarga ega bo‘ldilar va fanni chuqurroq o‘rganishga qiziqishlari ortdi; Fanlararo aloqa sezilarli darajada yaxshilandi va natijada talabalarni umumkasbiy hamda mutaxassislik fanlarini o‘rganishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi; Kurs ishi (k/l), bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda matematik apparatlardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan talabalar salmog‘i ortdi; Talabalarni faol mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari ortdi; Talabalarni

ijodiy faolligi sezilarli darajada oshdi. Albatta natijada ishlab chiqarishdagi jarayonlarni matematik mantiqiy tahlil qilish va modellashtirish ko'nikmalariga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlanish salmog'i yanada ortadi.



SHAXMAT - MATEMATIKA FANINI O'QITISH VOSITASI SIFATIDA

J.N. Yakubov

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent, Respublika ilmiy pedagogika
kutubxonasi direktori o'rinbosari

Shaxmat va matematika juda qadimiy uzoq tarixga ega. Shuning uchun shaxmat va matematikani umumiy jihatlarini tahlil qilish, ularni o'zaro yaqinligini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxmat doskasida yuzaga keladigan turli muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayoni matematika masalalarini yechish kabi ma'lum qoidalarini qo'llash bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, shaxmat taxtasi va sipohlari ko'pgina matematik g'oyalarni, boshqotirmali o'yinlarni yechishda va ko'rgazmali ko'rsatib berishda foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev olimlar bilan uchrashuvida matematika fanining ahamiyati haqida gapirib, yoshlarni bu fanga qiziqtirishni kuchaytirish bo'yicha vazifalarni belgilab berdilar. "Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng taffakkurli bo'lib o'sadi istagan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi" – deb ta'kidlab o'tdilar. Shuning uchun davlatimiz rahbari tomonidan matematika fanini hamda shaxmatni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Buning yorqin misoli sifatida oxirgi yillarda matematika sohasini va shaxmatni keng rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni aytib o'tishimiz lozim. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4387-son qarori va 2020-yil 7-maydagi Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4708-son qarori hamda 2018-yil 9-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3609-son qarori va 2021 yil 14 yanvardagi "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda

shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4954-sonli qarorlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi PQ-4954-son qaroriga 1-ilova "Shaxmatni 2025-yilgacha rivojlantirish Davlat dasturi"ning 2-bob Shaxmatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarining 1-paragrafida birinchi yo'nalishni ro'yobga chiqarish uchun amalga oshiriladigan ishlarning ikkinchi bosqichida 2025/2026 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2, 3 va 4-sinf o'quvchilarini «Jismoniy tarbiya» va «Matematika» fanlari doirasida 36 soatlik reja asosida shaxmatga o'qitish tizimiga o'tish ko'zda tutilgan.

Shaxmat pedagogikasi faqat yuqori malakali shaxmatchilarni tarbiyalashga yo'naltirilmasligi lozim. Uning eng muhim jihatlaridan biri shaxmat materiallaridan boshqa fanlarni o'qitish mazmuni va usullarini takomillashtirish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlarini o'rganish muhim hisoblanadi. Ushbu qoida nafaqat o'rta maktabga tegishli, balki uzluksiz ta'lim tizimining boshqa sohalariga ham tegishlidir.

Hozirgi kunda shaxmat elementlaridan bo'lg'usi harbiy rahbarlarni tayyorlash jarayonida (kurash strategiyasi va taktikasining o'zaro bog'liqligi!), universitetlarda dizaynerlar (fazoviy tasavvur!), ilmiy tadqiqotchilar(analitik fikrlash!), psixologlar(ijod jarayoni!), fiziologlar(aqliy faoliyatning maqbul rejimini o'rganish!) va ko'pchilik fan, texnologiya, madaniyat va san'atning turli sohalarida boshqa mutaxassislar tayyorlashda foydalanish tavsiya etilmoqda. Maktab ta'limiga kelsak, shaxmatdan matematika va "informatika va kompyuter texnologiyalari asoslari"ni o'qitish vositasi sifatida imkoniyatlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Matematika darslarida shaxmat materiallaridan foydalanish o'qituvchidan shaxmatni va matematika fanini chuqur bilishni hamda yuqori malakani talab etadi. Bunday holatda yuqori samaradorlik o'quvchilarning tayyorgarligiga ham bevosita bog'liq.

Pedagogik tadqiqotlarda intellektual o'yinlarning maktab o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga, foydali ko'nikma va fazilatlarni rivojlantirishga ijobiy ta'siri uzoq vaqtdan beri yaxshi o'rganilgan. O'yinlar, qiziqarli vazifalar va jumboqlar xotira va fikrlashni yaxshilaydi hamda olingan bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi, shuningdek, o'rganilayotgan fanlarga katta qiziqish uyg'otadi. O'yinlarni, shu jumladan shaxmatni tayinlash faqat ularning amaliy qo'llanilishiga bog'liq emas. Ular ijodiy faoliyatga moyilligini yanada yorqinroq ifoda etadilar.

Albatta, bu xususiyat har qanday fanlarni o'qitishda muhimdir, ammo matematik ta'limga urg'u berilishi inson faoliyatining ushbu ikki sohasining matematika va shaxmat alohida yaqinligi tufayli amalga oshiriladi. Shu munosabat

bilan shaxmatdan foydalanish nafaqat umumiy rivojlanish uchun emas balki matematikadan aniq bilim olish uchun ham muhimdir.

Shaxmat va matematika o'rtasidagi o'xshashliklar ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Buyuk matematik A.Puankare shaxmat o'yinni matematik ijod turlaridan biri sifatida talqin qilgan. Matematik fikrlash masalalarini muhokama qilgan ekan, u ko'pincha shaxmatni fikrlashning individual xususiyatlarini o'rganish uchun qulay model deb atagan. Keyinchalik yana bir taniqli matematik – R.Xardi shaxmat bu matematik o'yin va psixologiya ekanligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, shaxmat “matematik ohanglarni hushtak chalish”ga o'xshaydi. Matematik o'yinlar nazariyasi asoschisi Djon fon Neyman shaxmatga (vizual model) ko'rgazmali model sifatida qarab, ularni to'liq ma'lumotga ega bo'lgan yakuniy o'yinlarga o'xshatdi. Demak, shaxmat o'yini ilmiy tasnifda mustahkam o'rin egalladi.

XX asrning ikkinchi yarmida kompyuter va kibernetikaning jadal rivojlanishi munosabati bilan shaxmat o'yini kompyuter yaratuvchilari va dastur ishlab chiquvchilarining e'tiborini tortdi. “Katta tizim”ning qulay modeli bo'lgan shaxmat kibernetik qurilmalarning imkoniyatlarini sinab ko'rdi. Axborot nazariyasining asoschilaridan biri K.Shennon o'z asarlarida tez-tez shaxmatga ilmiy obyekt sifatida murojaat qilgan, u kompyuter uchun shaxmat dasturini yaratish tamoyillarini birinchi bo'lib bayon qilgan.

Kibernetika va dasturchilar shaxmat modeli bilan bevosita ishlayotgan bo'lsa-da, shaxmatni kompyuter orqali o'ynash pedagogik jihatdan muhimdir. Kibernetika va dasturlashning ko'plab asosiy tushunchalari – maqbul algoritm tanlash, qidirish usullari, maqsad daraxti, variantlarni hisoblash va qisqartirish, baholash funksiyasi va boshqa vazifalarni – o'quvchilarga shaxmat yordamida aniqroq tushuntirish mumkin. Maktab o'quvchilari bilan ishlash tajribasi shuni ko'rsatadiki, kompyuter o'yinlari, ayniqsa shaxmat yordamida qo'yilgan masalalarni hal qilish matematika va informatika fanlariga jiddiy qiziqish uyg'otadi, va bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga hizmat qiladi.

Turli o'yinlar, eng avvalo shaxmat, o'qituvchiga muhim tarbiyaviy va ta'limiy vazifalarini hal qilishga yordam beradi.

Shaxmat nazariy, mantiqiy va mavhum fikrlash, xotira, geometrik tasavvur, ijodiy sezgi, zukkolik, e'tibor, rejani tuzishda mahorat va qiyin vaziyatda maqbul qaror qabul qilishni rivojlantiradi. Ko'pgina o'qituvchilarning tajribasiga asoslanib, aytish mumkinki shaxmatni kim yaxshi o'ynasa matematikada ham yuqori ko'rsatkichga erishgan.

Matematika va informatikaning quyidagi sohalarini o'rgatishda shaxmatga murojaat qilish muvofaqqiyatli natija beradi. Bu, birinchi navbatda, algebra, kombinatorika, geometriya, grafika nazariyasi, ehtimollar nazariyasi, matematika

tarixi, o'yinlar nazariyasi, jarayonlarni tadqiq qilish, sun'iy intellektni yaratish, elektron hisoblash mashinalari uchun kompyuter algoritmlari va dasturlash va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махмудов А.Х., Джураев Р.Х., Якубов Ж.Н., Каримов К.А., Усмонова З.Б. Дидактические возможности шахмат в развитие творческого мышления школьников Издательство «Нодирабегим» Ташкент 2021. –С. 128.
2. Махмудов А.Х., Джураев Р.Х., Диагностика способностей к обучению шахматам учащихся начальных классов Издательство «Нодирабегим» Ташкент 2020. –С. 40.
3. Махмудов А.Х., Якубов Ж.Н., Камилова А.Б., Ахунжанов А.Т. Шахматы Первый год обучения Издательство «Нодирабегим» –Ташкент 2021. – С.96.
4. J.N.Yakubov Shaxmatni o'rgatishda matematika va geometriyaning o'rni. Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishning zamonaviy metodologiyasi: muammo va yechimlar mavzusida Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T.N.Qori Niyoziy nomidagi o'zPFITI T: 2021-y. 26-aprel.
5. Б.С. Гершунский, А.Н. Костьев Шахматы – школе /. – М: Педагогика, 1991– С.336.



INFORMATIKA DARSLARIDA KICHIK MUTAXASSISLARNING SHAKLLANISHIDAGI PSIXO-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALAR TASNIFI

M.Y. Normatov,

Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Bugungi pedagogik-psixologik nazariya va amaliyotida “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari bir vaqtda qo'llanilmoqda. Qisqa qilib aytganda, kompetensiya, ta'lim oluvchilarning tayyorgarligiga avvaldan qo'yilgan talablarni anglatsa, kompetentlik shaxsning mavjud sifatlari va qo'yilgan doiraga, sohaga munosabati bo'yicha shaxs faoliyatining minimal tajribasi bilan belgilanadi.

Kompetensiya so'zining ko'plikdagi ma'noni ifodalashi, uning muayyan sistemani tashkil qilishi, bu sistemadagi tushunchalarni alohida ajratib olgan holda mashq qilib bo'lmasligi, bir so'z bilan aytganda, uning qobiliyatlar jamlamasi ekanligi e'tirof etilgan(1). amerikalik olim

J. Raven kompetentlikning 37 turini ta'kidlab o'tadi. Ular jumlasiga: aniq maqsadga erishish uchun ustuvor yo'nalishni idrok qilish qobiliyati, o'z faoliyatini nazoratda tutish, faoliyat jarayoniga hissiyotlarni yo'naltirish, mustaqil ta'limga tayyor turish, qayta aloqadan foydalanish, o'ziga ishonch, shaxsiy nazorat, ishga kirishib keta olish: ilojisizlik hissining begonaligi, kelajakni yaxshi tasavvur etish, mavhumlashtirishga moyillik, maqsadga erishishga bog'liq muammolarga diqqatni qarata bilish, mustaqil tafakkur, originallik, tanqidiy tafakkur, murakkab masalalarni echa bilish qobiliyati, bahsli masalalarni yechishga tayyorlik, me'yorli tavakkal qilish, taqdirga tan bermaslik, jamiyatning innovatsiyalarni yaxshi qarshi olishiga bo'lgan ishonchning mavjudligi, natijaning ijobiyligi va ikki tomonlama foydali ekanligini maqsad qilib olish, qat'iyatli(sabotli), ishonchli, o'zini maqsadga muvofiq tutish qoidalariga buysunish, qaror qabul qilish qobiliyati, javobgarlik hissi, maqsadni ko'zlab hamkorlikda ishlay bilish qobiliyati, maqsadga erishish yo'lida boshqalarni ham ishga unday olish qobiliyati, o'zgalarni tinglay bilish va ularning fikrlarini ham inobatga olish qobiliyati, hamkorlarining imkoniyatlariga subyektiv baho berishga urinish, boshqalarning mustaqil qaror chiqarishlariga yo'l berish, o'zaro nifoqlarni hal qilish va ixtiloflarni mo'tadillashtirish, birovning qo'l ostida faoliyat yuritayotgan paytda samarali ishlash qobiliyati, turli uslubdagi yashash tarziga nisbatan bag'rikenglik, siyosiy plyuralizmni tushunish, tashkiliy va jamoaviy rejalashtirishga tayyorlik kabilar kiradi.

Mamlakatimiz davlat ta'lim standartlarida qayd etilgan kompetentli mutaxassis tayyorlash maqsadi ta'lim mazmuninigina emas, o'zlashtirish vositalari va ta'limni tashkil qilish jarayonini ham o'zgartirishga olib keladi. Ushbu yondashuv nafaqat bilim, kompetensiya va malaka birligini, balki shaxsiy sifatning integrallashuvi natijasida maqsadga erishishni ta'minlaydi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z Informatika fanidan umumiy o'rta ta'lim maktablarida shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalarni amaliyotga joriy etilishini 7-sinflarda "Internetda ma'lumotlarni izlash" mavzusi misolida ko'rib chiqamiz [1,2].

Qo'llanilgan tajribalar natijasida olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda kommunikativ malakalarning kommunikativ ko'nikma shakllanganligi yetarli darajada aniqlab bo'linmadi. Informatika darslarida kasb-hunar ta'limida kommunikativ malakalarning kommunikativ ko'nikmalarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun zaruriy psixo-pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan jarayonda (kompleks) asosiy elementlardan biri mashqlar tizimi hisoblanadi. Topshiriqlar taklif etilib tartibga tushirilgan yig'indisi informatika darslarida kommunikativ malakalarning kommunikativ ko'nikmani shakllantirishga yo'naltirilgan va quyida sanab o'tilgan (faktor) dalillarni hisobga oladi.

Avvalo, mashqlarning taklif etilgan tizimini qo'llashga tayyorgarlik jarayonida kommunikativ malakalarning kommunikativ ko'nikmalari egallaganlik motivi diagnostikasi bajarilishi zarur. Kommunikativ malakalarda ijobiy talqinlar (prednoslki) hosil qilish uchun bir qator hayotiy vaziyatlarni qo'llash mumkin, unda kommunikativ ko'nikma va malakalarni kommunikativ malakalarda past darajada egallash va shaxslararo hamkorlik jarayonida (shuningdek, axborot kommunikasion-texnologiyalarni qo'llash bilan) zaruriy chiqishlari (vostunleniya) o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi.

Ilk yoshlik davrida kommunikativ malakalarning yosh xususiyatlarini qo'llab, shaxslararo muloqot doirasini kengaytirishga intilishida namoyon bo'lish, kattalar dunyosiga muloqotga kirish va hakoza. Kommunikativ malakaning ichki kayfiyatini tashkillashtiradi va kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanish va o'z-o'zidan rivojlanishiga yo'nalish ishlab chiqiladi. Bu ijobiy holat yangi kommunikativ ko'nikma va malakalarni egallash zaruriyati kommunikatsiya va aloqa vositalarining doimiy rivojlanishi bilan bog'liq va jamiyatning kommunikativ malakaga qo'yilayotgan talablarida ifodalanishi tashqi motiv bilan mustahkamlanadi. Maqsadga yo'naltirilgan yaratishda kommunikativ bilim, ko'nikma va malakalari kommunikativ malakalarda muammoli vaziyatlardan chiqish uchun yetishmaydi, shuning uchun tabiiy ravishda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga e'tiborni qaratish lozim, undan tashqari muloqotning an'anaviy qurilmasi (instrument) berilgan guruhlarda kommunikativ ko'nikmaning rivojlanish va o'z-o'zidan rivojlanishi kommunikativ malakalar istaklarining yuzaga kelishiga ijobiy turtki yaratadi.

Biz tomondan taklif etilayotgan masalalar kommunikativ ko'nikma shakllantirishga yo'naltirilgan va kommunikativ malakalarning axborotlar bilan ishlashini ta'minlaydi unda ularni kommunikativ masalalar deb atashimiz mumkin.

Bu tadqiqotda kommunikativ ko'nikmalar kriteriyalar bilan mos ravishda tasniflangan va kommunikativ masalalarni guruhlash bajariladi. Tizimlashtirish uchun kriteriya sifatida axborot jarayonlari olingan. Aytish mumkinki, kommunikativ masalalar kommunikativ jarayonning qatnashchilari o'rtasida axborot ta'sirlarini (vozdeystviya) tashkillashtirish axborot uzatish bilan bog'liq pedagogik masalalarni aniqlashtirish (kommunikativlikni shakllantirish) hisoblanadi. Kommunikativ masala kommunikativ malakalarning kommunikativ ko'nikmalariga tayanch bo'lib xizmat qiladi. (predpolagaet).

Kommunikativ masalaning tuzilmasi fanning modeli va masala (boshlang'ich holati) laridan tashkil topadi. Boshlang'ich holatdan tugallangan (iskomos)ga fanning masalalari o'tish jarayonini kommunikativ masalalarning echimi deb hisoblaymiz.

Kommunikativ masalalarda muammoli vaziyat yaratiladi, echimi esa kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish va kommunikativ ko'nikmani shakllantirishga turtki bo'ladi. Bu ko'rinishdagi masalalar yo'naltirilgan shaxslararo pedagogik muloqotda kommunikativ faoliyatni boshqarish va tashkillashtirish vositasi sifatida o'qituvchining kommunikativ malakaga pedagogik ta'siri (vozdeystviya) o'ziga xos o'tkazgich hisoblanadi.

Kommunikativ masalalar nafaqat bu ko'rinishdagi faoliyatga qiziqish uyg'otadi, balki axborot ehtiyojining shakllanishiga turtki bo'ladi, (sposobstvuet) buning uchun kommunikativ malakalarning yosh va individual (yakka) xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlanishi lozim bo'ladi.

Har qaysi masala shunday shakllantiriladiki, inson faoliyatining turli xil sohasidan yechiladigan masalalarni kommunikativ ko'nikmalarni keng miqyosga shakllantiradigan o'tishiga (perenos), taklif etilgan materialni yanada chuqur tushungan holda o'zlashtirishga turtki bo'ladi. (sposobstvuet) va refleksiyaning faol elementlari tashkil etib, o'z-o'zini bilishga o'zining kommunikativ faoliyat va o'zini anglashga kommunikativ malakani uyg'otadi. Mashqlar tizimi (to'plami)ni tuzishda va masalalarni tanlashda quyidagi talablar hisobga olinadi:

- mashq va masalalarni tanlash tasodifiy emas, balki tizimli bo'lishi kerak;
- har bir masala oldingilari bilan bog'liq reproduktivdan ijodiylikgacha o'sib borish asosida bo'lishi kerak. (doljno bazirovatsya);
- mashq va masalalar tizimi (to'plami) nafaqat kommunikativ ko'nikma va malakalarni egallanishi va shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi kerak, balki axborot ehtiyojlari va kommunikativ qobiliyatlarni faollashtirib, kommunikativ ko'nikmalarning yangi holatga o'tishiga turtki bo'lishi lozim;
- masalalar o'z-o'zini boshqarish, bilish o'rganishda ehtiyojni rivojlantirishga turtki bo'lishi, refleksiya, shaxsning kuchli (volevie) sifatlari va ijobiy motivlashgan bazasini rivojlantrishi lozim;
- mashqlar tizimi (to'plami) nafaqat kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga balki, informatikaning ta'lim sohasida tushunish apparatlarini kengaytirish va fan bo'yicha materiallarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak;
- mashqlar tizimi (to'plami) o'ziga hisob va hisobot shaklida teskari bog'lanish (svyaz)ni amalga oshirishga imkon berishi lozim.

Xuddi shunday informatika bo'yicha mashqlar yig'indisini (kommunikativ ko'nikmani shakllantirish bo'yicha topshiriqlarning an'anaviy tasnifi (ba'zasida) asosida tizimlashtirish mumkin, mazmun-mohiyatiga (v sushnosti) ikkita asos qo'yilgan:

1) mazmunli masala, ya'ni bilim va ko'nikmalar shakllanishiga mashq va topshiriqlar yo'naltirilgan.

2) topshiriqlardan aniqlanadigan kommunikativ ko‘nikmaning o‘quv faoliyatida usul va xislati (xarakter).

Foydalanilagan adabiyotlar:

1. Meyer, Klapper A. Unterrichtsstandards für ein kompetenzorientiertes Lernen und Lehren. – Berlin, 2009.

2. Informatika: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik/B.J.Boltayev [va boshq.]. – tuzatilgan va to‘ldirilgan ikkinchi nasr. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2013 – 80 b.



O‘QITUVCHI – MURABBIY – OLIM - RAHBAR

Sh.Mardonov

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI bo‘lim boshlig‘i, pedagogika fanlari doktori, professor.

M.Mardonova

mustaqil tadqiqotchi

O‘qituvchining ishi, uning qaysi sinfda va nimadan dars berishidan qat’iy nazar, ijodiy bo‘lishi lozim. Aks holda uning so‘zi qolipga aylanib, o‘qituvchining o‘zi oddiy kasibga o‘xshab qolishi mumkin. Maktabda sodir bo‘ladigan ko‘p qiyinchiliklarning ildizi, uning asosiy manbai ham ana shunda.

Qori Niyoziy

“Har kishi olmasa hayotdan ta’lim, unga o‘rgatolmas hech bir muallim”– degan edi, Sharqning buyuk allomalaridan biri Abu Abdulloh Rudakiy. Biz ushbu satrlarni o‘qiganimizda buyuk olim, o‘tgan asrda O‘zbekistonda yangi usuldagi maktablarning asoschilaridan biri Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy yodga tushadi. Sababi u zot yashagan davrda maktablar nomigagina bo‘lgan. Ulardagi ta’lim-tarbiya usul va uslublari komil insonni tarbiyalashga javob bermagan. Shu sababli ham Qori Niyoziy ko‘proq hayotni bilishga, undan o‘rganishga harakat qildi. O‘zining ulkan iste’dodini faqat mehnati bilangina ro‘yobga chiqardi.

Odatda, kishini hayotga tayyorlash va unda uchraydigan ba’zi malakalarni to‘g‘ri hal qilishni o‘rgatish uchun turli bosqichlardagi umumiy va ixtisosiy maktablar mavjuddir. Bu maktablarda, ular qanday tip va bosqichda bo‘lmasin,

ma'lum shartlarga rioya qilib o'qiganda, ularni bitirish mumkin. Lekin bu rasmiy maktablardan boshqa yana bir, g'ayri rasmiy maktab mavjuddir: u ham bo'lsa, hayot maktabidir. Mana bu maktabni hech kim va hech vaqt bitira olmaydi, faqat har kim qo'lidan kelgancha, layoqatiga, ma'lumotiga, yoshiga va boshidan o'tgan, kechirgan hayotiga qarab uning muayyan "sinfi" dagina bo'lishi mumkin, chunki hayot doimo o'sib boradi va uning "sinf"lari ham sanoqsiz ko'p bo'ladi.

Darhaqiqat, hayot maktabini a'lo darajada o'zlashtirgan olim shogirdlariga, o'zidan keyin o'sib kelayotgan yosh avlodga o'ziga xos hayot maktabini yaratib qoldirdiki, bu maktab bilan tanishgan kishi faqat baraka topishi shabhasiz.

Qori Niyoziy hayot maktabining mazmuni shundan iboratki, bizga berilgan oliy ne'mat bo'lmish bebaho umrimizning har bir lahzasidan aql-idrokka suyanib, to'g'ri, oqilona foydalanishimiz kerak. Shu yo'l bilan jamiyat hodisalarini idrok etish, tushunish bilangina chegaralanib qolmay, uni takomillashtirish, hamma insonlar baxtli, farovon hayot kechirishini ta'minlashga yordam beradigan faol fuqaroga aylanamiz.

Ochig'ini aytganda, agar insonlarga sharoit yaratib berilgudek bo'lsa, katta, buyuk ishlarni amalga oshirishi mumkin. Shu jumladan, o'qish, o'rganish, bilim olish sohasida ham. Ammo shunday kishilar ham borki, imkoniyat bo'lmasa ham ilojini topadilar. Qiyinchiliklarni mardona mehnat bilan yengib, maqsad sari sobitqadamlik bilan intiladilar. Ana shunday zahmatkash, ilmu tolib insonlardan biri Qori Niyoziy edi.

Buning uchun uning yoshlik yillaridagi quyidagi voqeani eslashning o'zi kifoya qiladi. "– Holbuki, men o'qituvchilikni boshlaganimda matematika sohasidagi ma'lumotim faqat butun sonlar bilan bajariladigan to'rt amal doirasida bo'lgan hisobdangina iborat edi! Oddiy yoki o'nli kasrdan mutlaqo tushuncham yo'q edi. Hatto, men o'z vaqtida rus-tuzem maktabini bitirish oldidan sinfdoshlarim bilan yig'ilishib: "hisobda kasr degan narsa bor emish, birni yana bir nechaga bo'lish mumkin emish!" deb, bosh qotirgan edik. Tabiiy, mening bunday kamtarin "dastmoyam" uzoqqa yetmas edi", – deydi Qori Niyoziy esdaliklarida.

Ma'lumki borliq, ya'ni hayot doimo harakatda, o'sib, unishda. Inson uning taraqqiyot sirlarini o'rganish, yechish bilan shug'ullanadi. Kimki qilgan ishlari, erishgan natijalaridan qoniqish hosil qilib, men ko'p narsaga erishdim, deb o'ylay boshladimi, demak u o'sishdan to'xtab qoladi. Ammo shunday donolar borki, ko'p narsalarga erishsalar-da, bu hali kam deb hisoblaydilar. O'ylaganlari, izlaganlari amalga ohsa ham yuksakni ko'zlaydilar. Natijada ilm ummonidan durlar terib, komil insonga aylanadilar. Shunga yarasha hurmat e'tiborga, el e'tirofiga sazovor bo'ladilar.

Ana shunday insonlardan biri matematik bo'lish istagina ko'ngliga jo qilgan yosh Toshmuhammad mustaqil ravishda oddiy va o'nli kasrlarni, nisbat va

proporsiyani, to'la algebra kursini va geometriyani o'qib o'rgandi. Lekin ancha murakkab bo'lgan trigonometriyani mustaqil ravishda o'zlashtirish og'irlik qilgan edi. Shuning uchun Qori Niyoziy rus maktabining o'qituvchisi A. V. Yaxontovdan ikki oy mobaynida har hafta bir soatdan, hammasi bo'lib sakkiz soat uyiga borib xususiy dars oldi. Trigonometriyaning o'ziga xos jihatlarini ancha o'zlashtirib olgan yigitcha uning qolgan qismlarini mustaqil sur'atda bilib olishga muvaffaq bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, inson agar bir narsaga astoydir intilsa, albatta erishadi. Izlanish yo'lida muvaffaqiyat qozongan sari o'z yutuqlaridan ruhlaniib, yuksaklik sari intilaveradi-intilaveradi. Qori Niyoziy ham hech qachon erishgan yutuqlaridan qanoat hosil qilgan emas. O'qish, izlanish, topish va yana izlanish hayot mazmuniga, shioriga aylangan.

Shu o'rinda Qori Niyoziyning boshidan o'tganlarini qisqacha bayon etish bilan fikrimizni tasdiqlashimiz mumkin. Toshmuhammad Qori Niyoziy 1897-yil 2-sentyabrda hozirgi Tojikiston Respublikasining Xo'jand shahrida dunyoga kelib, 1909 yilgacha shu yerda yashagan. Uning otasi 1859-yilda Xo'jand shahrida bog'bon oilasida tug'ilgan. Bolalik vaqtida maktabda, so'ng madrasada qorilikka o'qigan. Iqtisodiy qiyinchilik tufayli madrasini tashlab, ishlashga majbur bo'lgan. Avval bog'bonlik qilgan, so'ng Xo'janddan Farg'onaga ko'chib borguncha kosiblik, ya'ni maxsido'zlik bilan shug'ullangan. G'oyat kamtarin, pok, muloyim, besh vaqt namozni kanda qilmaydigan bu kishi bo'sh vaqtlarini mutolaa bilan o'tkazgan. Shu tufayli ham Hofiz va Umar Xayyom she'rlarini, xususan, mumtoz she'riyatni, xalq dostonlarini sevib o'qirdi. Ko'pini yod bilardi.

Toshmuhammadning onasi esa savodsiz, chevar bo'lgan. Farzandlariga bor mehrini berib tarbiyalash, oilani saranjom-sarishta yuritishda tengsiz ayol ekanligini farzandi ko'p davralarda eslatib o'tgan.

O'zi biror bilim yurtini tugatib, yaxshi ilm ololmagan Qori Niyoziy maxsido'z yolg'iz o'g'li Toshmuhammadni ilmi bo'lishi uchun kuch-g'ayratini ayamadi. Avval eski usuldagi maktabga berdi. O'sha paytdagi bir voqeani Qori Niyoziy shunday xotirlaydi:

“Maktabdan qaytib kelgandan keyin otam o'tilgan saboqni so'rab, ish ustida mening o'qishimga quloq solar edi va yanglish o'qiganimda luqma tashlab turar edi. Nihoyat, saboqni takror o'qigandan keyin men yana ip tovlash bilash mashg'ul bo'lar edim. Shunday kunlardan birida, otamga murojaat qilib:

– Dada, menga ham maxsido'zlikni o'rgatsangiz-chi, – dedim.

Otam menga javoban, qandaydir achchiq tabassum bilan:

– E, o'g'lim, maxsido'zlikni o'rganish hech gap emas, lekin sen buni o'rganma, o'qigin, shoyad odam bo'lsang. Biz bo'lsak, mana, shu bilan o'tib ketyapmiz, – dedi qo'lidagi maxsini ko'rsatib”.

1909-yilda maxsido‘z o‘g‘lini olib, Farg‘onaga ko‘chib keladi va bir arpafurushning do‘konida ishlay boshlaydi. 1911-yilda Toshmuhammadni rus-tuzem maktabiga o‘qishga beradi. Bu maktablarda asosan mahalliy aholi bolalaridan tarjimonlar tarbiyalansa-da, tabiiy va ijtimoiy fanlar ham o‘qitilardi. Maktabda 4 yil sidqidildan g‘ayrat bilan o‘qigan yigitcha uni a‘lo baho bilan tugatdi. Lekin rus tilini yaxshi bilgani, boshqa ilmlar, xususan hisob-kitobdan xabardor ekanligiga qaramay ancha vaqt ishsiz qolib qiynaladi. 1917-yilga kelib, yangi ta‘limga asoslangan dastlabki o‘zbek maktablaridan birini tashkil etish baxtiga muyassar bo‘ldi. Yosh, g‘ayratli o‘qituvchining sa‘y-harakatlari tufayli maktab asta-sekin rivojlana boshladi. Bolalar soni ortib ketdi. Ularga saboq berish uchun Toshmuhammad ham tinim bilmay o‘qidi, bilimini oshirdi.

- O‘qituvchi o‘z shogirdlaridan doimo hech bo‘lmaganda bir necha bosh yuqori turishi kerak, aks holda bolalar oldida uning obro‘si bo‘lmaydi, – deydi u o‘zining esdaliklarida, – chunki kutilmagan savollarga o‘qituvchining javob berolmasdan qolishi mumkin. Xolbuki, bola sezgir bo‘ladi va juda tez fursatda o‘qituvchining “mulla”ligi oshkor bo‘lib qoladi. O‘quvchilar oldida yo‘qotilgan obro‘ni tiklash juda qiyin, hatto, ba‘zi vaqtlarda mumkin ham emas.

Bu fikrlarni o‘zi uchun shior qilib olgan Toshmuhammad mustaqil o‘qib-o‘rganishni kanda qilmay, o‘quvchilar, kasbdoshlar o‘rtasida obro‘-e‘tibor topdi.

Bir necha muddat o‘tib, Farg‘ona viloyat ta‘lim-tarbiya texnikumi tashkil etildi. Yosh, iqtidorli ziyoli Qori Niyoziy unga mudir etib tayinlanadi. O‘sha paytda texnikumda Po‘latjon domla Qayumov, Muxammadjon domla kabi iste‘dodli o‘qituvchilar Qori Niyoziy bilan birga yoshlar ilmini, ongini o‘stirish uchun katta kuch-g‘ayrat sarflashgan.

Texnikumda matematika, tabiyot, kimyo, fizika, til va adabiyot bo‘yicha laboratoriya kabinetlari, duradgorlik, muqovasozlik, haykaltaroshlik, chilangarlik hunarlari tashkil qilindi. Qizlar bichish-tikishni o‘rganishgan. Ana shu texnikumda o‘qib, yirik davlat va jamoat arbobi, ko‘zga ko‘ringan olim sifatida elga tanilgan insonlarning ko‘piga Qori Niyoziy saboq bergan. Ularning orasidan o‘z paytida O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga boshchilik qilgan Ubay Orifov, shu akademiyaning akademiklari Mamajon O‘rozboyev, Tesha Zohidov, professor Yo‘lchi Toshpo‘latov, professor Ulug‘ Tursun, professor Jo‘ra Said, professor Olim Aminov, Raimqul Otajonov, Fahriddin Shamsuddinov, Zokirjon Ashurov, Nuriddin Aliev, mashhur o‘zbek yozuvchilari Abdulla Qahhor, Sobir Abdullalar nomini keltirish mumkin.

Izlanuvchan ustoz esa o‘z ustida sabot bilan ishlab, O‘zbekistonda ilm-fan darg‘alaridan biriga aylandi. 1930-yilda O‘rta Osiyo davlat universitetini bitirgan yosh olim 1932-yildan boshlab professor, keyinchalik uning rektori bo‘lib ishladi.

Mohir tashkilotchi, ilm-fan jonkuyari Qori Niyoziy universitetda rahbar bo'lib ishlagan paytlarida ushbu maskan yirik o'quv va ilmiy markaz sifatida nom qozondi. Ko'p vaqt o'tmay universitetning fakultetlari zaminida birin-ketin bir necha texnika va boshqa oliy o'quv yurtlari tashkil etildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, alloma qayerda, qaysi lavozimda ishlamasin yosh avlodga maktabda, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda puxta bilim berishga o'ta mas'uliyatli vazifa deb qaragan. Chunki, bolalarga murg'aklik davrida singdirilgan bilim ularning ongiga muhrlanib qoladi. Bu kelgusida ular bilim doiralari kengayishi, kashfiyotlar yaratishga qodir insonlar bo'lib yetishishlariga tamal toshi bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, Qori Niyoziy 1938-1939-yillarda O'zbekiston Respublikasi Maorif ministri bo'lib ishlagan paytlarida: "Bolaning maktab yoshidagi davri o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bulardan biri – maktabda bolaning, ayniqsa, dastlabki yillardagi o'qishining naqadar to'g'ri yo'lga qo'yilganligidadir.

Shuning uchun ham, men maorif ministri bo'lib ishlagan vaqtimda, bu masalaga katta ahamiyat berib, qo'limdan kelgancha, eng mohir pedagoglarni boshlang'ich sinflarga qo'yishga uringan edim...

Umuman, o'qituvchining ishi, uning qaysi sinfdan va nimadan dars berishidan qat'iy nazar, ijodiy bo'lishi lozim. Aks holda uning so'zi qolipga aylanib, o'qituvchining o'zi oddiy kasibga o'xshab qolishi mumkin. Maktabda sodir bo'ladigan ko'p qiyinchiliklarning ildizi, uning asosiy manbai ham ana shunda", deb aytgan so'zlari hozir ham ahamiyatini yo'qotgan emas.

Qori Niyoziy 1937-yildan boshlab O'zbekiston Fanlar komiteti prezidiumining raisi, 1939-1943-yillarda O'zbekiston Ministrlar Soveti raisining (fan va madaniyat bo'yicha) o'rinbosari, 1943-yilda O'zbekiston fanlar akademiyasining prezidenti vazifalarida faoliyat ko'rsatdi. Ammo qayerda ishlamasin butun bilimi, kuchi, iste'dodini mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish, insonning intellektual ongini o'stirish bilan o'zbeklarni jahon hamjamiyatida otabobolari kabi har sohada yetuk insonlar bo'lishiga erishishga sarfladi.

Chunki u Vatanini, O'zbekistonni sevardi. Uning shuhrati yer yuzida yoyilishini istardi. So'zimizning isboti uchun Toshmuhammad Qori Niyoziyning Vatan haqidagi ushbu monologini keltirishning o'zi kifoya:

"Vatan!.. Qanday aziz, ulug'vor, muqaddas sen! Hayotimning boisi, quvvatimning manbai, ijodimning ilhomi sen! Jonajon, mehribon, onam sen! Ko'zimning qorasi sen! Nuri-diydam sen!

Naslu nasabim, tasalloyu tayanchim sen! Abadiy fikru zikrim, iftihorim samimiy muhabbatim sen! Qalbimdagi niyatlarimning, orzu-havaslarimning timsoli, mujassammi sen!

Haqiqat uchun kurashgan bobolarimning, ulug' olimlarning, talantli shoirlarning, olijanob mutafakkirlarning, madaniyat va san'at arboblarning Vatani sen! Orombaxsh navo va maqomlarning, talantli hofizlarning, ajoyib xalq bulbullarining Vatani sen!

Rudakiy va Navoiylarning, Nizomiy va Fuzuliylarning, Xorazmiy va Forobiylarning, Beruniylarning Vatani sen!

...Mavj urib gullayotgan ilg'or fan, texnika, madaniyat va san'at Vatani sen!

Xalqlarning buzilmas, birodarlarcha do'stligi namunasi sen! Tinchliksevarlarning, insonparvarlarning, kelajagi buyuk davlat qurayotgan qahramonlarning Vatani sen!

Bepoyon sen! Shonu shavkatli, qudratli va hashamatli sen! Go'zal manzaralarinng va ajoyib nash'u namoga ega sen!

Azamat tog'larning, obi hayot bilan to'lib-toshgan daryolaring, buloq-chashmalarning, o'rmonzorlarning, maysayu lolazorlaring, bog'u bo'stonlaring kamoli hayotbaxshdir!

Tabiiy boyliklaring sanoqsizdir: neft va gazlaring, mis va temirlaring, kumush va oltinlaring, rang-barang qimmatbaho toshlaring, nodir gavharing hisobsiz xazinasini sen!

Ajoyib nozu ne'matlaring, obi novvot kabi mevalaring, anoru anjirlaring, olmayu noklaring, shaftoliyu uzumlaring, bodomu pistalaring, tarvuzu qovunlaring - fidokor mehnatkashlarga munosib bo'lgan marhamatingdir, g'arazsiz himmatsiz va lutfu karamingdir!

Ko'kka yetgan tog'laringning yoqimli shabodasi, azamat daraxtlaringning jilvayu ta'zimi, ariqlaringda oqib turgan musaffo suvlarning ajoyib ohangi, dalalardagi giyohlarning xushbo'yi, bog'laringdagi qushlarning navosi jonimga orom zavqimga zavq, ijodimga ilhom, kuchimga kuch, g'ayratimga g'ayrat qo'shadi!

Bu hayotbaxsh, tantanali simfoniyaning sadolari ostida sukut etdim, yerdan bir chimdim tuproq olib ko'zimga surtdim va qalbim ila qasamyod etdim: ey, jonajon, mehribon, sevikli ona-Vatanim! Sen menga nonu tuz berding, bag'ringda tarbiya qilib, voyaga yetkazding, baxtu saodat davriga olib kelding, ijodiy mehnat zavqiga musharraf qilding! Sening uchun qonim, kerak bo'lsa – jonim fido bo'lsin, Vatanim!”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зарипов К.З., Мардонов Ш.Қ. Ўқитувчилар малакасини ошириш педагогикаси. –Тошкент: Фан ва технология, 2018. – 284 б.

2. Мардонов Ш.Қ., Ходжаев Б.Х. Педагогик аксиологиядан хрестоматия. –Тошкент, Фан ва технология, 2015. – 264 б.

3. Тарбия. Ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия. –Тошкент: ЎМЭ, 2010 – 528 б.

4. Мардонов Ш.Қ. Шарқ алломалари мероси – педагог мутахассислар таёрлаш асоси. //Халқ таълими, №2, 2004, 25-27 б.

KREDIT-MODUL TIZIMI TALABALARDA O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH, IJODIY FIKRLASH VA MUSTAQIL TA’LIM OLISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OMILI.

Avazbayev Atajan Ismailovich

Nizomiy nomidagi TDPU Texnologik ta’lim metodikasi kafedrası dotsenti, p.f.n.,.

Dinamik zamonaviy sivilizatsiya, shaxsning jamiyat va ishlab chiqarishdagi rolining kuchayib, uning ehtiyojlarining oshib borishi, ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, mehnatni intellektuallashtirish, texnika va texnologiyalarning tez o‘zgarishi va boshqa shu kabi tendentsiyalar ta’lim mazmunini yangilashni birinchi galdagi eng zarur va kechiktirib bo‘lmaydigan dalzarb masala qilib qo‘ymoqda.

Ta’lim jumladan oliy ta’limni shubhasiz yuqori darajaga ko‘taradigan, dars mashg‘ulotlarini, o‘qitishni innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida olib borish, shu bilan birga talabadan mustaqil o‘qib-o‘rganish, ta’limga yangicha munosabatda bo‘lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘rgatadigan ta’lim tizimini amaliyotga joriy etish zaruriyati paydo bo‘ldi. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo‘naltirilgan, ularining butun hayoti davomida bilim olishini ta’minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilishini talab etadi.

Bu tizim shubhasiz kredit-modul tizimi. 2019-yilning 8-oktyabrida O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni imzolandi. Ushbu farmonda bir qator muhim vazifalar qatorida oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish” belgilab berildi. Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta’lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o‘quv yilining o‘zida 33 ta oliy ta’lim dargohini kredit-modul tizimiga o‘tkazish ko‘rsatib o‘tildi. Bu vazifalar hozirgi kunda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ta’limning kredit-modul tizimi ta’lim jarayonida quyidagilarni ta’minlaydi:

1. O‘qish yuklamasining muvozanatli taqsimotini.
2. Talabalarning fanlarni tanlash imkoniyatini.
3. O‘quv dasturlarida fanlarning saralanishini.
4. Bakalavr va magistratura dasturlariga shaffoflik kirishini.
5. O‘quv mashg‘ulotlarini shaffof tarzda tashkil etishni.

Kredit-modul tizimi ayniqsa talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish, ijodiy va global fikrlash va mustaqil ta’lim olishlarida muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, 1 kredit

uchun 30 soatlik o'qish yuklamasi belgilagan bo'lsa, undan 12 soati ($30 \cdot 40\% = 12$) auditoriya soatlari, 18 soati ($30 \cdot 60\% = 18$) esa talabaning mustaqil o'qish soatlariga to'g'ri keladi. Ushbu taqsimot asosida 6 kreditlik fan o'qish yuklamasini aniqlaydigan bo'lsak, talaba ushbu fan bo'yicha belgilangan kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 72 soat ($(30 \cdot 6) \cdot 40\% = 72$) auditoriya darslarini, 108 soat ($(30 \cdot 6) \cdot 60\% = 108$) uyda va ARMda mustaqil o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi. Yuqoridagi qoidalarga ko'ra ECTS kredit-modul tizimida talabaning bilim olish vaqti tushunchasi dars vaqti tushunchasi bilan cheklanib qolmasdan, talaba o'qish uchun sarflagan umumiy vaqt bilan o'lchanadi. Qisqacha aytganda, kredit-modul tizimida o'qish vaqti tushunchasiga o'qituvchi nuqtayi nazaridan emas balki talaba nuqtai nazaridan yondashiladi. Talaba o'qish yuklamasining bu tarzda taqsimlanishi ta'lim olish jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z yelkasiga olishi, fan bo'yicha darsda va darsdan tashqarida muntazam ravishda o'qib-o'rganib borishi kerakligini bildiradi. Eslatib o'tamiz, 1 soat auditoriya vaqti uchun talaba 1.5 soat uyda va kutubxonada mustaqil o'qishi, o'rganishi, shug'ullanishi zarur.

Kredit-modul tizimi talabalar, professor-o'qituvchilar va ta'lim muassasasi rahbariyati uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratish omili bo'lib xizmat qiladi:

- talabalarning o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o'zlarining individual ta'lim traektoriyalarini mustaqil belgilay olishlariga;
- talabalarning dars jadvalini moslashtirish imkoniyatiga ega bo'lishlariga;
- talabalarda o'zini-o'zi boshqarish va mustaqil ta'lim olish, ijodiy va global fikrlash ko'nikmalarini shakllantira olishlariga;
- ta'lim natijalarini qiyosiy taqqoslash va tan olishni osonlashtirishi, akademik mobillikni rivojlantirishiga;
- professor-o'qituvchilarga akademik erkinlik berilishiga (nimani o'qitish va qanday o'qitishni o'qituvchining o'zi belgilashiga);
- boshqaruv va o'quv jarayoni xarajatlarini optimallashtirish va samaradorligini oshirishga.

Qisqasi mazkur tizimning mamlakatimiz oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, ta'lim oluvchining haqiqiy bilim va iqtidorini yuzaga chiqarish hamda ularning mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Ammo har qanday xalqaro tajribani ko'r-ko'rona, o'z qadriyatlarimizni, o'zimizga xos tomonlarimizni hisobga olmasdan turib, to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish, uning har bir elementini chuqur tahlil qilmasdan, ilmiy asoslarga tayanmasdan amalga oshirar ekanmiz, kelajakda ayrim salbiy holatlarning yuzaga kelishini ham unutmash kerak. Shundagina, raqobatda dunyodagi o'z o'rnimizni, mavqeimizni yo'qotmasligimiz uchun mehnat bozori talabiga mos kadrlarni tayyorlash zarurligini his qilgan holda barcha rivojlangan mamlakatlarning oliy

ta'lim muassasalari qatorida ushbu yo'ldan yurib, yuqori natijalarni qo'lga kiritishimiz muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarori.

3. Avazbayev. A. Условия организации процесса технологического образования на основе кредитно-модульной системы. Общество и инновации, 2021г.2(4/S), 171–176с.

4. Avazbayev.A.I Texnologiya fanini "STEAM ta'lim" yondashuvi asosida o'qitishning mohiyati va afzalliklari. Jamiyat va innovatsiyalar, 2(5) 2021,109-115-b.



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA PEDAGOGIK VA TEXNIK BILIMLAR INTEGRATSIYASI

O'sarov Jabbor Eshbekovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Pedagogika" fakulteti dekani,
pedagogika fanlari doktori, professor v.b.,

Ximmataliyev Do'stnazar Omonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Pedagogika va menejment" kafedrası professori,
pedagogika fanlari doktori

So'nggi 3 yil davomida yangi O'zbekistonni shakllantirishda, xususan, ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda asrlarga arzigulik mazmun va samara kasb etadigan islohotlar amalga oshirildi.

Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda oliy ta'lim tizimini fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ustuvorlik berildi. Mazkur islohotlar yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish, raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirish, bo'lajak

mutaxassislarni dunyoda faol ijodkor shaxsga aylantirish maqsadlariga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda zamonaviy oliy ta'lim tizimi raqobatbardosh, harakatchan, malakali, yuqori samarali kasbiy faoliyatga tayyor mutaxassisni shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu jarayonni yuqori malakali kadrlarni ilmiy yo'naltirish va texnologik tayyorlash orqali amalga oshirish mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy rivojlanishida pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi muhim ahamiyatga ega.

Bilim, ko'nikma va malakalarning umumiy texnologik va maxsus tarkibiy qismlarini o'zlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning iqtisodiy va ekologik ta'limini rivojlantirish, ularning bilish faoliyati va ijodiy tashabbuskorligini rivojlantirish orqali pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi amalga oshiriladi.

Masalan, "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fani bo'yicha ta'lim dasturi mazmunining asosiy qismi o'quvchilarning moddiy, ma'naviy, axborot va boshqa obyektlarni yaratish va o'zgartirishga qaratilgan faoliyati shaklida taqdim etiladi va unda faoliyat turlari natijasi amaliy faoliyat tajribasidan kelib chiqadi.

"Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fani maqsadlarini amalga oshirishda bo'lajak o'qituvchining pedagogik, maxsus va kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Ilmiy fanlarni integratsiyalash uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda yaqqol namoyon bo'ladi. Ta'lim mazmunida umumta'lim, umumtexnik va maxsus fanlar integratsiyasi mavjud ilmiy bilimlar tuzilmasini va shu bilan birga fanlarning integratsiyalashuv tendensiyasini aks ettiradi.

Integratsiya (lot. Integer – to'liq, integral, buzilmagan) – elementlar, jarayonlar, hodisalar o'rtasida aloqalarni o'rnatish jarayonidir.

"Integratsiya" tushunchasining muhim xususiyatlari birinchilardan bo'lib I. F. Gerbart tomonidan o'rganilgan, u ta'limning to'rtta yo'nalishini ko'rsatib bergan, ularga aniqlik, assotsiatsiya, tizim, metod kiradi⁴. Bu yo'nalishlar bilish bosqichlarini ifodalaydi, birinchi ikkitasi bilimlarni egallash, ikkinchi ikkitasi esa avval o'zlashtirilgan bilimlarni integratsiyalashga qaratilgan.

Ta'limda integratsiyadan foydalanishning asosiy afzalligi o'quv materialining takrorlanishini bartaraf etish, olingan bilimlardan o'zaro foydalanish, tizimli yondashuvni shakllantirishdan iborat. Bunday yondashuvdan foydalanish birgalikdagi munosabatlar, rivojlanish, hamkorlikdagi faoliyatni o'z ichiga oladi.

Pedagogik adabiyotlarda "ta'lim mazmunining integratsiyalashuvi" tushunchasi bilan bir qatorda "bilimlar integratsiyasi" tushunchasi ham mavjud bo'lib, birinchisi

⁴История образования и педагогической мысли за рубежом и в России: учеб.пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / И.Н. Андреева, Т.С. Буторина, З.И. Васильева и др.; под ред. З.И. Вастьевой. - М.: Издательский центр "Академия", 2005. – С. 432.

ta'lim jarayoni mazmunini aks ettiradi, ikkinchisi ta'lim mazmunining shakllanish darajasini (bilim darajasini) tavsiflaydi. Shunday qilib, pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi bo'lajak o'qituvchilar bilimining integratsiyalashuvi natijasi bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasining hozirgi bosqichi uni texnologiyalashtirish bilan bevosita bog'liq, bu esa bo'lajak o'qituvchini kasbiy tayyorlashda texnika fanlari ulushining ahamiyatini oshirishga olib keladi, degan nuqtayi nazar ham mavjud. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o'rtasidagi bog'liqlik katta imkoniyatlarga ega.

Pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasini amalga oshirishda pedagogika va texnika sohasidagi fanlar mazmuni, shakllari va metodlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish, ijtimoiy voqelikning globallashuvi kuchayib borayotgan bugungi kunda Yangi O'zbekistonda pedagogikaning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan integratsiyani yetakchi o'ringa qo'yish ta'limni rivojlantirishning asosiy tendensiyasi hisoblanadi.

Fan, texnika, texnologiya va madaniyatning rivojlanish darajasi, fanlar aloqalarini mustahkamlash, ta'limning ishlab chiqarish jarayonlari bilan integratsiyalashuvi bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga qo'yiladigan talablarni ta'minlaydi va ta'lim mazmunini yanada takomillashtiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi umumiy va maxsus texnik ta'lim, shuningdek, ta'lim va tarbiyaning birligini ta'minlashga qaratiladi. Bu bo'lajak o'qituvchilar ongida yaxlit tizimni tashkil etadi hamda bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, zamonaviy ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan belgilanadi. Pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi ta'lim jarayonida fanlararo aloqa imkoniyatlarini o'rganish vazifasining dolzarbligini ham belgilaydi.

Fanlararo aloqa pedagogikaning ilmiy asoslarini rivojlantirish uchun ham, o'qituvchilarning amaliy faoliyati uchun ham asosiy ahamiyatga ega; u ta'lim mazmunini tuzish muammosi bilan bog'liq bo'lib, uning asosiy vazifasi ta'lim mazmunining tarkibiy elementlarini ajratib olish va ular o'rtasidagi tayanch aloqalarni aniqlashdan iborat bo'lib, o'zaro aloqadorlik bilan belgilanadi. Har bir o'quv fanida o'rganiladigan voqelik, talabalar o'zlashtirishlari kerak bo'lgan faoliyat turlari, o'quv rejasida belgilangan o'quv fani bo'yicha o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar integratsiyaning turli jihatlarini qamrab oladi.

Keyingi o'n yilliklarda ishlab chiqarishda, iqtisodiyotda, fanda va ijtimoiy munosabatlarda integratsiya jarayonlarining kuchayishi tufayli integratsiyaning turli jihatlariga ilmiy qiziqish sezilarli darajada oshdi.

Pedagogikada integratsiya muammolarini o'rganish bo'yicha yetarlicha boy tajriba mavjud. Integratsiya muammolarni o'rganish, ta'lim nazariyasi va amaliyoti sohasidagi integratsiya jarayonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan ixtisoslashtirilgan ilmiy to'plamlar ham mavjud. Pedagogik integratsiyaning ayrim jihatlarini ochib beruvchi monografiyalar chop etilgan. Pedagogikada integratsiya muammosining turli jihatlarini ko'plab taniqli olimlar tomonidan o'rganilgan.

Pedagogik – psixologika adabiyotlar tahlili pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi faoliyatning uchta asosiy darajasi – metodik, nazariy va amaliy jihatdan o'rganish imkonini beradi. Fanlarni integratsiyalash asosida o'qitishning yanada noan'anaviy shakllarini izlashning obyektiv zarurati fan, ishlab chiqarish va mehnat faoliyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasini amalga oshirishda ta'limni tashkil etish nazariyasi va amaliyotining ehtiyojlari; shart-sharoitlar va ularni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalarning yetarli darajada ilmiy asoslanmaganligi fanlararo integratsiyaning mazmuni va texnologik asoslarini ishlab chiqish muammosini o'rganishga asos bo'ldi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasini amalga oshirishda quyidagilarga alohida ahamiyat berish kerak bo'ladi:

- o'quv materialini obyektning eng muhim belgilarini o'z ichiga oladi va uni o'rganishning asosiy darajalarida namoyon bo'ladi;
- ta'limning pedagogik tizimi sifatida o'quv materialining modulli tuzilishi bilan rivojlantiruvchi ta'lim tanlandi;
- pedagogik va texnik bilimlarni o'rganishning varianti ishlab chiqiladi;
- ta'lim jarayonida pedagogik va texnik bilimlarni turli xil o'quv, bilish va kasbiy faoliyat turlarida birlikda qo'llash uchun imkoniyat yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. История образования и педагогической мысли за рубежом и в России: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / И.Н. Андреева, Т.С. Буторина, З.И. Васильева и др.; под ред. З.И. Вастьевой. – М.: Издательский центр “Академия”, 2005. – С.432.

2. Кузьмин, В. П. Системный подход в современном научном познании // Вопросы философии. – 1980. – №1. – С. 62.

3. Курина, В.А. Интеграционные процессы в непрерывной системе технологической подготовки / Вестник Оренбургского государственного университета. – 2003. – № 4. – С. 134-137.

4. Мансурова, С. Е. Общенаучный феномен интеграции в современном образовании / История и педагогика естествознания. – 2014. – № 3. – С. 16-20.



ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA GEOGRAFIYA FANIDAN AMALIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Haydarova Surayyo Abdusalomovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Bugungi kunda o'quvchilarda geografiyadan amaliy kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning mavjud imkoniyatlaridan maqsadli va samarali foydalanish eng muhim omillardan biridir.

Hozirgi vaqtda kompyuter texnologiyalari orqali o'qitish va o'quvchi axloqiy tarbiyasini mustahkamlashda ehtiyotkorlik emas, balki uning sifati, undan foydalanish imkoniyati va yutuqlarini ko'rsatish, jahon axborot manbaiga ulanish borasida yaxlit ta'lim jarayonini ajralmas qismiga aylanishi lozim. Zamonaviy dunyoda yangi va sifatli ta'lim tizimini joriy etishda, o'quvchilarni zamonaviy o'qitish va tarbiyalashni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanmasdan tasavvur qilishning iloji yo'q.

Geografiya fanini o'qitishda zamonaviy AKTdan foydalanish quyidagilarni yuzaga chiqarish imkonini beradi:

- geografiya fani o'quv samaradorligi va ta'lim jarayoni sifatini oshirishga;
- o'quvchilarda geografiya fanini o'rganishga nisbatan individual va guruhviy motivatsiyasini oshirishga;
- geografiyaning fanlararo aloqalarni mustahkamlash va differensial o'rganishga;
- o'quvchilarning geografiya fani bilim doirasini oshirish va faollashtirishga;
- raqamli ta'lim nazoratini joriy etilishi va o'qitish hamda ta'lim natijalarini kuzatib borishga;
- geografiya fani zamonaviy metodlar asosida o'qitishni rejalashtirish va tizimlashtirish hamda xalqaro hakorlikni yo'lga qo'yishga.

Geografiyani o'qitishda zamonaviy AKTda foydalanish, xususan multimedia taqdimoti orqali mavzuni taqdim etish o'quv materiallarini algoritmik tartibda keng qamrovli tuzilgan ma'lumotlar bilan to'ldirilgan "jonli" tasvir tizimi sifatida taqdim etish imkonini beradi. Bu jarayonda idrokning turli kanallari ishtirok etadi, bu esa

o'z navbatida ma'lumotni nafaqat dalillar bilan, balki assotsiativ shaklda o'quvchilar xotirasida saqlashga imkon beradi. Shuningdek, audio va video ketma-ketliklar mashg'ulotlarni hissiy jihatdan rang-barang, jozibali qilib o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi. Ta'kidlash lozimki, vizual namoyish etilgan materialda darsni o'zlashtirish va yetkazib berishda so'z mantiq va obrazli xotira ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, barcha o'quvchida ham so'z mantiq yaxshi rivojlangan bo'lavermaydi. Shuning uchun so'z orqali yetkazilgan darslarni ma'lum toifa o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtira olmaslik holati kuzatiladi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari inson hayotiga tobora chuqurroq kirib borishi, geografiyani o'qitishning noan'anaviy shakllari va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonini sifatli tashkil etilishiga ahamiyat beriladi. Darslik va xarita, albatta, asosiy o'quv qo'llanma bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilarni samarali va sifatli o'qitish darslikdan tashqari boshqa ko'plab o'quv qo'llanmalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi, xususan: yangi o'quv dasturlar, fanga oid qo'shimcha uslubiy tavsiyalar, o'quvchilar uchun ish daftarlari, har bir sinf uchun atlas – ularning barchasi o'quv-uslubiy majmuani tashkil etadi. Ammo sifatli ta'limni tashkil etish va o'quvchida amaliy kompetensiyani shakllantirish uchun o'quv materiallaridan tashqari boshqa o'quv qo'llanma va manbalaridan foydalanish davr talabidir. Jumladan, audiovizual va ekran-tovush, shuningdek turli xil interaktiv o'quv vositalari, multimedia ensiklopediyalari va qo'llanmalar, har bir sinf uchun moslashtirilgan dasturiy va uslubiy majmualar, mavzuga oid test dasturlari hamda elektron darsliklar shular jumlasidandir.

Geografiya fanidan amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari, multimedia darsliklari muhim ahamiyat kasb etib, quyidagi funksiyalarni yuzaga chiqaradigan: maktab o'quvchilari tomonidan fan mazmunini obrazli va mukammal o'zlashtirishni ta'minlash; geografiyaga oid ma'lumotnomalarni chuqur o'rganish, nazariy bilimlarni amalda foydalanish; internet tarmog'iga ulanish, mavzuga doir zarur ma'lumotlarni olish va masofaviy o'qish rejimida ishlash; maktab o'quvchilarining geografiyaga oid mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish ya'ni, aralash ta'lim komponentalaridan yangi avlod metodi sifatida foydalanish muhimdir.

Zamonaviy ta'lim tizimida AKT o'quvchilarga mustaqil ravishda yangi bilimlarni olishga, intellektini rivojlantirishga va uning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish imkon beradi. AKTning interfaol dasturlari inson faoliyatini barcha turlarini faollashtiradi hamda axborot-kommunikatsiya simulyatorlari amaliy ko'nikmalarni egallashga yordam beradi. Shuningdek, multimedia vositalari va texnologiyalaridan foydalanish, o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy va zamonaviy texnologiyaga asoslangan kombinatsion bilim tizimini uzatish va

o'zlashtirishda yangi sifat bosqichiga olib chiqilib, mukammal o'quv sxemasini tuzishga imkon beradi.

O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchini geografiya fanini o'qish va o'zlashtirish uchun an'anaviy va zamonaviy texnologiyaga asoslangan kombinatsion yondashuvli kompetentligini shakllantirishdir. Maktab ta'limida multimedia prezentasiyalar va interaktiv dasturlar yaratish orqali o'quvchini mavzu (fan)ga qiziqishni oshirish mumkin. Shuningdek, bu yondashuv o'quvchiga o'zini o'zi rivojlantirish va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quvchilar tomonidan yangi materialni yengilroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Multimedia kurslari va interaktiv dasturlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan istiqbolli didaktik vosita hisoblanib bu vositani ta'limga joriy etish jarayonida eng avvalo, o'quvchining individual xususiyatlari, o'quv malakasi va motivasiyasi, ta'lim ehtiyoji va o'quv maqsadlari mosligi to'liq hisobga olinmog'i lozim. Masalan, fanga oid tabiiy jarayonlar multimedia dasturlarida qiziqarli tarzda namoyish etilishi, ekranda vulqon otilishi, vayronkor sunami, boshlangan siklon yoki sinoptik xaritalar, yog'ingarchilik diagrammalarini tasavvur doirasida idrok etib, tafakkur darajasida tahlil qila oldi. Eng muhimi, ko'rinishi juda qiyin bo'lgan turli xil atmosfera va tektonik jarayonlar o'quvchilar ko'z o'ngida namoyon bo'ldi.

Geografiya darsida kitobdan obyektning tavsifi va mohiyati haqida ma'lumot va tushunchaga ega bo'lishi mumkin, biroq barcha o'quvchilar jahon okeanining "tubiga tusha olmaydi" yoki "kosmosdan" atmosferaning umumiy aylanishini ko'ra olmaydi. Biroq, **zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan** foydalanish bu kabi murakkab tushuncha va axborotlarni har qanday bilim darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar ongiga singdirish va to'liq ma'lumot berish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shunday qilib, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari ta'limning tarbiya funksiyasini kuchaytirishga, o'quvchilar ma'lumotni topish va qayta ishlash, samarali bilim va ko'nikmalarni egallash hamda amaliy kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab o'quvchilarida fanga oid amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda zarur obyektlar to'g'risidagi fazoviy (geografik) va tegishli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish hamda grafik tasvirlash tizimini shuningdek, foydalanuvchilarga hududning raqamli xartasini, obyektlar to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tahrirlash imkonini beradigan vosita (dasturiy mahsulot) sifatida ham qo'llaniladi. Geografik axborot tizimlarida fazoviy ma'lumotlarni saqlashning o'ziga xos xususiyati uni qatlamlarga bo'linishidir. Qatlamni moslashuvchan boshqarish mexanizmiga ega bo'lgan elektron xaritani ko'p qatlamli tashkil etish odatiy xaritaga qaraganda ancha katta hajmdagi ma'lumotlarni birlashtirishga va namoyish qilishga imkon beradi. Bu albatta

o'quvchilarga fan va mavzuga oid zaruriy bilimlarni yetkazish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, ta'limdagi axborotlashtirish jarayonining rivojlanishi nafaqat hajmini, balki ilmiy va o'quv materialini mazmunini ham o'zgartiradi. Darhaqiqat, fanni o'quv dasturlarini qayta ko'rish uning mazmuni va tuzilishini o'zgarishiga olib keladi. Ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim faoliyatini qayta tashkil etishni talab qiladi. Ta'lim sifatini oshirish hayotning barcha sohalarida ko'plab ilg'or yutuqlarni joriy etish jarayonlarini tezlashtiradi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish geografiya darslariga o'quvchilarni qiziqishni sezilarli darajada oshiradi, bu esa ushbu mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishga hamda ularda amaliy kompetensiyani shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vahobov H., Mirzamahmudov O. Geografiya o'qitish metodikasi. – Namangan, 2016.
2. Vahobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda ta'lim sifati monitoringi modelini amaliyotga joriy etish – intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashning muhim omili. – T.: Maktab va hayot. №3 (119), 2016.
3. Qurbonniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi: geografiya ta'limi uchun qo'llanma. – Urganch: Xorazm, 2001. 212-b.
4. Musayev F., Qurbonniyozov R. Geografik o'yinlar. – T.: O'qituvchi. 1990 – 120-155-b.
5. Haydarova S. A. Zamonaviy geografiya darslarida axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalanishning zaruriyati. Samarqand. 2013.



UMUMIY O'RTA, PROFESSIONAL VA OLIY TA'LIM UZVIYLIGINI TA'MINLASH SHAROITIDA YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH MASALALARI

Qurbanov Pardatursun Zaripovich

Qarshi Davlat Universitetining Pedagogika instituti, San'atshunoslik kafedrası
o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tas-

diqlash to'g'risida" gi PF-5712-son farmoni bilan tasdiqlangan konsepsiyasida uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, xalq ta'limi tizimini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari amalga oshirilishi belgilgan:

- o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish;

- kasb-hunarga o'qitishni takomillashtirish va ishlab chiqarishning ko'plab jarayonlarini avtomatlashtirish tendensiyalarining rivojlanayotganligini inobatga olgan holda umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalaridagi kasb-hunar ta'limining o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish;

- o'quv muddatlarini o'zgartirmagan holda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish va shu kabilar. Shundan kelib chiqqan holda professional ta'limni amalga oshirish, kasb-hunarga o'qitishni takomillashtirish quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zda tutadi:

- Umumiy o'rta ta'lim o'quv rejasidagi ayrim fanlarini chuqur o'rganishni;

- o'quvchilarning keng va moslashuvchan imkoniyatlarni yaratuvchi individual ta'lim dasturlari mazmunini tanlab olish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- ta'lim oluvchilar turli toifalarining ularning qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos to'la-to'kis ta'lim olishlariga teng imkoniyatlar yaratishga ko'maklashish;

- o'quvchilarning ijtimoiylashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limi o'rtasidagi uzluksizlikni ta'minlash, shu jumladan, maktab bitiruvchilarini oliy kasbiy ta'limi dasturlarini o'zlashtirishga yanada samarali tayyorlash.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida o'qitilayotgan texnologik ta'lim va kasb-hunarga yo'naltirish jarayonini o'zaro uzviyligini ta'minlash;

- Texnologiya fan va uning "Kasb-hunar asoslari" bo'limi doirasida o'rgatildigan va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun istiqbolli deb tanlangan kasblar hamda mutaxassislarni tayyorlashning tayanch bosqichi sifatida xizmat qilishi;

- kadrlarni tayyorlash, mavjud kadrlar ta'minotini modernizatsiyalash va inson potensialidan samarali foydalanish;

- malaka talablarini, shuningdek, yangilangan ta'lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko'nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish va shu kabi boshqa vazifalar.

Texnologik ta'lim konsepsiyasi asosida ushbu belgilangan vazifalarni bajarish

orqali quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida:

– ta'lim jarayonida har xil kasbiy ko'nikmalarni egallash orqali mustaqil hayotda zarur bo'ladigan bo'lajak kasbni to'g'ri tanlash;

– mehnat qilish, yangi bilimlarni egallash, mukammallikka erishish uchun o'z ustida mustaqil ishlash va amaliy faoliyat yuritish;

– tez o'zgaradigan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchan, noaniq vaziyatlarda mustaqil ta'lim olishga tayyor o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash.

2. Professional ta'lim tizimida:

– texnologik ta'lim tizimining uzviyligi sifatida professional ta'lim tizimida kasbga oid mutaxassislik fanlarining ta'lim dasturlaridagi texnologiya elementlari bilan uyg'unlashtirilgan holda uzviy ravishda o'qitish imkoniyatini kengaytirish;

– Professional ta'lim tizimida ixtiyoriy kasb yoki mutaxassislik sirlarini mukammal o'rganish orqali o'quvchilarning turli kasb mahorati ko'rik-tanlovlarda, shuningdek, xalqaro darajada o'tkaziladigan "WORLD SKILLS" tanlovlarida ishtirok etish imkoniyatini oshirish;

– o'quvchi yoshlarning kasbga bo'lgan qiziqishlari bilan bir qatorda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, ratsionalizatorlik (ixtirochilik) qobiliyatlari shakllanib borishga yordam berish;

– yoshlarni axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullari orqali o'z kasb faoliyatida mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

3. Oliy ta'lim tizimida:

– tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, ular rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishini;

– insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishini.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son farmoni.

2. Texnologiya fani bo'yicha "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tizimlarida o'quv dasturlarining uzviyligini ta'minlash konsepsiya". Toshkent. 2021-y.

3. Kurbanov P. Z. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida o'quvchilarning kasb-hunar tanlash kompetentsiyalarini rivojlantirish. Mug'allim ham uzluksiz bilimlandiruv. Ilmiy- metodik jurnal, 2022-y. 2-son.68-72-betlar.

4. Avazbayev.A. I., Xudayberganova.M. E. Kasbiy kompetentlik umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonini yangi sifatga ko'tarish omili. Xalq ta'limi. Ilmiy-metodik jurnal. 6-son 2020 yil. 24-29 betlar.



O'QUVCHILAR ORASIDA G'AYRIIJTIMOIY XATTI-HARAKATLARNING OLDINI OLISHGA QARATILGAN PROFILAKTIK TADBIRLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Zaripov Fayziddin Muxitdinovich

Xalq ta'limi vazirligi Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari barchamizga yangi vazifalar yuklamoqda. Shunday vazifalardan biri – yosh avlodni vatanparvarlik, millatparvarlik va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, ularda hushyorlik va ogohlik tuyg'ularini mustahkamlash, ularni kattalarga hurmat, kichiklarga izzat bilan qaraydigan va milliy urf-odatlar va qadriyatlarni e'zozlaydigan barkamol shaxs qilib tarbiyalashdir.

Mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llash natijasida shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, jamiyat tomonidan belgilangan xulq normalariga rioya qilishi, tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, o'quvchilar orasida destruktiv g'oyalar profilaktikasi samaradorligi, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish, dezadaptatsiya holatlari va undagi shakl, metod, vositalarini qo'llash samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, uzluksiz ta'lim tizimining asosiy pog'onalaridan biri – umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari orasida destruktiv g'oyalar profilaktikasiga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar profilaktikasini takomillashtirish zarurati mavjud.

O'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam bosgan mamlakatimizda yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik ruhida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar sifatida voyaga yetkazish ustuvor vazifalardan biriga aylanib ulgurdi.

Hususan, bugungi kunda **“Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”** degan ezgu g'oya asosida xalq ta'limi tizimida jadal ravishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib, ularning erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasida mustahkam poydevor yaratildi. Bu

sohada ham milliy qonunchiligimiz xalqaro huquqning umume'tirof etgan tamoyillarini tan olgan holda 5 ta xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qilidi va o'ndan ortiq qonunlarni amalga joriy etdi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida", "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida", "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son, "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmonlari, "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son, "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 11-maydagi PQ-241-son qarorlari shuningdek, boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan dolzarb vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur islohotlar natijasida ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Xalq ta'limi tizimida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, bugungi kun talablariga to'liq javob bera oladigan har tomonlama yetuk shaxslar etib voyaga yetkazishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar rejasi belgilab olingan. Bu haqida gap ketganda, jahon hamjamiyati tomonidan **"Yangi O'zbekiston el aziz, inson aziz"** hamda yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilish borasidagi sa'y-harakatlari yuksak baholanganligining o'zi kifoya.

"Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida **10 130 ta** umumiy o'rta ta'lim maktablarida **6,2 mln. nafar** o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, ularga **502 ming** nafar o'qituvchi ta'lim-tarbiya berib kelmoqda", binobarin, yosh avlodni tarbiyalashda "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligini yanada mustahkamlash, bu borada ta'lim muassasalaridagi jamoat kengashlari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida "Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi to'g'risidagi nizom" takomillashtirilib, amaliyotga joriy etildi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maktablardagi o'quvchilar orasida destruktiv g'oyalar profilaktikasiga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar baholash

maqsadida quyidagi 7 ta mezon (indikator) ishlab chiqilib, joriy yilning yanvar-fevral oylari davomida barcha hududlarda baholash ishlari **tashkil etildi**:

1. O'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etilganligi;
2. Maktab jamoasidagi ijtimoiy-ma'naviy muhitning holati;
3. O'quvchilar tomonidan g'ayri-ijtimoiy xatti-harakatlarning sodir etilganligi;
4. Maktab faoliyatining shaffof va ochiq tashkil etilganligi;
5. O'quvchilarning tuman (shahar), viloyat va respublika tadbirlarida erishgan yutuqlari;
6. O'quvchilarning kundalik dars mashg'ulotlaridagi ishtiroki (davomat);
7. Taniqli shoir, yozuvchi, olim va tadbirkorlar ishtirokida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligi.

Mazkur indikatorlar asosida maktablar yanvar-fevral oylarida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari yuzasidan Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy **ishlar holati 7 ta mezon** asosida baholanib, jami **1 526** (15,2 foiz) ta maktablar **“qizil”**, **3652** (36,3 foiz) ta maktablar **“sariq”**, **881** (48,5 foiz) maktablar **“yashil”** maktablarga ajratildi. Ularga yordam berish maqsadida **“tez yordam”** ko'rsatish belgilandi. Xususan, ushbu maktablar sektor rahbarlariga, **harbiy ta'lim muassasalari hamda harbiy qism** ofitser va serjantlariga biriktirildi.

Ma'lumot uchun: “qizil” maktablar: Toshkent shahrida **69 ta (20,7 foiz)**, Qoraqalpog'iston Respublikasida **128 ta (17,8 foiz)**, Farg'onada **162 ta (17,1 foiz)**, Sirdaryoda **54 ta (17 foiz)**, Toshkentda **147 ta (16,7 foiz)**, Jizzaxda **86 ta (15,6 foiz)**, Samarqanda **195 ta (15,5 foiz)**, Surxondaryoda **169 ta (18,1foiz)**, Andijon **(102 ta)** va Qashqadaryoda **(162 ta) (13,5 foiz)**, Namanganda **93 ta (13,1 foiz)**, Buxoroda **68 ta (12,7 foiz)**, Xorazmda **63 ta (11,5 foiz)**, Navoiyda **28 ta (7,8 foiz)**.

Jumladan, huquqbuzarlikka moyil va ichki ishlar organlarining profilaktik nazoratida turgan o'quvchilar bilan ularning ota-onalari, Mahalla fuqarolar yig'ini raisi va hududdagi inspektor-psixolog ishtirokida **“Payshanba – jinoyatchilikning oldini olish va profilaktika kuni”** tadbirlari doirasida yakka tartibda suhbat tizimli ravishda tashkil etildi.

Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 23-maydagi 06-06/3-1550-sonli ko'rsatmasi bilan **28 047 nafar** mehnat faxriylari **“Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul”** kesimida **1 793 491 nafar** o'quvchilarga biriktirildi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, ular orasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olish, bu borada pedagogik profilaktika tizimini takomillashtirish, huquqiy ta'limni yaratish va uni yosh avlodga o'qitish hamda o'rganish bo'yicha optimal nazariy, ilmiy va uslubiy asoslarni ishlab chiqish ehtiyoji mavjud.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga

oshirilmoqda. Xususan, ta'lim muassasalarida bolalarni ularning sog'ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoyalash hamda giyohvandlikni oldini olishga qaratilgan tushuntiruv va profilaktik choralarni tashkil etish bo'yicha hamkorlikdagi kompleks chora-tadbirlar tashkil etilmoqda. Biroq, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni oldini olish profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi idora va muassasalar faoliyatiga huquqbuzarliklar nisbatan ko'p sodir etilayotgan joylar (hududlar) va sohalar ko'rsatilgan holda interaktiv xaritalarni joriy etishga keng imkoniyatlar yaratish, o'quvchilar huquqbuzarliklarini oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish muhim va zaruriy bo'lib, mamlakatimiz yoshlariga bu boradagi davlatimiz siyosatini, sog'lom turmush tarzini singdirish muammolarining yechimini davr taqozo etmoqda.

Ta'lim muassasasi qoshidagi jamoat kengashi jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila, ota-onalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan hamkorligini ta'lim muassasalari tomonidan tarbiyasi og'ir, huquqbuzarlik sodir etishga moyil o'quvchilar aniqlanganda, ular bilan vazirlikning 2018-yil 6-fevraldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibda shug'ullanishni tashkil etish va nazorat qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 33-sonli buyrug'i asosida ishlarni tizimli tashkil etish bilan birga o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash masalalari bilan ham shug'ullanmoqda.

Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida davlat va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarning o'zaro hamkorligida har haftaning dushanba kuni **"Ertalabki saflanish"**, juma kuni **"Ma'naviyat kuni"** va 1-soatda **"Sinf soat"**, har oyda muhim sanalarga bag'ishlangan **"Ma'naviyat haftaligi"**, pedagog xodimlar uchun har oyning oxirgi juma kuni **"Ma'naviyat soati"** tadbirlari tashkil etish yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi mashg'ulotlarga sababsiz kelmayotgan o'quvchilarni aniqlash, ularni o'qishga qaytarish maqsadida **har oyda "Davomat"**, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish, dars vaqtida o'qishga bormasdan bemaqsad yurgan, tungi vaqtlarda "Internet-kafe" va ko'ngil ochar maskanlarda vaqt o'tkazayotgan o'quvchilarni aniqlash va ularni o'qishga qaytarish maqsadida **har chorakda "O'quvchi"** reydlarini o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, **Unga ko'ra**, "Tig'" tadbirlari va "Davomat" profilaktik reydlariga jalb etilgan tegishli mutasaddi idora va tashkilotlar xodimlari Respublika bo'yicha – jami **16 990 nafar**, Jamoat kengashi a'zolari ishtirokida o'tkazilgan reydlar davomida **2 832 nafar** o'quvchilar tomonidan darslarni sababsiz qoldirilganligi aniqlandi,

shulardan, **439** nafari dars vaqtida internet-kafeda, **68 nafari** tungi internet klubda, **338 nafari** bozorlarda savdo-sotiq va aravakashlik, **39 nafari** daydichilik va tilamchilik, **15 nafari** esa jamoat transportida chiptachilik bilan shug'ullanib yurganligi aniqlanib, ta'limga jalb etildi, shu bilan birga **1542 nafar** o'quvchilar qarovsizligi aniqlanib, ular ta'lim olishi uchun maxsus maktab-internatlarga joylashtirildi.

O'rganishlar natijasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning aksariyati darsdan keyin yoki kechki paytda asosan notinch va qarovsiz oilalar farzandlari tomonidan sodir etilishi aniqlandi.

Joriy yilning birgina sentyabr-oktyabr oylarida shunday ota-onalarning **212 tasiga nisbatan** tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, hududiy voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyasiga yuborildi.

Misol uchun, joriy yilning 8-9 oktyabr kunlari o'tkazilgan "Tig'" tadbirlari va "Davomat" profilaktik reydi natijasida sababsiz dars mashg'ulotlariga qatnashmayotgan, nazoratsiz qolganligi aniqlangan **274 nafar** o'quvchi-yoshlarning oilaviy sharoitlari o'rganildi. O'rganish jarayonida voyaga yetmagan farzandlarini tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki kerakli darajada o'z vazifalarini bajaraolmagan **127 nafar ota-onalar** aniqlanib, ular hududiy hokimliklar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalarining yig'ilishlariga jalb etilib mazkur holatlar muhokama qilindi.

"O'quvchilar huquqbuzarliklari va jinoyatchiligi profilaktikasini takomillashtirish maqsadida o'tkazilgan tahlillardan ularning bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur, xayol va xotira)ni o'rganish tashxislashda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi hamda umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil voyaga yetmaganlarning individual jamoatchilik xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy va tabiiy (tug'ma) xulq-atvori, xatti-harakatlarini tushuntirib va uni oldindan aytib berishda uning biosotsidal tabiatini hisobga olish zarurligi tasdiqlandi".

"Pedagogik e'tiborsizlik" natijasida vujudga kelgan nuqsonlarni bartaraf qilish quyidagi korreksion metodlar orqali amalga oshirildi:

✓ umumiy metodlar: oilada, o'quv muassasasida, mahallada mikromuhitni vujudga keltirish; voyaga yetmagan jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchidagi ruhiy-hissiy zo'riqishning oldini olish: relaksatsiya, rehabilitatsiya kabi metodlarni qo'llash;

✓ maxsus metodlar: o'quvchilar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olishda asosiy faoliyat yo'nalishlaridagi (o'qish, sport bilan shug'ullanish, mustaqil shug'ullanish, mehnat, kitob mutolaasi) muvaffaqiyatini ta'minlash;

- ijobiy fazilatlariga tayangan holda xulq-atvorini boshqarish;
- irodani safarbar etish;
- hissiy olamini kengaytirish orqali intellektual jihatdan o‘rishini ta‘minlash;
- intellektual jihatdan o‘rishi orqali xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga erishish;
- axloqiy fazilatlarni kamol toptirishga qaratilgan kompleks topshiriqlardan foydalanish.

O‘quvchilar orasida g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olishda maktabda o‘qitiladigan “O‘zbek adabiyoti”, “O‘zbekiston tarixi”, ijtimoiy – gumanitar fanlar: “Tarbiya”, “Davlat huquqi asoslari”, “Konstitutsiyaviy huquq” kabi fanlarning mohiyat-mazmuni o‘quvchilarning huquqiy saviyasining o‘rishiga, dunyoqarashini shakllantirishga, axloqiy tushunchalarni to‘g‘ri baholashga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti muammolariga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatishi aniq bo‘lganligi bois, didaktik jarayonda o‘quvchilarning ta‘lim va bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirishga, mustaqil dunyoqarash, ish yuritish, milliy iftixor va umuminsoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishga e‘tibor qaratilib, tajribaviy darslarda maxsus metodika asosida ta‘lim jarayonini tashkil etishga erishildi.

Natijalar.

Fikrimizcha, ota-onalar bilan farzandlar o‘rtasidagi salbiy munosabatlar, maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning kelib chiqishiga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda:

- ota yoki onaning (ayrim holatlarda ikkisinin ham) xorijga mehnat muhojirligiga chiqib ketishi orqali farzandlarning nazoratsiz qolishi;
- xorijga chiqib ketgan ota-onalarning o‘z farzandlarini qarindoshlari (vasiylikka) qo‘liga qoldirib ketishi natijasida farzandlarning nazoratsiz qolishi;
- oilaviy janjal va ajralishlar orqali farzandning tarbiyasiga e‘tiborsizlik qilish;
- ota-onalarning doimiy daromad manbai yo‘qligi tufayli farzandlarning ham pul topishga majburligi;
- ota-onalarning ichkilikbozlik va narkotik moddalarni iste‘mol qilishga berilishi natijasida farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanmasliklari;
- maktab o‘quvchilarining ko‘cha bezorilari ta‘siri doirasiga tushib qolishi;

umumta‘lim maktablarida mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari bilan, hususan mahalladagi xotin-qizlar qo‘mitalari bilan hamkorligi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi, balog‘atga yetmagan va balog‘at yoshidagi qizlar orasida targ‘ibot-tashviqot ishlari samarali olib borilmaganligi.

O‘quvchilar huquqbuzarliklari va jinoyatchiligining paydo bo‘lishining asosiy omillari quyidagicha guruhlanadi:

- *ijtimoiy-pedagogik omillar*, ya'ni bolalik davridan boshlab maktab, oila va jamoatchilik tarbiyasidagi nuqsonlar;
- *ijtimoiy- iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy omillar*, ya'ni jamiyatdagi ma'naviy kadriyatlarning qadrsizlanishi, insonlarning ma'naviy qashshoqlanishi yoki muyyan jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning unda ro'y berayotgan deviant harakatlarga befarqligi kabi masalalar o'rganilgan.

Amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlarning mohiyati va ahamiyati, qonuniylik ahvoli, sodir etilayotgan huquqbuzarliklar hamda ularni ko'rib chiqish jarayoni haqidagi tezkor ma'lumotlarni televideniye orqali keng jamoatchilikka yetkazib berish; odam savdosiga qarshi kurashish masalasi bo'yicha uzoq aholi punktlarida yashayotgan fuqarolar bilan ishlashga alohida e'tibor berish holatlari sust ravishda tashkil qilinayotganligini ta'kidlash joiz. Shu sababli, xulqida salbiy nuqsonlar uchraydigan yoshlarning kelib chiqishi, ijtimoiy, pedagogik, psixologik sabablari o'rganilgan va muallif tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchisining shaxsiy fazilatlarida tarkib topishi mumkin bo'lgan nuqsonlar: axloqiy hislarning yetishmasligi, o'qituvchi, guruh jamoasi, oila a'zolari bilan noadekvat muloqot, ishyoqmaslik, bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik va boshqalar ham salbiy qiliqlarni vujudga keltiradi.

Tadqiqot doirasidagi adabiyotlar tahlili natijasida shaxsning salbiy xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi sabablar quyidagicha turkumlandi:

1. *Shaxsning ruhiy kamolotidagi nuqsonlar*: aqlning o'jizligi; irodaning zaifligi; zarur ehtiyoj va qiziqishlarning shakllanmaganligi; o'spirindagi intilish bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi; shaxsda hissiyotning sust rivojlanganligi va boshqalar;

2. *Shaxsning tarbiyasidagi nuqsonlar*: axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar; o'quvchilarning o'qituvchi, guruh jamoasi va oila a'zolari bilan muloqotidagi zaifliklar; mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar; axloqiy tarbiyasidagi kamchiliklar; bo'sh vaqtni taqsimlashdagi xatolar; madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning kamchiliklari; salbiy xatti-harakat yurituvchi guruhlar ta'siriga tushib qolish;

3. *Oldingi ta'lim bosqichlarida yo'l qo'yilgan kamchiliklar*: ta'lim jarayonida bilimlar va xatti-harakatlarni adolatsiz baholanishi; bilimlar, maxsus ko'nikmalar va malakalarni egallashdagi uzilishlar; ta'lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarining yetishmasligi;

4. *Ta'lim muassasasi tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar* (o'qituvchining o'quvchiga nisbatan xayrixoh emasligi, empatiya hislarining mavjud emasligi, yoshlarning yakkalanishi, yoshlar jamoasidagi nuqsonlar, pedagogik qarovsizlik va h.k.) Respublikamizda umumiy aholining taxminan 40 foizini tashkil etayotgan 18 yoshgacha bo'lgan 10 million 360 ming nafar yoshlarning o'quv faoliyati, darsdan

keyingi bo'sh vaqtini qanday tashkil qilinganligi ota-onalar, pedagog-psixologlar va keng jamoatchilik nazoratida bo'lishi lozim. Aynan oxirgi 10 yil orasidagi davr tahlili, o'quvchilar tomonidan jinoyat sodir etish holatlarining aksariyati darslardan keyingi yoki kechki paytlarga to'g'ri kelayotganini va ular asosan notinch oilalar farzandlari tomonidan sodir etilayotganligi aniqlandi.

Fikrimizcha, o'quvchi shaxsining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash; jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash; huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish va boshqalar tadqiq qilinayotgan muammo doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilar huquqbuzarliklari va jinoyatchiligining oldini olishda oilaning rolini kuchaytirish va shu maqsadda oila institutining ta'lim hamda tarbiya muassasalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali hamkorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun respublikamizda jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil yoki uni sodir etgan voyaga yetmaganlar (delikvent xulqli), og'ir tarbiyali, muammoli o'smir-yoshli (adektiv xulqli)lar bilan ishlash, ularni tarbiyalash va qayta tarbiyalash tizimining samarali faoliyatini tashkil qilish lozim.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan profilaktik tadbirlar tizimidan quyidagi holatlarda foydalanish samarali natija beradi:

- ❖ o'quvchilarning oilaviy sharoitini o'rganish va ota-onasiga pedagogik-psixologik yordam ko'rsatish;
- ❖ o'quvchining qiziqishlarini e'tiborga olgan holda to'garaklarga jalb qilish;
- ❖ o'quvchini ta'lim muassasasi va sinf miqyosida o'tkaziladigan turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga muntazam ravishda jalb qilish; o'quvchining bo'sh o'zlashtirayotgan fanlar bo'yicha faoliyatini muntazam tahlil qilib borish, fan o'qituvchisiga darslarda ushbu o'quvchini faollashtirish yuzasidan kerakli tavsiyalar berish;
- ❖ o'quvchilarning darslarga to'liq o'quv qurollari bilan ishtirok etishi va davomatini, shuningdek, odob-axloq qoidalariga rioya qilishini kunlik nazorat qilib borish;
- ❖ o'quvchilar maktabga kelmay qolgan holatda zudlik bilan shu kunning o'zida (*soat 10:00 gacha*) ularning ota-onalari bilan telefon orqali bog'lanib, vaziyatga oydinlik kiritish, ota-onasi bilan bog'lanish imkoni bo'lmaganda, ta'lim muassasasi rahbariyatini ogohlantirish.

Tadqiqot doirasida o'quvchilar huquqbuzarliklari va jinoyatchiligi profilaktikasini takomillashtirishga mo'ljallab, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiyaviy soatlarning o'tkazilish holatlari o'rganildi.

O'quv muassasalarida o'quvchilar huquqbuzarliklari va jinoyatchiligi profilaktikasi bo'yicha tashkil qilinayotgan tarbiyaviy soatlarning samaradorligini oshirish zarurati mavjud. Korreksiya jarayonida voyaga yetmaganlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulq-atvor malaka va odatlari hosil qilish uchun o'quvchilarning ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib borish metodikasi ishlab chiqildi.

Xulosalar:

- o'quvchilar huquqbuzarliklari va jinoyatchiligining profilaktik tadbirlari muhim ahamiyatga ega;
- o'quvchilar huquqbuzarliklari va jinoyatchiligining profilaktikasini oqilona tashkil etishda ta'lim muassasalari o'qituvchilari, ota-onalar, tegishli idoralar, mahalla faollari, ijtimoiy institutlar va keng jamoatchilik hamkorlikdagi faoliyati talab etiladi;
- voyaga yetmaganlarning qarovsizligi va ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish, yoshlarni turli yot g'oyalar tahdididan himoya qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan yakka tartibdagi mashg'ulotlarga muntazam qatnashishini ta'minlash bo'yicha avvalo, sinf rahbarlari, ota-onalar, mahalla faollari, uchastka nozirlari bilan profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida" 2018-yil 26-dekabr, 16-mh-son buyrug'i
2. Xalq ta'limi vazirligining "Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2019-yil 7-fevraldagi 46-sonli buyrug'i
3. Xalq ta'limi vazirligining "Xalq ta'limi muassasalarida "Ma'naviyat kuni"ni tashkil etish to'g'risida" 2012-yil 6-dekabrda 350-son buyrug'i
4. Abdullaeva Sh. A. Pedagogik diagnostika va korreksiya. –Toshkent.: Fan va axborot texnologiyalari, 2019. – 280-b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 5-aprel kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 27-sonli bayoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 11-maydagi PQ-241-sonli qarori.
6. <https://uzedu.uz/uz/>

THE DUAL SYSTEM OF VOCATIONAL EDUCATIONAL AND TRAINING IN GERMANY

Mirzarakhmanova Shakhnoza Mirzaakhmadovna

The teacher of the CSPU

The faculty of pedagogy

Dual systems of vocational education and training (VET) are specific training systems that aim at systematically combining the advantages of training in a company and education in a vocational school. Dual systems in this form do exist to a considerable extent in Germany, Austria, Luxemburg, Switzerland, Denmark, and parts of the Netherlands. German-speaking regions of France and Italy also (often) fit into this framework. This article focuses on the dual system of VET in Germany (hereafter only referred to as “dual system”). Germany’s dual system is expected to strongly support a successful transition of young people from school to work and to guarantee a skilled workforce as a prerequisite for a successful economy. In addition it plays a role in educating young people. Consequently, the central goal of VET in the dual system is to help students attain and develop competence in action so that they can meet current and future professional challenges and participate in defining their vocational lives. In order to meet this challenge and in order to further maintain its effectiveness and efficacy, especially since the 1980s, many adjustment measures have been implemented. Reasons for the adjustment measures can be seen – besides others – in the demographic development, shift from industrial to service economy, or changes of workplaces and demands for the workforce. The demographic development has led to a drop in the demand for training places and thus to problems of recruiting a skilled workforce.

The shift from industrial to service economy has required an increase in apprenticeships in the service sector and more service orientation of apprenticeships in other sectors of the economy. Workplaces have become more complex and require more intellectual skills such as systems thinking, and they require continuous learning. The measures taken refer to different levels of the dual system, namely the institutions involved (companies in the private sector, vocational schools, employers and employees, the Federal Government, the German states etc.), the syllabi for the learning venues (schools and workplaces), and the working and/or learning processes at the different venues. The levels cannot be strictly separated.

Accordingly, if a decision is taken on one level, the other levels are usually affected too. This article will explain the dual system as well as highlight and comment on the different endeavors for its modernizations. As a result, we will point out what can be learnt about education for professions. The concept of

profession here is understood in a broad sense, including professional practice and approaches to learning in and for professions as well as all kinds of initial and further professional education, whether it takes place in school settings or at the workplace or at both venues. Thus, we pick out aspects from education in the dual system which might be regarded in professional education in general. We explicitly do not aim at discussing a transfer of the dual system other systems of professional education in detail but only comment briefly on it. Through our approach, we aim at contributing to solutions for the problem of effectively developing professional (occupational) capacities that are important for fulfilling both personal and societal needs. The article starts with a description of the historical development of the dual system and its current structure in Germany. After that, an overview of current challenges and reform approaches will be taken into account. Consequently, we select relevant topics to be looked at in more detail. The selected topics address the different levels of the dual system and are – in our opinion – relevant both from a national and an international perspective. On the level of institutions, we discuss the parity of esteem between general and vocational education on the one hand and between apprenticeship in the dual system and full-time school-based vocational education on the other hand. Furthermore, on that level, costs and benefits of vocational education will be discussed. On the level of syllabi we examine/consider initiatives that have been taken to more closely relate teaching/educational goals and contents to practice and workplace reality as well as to regional or branch-specific needs. For that purpose, new apprenticeships have been developed and existing ones have been re-structured according to modules. On the level of teaching-learning processes we focus on measures aiming at preparing apprentices to effectively cope with modern work structures and organizations that have been implemented. For that purpose, the relationship between learning and working is reconsidered and combinations of learning and working, both at the workplace and in school, will be addressed.

Though it would be possible and worthwhile to argue solely from a national perspective, we also will discuss the topics from an international perspective, which allows us to consider the German approaches from other angles and integrate it in a broader context. As a summary, we will conclude what can be learned about education for other professions by taking into account the different levels and by regarding an international perspective.

References:

1. Achtenhagen, F. (1997). Berufliche Ausbildung. In F. E. Weinert (Ed.), *Enzyklopädie der Psychologie, Themenbereich D Praxisgebiete, Serie I Pädagogische Psychologie (Psychologie des Unterrichts und der Schule, Vol. 3, pp. 603–657)*. Göttingen/Bern/Toronto/Seattle: Hogrefe.

2. Achtenhagen, F., Nijhof, W., & Raffe, D. (1995). Feasibility study: Research scope for vocational education in the framework of COST social sciences. COST Technical Committee, Social Sciences(Vol. 3). Brussels/Luxembourg: European Commission, & Directorate-General Science, Research and Development.
3. Adler, T., Dybowski, G., & Schmidt, H. (1993). Kann sich das duale System behaupten? –Argumente für eine zukunftsorientierte Berufsausbildung. Berufsbildung in Wissenschaft und Praxis, 22(1), 3–10.
4. Ausbilder-Eignungsverordnung (AEVO). (2009). Ausbilder-Eignungsverordnung vom 21. Januar 2009. Available from www.bibb.de/bwp/aevo
5. Autorengruppe Bildungsberichterstattung. (2012). Bildung in Deutschland 2012. Bielefeld: W. Bertelsmann Verlag.
6. Таълимнинг инновацион кластерида дуал ташкил этиш асослари Шахноза Мирзаахмадовна Мирзарахмонова Academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723



ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ВЫЯВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Д.А.Маджидова

доктор философии по педагогическим наукам (PhD), старший научный сотрудник, руководитель отдела Узбекского научно-исследовательского института педагогических наук,

Н.С.Исламова

учитель начальных классов общеобразовательной школы №23
Янгиюльского района Ташкентской области

В настоящее время важной задачей системы непрерывного образования является создание социально-педагогических условий, обеспечивающих комфортное проживание и творческое развитие каждого ребенка за время его обучения в данном учреждении. Психолого-педагогическое сопровождение личности учащегося предполагает профессиональную деятельность педагогов, а также помощь ребенку в его развитии, обучении, социализации. В том числе, важно повышение педагогической компетентности педагогов, родителей, и психологическая поддержка учащегося в процессе обучения.

В учреждениях образования выделяются следующие направления социально-педагогической поддержки всестороннего развития детей: их

социализация в общество, формирование уверенности у них в способности полноценно жить в обществе; формирование адекватной “Я-концепции”; выработка адекватной самооценки и психологическая поддержка учеников в преодолении психологических барьеров в учебной деятельности.

В процессе психолого-педагогической поддержки гармоничного развития личности ребенка необходимо преодоление разрыва между физическим и умственным трудом. Как отмечает, С.Л. Рубинштейн об общем развитии: разделение труда – разрыв умственного и физического труда - и крайняя его специализация привели к тому, что подавляющее большинство людей были лишены возможности всестороннего развития; человек стал приспосабливаться исключительно к выполнению одной частной функции и превращаться в орган или орудие этой частной функции или узкоспециализированной работы [1].

Всестороннее развитие личности предполагает всестороннее развитие его интересов и способностей. Л.С. Выготский об общем развитии утверждает что, труд физический и труд умственный потому и выделились из общего единого процесса труда, что благодаря социальной необходимости они были **поделены между различными общественными группами**. На долю одних досталась половинная доля – внутренняя предварительная организация опыта, на долю других – физическое выполнение [2].

Психологически полный процесс труда предполагает непременно противоположное, т.е. объединение в каждом отдельном акте обоих элементов – предварительного и исполнительного.

Необходимо отметить, что развитие способностей ребенка непосредственно связана с трудовой деятельностью. Способность может возникнуть только в связи с конкретной деятельностью. ***Нет деятельности – нет способности***. Так как, способности:

- создаются в деятельности;
- проявляются в деятельности ;
- развиваются через деятельность.

По определению В.Д. Шадрикова, способности – есть ***свойства функциональных систем***, реализующих отдельные психические функции, имеющие индивидуальную меру выраженности и проявляющиеся в успешности и качественном своеобразии освоения и реализации деятельности [3]. Так, развитие способностей в процессе деятельности осуществляется следующим образом:

1. Развитие способностей у детей совершается в процессе **воспитания и обучения**.

2. Источник развития способностей – освоение продуктов **материальной и духовной культуры, техники, науки, искусства.**

3. Исходной предпосылкой для развития способностей служат **врожденные задатки**, с которыми ребенок появляется на свет.

4. Задатки превращаются в многообразные и все более совершенные **способности.**

Способности не сводятся к опыту, знаниям, умениям и навыкам, так как они подразумевают не имеющиеся знания, а то как человек будет усваивать новые знания.

Таким образом, способности – это свойства или качества, делающие человека пригодным к *успешному* выполнению какого-либо из видов *общественно полезной деятельности*, сложившегося в ходе *общественно-исторического развития.*

Необходимо отметить что, способности проявляются только через развитие человека. Б.М. Теплов утверждает, что «врожденными могут быть лишь **анатомио-физиологические особенности**, т.е. задатки, которые лежат в основе развития способностей, сами же способности всегда являются результатом развития. Развитие человека – это **развитие его способностей.** Развитие способностей – **качественное развитие**, в отличие от накопления знаний и умений. Как отмечает Н.С.Лейтес “у детей (в отличие от взрослых) склонность к труду может выступать как обусловленная потребность самого процесса созревания, становления психики”.

Развитие способности совершается по спирали: реализация возможности, которая представляет способность одного уровня, открывает новые возможности для развития способностей более высокого уровня.

Система социальной и психолого-педагогической поддержки учащихся с особыми потребностями представляет собой интеграцию усилий классных руководителей, педагогов, психолога, всей администрации учебного заведения, для обеспечения комфортных условий творческого развития детей.

Использованная литература:

1. Рубинштейн С.Л. - Проблема способностей и вопросы психологической теории/Психология индивидуальных различий / под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, В.Я. Романова. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.:АСТ: Астрель, 2008.

2. Дубровина И.В. Способности и интересы / Школьная психологическая служба.–М.,1991.

http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Pedagog/hrestomatia/index.php

3. Шадриков В.Д. Психология деятельности и способности человека: Учебное пособие, 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательская корпорация “Логос”, 1996.

4. Теплов Б.М. Способности и одаренность/Психология индивидуальных различий / под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, В.Я. Романова. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: АСТ: Астрель, 2008.

5. Лейтес Н.С. Возрастная одаренность и индивидуальные различия: Избранные труды/ 3-е изд., испр. И доп. – М., 2008. 480 с.



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA SMART TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Sh. Madrahimov, M. Madrahimova, S. Turdaliyev

Qo‘qon davlat pedagogika institute, “Fakultetlararo matematika – informatika”
kafedrası o‘qituvchilari

Axborot jamiyati, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining yuqori darajada rivojlanishi va ulardan fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari va davlat hokimiyati organlari tomonidan jadal foydalanish bilan tavsiflanadi. Axborot jamiyatining zamonaviy tushunchalari orasida eng keng tarqalganlari quyidagilardir [2, p. 107]: axborot jamiyati axborot iqtisodiyoti sifatida; axborot jamiyati postindustrial jamiyat sifatida, axborot jamiyati bilimlar jamiyati sifatida, axborot jamiyati ommaviy ishlab chiqarish jamiyatining oxiri sifatida. Shu bilan birga, XXI asr boshlarida axborot jamiyati har qanday shaxsning har qanday axborotdan erkin foydalanishini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yuqori darajada rivojlanganligini, jamiyatning axborot infratuzilmasining rivojlanishini ifodalaydi.

Har bir shaxsga ta’lim, tarbiya, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallash imkoniyatini berish axborot jamiyatini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biridir. Bu vazifani hal etish milliy pedagogik ta’lim uchun ham dolzarbdir. Shu munosabat bilan Smart texnologiyalar pedagogik ta’limni rivojlantirishning yangi paradigmasining tarkibiy qismlari sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zero, jamiyatdagi transformatsion transformatsiyalar axborot jamiyatining yangi rivojlanish bosqichiga – an’anaviy ta’lim modelidan elektron ta’limga, kelajakda esa Smart-ta’limga o‘tishni vizual tarzda aks ettiruvchi Smart-jamiyatga o‘tishiga olib keladi. [3, b. 27]. So‘nggi paytlarda Smart

rivojlanishning global tendensiyalari keng tarqaldi: Smart-life, Smart-countries, Smart-shaharlar, Smart-ekologiya, Smart-transport, Smart-healthcare, Smart-energy va boshqalar.

Elektron ommaviy axborot vositalaridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ilm-fan va ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichida Smart Education umumiy standartlar asosida Internetda qo'shma ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari va pedagogik xodimlarning birlashmasi, shartnomalar va texnologiyalar. Bu, birinchi navbatda, tarkibni birgalikda yaratish va ishlatish, birgalikda o'rganish haqida. Ushbu ta'lim modelining asosiy maqsadi ta'lim jarayonini elektron muhitga o'tkazish, talabning zamonaviy axborot jamiyatida talab qilinadigan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish orqali raqobatbardosh ta'limning eng yuqori darajasini ta'minlovchi muhitni yaratishdan iborat.

Ma'lumki, Smart texnologiyalar multimedia ta'lim materiallarini sinflarda va sinfdan tashqarida yaratish, tahrirlash va tarqatish imkonini beradi. Smart texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonining mohiyati shundan iboratki, ta'lim jarayoni bilimlarni egallash bilan bog'liq ta'lim maqsadlari va vazifalarini belgilash va hal qilish imkonini beradigan vositalar, resurslar va aloqalar to'plami sifatida elektron ta'lim muhitiga o'tkazish orqali yanada samarali bo'ladi. Talabalarning qobiliyat va ko'nikmalarini shakllantirish. Aslida, bu yondashuv har kimga bilim olish imkoniyatini ta'minlash, shuningdek, o'rganish chegaralarini kengaytirish imkonini beradi (o'qiyotganlarning miqdoriy tarkibini oshirish; cheklovsiz o'rganish mavjudligini ifodalovchi vaqtinchalik va fazoviy ko'rsatkichlarni kengaytirish).

Shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida Smart texnologiyalarni joriy etish samaradorligini quyidagilar bilan ta'minlash mumkin: [5].

- o'quv vazifalarini hal qilish maqsadida joriy ma'lumotlardan foydalangan holda o'quv dasturlarini ishlab chiqish, bu mavjud o'quv materiallarini majburiy modernizatsiya qilishni nazarda tutadi, ulardan foydalanish amaliy faoliyatga yo'naltirilishi kerak;
- individuallashtirish, o'quvchiga yo'naltirilganlik, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim traektoriyalarining moslashuvchanligini ta'minlash;
- talabalarning mustaqil bilish, tadqiqot, loyiha faoliyatini tashkil etish;
- ta'lim dasturlari va kurslarini o'zlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratish orqali ta'lim oluvchilarning *ta'lim* faoliyatini diversifikatsiya qilish ;
- ta'lim jarayonini taqsimlangan o'quv muhitida tashkil etish, bu uning uzluksizligini va ta'limning kasbiy muhitga kiritilishini ta'minlaydi;

- talabalarning tegishli kasbiy tajriba almashishiga yordam beradigan professional hamjamiyat bilan o‘zaro aloqasi.

Bizning fikrimizcha, Smart texnologiyalardan foydalanish, birinchi navbatda, rasmiy ta’lim muassasalari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, bu esa ta’lim muassasalarini xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashuvini nazarda tutadi; talabalarning turli toifalarini, shu jumladan chet ellik talabalarni qamrab olish; innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Pedagogik ta’limda Smart texnologiyalarni joriy etish butun dunyo bo‘ylab bepul mavjud bo‘lgan kontent yordamida interfaol ta’lim muhitida moslashuvchan ta’lim orqali bilimlarni keng foydalanish imkonini beradi.

Smart ta’limni pedagogik ta’limning dolzarb muammolarini hal etishga ko‘maklashish kontekstida ko‘rib chiqmaslik kerakligini ta’kidlashni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Smart-texnologiyalarning joriy etilishi ta’lim sifatini ta’minlash, o‘quvchilarni rag‘batlantirish, ularni ijodiy o‘quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish uchun mas’ul bo‘lishi lozim bo‘lgan o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarning oshishiga olib keladi. Shunday qilib, biz bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlaydigan o‘qituvchilarga qo‘yiladigan dolzarb talablar, shu jumladan yordam ko‘nikmalari, o‘quv muhitida yangi bilimlarni yaratish uchun o‘quv jarayoni ishtirokchilari guruhlarini boshqarish (biz talabalar, fanlar jamoasi haqida gapiramiz) haqida. Ekspertlar, o‘qituvchilar jamoasi va boshqalar).

Shunday qilib, zamonaviy milliy pedagogik ta’lim tizimiga Smart texnologiyalarni joriy etish zarurligiga shubha yo‘q. Buning uchun quyidagi shartlarning amalga oshirilishini ta’minlash kerak: norasmiy va norasmiy ta’lim zarurligini tan olish; axborotni to‘plash va qayta ishlash uchun neyroagentlardan foydalanish, malakaga yo‘naltirish, o‘quv jarayonini uzluksiz boshqarishni ta’minlash uchun aqlli qurilmalarni joriy etish, uning barcha tarkibiy qismlarining barqaror ishlashini ta’minlash uchun ta’lim muhitining o‘z-o‘zini tashxislash vositalarini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anishchenko O. V. Axborot jamiyati sharoitida kasbiy faoliyat uchun o‘qituvchilarni tayyorlashda aqlli ta’lim / O. V. Anishchenko, V. O. Anishchenko // Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida umumiy o‘rta ta’limni innovatsion rivojlantirishni boshqarish: to‘plam. xalqaro ishtirokdagi Butun Ukraina ilmiy-amaliy konferentsiyasi ma’ruza tezislari. – Chernivtsi: Bizning kitoblarimiz, 2014. 47-49-betlar.

2. Bechmann G. Zamonaviy jamiyat: xavf jamiyati, axborot jamiyati, bilimlar jamiyati / Gotthard Bechmann; trans. nemis bilan

A. Yu. Antonovskiy, G. V. Horoxovoy, D. V. Efremenko va boshqalar - Moskva: Logos, 2010. – 1248 p.

4. S.Volosovych. Aqlli texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari / S. Volosovych // Aqlli ta‘lim: resurslar va istiqbollar: Xalqaro materiallar. fan va usul konf. (Kiyev, 2014 yil 16-17 oktyabr): ma‘ruza tezislari. - K.: Kiev. milliy savdo va iqtisodiyot universitet 2014. – B. 27-29. [Elektron resurs]

5. Axborot-kommunikatsiya markazi [Elektron resurs]
http://ito.vspu.net/zentr/Opus_OPNDU.html

6. Tixomirov V.P. Aqlli ta‘lim axborot jamiyati rivojlanishining asosiy paradigmasi sifatida / V.P. Tixomirov, N.V. Dniprovskaya //



AXBORIY MEDIAMADANIYAT VA UNI RIVOJLANTIRISH

Yakubjanova Maftunaxon Islomjon Qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, “Matematika” kafedrası o‘qituvchisi

Zamonaviy dunyoni ommaviy kommunikasiya dunyosi deb atash mumkin, chunki estetik tasavvurlarning shakllanishi, dunyoni bilish, axloqiy, ma‘naviy me‘yorlarni o‘zlashtirish ko‘pincha shaxsiy tajribamizda emas, balki ommaviy axborot vositalari materiallarida sodir bo‘ladi. Bu muammoni hal etish variantlaridan biri talabalarning mediamadaniyatini maqsadli shakllantirishdan iboratdir.

Turli tadqiqotlarni o‘rganib chiqib, biz mediamadaniyatining quyidagi: relaksasion, badiiy-estetik, integrasion, tarbiyaviy, axboriy, kommunikatsion, mafkuraviy funksiyalarini aniqladik.

Mediamadaniyatning barcha funksiyalari o‘zaro bog‘liq va bir xil darajada muhimdir. Mediamadaniyatning kommunikatsion va axborot funksiyalari asosiy rol o‘ynaydi, chunki kommunikasiya usullari va shakllarini rivojlantirish insoniyat madaniy faoliyatining asosiy jihatlaridan biridir. Kommunikasiya rivojlanishi bilan odamlar turli xil ma‘lumotlarni (ibtidoiy signal barabanlaridan zamonaviy kompyuterlar, internet, sun‘iy yo‘ldosh televideniesi, uyali aloqa) uzatish va almashishda keng imkoniyatlarga ega bo‘ldilar.

Mediamadaniyatning axboriy funksiyasini to‘liqroq taqdim etish uchun qisqacha tavsif berdik.

Jamiyatda mediamadaniyati tufayli turli xil ma‘lumotlarni to‘plash va ko‘paytirish imkonli bo‘ladi, bu esa avvalgi tajribani saqlash va to‘plashga, shuning

uchun jamiyatning genetik xotirasini saqlab qolishga yordam beradi, chunki madaniyat – hozirgacha allaqachon yaratilgan barcha narsalarning xotirasidir. Qabul qilinadigan ma'lumotlarning zamonaviy, doimiy o'zgaruvchan, tez o'sib boradigan oqimi nafaqat uni inson tomonidan idrok etishni, balki tanqidiy tushunishni va uni to'g'ri hamda munosib qo'llashni ham nazarda tutadi. Faoliyatning keng axborot maydoni kerak: bir xil muammo bo'yicha turli xil qarashlar, talabani mustaqil fikrlashga, shaxsiy asosli pozitsiyani izlashga undaydigan turli xil ma'lumotlar manbalari. Shunday qilib, bu funksiyaning o'ziga xosligi shundaki, turli xil ma'lumotlarning tashuvchisi deb atash mumkin bo'lgan mediamadaniyat axborot-kommunikativ vositalarning yig'indisi, shuningdek, axborot jarayonining alohida turidir.

Mediamadaniyatning funksiyalarini o'rganar ekanmiz, ommaviy kommunakatsiya vositalari ko'pincha odamlar, ayniqsa, bolalar, o'smirlar va yoshlar ongi va ruhiyatiga juda agressiv ta'sir ko'rsatishiga yana bir bor amin bo'ldik. Buni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, shuning uchun ma'lumot iste'molchilarining jurnallar, gazetalar, radio, kino, televideniye va internet tizimining o'ziga xos manbalari bilan munosabatlarini malakali va tizimli ravishda qurish zarurati tug'iladi. Bu muammoning yechimini shundan ko'ramizki, har xil ma'lumotlarni "iste'mol qilish"ga juda yoshlikdan boshlab va OTMni tugatgunga qadar davom ettirib, puxta o'ylab, sabrli, tizimli ravishda o'rgatish zarur. Ya'ni, ularda mediamadaniyatni rivojlantirish zarur.

Media vositalar – bu foydalanuvchilarning o'zlari tomonidan shakllantiriladigan Internet kommunikasiyasi vositasi, xabar mazmunidir. Zamonaviy talabalar orasida eng keng tarqalgan media vositalar instrumentlari – bu ijtimoiy tarmoqlar, blog xizmatlari (internet-kundaliklari), videolar, slaydlar, taqdimotlar, hujjatlar joylashtirish uchun platformalardir [5].

Media vositalar faol foydalanuvchilar uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi: dialog (media va ijtimoiy tarmoqlarda sub'ektlarning kommunikasiyasi); ma'lumotni bir zumda tarqatish, xabarlarga javob berish imkoniyati; foydalanish imkoniyati (foydalanuvchilar xabarlarni hech kimning ishtirokisiz o'zlari yaratadilar); "do'stlar doirasini" ya'ni manfaatdor auditoriya yoki kompaniyalarni to'plash va ularni darhol xabardor qilish imkoniyati; ma'lumotni tarqatish uchun ochiqlik (ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar mazmunini yopish, bloklash, cheklash, nazorat qilish qiyin). Talabalar orasida eng mashhur media vositalar instrumenti deb quyidagilarni aytish mumkin: Facebook, Twitter, YouTube, Google hujjatlar (internetda hujjatlarni almashish va birgalikda ishlatish, ularni online tahrirlash imkonini beradi), Issuu (hujjatlarni pdf, doc va boshqa formatlarda online nashr qilish xizmati), Slide Share (Internet tarmog'ida slaydli taqdimotlarini joylashtirish uchun yaratilgan xizmat).

Mediadan yoshlar uchun ham, yetuk yoshdagi odamlar uchun ham foydalanish ko‘pincha yaqqol namoyon bo‘ladigan ijtimoiy xususiyatga ega, chunki ijtimoiy tarmoqlar orqali ko‘p odamlar o‘zlarining yoshlikdagi do‘stlari, sinfdoshlari, qarindoshlari, oila a‘zolari bilan aloqada bo‘lishadi, shuningdek, yangi do‘stlar va ko‘pincha umr yuldoshlarini topishadi. Internetdan foydalanish orqali o‘zingizda turli xil ijtimoiy rollarni sinab ko‘rishingiz mumkin. Bugungi kunda deyarli barcha o‘smirlarda Internetga ulanadigan planshet yoki mobil telefon bor. Ijtimoiy tarmoqlar uchun mobil Internet bugungi kunda yangi imkoniyatlarni ochib beradi, masalan, makonda joylashuvni aniqlashga asoslangan ilovalardan foydalanish orqali.

Bugungi kunda media turli xil rolli modellar, qadriyatlar, ideallar va hatto dunyoni idrok etishni taklif qiladi. Media bugungi kunda taklif qilayotgan modellar, “men kimga o‘xshashni xohlamasligimni va kim bilan bog‘liq bo‘lishni xohlamasligimni”, shuningdek “men qanday bo‘lishni xohlayotganimni va kimga o‘xshashni xohlayotganimni” tushunishga imkon beradi. Axborot texnologiyalari imkoniyatlarining doimiy rivojlanishi va kengayishi tufayli bugungi kunda dunyoning deyarli istalgan nuqtasidan va inson uchun qulay bo‘lgan istalgan vaqtda Internetga kirish mumkin. Bu mutlaqo har qanday harakatni onlayn translyatsiya qilish va bir vaqtning o‘zida sharhlarni qabul qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda Internet tarmoqlarida joylashtirilayotgan videoma‘lumotlar, roliklar har doim ham ijobiy ma‘lumot tashuvchisi sifatida yuzaga kelmaydi. Aksariyat yoshlar, lekin o‘smirlar emas, o‘zlari tomonidan sodir etilgan turli huquqbuzarliklarni suratga oladilar va qilmishlari uchun biror bir javobgarlikdan mutlaqo qo‘rqmagan holda Internetga chiqaradilar (tirband avtomagistrallarda poyga qilish, yo‘l patrul xizmati avtomashinalaridan “qochish”, mushtlashuvlar, hayvonlar hamda odamlarni xo‘rlash va h.k.). Bundan tashqari, bunday ma‘lumotlarga ega videoroliklar ostida ko‘pincha qoralovchi emas, balki ko‘proq ma‘qullovchi, ba‘zan hatto hayratlanuvchi sharhlarni ko‘rish mumkin. Shu kabi faktlar, bugungi kunda yoshlarga qaysi media vositalari ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda: televideniyemi yoki Internetmi?, degan savol o‘ylantirib qo‘yadi.

Zamonaviy axborot jamiyati vakili sifatida zamonaviy shaxsning mediamadaniyatining rivojlanishi o‘z-o‘zidan amalga oshishi mumkin, ammo jamiyat va jamoatchilik aloqalarini axborotlashtirish bevosita ta’lim sohasiga ham ta’sir qiladi. Ta’limni insonparvarlashtirish – zamonaviy dunyoda uning rivojlanish tendensiyalaridan biridir. Ushbu tendensiyaning namoyon bo‘lishi, daromadi, yashash joyi, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, uni olishni istagan va qo‘lga kiritish oladigan har bir kishi uchun foydalanish imkoniyatining kengayishidir. Hamma uchun haqiqatan ham ochiq bo‘lgan ta’lim – nafaqat eng muhim

insonparvarlik talabi va ijtimoiy davlatning mutlaq zarur elementi, balki mamlakatimizning bilimlar jamiyati sari harakatlanishining shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кириллова Н.Б. Медиа-культура: от модерна к постмодерну. – М.: Академический проект, 2005. – С. 31-33.
2. Коновалова Н.А. Развитие медиакультуры студентов педагогического вуза: Дисс. ... канд. пед. наук: 13. 00. 08. – Теория и методика профессионального образования. – Вологда, 2004.– С. 308



THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FORMATION OF SELF-DEVELOPMENT COMPETENCE

Atakhujayeva Shakhlo

The teacher of the faculty of Pedagogy Chirchik State Pedagogical University

The main principle of independent education – design, implementation of the process of independent educational training. It is necessary to implement independent education, which includes administrative, pedagogical and educational management. Administrative management should be related to organizational, material-technical and informational support of independent education. In this: to create an organic and continuous interaction of independent education with non-traditional studies and scientific-research works; formation of professional and professional skills through independent education; expanding opportunities for independent education; it is necessary to recognize the use of effective technologies of independent education and their control.

Pedagogical management is characterized by advice, supervision and independent assessment of the quality of education. Learning management is related to the motivation and forms of organizing independent learning. Another principle of independent education is motivation, in which it is necessary to awaken professional, economic, thinking, spiritual and other interests in the student in relation to the process of independent education.

A positive attitude towards the profession plays an important role in the organization of independent education. If a student consciously chooses a profession and considers it acceptable to society, he will have a different attitude to independent work. Therefore, one of the important tasks of the pedagogue is to establish a positive attitude towards the profession in them. It is formed through laboratory work and practical training.

In the study of students' attitudes towards their chosen professions: satisfaction with the profession and the factors that shape them; positive and negative attitudes towards the chosen profession; special attention should be paid to teaching technologies and methods.

In independent education, it is necessary to define two main approaches:

1. Formation of students' knowledge based on non-traditional problem solving. It is intended to develop knowledge and skills on the basis of previously acquired and formed experiences.

2. Creating a basis for creative activity. It consists in establishing relationships necessary for forming ideas and acquiring new information.

The principle of independent education is systematic control and evaluation of knowledge, skills. Systematic control is the feedback necessary to see and solve emerging problems before they become serious.

Organizational forms of student independent education are as follows:

study of subjects and subjects. It is suitable for students of the first stage who do not yet have independent learning skills, and its results are checked through a completed report, an individual assignment, a seminar, etc. Mastering part of lectures on handouts. In this case, the pedagogue pays great attention to the presentation of the main material. Handouts are prepared for each lecture. This form of independent education is suitable for advanced students studying general and special subjects. The results of these works are checked at the relevant control stages.

Working with automated training and control systems. It is conducted as part of preparation for lectures, laboratory work or practical training and applies to students of all levels. Work on the subject and topics of special, scientific literature. These are important for students of all levels when performing calculation-graphic assignments, abstracts, coursework projects, graduation qualification work. Its results are checked at the appropriate rating-control stages.

Learning new techniques and technologies. These are important for conducting qualification practices, participating in research, and fulfilling production orders. Results will be checked upon receipt of reports. An in-depth study of the subject or topics related to the student's research. It is suitable for students of all levels.

Independent educational activities using the active teaching method (interactive methods, discussion, conference, seminar, etc.) are prepared on current problems of science, technology and technology.

The following forms are used in the organization of student independent education, taking into account certain subject characteristics, mastery level and ability: independent mastery of some theoretical topics with the help of additional literature; preparation of information (abstract) on the given topic; seminar and

practical training, preparing for laboratory work; Completing a calculus-graph, course work (project); preparation of qualification thesis; finding solutions to existing problems in practice; creating layouts, models, samples, etc.; preparation of scientific articles, conference abstracts, etc.

The types of independent education of students are as follows: Repetition and practice. Independent acquisition of new knowledge. Carrying out work of a creative nature (requiring research). Training in repetition and practice repeats the knowledge acquired during the lessons, analyzes, summarizes, thinks, remembers, and forms skills and competencies for performing practical tasks. In the independent acquisition of new knowledge, the student acquires the skills of searching for information sources, working on them, summarizing, coherent expression of thoughts, learns the methods and methods of independent education.

When performing tasks of a creative nature, the student acquires the skills of identifying and analyzing problem situations, making independent decisions, learns to creatively approach problem solving, prepares visual aids, and learns ways to solve scientific tasks that require research.



TALABALARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KITOBXONLIK MADANIYATINING AHAMIYATI

Muminova Gulnozaxon Sulton qizi,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbPFITI tayanch doktoranti

Oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning ijodkorlik sifatlariga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, ijodkorlik sifatlariga ega talabalar kelajakda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi. Talabalarning teran fikrlashi, ijodiylikini rivojlanishi eng avvalo ularning mustaqil tarzda o‘qib o‘rganishi, izlanishi bilan bevosita bo‘g‘liqdir. Shuning uchun ham talabalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish asosida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishimiz zarurdir. Bu borada O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrda “Kitob mahsulotlarini nashr etish va

tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda № 781-sonli qarori bilan 2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi va boshqa qator hujjatlar soha rivoji uchun dasturul amal vazifasini o'tamoqda.

Dasturning maqsadi – kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ijodkorlar, noshirlar va kitob tarqatuvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini izchil va samarali tashkil etish orqali faol kitobxonlar safini kengaytirish, aholi, ayniqsa, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishdan iborat. [1. 2-b]

Kitob – insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuchdir. U insoniyatning tarixiy xotirasi, ma'naviy-ma'rifiy olami, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi.

Kitobxonlik – bu insonning o'z ustida ishlashi, faoliyatini ma'lum yo'nalishga burib yuborish, ongida ma'lum tuyg'ularni, e'tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o'ylashga, hayotda qanday yashashga o'rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma'naviy o'gitlarini ilg'ab olish va bular asosida o'z hayot yo'li dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir o'qigan kitobidan yangilik topish, ma'naviy dunyosini boyitishdan iboratdir. [2. 25-b]

Kitobxonlik madaniyati haqida so'z borar ekan, avvalo, yoshlarga kitob o'qish qoidalari va turlari haqida ma'lumotlar, tushunchalar berish lozim bo'ladi.

O'qish – nutq faoliyatining murakkab turi bo'lib, u ikki jihatga ega: ya'ni, texnik jihat – o'qish va tez o'qish ko'nikmalarini egallash va ijodiy jihat – matndan zarur ma'lumotni tanlab olish

Kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishda ahamiyati juda katta. “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirog'i”. Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

SHaxs takomilida oilaviy muhit, oilaviy qadriyatlar asosiy vosita rolini o'taydi. Ota-onaning ma'naviy darajasi, axloqiy qarashlari bevosita farzandga ham ko'chib o'tadi, farzandlar shaxsiyatida aks-sado beradi. Binobarin, kitobxonlik, badiiy adabiyotga muhabbat ham inson ma'naviy tafakkurini, tarbiya ahvolini namoyon qiluvchi muhim xususiyatlar sirasidandir. Kitob dunyosiga oshufta, adabiy olamga hamnafas, ijodkor shaxs, badiiyatdan bahramand qalb egasi

o'zidagi bu tuyg'u va fazilatlarni atrofida qilarga, ayniqsa, oilasiga ham yuqtirishi, singdirishi ehtimoli yuqori. [3 44-b]

Ibn Sino hayotining so'ngi kunlarida yozgan "Al-Ishorat va at-tanbihot" asarida baxt-saodat haqida keng ta'rif berib ketgan. Inson hayoti davomida baxt va farovon degan tushunchalarga ko'p bor duch keladi, lekin bu tushunchalarning mohiyatini anglashni unutib qo'yadi. Abu Ali ibn Sino "Al-Ishorat va at-tanbihot" [4. 189-b] asarida bu tushunchalarni aniq va batafsil ta'riflab o'tadi. Ichki lazzatning tashqi lazzatdan uztunligi to'g'risidagi nazariyalarini misollar asosida tushuntirib o'tgan. Qachonki bizda kitobga bo'lgan mehr, kitobxonlik madaniyati shakllanar ekan biz ichki lazzatni his eta olamiz.

Ertangi kun kelajagi bo'lgan talabalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish asosida ularda vatanga bo'lgan muhabbat, oilaparvarlik, mas'uliyatlilik, kasbga bo'lgan muhabbat kabi sifatlarni shakllantirish bilan birga teran fikrlash, ijodkorlik asosida yangiliklar yaratish, ma'naviy olamining boyishiga erishamiz va bunday pedagoglar jamiyatimiz uchun juda zarurdir. Odatda pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda talabalarningning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun esa albatta har bir talabada kitobxonlik madaniyati shakllangan bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi 781-sonli Qarori .
2. Mamatraimova H. Bibliografiya // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-jild. 2001.
3. M.Inomova. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. T., 1999-y.
4. Jurayev Sh. S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.



REFLEKSIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH JARAYONINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xolbo‘tayeve Dilfuza Usmon qizi

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

Shaxs kelajagini belgilash va muhim poydevor yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etishda uzluksiz ta‘lim tizimidagi pedagogik jarayonlarning alohida o‘rni bor, ya‘ni maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim oluvchilarda har tomonlama barkamollik sifatleri tarbiyalanadi. Barkamol shaxsni shakllantirishda pedagogik tizimning integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni tanlash hamda mazkur tizimni tadqiq etish va takomillashtirishga tizimli, ijodiy, refleksiv, muvofiqlashtirilgan, etnik, shaxs-faoliyat, milliy-hududiy va innovatsion yondashuv kabi yondashuv texnologiyalarini qo‘llash va ulardan mazmun-mohiyatiga ko‘ra to‘g‘ri foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “Ta‘lim – imkoniyatlar tengligini ta‘minlaydigan buyuk mezon. U jamiyat aql-zakovatining yuksalishi, raqobatbardoshlikning kuchayishi va yutuqlar ko‘payishining muhim omili vazifasini o‘taydi”.

Pedagogik jarayonlarda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirishda ularning mustaqil va samarali fikrlashining muhim mexanizmi sifatida refleksiv yondashuv texnologiyasi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Refleksiv yondashuv texnologiyasida o‘rganilayotgan tushunchalarni keng tizim kontekstida tushuntirish jarayonlarini alohida tashkil etish (vujudga kelayotgan vaziyatlarni va subyektlar xatti-harakatlarini baholash, belgilangan vazifalarni samarali bajarish usullari va yo‘nalishlarini aniqlash), subyektlarning o‘zini-o‘zi tahlil qilishi, o‘z tushunchalari hamda xatti-harakatlarini faol o‘ylab ko‘rishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Refleksiya-faoliyatning tarkibiy komponentidir. Refleksiya tufayli amalga oshirilayotgan faoliyat ichki rejada aks ettiriladi, bu subyektga kuzatish, tanqid qilish yoki o‘zgartirish uchun material hisoblanadi. Refleksiya inson faoliyatini nafaqat ichki, balki tashqi ko‘rinishida ham takomillashtirish imkonini beradi. Shuningdek, refleksiya insonga rivojlangan intellektning muhim tarkibiy qismi sifatida o‘zining tashqi olam bilan predmetli-ijtimoiy munosabatlarini tahlil qilish, mushohada yuritish va qayta fikrlash qobiliyatini beradi. Shunday qilib, L. S. Vigotskiy, S. L. Rubinshteyn, A. N. Leontev va boshqa mualliflarning ishlarida refleksiya kognitiv, genetik, shaxsiyatli va kommunikativ jihatlarida o‘rganilgan. [1, 147-b.].

Refleksiya tafakkur mexanizmlaridan biri sifatida ta'limiy faoliyatda quyidagi jarayonlarni ta'minlaydi:

- oldindan belgilangan ta'limiy vazifalar va natijalarni anglab yetish;
- bo'lajak faoliyat uchun kerak bo'ladigan vazifalarni ehtiyojlar bilan solishtirish;
- o'quv faoliyatini motivatsiyalash, o'quv material elementlari orasidagi mantiqiy bog'lanishlar va mazmunan eslab qolish yordamida o'quv materialini tushunish va o'zlashtirish;
- erishilgan natijalarni baholash va to'g'rilash, tuzatish;
- muammolar natijalarini tahlil va umumlashtirish orqali vazifa va talablarni taqqoslash metodlari, sxemalari orqali hal etish;
- o'quv faoliyatida qaytarma aloqa yordamida o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi nazorat qilish refleksiya natijasi bo'lib, ta'lim olayotganlarni rivojlantirish va o'zgartirish, o'quv faoliyati subyekt sifatida ularni faollashtirish hisoblanadi.

Ma'lumki, talaba shaxsida o'quv faoliyatiga nisbatan ongli munosabatning qaror topishi ulardagi o'zini-o'zi anglash tizimining xususiyati bilan uzviy bog'liq.

Auditoriya turlariga qarab, refleksiyaning turli ko'rinishlari ishlab chiqiladi.

Dialogik tamoyil – refleksiya faoliyatini amalga oshirishda muloqotda bo'lishi. Refleksiv ta'lim va tarbiya texnologiyasi muloqot asosida tashkil etiladi va dialogik munosabatning turli shakllarini taklif etadi:

- pedagogning o'z ichki "Men"i bilan dialogi. Bunda pedagog o'z ichki dunyosiga quyidagi savollar bilan nazar soladi: Bu mashg'ulotda men nimalarni his qildim? Mashg'ulotdan maqsadim nima edi? Nima qildim? Nimaga erishdim? Nimalarni qilaolmadim? Maqsadga yetish uchun nima qilishim zarur? Bu dialog mashg'ulotdan keyin o'tkaziladi;
- pedagogning talaba, tarbiyalanuvchilar ichki "Men"i bilan dialogi. Bunda pedagog ularga quyidagicha savol bilan yuzlanadi: O'zingizni mashg'ulotda qanday his qildingiz? Qaysi ma'lumotni tushundingiz? Qaysi ma'lumotni tushunmadingiz? Mashg'ulotning qaysi jihatlari foydali bo'ldi?
- tarbiyalanuvchi talabalarning o'z ichki "Men"i bilan dialogi jarayonida quyidagi savollar beriladi: Men mashg'ulotdan nimalarni oldim? Mashg'ulotdan nimani kutgan edim? Mashg'ulotda nima qildim? Mashg'ulot orqali nimalarni o'zlashtirdim? Nimani tushunmadim? Nima men uchun yangilik bo'ldi?

Refleksiv ta'limni amalga oshirishda mashg'ulot sifatining monitoringi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda pedagog metod va usullar orqali o'z faoliyati

natijalarini baholaydi. G.S. Pyankovanning ta'kidlashicha, refleksiv ta'lim fanlar yuzasidan bilim va ko'nikmalarni baholabgina qolmay, birgalikdagi faoliyatning boshqa jabhalarini ham qamrab oladi; qaytarma aloqaning o'rnatilishi deganda pedagogning doimo ogoh turishi nazarda tutiladi; bunda refleksiya natijasida olingan ma'lumotlarga munosabat bildirish tushuniladi; "hozir" va "shu yerda" degan qoidaga rioya qilinishi tushuniladi. Bunda pedagog talabalarning mashg'ulot davomida o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilib boradi, kimdir tushunmay qolsa, darhol tushuntirib beradi; ma'lumotlarga nisbatan qadriyatli yondashuv deganda ta'lim oluvchi, talabalarning o'quv jarayoniga nisbatan ongli yondashuvi tushuniladi; sog'lomlashtiruvchi muhitning ta'minlanishi talaba, tarbiyalanuvchilarda salbiy munosabatlarni hosil qilmaslikka intilish; faoliyatni amalga oshirish uchun shaxs zarur bo'lgan sifatlardan tanqidiylik, konstruktorlik, iroda, ochiqlik, vijdoniylik va sofdillik kabilarni rivojlantirish. Refleksiv ta'lim texnologiyasini amalga oshirish vaqtinchalik axborot va kadrlar zaxiralarini talab qiladi. [3, 81-b.].

Refleksiv ta'lim texnologiyalarida ta'lim oluvchining o'z shaxsiy va kasbiy rivojlanishini boshqara olishi birinchi o'ringa chiqadi. Umuman olganda, har bir inson tabiatan refleksivlash qobiliyatiga egadir. Lekin bu unda refleksiv qobiliyatlar mavjud degan xulosani tasdiqlamaydi (ya'ni bu unda refleksiv qobiliyatlar mavjud degani ham emas).

Refleksiv qobiliyatlar faoliyat jarayonida yuzaga chiqadi va rivojlanadi. Shuning uchun ham refleksiyaga harakatsiz o'rgatib bo'lmaydi. Pedagog talabaga refleksiyaning qanday qilib shakllanishini ko'rsata olmaydi. Buning uchun talaba "pedagogdek" bo'lishi kerak, ya'ni u o'zini o'zi nazorat qilishi va o'zini o'zi boshqara olishi kerak. Ta'lim jarayonida talabalarga bu funksiyalarni yetkazish refleksiv ta'limning asosidir. Yangilikka intiluvchi pedagoglar tajribasi shuni ko'rsatadiki, talabalarning refleksiv faoliyatini ta'lim jarayonining turli xil ko'rinishlari va innovatsion texnologiya, interfaol metodlar yordamida shakllantirish mumkin. Jumladan, ma'ruza jarayonida o'qituvchi Suqrot dialogi, guruhiy, bahs-munozara, kasbiy o'yinlar kabi interfaol metodlardan foydalanishi mumkin. [2, 181-b.].

Refleksiv mashq va vazifalardan foydalanish orqali ta'lim oluvchilar an'anaviy tafakkurdan uzoqlashib, o'quv fanlarini yaxshiroq o'zlashtiradilar. Ta'lim beruvchining vazifasi talabalarning refleksiv faoliyatini faollashtirish, o'z xulq-atvoriga chetdan nazar solishga o'rgatish hamda talabalarning bilishga nisbatan motivatsiyalarini kuchaytirish, kasbiy va shaxsiy rivojlanish istiqbollari ko'ra olishga o'rgatishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farberman B .L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2017.

2. Golovina L. M. Talabalarning kognitiv faolligini oshirish. – M.: Prospekt, 2013.– 242-b.

3. Турғунов С.Т., Мақсудова Л.А. ва бошқ. Педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш технологиялари. – Тошкент.: “Сано-стандарт”, 2012.– 100-b.



ESTRADA XONANDALIGIDA PROFESSIONAL KADRLARNI TAYYORLASH ZARURIYATI

Azizov Ravshanbek Kamilovich –

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI tayanch doktoranti

Ma’lumki, estrada san’atini O‘zbekiston Respublikasiga kirib kelganiga hali ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Biroq, shunday bo‘lsada bugungi musiqa ijrochiligini estrada qo‘shiqlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Estrada qo‘shiqchiligi mamlakatimizda shu qadar tez rivojlandiki, u kirmagan xonadon yoki u kirmagan qalbni topish mushkul.

Estrada xonandaligi bo‘yicha professional kadrlarni tayyorlash bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki, mazkur masala o‘zining bir necha zaruriyatli holatlari bilan izohlanadi. Avvalo ,estrada vokal san’ati rivojida professional kadrlar sohani zamonaviy talablar asosida rivojlantirishning muhim tayanchidir. Qolaversa, estrada vokal san’ati muhlislarini turli ijtimoiy illatlardan muhofaza qilishda aynan professional kadrlar hal qiluvchi vazifani bajaradi. Shu sababli, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda aynan estrada xonandaligi bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash tizimini muhokama etilishi ayni muddaodir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq “O‘zbek estrada akademiyasi”ni tashkl etilishi fikrimiz dalilidir. Haqiqatdan ham e’tibor berilsa, estrada akademiyasini tashkil etish masalasi nafaqat estrada vokal san’ati rivoji uchun, balki jamiyat musiqa san’atida estrada san’atinig gurkirab rivojlanishi va bu sohada kadrlarni tayyorlashning muhim manbasi bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Shu ma’noda professional estrada ijrochisi quyidagi talablarga javob berishini eslatib o‘tish joiz deb hisoblaymiz:

- ijro etilayotgan estrada qo‘shig‘i mavzusiga jiddiy e’tibor berish;
- matnga mos musiqani tanlash;
- o‘ziga xos milliy ijro uslubini kashf etish;
- soha va muxlislar oldida mas’uliyatni his qilish;
- albatta tabiiy (jonli) ovozda ijro etish;

- axloqsizlik, buzuvlik, safiyasizlik, jadal g‘arbona ritmlarga va noinsoniy illatlarga berilmaslik va h.k.

Bundan farqli o‘laroq, professional estrada vokal ijrochisi kasbiy va insoniy kamchiliklariga ham yo‘l qo‘yishi ko‘zga tashlanmoqda.

Zero, mana shunday ijtimoiy zaruriyatlar estrada vokal san‘atini professional kadrlar bilan ta‘minlash sifatini kuchaytirish lozimligini taqozo etadi. Shu sababli bir qator me‘yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularning ijrosi ta‘minlanayotgani sohada kutilgan samarani berayotganligini ta‘kidlash joiz. Ayni paytda, estrada vokal san‘ati professional kadrlari bilan ta‘minlash ishlarini kuchaytirish va kadrlarning tayyorgarlik sifatini oshirish ehtiyoji yuqori bo‘lib turibdi. Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 26-iyundagi 272-sonli “Estrada qo‘shiqchilik san‘atini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorida bu borada asosiy vazifalar belgilab qo‘yilgan. Jumladan, milliy estrada san‘ati sohasida yuksak malakali professional kadrlar tayyorlash va kadrlar faoliyatini monitoring qilib borish;

- estrada jamoalari, yakkaxon ijrochilar va boshqa san‘atkorlarning faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

- milliy estrada san‘atining monitoringini olib borish va h.k.

E’tibor berilsa, bu vazifalarning ijrosi bevosita estrada vokal san‘atini professional kadrlar bilan ta‘minlashi masalasini hal etishga qaratilgan.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, estrada xonandaligi bo‘yicha professional kadrlarni tayyorlash zarurati, bugungi globalashuv hamda fonogramмага zo‘r berish bir davrda ayni muddaodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Ma’kamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11

2. Mirzayeva N. A. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Ma’ruzalar matni. Toshkent. 2008. 48-b.

3. Cat’rine Sadolin. Complete vocal technique. 2012. www.Completevocalinstitute.com

4. S.Mannopov. O‘zbek xalq musiqa madaniyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2004-y. 100-b.



G'YOSIDDIN JAMSHID KOSHIYNING MATEMATIKA FANIGA QO'SHGAN HISSALARI VA O'QUVCHILARNING MATEMATIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

J.Mamatov

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI 1-bosqich tayanch doktoranti

G'iyosiddin Koshiy – O'rta Osiyolik atoqli matematik va astronom. To'liq ismi Jamshid ibn Mas'ud ibn Maxmud G'iyosiddin al-Koshiy. Taxminan 1430-yilda Samarqandda vafot etgan. Uni “Koshoniy” ham deb atashadi, chunki u Eronning Koshon shahrida tug'ilgan. Islom davrining buyuk matematigi va fizigi hamda Eronning mashhur shaxsiyatlaridan biri G'iyosiddin Jamshid Koshoniy qadimda mavjud bo'lgan hisoblashning to'rt amalini yanada takomillashtirgan va isloh etgan olimdir. Koshiyning tarjimai holi haqida deyarli ma'lumotlar yoq. Ba'zi matematika tarixchilarining yozishicha, u boshlang'ich ma'lumotni o'z ona shahri Koshonda olgan. XV asrda Koshon ancha rivojlangan shahar bo'lgan, u o'zining olimlari, ayniqsa qo'li gul ustalari bilan butun Sharqda dong taratgan.

Mazkur buyuk donishmand borasidagi ma'lumotlar uning asarlari hamda otasi va Koshon xalqiga yozgan ikki maktubi orqali olingan. Uning bolalik, o'smirlik va yoshlik davri Temur Kuragoniyning Eronga qilgan yurishlari vaqti bilan to'g'ri keladi. Ushbu og'ir sharoitga qaramay, Jamshid tahsil olish va ilm o'rganishdan hech vaqt to'xtagan emas.

Koshoniy boshlang'ich matematik ma'lumotni o'sha vaqtdagi Eronning markaziy shaharlari, xususan, Fors va Koshonda olishga erishgan. O'rta asr olimlari singari Koshiy ham fanning juda ko'p sohalari bilan shug'ullangan. U qiziqqan fanlar qatorida tibbiyot ham bo'lgan. Shu sababli uni Temurning nabirasi - fors hokimi Jamoliddin Iskander o'z saroyiga ishga taklif qilgan. Shundan, Koshiy yaxshigina tabib ham bo'lgan, deyish mumkin. XV asr boshida Ulug'bekning taklifi bilan Samarqandga kelgan, bu yerda Qozizoda Rumiy bilan birga Ulug'bek rasadxonasi va madrasasi qurilishiga rahbarlik qilgan. Koshiy Ulug'bek qo'l ostida ishlagan Husayn Birjoniy, Ali Qushchi va boshqalarning kamolotga yetishishiga katta hissa qo'shgan. Koshiyni Ulug'bek o'zining Astronomiya maktabida ishlashga taklif qilgan. Astronomiya maktabi uchun ilmiy kadrlar zarur edi. Shu sababli Ulugbek Astronomiya maktabi qoshida Madrasa ochdi. Koshiy Ulug'bek madrasasida astronomiya va matematikadan dars berdi. Bir vaqtning o'zida u Ulug'bek maktabida olib borilayotgan ilmiy ishlarda ham ishtirok etdi. Koshiy astronomiyaga oid “Ziji Hoqoniy dar takmili ziji Elxoni” (“Elxoni astronomik jadvalini takomillashtirishda Hoqoniy astronomik jadvalining ahamiyati”), “Sullam us-samo” (“Osmon narvoni”), “No'zxat ul-xadoiq” (“Bog'lar sayri”) va

matematikaga oid “Risola al-muhitiyya” (“Aylana haqida risola”), “Risola ul-atvor nal-jayb” (“Vatarlar va sinus haqida risola”), “Miftoh ulhisob” (“Arifmetika kaliti”) asarlarini yozgan. Koshiy birinchi bo‘lib matematikaga pozitsion asosda o‘nli kasrlarni kiritdi va nazariy asosdagi, ixtiyoriy ko‘rsatkichli ildiz chiqarish – hozir “Ruffini – Gorner” usuli deb ataladigan usulni va “Nyuton binomi”ning koefitsiyentlarini topishda formulaga to‘g‘ri keladigan adlitin usulni qo‘lladi. Koshiy $\sin\alpha$ va π (pi) sonini o‘nlik sistemada 17 xona aniqlik bilan hisobladi. Koshiy O‘rta asr Sharq matematikasini yuqori bosqichga ko‘tarishga katta hissa qo‘shdi.

Koshiyning matematika sohasida qilgan kashfiyotlari juda katta. Uning zamonida hisoblash ehtiyojlari uchun oltmishli sanoq sistemasidan foydalanilar edi. U birinchi bo‘lib o‘nli kasrlarni kashf qildi va ular ustida amallar bajarish qoidalarini ko‘rsatib berdi.

Koshiyning ikkinchi kashfiyoti sonlardan n -darajali ildiz chiqarish amali edi. Koshiyning bu usuli hozir “Ruffini-Gorner” (Ruffini Paolo, 1765-1822-y.) – italyan matematigi, ingliz matematigi Gorner Vilyams (1786-1837-y.) usuli bilan mohiyatan ustma-ust tushadi. Bu usul yordamida sonlardan ildiz chiqarish uchun hozir “Nyuton binomi” deb ataluvchi formulani, ya’ni istalgan ikki hadni ixtiyoriy daraja bo‘yicha yoyishni bilish lozim. Koshiy Umar Xayyom asarlari orqali ana shu formulani ixtiyoriy natural darajalar uchun bilgan va undan ixtiyoriy sondan natural darajali ildiz chiqarishda foydalangan. Bu metod Koshiygacha bo‘lmaganmi, degan savolga matematika tarixchisi P. Lyoqey bu usul kub ildiz chiqarish uchun Axmad an-Nasaviyda (taxminan 970-taxminan 1070) uchrashini aytadi (Nasa Turkmanistonning hozirgi poytaxti Ashxobod yaqinida bo‘lgan shahar). Lyoqey Nasaviy bilan Koshiy orasidagi davrda bu usul bilan Umar Xayyom shug‘ullangan bo‘lishi kerak deb taxmin qiladi. Lekin bu usulning istalgan natural n lar uchun umumlashtirilishi shubhasiz Koshiyga taalluqli. Shulardan kelib chiqib G‘iyosiddin al-Koshiy usulini ko‘rib chiqamiz. G‘iyosiddin al-Koshiy binom formulasini quyidagicha hisoblagan.

Ushbu butun sonlarni olib qaraymiz:

$$d_0, d_1, d_2, \dots, d_n \quad (1)$$

Bu sonlardan quyidagi sonlarni tuzamiz:

$$S_0 = d_0$$

$$S_1 = d_0 + d_1$$

$$S_2 = d_1 + d_2 \quad S_n = d_{n-1} + d_n \quad (2)$$

.....

$$S_{n+1} = d_n$$

Bu (2) dan

$$S_0 + S_1 + S_2 + \dots + S_{n+1} = 2(d_0 + d_1 + d_2 + \dots + d_n)$$

ekanligi ko‘rinib turibdi.

Ta’rif. Agar (1) sonlar sistemasi uchun

$$d_k = d_{n-k}, \quad k = (0, n) \quad (3)$$

tenglik bajarilsa, u holda (1) simmetrik sonlar bo‘ladi.

Agar (1) simmetrik sonlar bo‘lsa, u holda (2) ham simmetrik sonlar bo‘ladi, ya’ni

$$S_k = S_{(n+1)-k} \quad k = 0, 1, 2, \dots, n+1 \quad (4)$$

Endi faqat bitta 1 son olib $S_0 = d_0 = 1$ deb yozamiz va buni nolinch qator deb ataymiz. Bundan (2) ketma-ketlik bo‘yicha S_0, S_1 qatorni tuzamiz, bunda $S_0 = d_0 = 1, S_1 = d_0 = 1$ dan iborat (chunki $S_{n+1} = d_n$ bo‘lgani uchun bizda $S_1 = d_0 = 1$ bo‘ladi). Shunday qilib 1, 1 qatorni tuzdik. Buni birinchi qator deb ataymiz. Bu birinchi qatorni $d_0 = 1, d_1 = 1, (S_2 = d_1)$ deb qarab (2) bo‘yicha $S_0 = 1, S_1 = 2, S_2 = 1$ (chunki (2) ning oxirgisi $d_n = S_{n+1}$ ga asosan $1 = d_1 = S_2$). Shunday qilib biz 1, 2, 1 qatorni hosil qildik. Buni ikkinchi qator deb ataymiz. Bu oxirgi qatordan (2) ketma-ketlik tuzamiz.

$S_0 = 1, S_1 = 3, S_2 = 3, S_3 = 1$ (chunki $S_{n+1} = d_n$, bizda $d_0 = 1, d_1 = 2, d_2 = 1$ bo‘lganidan $S_3 = d_2 = 1$). Shunday qilib, 1, 3, 3, 1 qatorni hosil qildik. Buni uchinchi qator deb ataymiz.

Shunday qilib to‘rtinchi qatorni tuzamiz. U esa 1, 4, 6, 4, 1 ketma-ketlikdan iborat bo‘ladi.

Bu jarayonni davom ettiramiz. Hosil qilinayotgan qatorlardan keyingi qatorga sonlar miqdori undan oldingi qatordagi sonlar miqdoridan bitta ortiq. Masalan, ikkinchi qatorda 3 ta son bor bo‘lib, uchinchi qatorda to‘rtta son bor. Buni umulashtirib n qatorda $(n+1)$ ta son bo‘ladi deb tasdiqlaymiz. Shu bilan birga bu sonlarning yig‘indisi $2n$ ga teng deb tasdiqlaymiz.

Masalan:

- 1) Ikkinchi qatorda turuvchi sonlar yig‘indisi $1 + 2 + 1 = 22$;
- 2) Uchinchi qatorda turuvchi sonlar yig‘indisi $1 + 3 + 3 + 1 = 23$;

Bu mulohazalar biror birga turuvchi ixtiyoriy qatorda turuvchi sonlar simmetrikdir. ((3) ga qarang), ya’ni birinchi o‘rinda turuvchi son va oxirgi o‘rinda turuvchi son bir xil va ikkinchi o‘rinda turuvchi son bilan oxirgidan bitta oldinda turuvchi son bir xil (teng).

Yuqoridagi sonlar qatorini quyidagicha jadvalga joylashtiramiz (1-jadval). 10 ta qator va 19 ta ustundan iborat katak chizamiz.

1-jadval

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	Qator o‘rni
0										1										Nolinchi
1									1		1									Birinchi
2								1		2		1								Ikkinchi

3						1		3		3		1							Uchinchi
4					1		4		6		4		1						To'rtinchi
5				1		5		10		10		5		1					Beshinchi
6			1		6		15		20		15		6		1				Oltinchi
7		1		7		21		35		35		21		7		1			Yettinchi
8		1		8		28		56		70		56		28		8		1	Sakkizinchi
9	1		9		36		84		126		126		84		36		9		To'qqizinchi

Yuqorida hosil qilingan nolinni qatordagi 1 sonni 10-ustunga yozamiz. So'ngra birinchi qatordagi 1 va 1 sonlarni 9 va 10-ustunlarga yozamiz. Ikkinchi qatordagi 1, 2, 1 sonlarni mos ravishda 8-ustun, 10-ustun, 12-ustunga yozamiz. Huddi shunday uchinchi, to'rtinchi qatorlarni yozamiz.

Beshinchi qatordagi sonlarni yozishda 5-qator, 5-ustunga 1 o'zi, 4-qatordagini 6-ustundan 1 sonni va 8-ustundan 4 sonni qo'shib $1+4=5$ soni 5-qatorning 7-ustuniga yozamiz.

4-qatorning 8-ustunidagi sonni va 10-ustundagi 6 sonni qo'shib $4+6=10$ sonni 5-qatorning 9-ustuniga yozamiz. 4-qatorning 10-ustunidagi 6 sonni va 12-ustundagi 4 sonni qo'shib $6+4=10$ sonni 5-qatorning 11-ustuniga yozamiz. 4-qatorning 12-ustunidagi 4 sonni va 14-ustundagi 1 sonni qo'shib $4+1=5$ sonni 5-qatorning 13-ustuniga yozamiz. Nihoyat 5-qatorning 15-ustuniga 1 yozamiz.

Endi ixtiyoriy qatorning sonlarini yozish qiyin emas. Bu jadvaldagi sonlarning hosil bo'lishidan ko'rinib turibdi, chunki $(n+1)$ qatordagi sonlar n – qatordagi sonlar asosida aniqladi va yozish tartibi yuqoridagi muxokama asosida bajariladi. Tuzilgan bu jadvalni G'iyosiddin al-Koshiy jadvali deb ataymiz. Jadvaldagi sonlar simmetrikdir, ya'ni dastlabki va oxirgisi bir xil, ikkinchi va oxiridan bitta oldingisi bir xil va hokazo. Bu esa (3) tenglikning bajarilishini ko'rsatadi. Bu jadval $(a+v)_n$ ni yoyilmasida koeffitsiyentlarni aniqlash jadvalini G'iyosiddin al-Koshiy quyidagi jadval asosida tuzgandir.

1	2	3	4	5	6	7	8
9							
36	8						
84	28	7					
126	56	21	6				
126	70	35	15	5			
84	56	35	20	10	4		
36	28	21	15	10	6	3	
9	8	7	6	5	4	3	2

Binom $(a+b)^n$ ning yoyilmasi ushbu

$$(a+b)^n - a^n = C_n^1 a^{n-1}b + \dots + b^n$$

Binom koeffitsiyentlarini ketma-ket hisoblash uchun

$$C_n^m = C_{n-1}^{m-1} + C_{n-1}^m$$

Formulani ko'rsatdi va binomning 9-darajasigacha bo'lgan koeffitsiyentlar jadvalini tuzib ko'rsatdi.

G'iyosiddin al-Koshiy (2) jadvali asosida $(a+b)^n$ ning yoyilmasini yozamiz. Yoyilmasida birinchi va oxirgi had koeffitsiyentini 1 son deb olib qolganlarini jadvaldan olamiz.

Masalan, $(a+b)^2$, $(a+b)^3$, $(a+b)^5$ larni yozamiz. 8-ustundan foydalanib

$$(a+b)^2 = a^2 + 2ab + b^2$$

Tenglikni 7-ustundan foydalanib

$$(a+b)^3 = a^3 + 3a^2b + 3ab^2 + b^3$$

Tenglikni 5-ustundan foydalanib

$$(a+b)^5 = a^5 + 5a^4b + 10a^3b^2 + 10a^2b^3 + 5ab^4 + b^5$$

Tenglikni yozamiz.

Xuddi shunday 1-ustun sonlari buyicha

$$(a+b)^9 = a^9 + 9a^8b + 36a^7b^2 + 84a^6b^3 + 126a^5b^4 + 126a^4b^5 + 84a^3b^6 + 36a^2b^7 + 9ab^8 + b^9$$

ga teng bo'lar ekan.

Bundan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, G'iyosiddin al-Koshiy uchburchagi bilan tanishar ekanmiz, biz foydalanib kelayotgan Nyuton binomi aslida G'iyosiddin al-Koshiy binomi ekanligini aytish mumkin. Buyuk qomusiy olimlarimizning matematika faniga qo'shgan hissalar matematika sohasini rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ular yaratgan, ixtiro qilgan kashfiyotlaridan hozirgi kunda ham dolzarb muommalarni hal etishda foydalanib kelinayotgani tahsinga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асадова М. Ўрта Осиё машхур олимлари ва уларнинг математикага оид ишлари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983.
2. Афонина С. И. Математика ва гўзаллик – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1987.
3. Отажонов 3. Р. Математика уқитишда осиёлик ўрта аср олимлари ижодидан фойдаланиш. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1981.



ZAMONAVIY MAKTABDA INFORMATIKA FANINI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MUAMMOLARINI O‘RGANISHDA XORIJIY TAJRIBALAR

Sh.Ziyayev

Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

So‘nggi yillarda pedagogik jamiyatda, informatika bo‘yicha ta‘lim mazmuni, shuningdek, davlat maktab ta‘lim dasturlarida o‘quvchilar uchun dasturlash va hisoblash texnikasining o‘rni to‘g‘risida qizg‘in muhokama qilinmoqda [1, 12]. Tadqiqotlar davomida olingan natijalarni tahlil qilish asosida ko‘plab mamlakatlar kompyuter texnologiyalarini o‘rganishni maktab o‘quv dasturiga kiritmoqda. Masalan, Yevropada Yevropa maktablar tarmog‘i tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda ishtirok etgan aksariyat mamlakatlar (21 tadan 17 tasi) kompyuter texnologiyalarini o‘rganishni rivojlantirish va maktab amaliyotiga faol joriy etishga tayyor ekanliklarini ma‘lum qilishdi [1]. Milliy ta‘lim siyosatiga qarab, alohida mamlakatlar bu masalada turli model va yondashuvlarni qo‘llaydi: ba‘zi mamlakatlar kompyuter texnologiyalari sohasida uzluksiz 12 yillik ta‘limga e‘tibor qaratadi, boshqalari asosan to‘qqiz sinf yoki o‘rta maktab darajasi bilan shug‘ullanadi. Ba‘zi mamlakatlar kompyuterlashtirishni alohida fan sifatida kiritdilar (masalan, Angliya [2]), boshqalari bu sohani boshqa fanlar bilan birlashtirishni tanladilar, masalan, dasturlashni butun o‘quv rejasida aks ettiriladigan fanlararo elementga aylantirdi. Birinchi yondashuv eng tabiiy alternativ bo‘lib tuyuladi, ammo ba‘zi mamlakatlar ikkinchisini tanlashining turli sabablari bor:

- o‘quv rejasida yoki yangi fanni o‘quv rejasiga kiritish uchun ta‘lim standartida bo‘sh kontent maydonining yo‘qligi;
- informatika sohasida profillash yoki chuqurlashtirishga ega bo‘lmagan talabalar guruhlar o‘rtasida qiziqishni oshirish usuli hisoblanadi ;
- hisoblash fikrlash ijtimoiy sohalarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, u AKT kompetensiyalarini yanada rivojlantirish va tobora murakkab bo‘lgan muammolarni hal qilish uchun asosiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun asos yaratadi. Hisoblash an‘anaviy ravishda birinchi navbatda universitet darajasidagi fan bo‘lganligi sababli, bu sohada umrbod ta‘lim mazmuni uchun umumiy qabul qilingan standartlar mavjud emas;
- ushbu sohaga global qiziqish juda yangi, taklif etilayotgan mavzular va yo‘nalishlarning talaba shaxsini shakllantirishga ta‘sir qilish darajasini tasdiqlovchi tadqiqotlar miqdori cheklangan, shuning uchun ushbu bosqichda alohida o‘quv predmetini ajratib ko‘rsatish oqilona emas.

Mamlakatlardagi ko‘rib chiqilayotgan milliy ta‘lim modellari dasturlash bilan bir qatorda raqamli kompetensiyalarga yoki kengroq hisoblash yoki informatika

mavzusiga qaratilgan. Hisoblash fikrlash kamdan-kam hollarda aniq tilga olinadi, lekin g'oyalar ko'pincha u yoki bu shaklda kiritiladi. Eng keng tarqalgan model – bu boshlang'ich ta'limda majburiy va o'rta ta'limda fakultativ bo'lib, bir qancha mamlakatlar uni har ikki bosqichda ham majburiy qilib qo'ygan. Kompyuter texnologiyalarini o'rganishni faqat o'rta maktab bosqichida joriy etish modellari mavjud

Terminologiya. Informatika – bu hozirgi raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining markazida joylashgan ilmiy intizom uchun yaxshi tasdiqlangan akademik atama. Informatika va kompyuter texnologiyalari odatda kompleks sifatida qaraladi, xorijiy pedagogikada ikkala tushuncha ham umumiy bilim sohasini anglatadi, bu yerda kompyuter texnologiyasi informatikadan mustaqil ravishda ko'rib chiqilmaydi. Algoritmnlarni qurish va amalga oshirish bilan bog'liq sohaning mazmunini shakllantirishda dasturlash va kodlash odatda bir-birining o'rnida ishlatiladi. Yevropa hisoboti [1] shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik Yevropa mamlakatlari o'z o'quv dasturlarida dasturlash yoki kodlashdan foydalanadi va bu yo'nalishni alohida fan sifatida yoki didaktik birlik sifatida ta'kidlaydi.

Seymur tomonidan kiritilgan “hisoblash (yoki kompyuter) fikrlash” atamasi hozirda noaniq talqin qilinmoqda. 1996-yilgi hujjat [3] . Raqamli dunyoning globallashuvi ushbu atamaning mazmunini o'zgartirmoqda, pedagogik va texnik jamoalar ma'noni tushunishga yondashuvlarni turli pozitsiyalardan tavsiflaydi, nashrlarda noto'g'ri kontekstlar ko'p tanqid qilinadi. So'nggi yillarda inson va mashina o'zaro ta'sirining maxsus shakli sifatida kompyuter (hisoblash) tafakkurining mashhurligi ortib bormoqda, ammo bu atamaning kelishilgan ta'rifi yo'q, u “formulyatsiya bilan bog'liq fikrlash jarayonlariga” asoslangan muammolar va ularning yechimlari, yechimlari esa axborotni qayta ishlash ijrochisi bajarishi mumkin bo'lgan shaklda taqdim etiladi” [4].

Avstraliya . Avstraliyaning boshlang'ich va o'rta ta'lim tizimi milliy o'quv dasturining joriy etilishi bilan jiddiy o'zgarishlarga duch kelmoqda [9]. 2011-yilda Avstraliya [8] raqamli texnologiya va dizayn texnologiyasini o'z ichiga olgan milliy texnologiya o'quv dasturini [18] tasdiqladi. Raqamli ichida Texnologiyalar (DT) bolalari kompyuter (hisoblash) fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari va ma'lumotlar, raqamli tizimlar va dasturlash orqali yechimlarni qanday amalga oshirishni o'rganishlari kerak. Kontent kontseptsiyasiga ko'ra, Avstraliya o'quv dasturidagi DT ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, gumanitar va ijtimoiy fanlar, san'at, sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiya bilan bir qatorda avtonom fan sohasidagi “ta'lim sohasi” dir. Xorijiy tillar. AKT imkoniyatlari odatda DT sohasidagi o'rganish maqsadlariga mos keladi, shuningdek, bilimning boshqa sohalarida talab qilinadigan kompetentsiyalarning meta-pubyekt yadrosini ifodalaydi.

Angliya. Angliyada 2014-yilda yangi milliy o'quv dasturi kuchga kirdi [4, 14], yangi fan – hisoblash va AKT bo'yicha oldingi o'quv dasturi o'rnini bosdi. Hozirgi vaqtda Angliya dasturlashga integratsiyalashgan bo'lim sifatida emas, balki kengroq intizomga e'tibor qaratadigan kam sonli mamlakatlardan biridir. Informatika fani uchta tarkibiy komponentni o'z ichiga oladi: informatika, axborot texnologiyalari va raqamli savodxonlik. Fanning asosiy maqsadi talabalarda ko'nikmalar to'plamini shakllantirishdir [4]:

- informatika fanining asosiy tamoyillari va tushunchalarini, jumladan, abstraksiya, mantiq, algoritmlar va ma'lumotlarni taqdim etishni tushunish va qo'llash;

- real muammolarni hisoblash nuqtai nazaridan tahlil qilish, bunday muammolarni hal qilish uchun kompyuter dasturlarini yozishda bir necha marta amaliy tajribaga ega bo'lish;

- amaliy muammolarni hal qilish uchun analitik baholash va axborot texnologiyalarini, shu jumladan yangi yoki notanish texnologiyalarni qo'llash;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan mas'uliyatli, malakali, ishonchli va ijodiy foydalanuvchi bo'lish.

Yangi Zelandiya . Informatika 2011-yildan boshlab asosiy maktabning oxirgi uch sinfi uchun avtonom o'quv predmeti hisoblanadi. Ilgari, ta'limning bir xil bosqichlarida maktab o'quvchilarini kompyuterdan to'g'ri va to'g'ri foydalanishga o'rgatish masalasiga asosiy e'tibor qaratildi [2]. Dasturlash va informatika raqamli texnologiyalar yo'nalishi kontekstida ko'rib chiqiladi: algoritmlash va dasturlash, inson va kompyuterning o'zaro ta'siri, sun'iy intellekt va kompyuter grafikasi. Ushbu mavzular batafsil ko'rib chiqilmagan, talabalar yuqoridagi sohalar va texnologiyalar haqida birlamchi tasavvurni shakllantiradilar. Tayanch maktabni tugatgandan so'ng o'quvchilar informatika fanining predmeti, vazifalari, metodlari va texnologiyalari [1], raqamli bilimlarni qo'llash sohalarini haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Balanskat A., Engelhardt K. Bizning kelajagimizni hisoblash: Kompyuter dasturlash va kodlash – Yevropada ustuvorliklar, maktab o'quv dasturlari va tashabbuslar. – Yevropa maktab tarmog'i , 2014. 45-b.

2. Sahami M. Roach S., Kuadros – Vargas E., LeBlanc R. ACM/IEEE-CS informatika bo'yicha o'quv dasturi 2013: temirchining hisobotini ko'rib chiqish // Informatika ta'limi bo'yicha 44-ACM texnik simpoziumi, ACM, 2013. P. 13-14.

3. Bell T., Andreae P., Robins A. Yangi Zelandiya maktablarida informatikani joriy etish bo'yicha amaliy tadqiqot // Kompyuter ta'limi bo'yicha ACM operatsiyalari (TOCE), 2014. 14-jild. 2. 10-43-b.



ФОРМИРОВАНИЕ АНАЛИТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ИСТОРИИ

Равшанов Жамшид Файзуллаевич

Соискатель Чирчикского государственного
педагогического института Ташкентской области

Как мы знаем формы обучения не являются чем-то неизменным. Помимо развития образовательных учреждений, изменения задачи содержания обучения меняются и формы организации обучения. В данное время мы имеем дело с единой педагогической практикой, напротив, настоящий этап развития образования характеризуется существенным обновлением содержания и методик обучения, стандартизацией образования. Значительно возрастает доля творческого труда в профессиональной деятельности и увеличивается число преподавателей, вовлеченных в конструирование учебного материала и учебного процесса.

В Положении “Об утверждении государственных образовательных стандартов общего среднего и среднего специального, профессионального образования”, утвержденное Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 6 апреля 2017 года отмечено этапы изучения истории в общеобразовательных средних и средних специальных, профессиональных учебных заведениях, цели и задачи преподавания предмета, квалификационные требования к выпускникам общего среднего и среднего специального, профессионального образования.

В этой положении указывается в качестве основной цели преподавания истории в общеобразовательных и средних специальных, профессиональных учебных заведениях сформировать у студентов историческое сознание и историческое мышление, привить студентам чувство уважения к истории и современности народов мира и наших многонациональных народов, национальных и общечеловеческих ценностей, объяснить студентам, что история нашей государственности является неотъемлемой частью мировой цивилизации [1].

Также определяется компетенция умение работать с историческими источниками и литературой, чтобы иметь возможность объяснить содержание исторических топонимических терминов, которые важны для описания исторических реалий с самых ранних времен до наших дней. Данное время образования предусматривает переход на образовательные стандарты нового

поколения. Основой новых образовательных стандартов является компетентностный подход.

Понятия – “компетентностный подход ” и “аналитические компетентности” получали распространение недавно в связи с дискуссиями о проблемах и путях модернизации народного образования. Обращение к этим понятиям связано со стремлением определить нужные изменения в образовании.

Компетентностный подход – это совокупность общих и признанных принципов определения целей образования, отбора содержания образования, организации образовательного процесса и оценки образовательных итоговых результатов [2]. К числу таких принципов относятся следующие положения:

- смысл образования заключается в развитии у обучаемых способности самостоятельно решать проблемы в разных сферах и видах деятельности на основе использования социального опыта, элементом которого является и собственный опыт учащихся.

- содержание образования представляет дидактически адаптированный социальный опыт решения познавательных, мировоззренческих, нравственных и иных проблем.

- смысл организации образовательного процесса заключается в создании условий для формирования у учеников опыта самостоятельного решения познавательных, коммуникативных, организационных, нравственных проблем, составляющих содержание образования.

- оценка образовательных результатов основывается на анализе уровней образованности, достигнутых обучающимися на определённом этапе обучения [2].

Понятие “хороший сотрудник” включает качества хорошего специалиста, который имеет определённой специальной, профессиональной подготовленности. Но хороший сотрудник – человек, который может работать в команде, может принимать самостоятельные решения, инициативный, способный к инновациям, мыслящий креативно.

Другое изменение в обществе, которое тоже существенно влияет на характер социальных требований к системе образования заключается в развитии процессов информатизации. Одно из следствий развития этих процессов это создание условий для неограниченного доступа к информации. А также в условиях неограниченного доступа к информации в выигрыше будут те которые способны оперативно находить нужную информацию и использовать её для решения своих проблем.

Учитель истории должен подготовить учащихся к необходимости владеть большим объемом исторической материалом, знать понятийный аппарат,

уметь критически анализировать исторические документы, сформулировать свое суждение о важнейших исторических событиях, знать историографию вопроса.

В содержание обучения включаются только те знания, которые необходимы для формирования компетенций. В то же время ученики должны при необходимости уметь быстро и безошибочно воспользоваться этими источниками информации для разрешения тех или иных проблем.

Аналитические компетенции формируются в опыте собственной деятельности, поэтому образовательная среда должна выстраиваться таким образом, чтобы ученик оказывался в ситуациях, способствующих их становлению.

Самым удачным средством, помощником в данном процессе является исследовательский метод обучения. То есть при подготовке любого проекта ученику необходимо научиться принимать решения, ставить цель и определять направление своих действий и поступков; работать в команде, принимать и понимать точку зрения другого ученика; самостоятельно находить информацию, необходимый для работы, составлять план, оценивать и анализировать, делать выводы и учиться на собственных ошибках и ошибках товарищей; кроме этого, ученику приходится осваивать современные средства информации и информационные технологии; учиться представлять себя и свою работу, отстаивать личную точку зрения, вести дискуссию, убеждать, задавать вопросы; ученик, выполняя работу над собственным проектом, учится быть личностью, осознавая необходимость и значимость труда, который он выполняет.

Список используемой литературы

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан “Об утверждении государственных образовательных стандартов общего среднего и среднего специального, профессионального образования” от 6 апреля 2017 года.
2. Иванов Д.А. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании. М., 2007.
3. Вагин А. Методика преподавания истории в средней школе.- М.: Просвещение, 1968
4. Студеникин, М. Т. Методика преподавания истории в школе: учеб. для студ. высш. учеб. заведений. М.: ВЛАДОС, 2000.



HOW TO BUILD ON THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE FORMATION OF SELF-DEVELOPMENT COMPETENCE IN STUDENTS

Fayzullayev Mirzaodil

The psychologist-researcher of the faculty of Pedagogy
Chirchik State Pedagogical University

A modern pedagogue should be able to use and implement innovative methods in the educational process. Requirements for him in this process: knowledge of the concept of innovative technology, its content, their place and role in the implementation of the educational goal, the principles of their application in subjects, educational and work games, problem-based educational methods, ways to organize and ensure independent activities of students, their he should know and master the methods of improving the skills of independent work on himself, demonstration teaching methods, use advanced pedagogical technologies, pass exemplary training sessions, know and master the activating methods of education. In its implementation, mainly interactive methods are fully used.

An interactive lesson is an activity in which the pedagogue and students actively participate, the process takes place in cooperation. They are based on the active relationship between the pedagogue and the student, on the full explanation of each other. The goal of introducing them to the educational process is to ensure the cooperation of the pedagogue and the student, regardless of the form of the training, and wherever it is held. In this case, the pedagogue acts only as a guide, observer, and judge. Through these methods, the students' independent thinking skills are developed, and the ground is laid for the development of free thinking, independent decision-making, the ability to control emotions, and critical and creative thinking. The essence of teaching in interactive methods is as follows: both the teacher and the learner actively work with information, encourage and teach students to think independently, while the pedagogue serves to teach students to think, and serves students to learn to think. Forms of using interactive methods: individualization, division into small groups, classification, creation of a friendly environment in the process of teaching and learning, interaction, organization of cooperation.

An interactive lesson is an activity in which the pedagogue and students actively participate in each other, this process takes place in cooperation. The use of interactive methods turns the lesson process into a psychological game or competition, encouraging all students to express their thoughts to the general public, and to actively participate in the debates taking place in the classroom.

By using interactive methods, the following tasks are solved: to interest students in the subject of the lesson; achieve thorough mastery of knowledge; teaching students to think; teaching students to interact; creating conditions to ensure active participation of all students in the educational process; creating a moderate psychological climate in the student group.

Educators are required to take into account the following when creating an interactive environment in the educational process: interest students in the lesson; match the interests of teachers and students; give interesting information, but not too much; achieve variety of methods and tools; encouraging students to be active; friendly interactions between teachers and students; the ability of students to demonstrate the results of their work; achieving set goals; teaching students to apply their knowledge to life.

To activate the students, the correct choice of the methods used in the course of the lesson and the clear formulation of the questions have a great effect. For this purpose, the goal of the subject should be clearly defined in the lesson, and the way and method of achieving this goal should be carefully considered. The teacher must be able to foresee what each interactive method will give to the student and organize the lesson correctly. So, after choosing the interactive method you want to use, you can prepare the necessary pictures, handouts, exhibits, put them in an envelope and use them in teaching the topics.

The purpose of using interactive methods is to develop students' sense of present-responsibility, form a way of thinking based on debate and free thinking. Currently, there are many interactive methods that are widely used, but not all of them are suitable for use in primary education. First of all, the reading and writing speed of a primary school student is low and there are usually more than 30 students in a class. Interactive methods are designed for relatively small groups, and there are very few experiences of using them in primary classes. Therefore, if we talk about new technologies that can be used only in elementary school classes, we should first touch on game technology. The game is a natural situation for a primary school student, he can feel free during the game, forget about fear and shyness.

The famous philosopher Confucius said that a person forgets what he hears, remembers what he sees, and understands what he does. Therefore, the competence approach serves to form students' practical skills. For this, the use of methods that require students to be active in the educational process will give effective results. One such method is the method of games.

Didactic games are a means of using nature for educational purposes. The didactic game is also a means of increasing the mental activity of the student, it activates the psychological states of the students and increases their interest in the educational process. During the game, the student tries to overcome difficulties, his

general interest in the game eases the psychological state of the lesson, creates an upbeat mood and teaches the student to act cooperatively. Didactic games are divided into plot and training types. Plot games are connected to a familiar plot, in which roles are distributed. They include games such as "Telephone", "Who will pass the ball", "Telegraph". In the game exercises, only game elements are included, in which the bridge game has to be accepted conditionally. A game rule action is introduced. Examples of such games include "Silent" and "Mathematical Relay".



OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Ikrom Qodirov

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Har bir davrda bo'lganidan farqli o'laroq, XXI asr barcha sohalarda keskin rivojlanishni, jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy omillari chuqur ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan manbalarga tayanishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazarda olib qaraydigan bo'lsak, jamiyatning barcha sohalarida yuqori kompetentlikka ega bo'lgan zamonaviy mutaxassislariga bo'lgan ijtimoiy talabni yuzaga keltirmoqda. Albatta bu jarayon oliy ta'lim muassasalari oldiga kadrlar tayyorlash hamda ularni ichki va tashqi raqobotbardoshligini ma'lum kafolatlarini ta'minlashni nazarda tutadigan innovatsion pedagogik dasturlar asosida tashkil etish, ijtimoiy-iqtisodiyotning barcha sohalarida sifatli, mobillashgan kadrlar tayyorlash dasturining kompleks metodikalari negizida amalga oshirish zaruratini qo'yadi.

Kompetentsiya atamasi lotincha "competo" so'zidan olingan bo'lib, "erishyapman", "munosibman" va "loyiqman" degan ma'noni anglatadi. Muayyan soha vakilining o'z sohasidagi bilimlar, tajribalarga ega ekanligini anglatadi[1].

Kompetentsiya iborasi zamonaviy adabiyotda keng qo'llaniladigan termin bo'lib, ta'lim, xodimlarni tanlash, mehnat natijasini baholash, ta'limning muvaffaqiyatli, professional yo'naltirilganlik va shu kabi masalalarni qamrab oladi. Bugungi kunda ma'no nuqtai nazaridan oxirgacha aniqlashtirilmagan deb hisoblanadi.

1970-yillarda ko'pgina G'arbiy Yevropa davlatlarida paydo bo'lib, bunda kompetentlik professional tayyorgarlikning yangi yo'nalishini ko'rsatadigan bo'ldi. "Kompetentlik" termini ta'lim faqatgina individual, texnik yoki tajribiy bilim va qobiliyatni egallash masalalari bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki individ shaxsni keyinchalik rivojlantirishga baza bo'lib, xizmat qila oladigan qobiliyat va

ko'nikmalar majmuasini ifoda qiladi. Ammo bu g'oya barcha Yevropa davlatlarida turlicha o'z ifodasini topdi[2].

I. V. Gladkanyaning ta'kidlashicha, pedagogik ta'limning yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ishlashga tayyor bo'lgan mutaxassisni tayyorlashga yo'nalishi, uning individualligi va shaxs sifatida o'ziga xosligini hisobga olgan holda, kasbiy kompetentsiyaning shakllanishini bunday mashg'ulotdan kutilgan natija sifatida belgilaydi[3].

Kompetentsiyani tavsiflovchi eng muhim fazilatlardan biri bu tashabbuskorlikdir. Bu faoliyatning yangi shakllariga ichki uyg'onish, har qanday harakatda yetakchi rol o'ynaydi. Tashabbus – bu inson tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyatning bir turi. Tashabbus insonning ijtimoiy me'yorlarga sodda rioya qilishdan ko'ra ko'proq mas'uliyat yuklashi bilan tavsiflanadi. Kompetentsiyaning yana bir muhim komponenti – bu hamkorlik. Bu bolalar va kattalarning birgalikdagi rivojlanish faoliyati haqidagi gumanistik g'oya bo'lib, o'zaro tushunish, ruhiy olamga kirib borish, faoliyatning borishi va natijalarini jamoaviy tahlil qilish bilan mustahkamlanadi. Shunday qilib, kompetentsiya – bu ma'lum bir ijtimoiy va kasbiy mavqega ega bo'lgan odamlarning bilimlari, ko'nikmalari va tajribalarining ular bajaradigan vazifalar va ular hal qilayotgan muammolarning haqiqiy murakkablik darajasiga muvofiqligi o'lchovidir[4].

Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetentsiya, kompetentlik o'ta murakkab, ko'p qismli, barcha fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqin va izohlari tarkibiga ko'ra va ma'no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tuman. Terminning mohiyati «samaradorlik», «moslashuvchanlik», «yutuqlilik», «muvaffaqiyatlilik», «tushunuvchanlik», «natijalilik», «uquvlilik», «xossa», «xususiyat», «sifat», «miqdor», «o'lchov» kabi tushunchalar asosida tavsiflanmoqda. Umumiy qilib aytganda, «Kompetentlik – aniq bir kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganlik xususiyatidir» [5].

Kompetentlik – kompetentsiyaga egalik. Odatda kompetentlik tushunchasi biror-bir sohada chuqur bilimga egalik deb ta'riflanadi. Bu asosan mutaxassisni kasbiy sohada chuqur bilim va kvalifikatsiyaga ega bo'lishidir. Bunda nafaqat bilim, balki tajriba ham nazarda tutiladi. Shunday qilib, kompetentlik bu – bilim, ko'nikma va malakalar; insonning ma'lum bir talabga javob berishi, belgilangan ko'rsatmalar asosida harakatlanishi; biror bir sohada produktiv harakatlanish natijasida dolzarb masalalarni samarali yechimini topishdir.

Kasbiy kompetentlik – maxsus kasbiy bilim va kasbiy faoliyat sohalarini mukammal o'zlashtirish, kasbiy muammolar mohiyatini chuqur tushunish,

ishbilarmonlik bilan keng doirali kasbiy vazifalarni xatosiz va samarali hal eta olish manosini bildiradi[6].

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

Psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

Kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o'quvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Oliy o‘quv yurtlarining o‘quv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik muammolarni yechish qobiliyati alohida ahamiyatga ega, chunki ular pedagogik faoliyatning asosini tashkil etadi. Ijodiy muhitni yaratishning o‘ziga xos xususiyati sifatida o‘quv jarayonida talabalarga muammolarni hal qilishning ijodiy yo‘llarini izlashni talab qiladigan nostandart, ijodiy pedagogik vazifalarni maksimal darajada qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 4-jild. ZEBUNNISO – KONIGIL. -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2002. –683-b.
2. Malaka va kompetensiyalarni baholash fanidan o‘quv qo‘llanma. –T.: 2012. – 14-b.
3. Гладкая И.В. Становление понятия “профессиональная компетентность” в теории профессионального образования // ЧЕЛОВЕК И ОБРАЗОВАНИЕ № 1 (26) 2011. – С.130.
4. Тлеубердиев Б.М., Рысбаева Г.А., Медетбекова Н.Н. Профессиональная компетентность педагога// Международный журнал экспериментального образования №10, 2013. С. 47.
5. Хуторской А. В. Технология проектирования ключевых и предметных компетенций. eidos.ru/journal/2012/0829-05.html.
6. Ibragimov B. Zamonaviy malaka oshirish tizimida sport sohasidagi trener kadrlarni tayyorlashning metodologik yondashuvlari//Pedagogik mahorat (Ilmiy-nazariy va metodik jurnal). 5-son (2019-yil, oktabr). – 211-b.



KASBIY FAOLIYATGA MOSLASHISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLARI

Sadikova Rejap Satvaldiyevna
OshDU o‘qituvchi

Har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Kasbiy shakllanish deganda insonning o‘z aqliy qobiliyatlari jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko‘ra biror bir kasb sohasida ta’lim olish keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida etuk va malakali mutaxassis bo‘lib etishishi tushuniladi. Shaxs tarkib topishining

ixtisoslik egallash bosqichi, 17-18 va 21- 23 yoshdagi yigit va qizlardan tashkil topib, kasbiy faoliyatni egallashning o'ziga xosligi bilan boshqa taraqqiyot davrlaridan ajralib turadi. Ushbu holatlar o'ziga xosligi bilan namoyon bo'ladi: bilimlar, ko'nikmalar va malakalar egallashdagi individuallik; faoliyatning individual uslubining paydo bo'lishi; kasbiy motivasiyaning ustuvorligi; ma'naviy ehtiyoj, barqaror qiziqish, qat'iyat yetakchiligi; mutaxassislikka munosabatning shaxsiy pozitsiyaga bo'ysunganligi; ta'lim muassasasi muhiti o'ziga xosligining ular shaxsiyatida ifodalanishi; amaliyotga va muhitga moslashishning sifat jihatidan tafovutlanishi.

Shaxs shakllanishining keyingi bosqichi yoshlik davridan iborat bo'lib, ixtisosiy yetuklikni o'zida aks ettiradi. Ko'pincha barkamollik alomatlari quyidagilarda ifodalanadi: kasbiy, ixtisosiy individuallik, betakrorlik, o'ziga xoslik yuzaga kelishi; kasbiy, ixtisosiy mahorat darajasiga erishuv; o'z sohasida tashabbuskorlik xususiyatini namoyish etish; ijtimoiy baholash ekspertizasi – tekshirish mezonlariga batamom mos tushishlik. Shaxsning ma'lumot darajasiga qaramay, yuksak ko'rsatkichlarga erishuvi uning kamolotidan darak beradi. O'z sohasida kasbiy, ixtisosiy mahoratini namoyish etish yetuklikning yuksak darajasini bildiradi va jamoatchilik fikrida iliq iz qoldiradi. Tashabbuskorlik takliflari, ixtirolari sohadagi muvaffaqiyatni ifodalab berib, betakror shaxs ekanligini isbotlashga xizmat qiladi. Noyob kasb egasi, fenomenal qobiliyatli, iste'dodli yetuk shaxs shakllanganligi ijtimoiy- tarixiy voqelik sifatida yuksak baholanadi.

Kasb-kor (hunar) oldiga qo'yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, umumiy hamda xususiy jabhalarni o'zida aks ettiradi:

1. Kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi
2. Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati
3. Kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi
4. Kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi: yoshlarda uning ijtimoiy mavqei (nufuzi), jamoaning o'ziga xos xususiyatlari, vertikal va gorizontaal bo'yicha shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari
5. Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko'nikmalar ko'lamining pedagogik tavsifi (maxsus mezonlar orqali kasbiy mahorat aniqlanadi)
6. Pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, tadbir-choralarning umumiy tavsifi
7. Mehnat sharoitining gigienik tavsifnomasi
8. Kasb bo'yicha mehnat qilishga tibbiy jihatdan ta'qiqlanuvchi omillar izchilligi
9. Kasbga psixologik nomutanosiblik, yoki kasbiy yaroqsizlik

10. O‘zini o‘zi faollashtirish va identifikasiyalash

Kasbning inson oldiga qo‘yadigan talablari majmuasi psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy va pedagogik jabhalarni qamrab oladi. Kasb va ixtisos asoslarini egallovchi yoshlar shu fanlarning barcha talabalariga moslashishi orqali mutaxassislik layoqatini rivojlantira boradi. Kasb tanlashga yo‘naltirish davlatning tadbir-choralari tizimidan iborat bo‘lib inson tomonidan tanlanadi, o‘z hayot yo‘lining ilmiy asoslanganligini ta‘minlashga xizmat qiladi, u turmushda o‘z o‘rnini aniqlaydi va quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- 1) kasbiy ma‘lumotlar berish;
- 2) kasb-hunar maorifi bilan shug‘ullanish;
- 3) radio, televideniye, kino, matbuoda tashviquot qilish;
- 4) kasb yuzasidan maslahatlar;
- 5) kasbga saralash (qobiliyatiga binoan);
- 6) kasbga moslashish (adaptasiyalash).

Shaxs shakllanishining uchinchi bosqichi yoshlik davridan iborat bo‘lib, ixtisosiy yetuklikni o‘zida aks ettiradi. Ko‘pincha barkamollik alomatlari quyidagilarda ifodalanadi: kasbiy, ixtisosiy individuallik, betakrorlik, o‘ziga xoslik yuzaga kelishi; kasbiy, ixtisosiy mahorat darajasiga erishuv; o‘z sohasida tashabbuskorlik xususiyatini namoyish etish; ijtimoiy baholash ekspertizasi – tekshirish mezonlariga batamom mos tushishlik.

Shaxsning ma‘lumot darajasiga qaramay, yuksak ko‘rsatkichlarga erishuvi uning kamolotidan darak beradi. O‘z sohasida kasbiy, ixtisosiy mahoratini namoyish etish etuklikning yuksak darajasini bildiradi va jamoatchilik fikrida iliq iz qoldiradi. Tashabbuskorlik takliflari, ixtirolari sohadagi muvaffaqiyatni ifodalab berib, betakror shaxs ekanligini isbotlashga xizmat qiladi. Noyob kasb egasi, fenomenal qobiliyatli, iste’dodli etuk shaxs shakllanganligi ijtimoiy – tarixiy voqelik sifatida yuksak baholanadi.

Inson kamolotining navbatdagi davri subyekt deb nomlanib, o‘ziga xos xususiyatlari bilan umrning boshqa bosqichlaridan ajralib turadi. Har qaysi shaxs subyekt darajasiga o‘sib o‘tishi mumkin emas, lekin uning ayrim xususiyatlarini egallash imkoniyatiga egadir. Subyekt o‘zining mana shu xususiyatlari bilan shaxsdan tafovutlanadi: xulq-atvorda, faoliyatda, muomalada mustaqillikning ustuvorligi; ijtimoiy hayotning har bir jabhasida shaxsiy pozisiyaga egalik; ilg‘or insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surish va originalligi, nostandardligi, innovasion ekanligi bilan ajralib turishlik; g‘oyalarni qaror toptirishda obyektiv va subyektiv to‘siqlarni yengish.

Subyektning eng muhim ko‘rsatkichi – bu professionalizmga erishuv va ijtimoiy-siyosiy yetuklikni namoyish qilishdir. Nomdor mutaxassislar, fan va texnika, jamoat arboblari, ijodiy-tarixiy fikrlovchilar, siyosatchilar, davlat rahbarlari

subyekt bosqichida faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Shuning uchun ushbu vaziyatda ommaviylikka erishuvga intilish jamiyatning taraqqiyotini tezlashtirish sari yetaklaydi, fidoiy, toliqmas kishilar safini kengaytirishga xizmat qiladi.

Komil inson g'oyasi insoniyatning asriy orzusi bo'lib hisoblanadi va ushbu darajaga erishish borliqni, tabiatni, jamiyatni bilishning muhim manbai sanaladi. Hozirgi zamon nuqtai nazaridan komil insonlikni to'rt bosqichga ajratib talqin qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Inson kamolotining bu bosqichiga kelib o'zining sohasi bo'yicha piri ixtisos darajasiga erishadi. Buning natijasida yetuk inson hayot va faoliyatda ijtimoiy-tarixiy psixologik namuna bosqichiga o'sib o'tadi, o'zining salohiyati bilan sohani taraqqiy ettirish manbaiga aylanadi. Individuallik namunasi milliy va insoniy ahamiyat kasb etadi, taraqqiyotni harakatlantiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Bu bosqichdagi insonlarning asosiy xususiyatlari quyidagilarda o'z aksini topadi: yuksak aql-zakovatga egalik, intellektual faoliyatda mahsuldorlik; antisipasiya kundalik faoliyat mahsuliga aylanganlik, ya'ni amalga oshirish, rejalashtirilgan faoliyat natijasining oldindan modelini yaratish; xulq, faoliyat, muomala jarayonlarida o'z imkoniyatini oqilona baholash va o'zgalar tomonidan xuddi shunday darajaga erishish; sohaga oid talant va salohiyatning amaliy ifodalanishini ta'minlash.

Ixtisoslararo bilimdonlik komil inson kamolotining navbatdagi yuksak bosqichi bo'lib, hozirgi davrda bir necha sohalar bo'yicha mukammal bilimlarga, qarashlarga egaligi bilan tavsiflanadi. Sohalarning kengayishi tufayli bu darajaga erishish imkoniyati tobora cheklanib bormoqda, chunki fan va texnika jadal sur'atlar bilan o'sishi, axborotlar salmog'ining soniya sayin ortishi vaqt taqchilligini keltirib chiqarmoqda. Fazoviy va vizual munosabatlar to'g'risidagi miqdor hamda sifat o'zgarishlari inson da'vosi bilan uning imkoniyati o'rtasida ziddiyatli holatlarni vujudga keltirmoqda.

Ixtisoslararo bilimdonlik o'ziga xos ikki xususiyati bilan boshqa kamolot bosqichlaridan ajralib turadi: uzluksiz ravishda kashfiyotlarni amalga oshirishga qobillik; har bir ixtisos predmetiga oid qarashlarda mukammallikka, sermahsullikka va dinamizmga erishish.

Komil insonning navbatdagi kamolot bosqichi aqliy donishmandlik deb atalib, tabiatga va jamiyatga, biosfera va noosferaga nisbatan super onglilik ko'rsatkichiga erishish bilan tavsiflanadi. Aqliy donishmandlik axloqiy madaniyat, yuksak his - tuyg'ular, muomala maromi, tabiat va jamiyat normalariga rioya qilishlik bilan uzviy uyg'unlikda hukm suradi. Axloqiy etuklik siyosiy, huquqiy, iqtisodiy ong ko'rinishlariga oqilona yondashishni ta'minlaydi. Aqliy donishmandlik axloqiy, intellektual, estetik va praksik (mehnat natijasidan lazzatlanish) yuksak his - tuyg'ular manbasiga bevosita asoslansa, to'kislik, mukammallik namunasini aks

ettiradi. Umumbashariy daholik jamiyat va taraqqiyot taqozasi bilan vujudga keluvchi imkoniyat yoki zaruriyatning mahsulidir. Fan, texnika, siyosat, din, davlat qurilishi sohasida keskin o'zgarishni amalga oshiruvchi tarixiy shaxslar kamolotning oxirgi bosqichiga erishishi mumkin. Bunday darajaga erishganlar o'zlarining valeligi, bashoratchanligi bilan davrdan, zamondan ancha ilgarilab ketish hollari bilan tavsiflanadi.

Umumiy xulosa shundan iboratki, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'z sohalari bo'yicha kasbiy va shaxsiy sifatlarni o'zlarida mujassam bo'lishlariga erishishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki, jamiyatning taraqqiyoti pedagoglarning o'z sohalari bo'yicha kompetensiyaga ega, yuksak darajadagi mahorat egalari ekanliklari bilan ham bog'liqdir. Zero farzandlarimiz pedagoglarning to'g'ri yondashuvi asosida o'z sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib, jamiyat ravnaqiga hissa qo'shishsin. Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim. Fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berishi uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga yetishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva R. M., Khimmataliev D. O., Khakimova M. F., Beknazarova Z. F.,
2. Minlishev R. Z. Formatuon of professional competence of students of technical universities through interdisciplinary integration. University Press Journals. November 21, 2019. 422-424.
3. G'oziyev E.G'., Mamedov K. Q. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T. 2013.103-b.
4. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari Avtoreferat psixologiya fanlari nomzodi. –Toshkent 2002. –22-b.



INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM SHAROITIDA "BOG'CHA-LABORATORIYA" MUHITINING FUNKSIONAL ASPEKTLARI

Temirova Mexrinoz Botiraliyevna

Toshkent shahar Sergeli tumani MTB mudiri

Respublikamizda ta'lim sohasini isloh qilish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirish, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etish [1] hamda ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni kiritish, ta'lim turlari klasterini ta'minlash, ular o'rtasidagi integrasiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim modulli laboratoriyasi konsepsiyasi umumiy qoidalarida hozirgi globallashuv sharoitida maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq dolzarb vazifalar hamda ularni hal etishning pedagogik ta'lim klaster muhitini yaratishni nazarda tutadi. Unda yoshlarni jismonan va ma'nau sog'lom qilib tarbiyalash, sohaga pedagogikaning zamonaviy yutuqlarini jalb qilish, mobil tipda qurilgan maktabgacha ta'lim modulli laboratoriyasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora tadbirlar qamrab olingan.

Pedagogik ta'lim rivojlanishining klaster tizimi ta'lim berish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'limning barcha bosqichlarida mavjud muammolarni mobil aniqlash hamda uning yechimi sifatidagi metodik ta'minot, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar bo'yicha ta'lim faoliyatini boshqarish, tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'nalishlari o'rtasida uzviylik hamda integrasiyani ta'minlash asnosida bo'lajak maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachi-pedagoglarining raqobatbardoshligini ta'minlashda, zamonaviy bog'cha amaliyoti bilan erta tanishish maqsadga muvofiqdir.

Jamiyatimizning bugungi rivojlanish bosqichida pedagogik ta'lim innovasion klasteri ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning umumiy amaliyotga yo'naltirilgan hamkorligi, ta'lim tizimining ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni ta'minlaydigan, ilmiy-tadqiqot muassasalarda to'plangan tajriba va erishilgan ilmiy-amaliy yutuqlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning, shuningdek, hayotning barcha jabhalariga yetib borishini samarali amalga oshiradigan yaqin kelajakdagi eng muhim tizim sifatida taqdim etilmoqda. Bunda ta'lim muassasalari va jamiyat boshqa manfaatdor tomonlarining o'zaro uzviy va uzluksiz aloqasini ta'minlash, ta'lim jarayonining pirovard mahsuli – har tomonlama yetuk pedagog kadrlarni yetishtirish ularning jamiyatga naf keltirishi uchun ilmiy, ijodiy, ma'naviy,

iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Chunki kadrlar bilim saviyasi va raqobatbardoshligi iqtisodiy ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo‘jaligi va jamiyatning boshqa sohalari taraqqiyoti hamda raqobatbardoshligining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bo‘lajak pedagoglarni mobil kadr qilib tayyorlash, umuman boshlagan har bir ishning sifat samarasini aynan shu masala bilan chambarchas bog‘liqligini rivojlangan mamlakatlar tajribasi va qolaversa, hayotning o‘zi yaqqol ko‘rsatib turibdi. Bu esa amaldagi huquqiy-me‘yoriy hujjatlarning takomillashtirib borilishi bilan ham bevosita aloqadordir.

Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlari talablariga muvofiq yo‘nalishlar bo‘yicha bakalavr va magistrlar tayyorlash uchun “Pedagogik ta‘lim” [2] o‘qituvchi va maktabgacha ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarning kasbiy faoliyat standarti talablari bilan xarakterlanadi. Bunda konstruktiv, dizayn, tashkiliy, kommunikativ, pedagogik faoliyatning tahliliy, uslubiy tarkibiy qismlari rivojlanadi hamda shu bilan birga ta‘lim olishda ilmiy-tadqiqot hamda ijodiy kreativlikni tashkil etishni talab etadi. Pedagogik faoliyat va kasbiy mahoratning rivojlantirishdagi zaruriy mashg‘ulot ishlanmalarini jamoaviy holda ishlab chiqishda hamda ularni amaliyotga qo‘llay olish jarayonida o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini, tarmoqlararo ta‘lim tashabbuslarini qo‘llab quvvatlash zarur, bundagi pedagogik texnologiya aspektlari quyidagicha ifodalanadi.

Bunda pedagogik texnologiya tushunchasi 3 ta aspektda namoyon bo‘ladi:

– ilmiy aspekt – fanning qismi sifatida ta‘lim metodlari, tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqishi, o‘rganishi bilan bir qatorda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish;

– tavsifiy aspekt – ta‘limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, tarkib, uslub va vositalar jamlanmasi;

– amaliy aspekt – pedagogik jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik metodologik (uslubiy), instrumental vositalarning amal qilishini xarakterlaydi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyani fan sifatida qabul qilish va amaliyotga qo‘llashda ta‘limning yanada rasional hollarini tadqiq qilishimizni talab etadi. Bu esa ta‘limda qo‘llaniladigan usullar, tamoyillar va regulyativ tizimi sifatida hamda ta‘limning real jarayoni sifatida qarash mumkin. Ta‘lim tizimi rivojlanishining zamonaviy sharoitida o‘quv jarayonini tashkil etish va u maktabgacha ta‘lim tizimi metodlaridan foydalanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak hamda tarbiyalanuvchilarda mustaqil izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishga hissa qo‘shishi lozim. O‘quv ma‘lumotlari, bilimlarni ma‘lum bir asosga qurish va ta‘lim tarbiya berish, natijalarini tahlil qilish chora tadbirlarining ko‘rilishi hamda tarmoq yo‘nalishlarida katta imkoniyatlarga ega bo‘lishi,

darsdan tashqari mashg'ulotlarda faol ishtirok etish, o'qituvchi o'quvchilar tomonidan loyihalash, uni yaratishga bo'lgan harakati ta'lim mahsulotining yakuniy shakli sifatida qarash mumkin. Ta'lim faoliyati mezonlari, tuzilmasi ishlab chiqiladi va tarmoqlararo ta'lim tashabbuslarini mazmunan tanlash amalga oshiriladi yakunda u baholanadi va albatta rag'batlantirilishi lozim. Ta'lim tadbirlari uchun mavzularni tanlash turli vaziyatlar har xil bo'lishi mumkin ba'zi hollarda, mavzu tasdiqlangan dasturlar doirasida o'qituvchilar tomonidan boshqa mavzularda tuzilgan fan bo'yicha ta'lim holatini hisobga olgan holda ilgari suriladigan loyihalar bilan o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuziladi. Ushbu faoliyatning eng keng tarqalgan yondashuvlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: rejalashtirish; o'qituvchi yoki talabalar guruhi o'rtasida vazifalarni ishlab chiqish va taqsimlash; axborot resurslarini izlash va tahlil qilish; ijodiy echimlarni topish va muhokama qilish; ishtirokchilarning ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlari natijalari hamda ularning tahlili; mustaqil ishlarining mazmuniga e'tibor berish; olingan natijalarni himoya qilish ssenariysini ishlab chiqish va ularni jamoaviy holda muhokama qilish.

Shunday qilib, buni ta'lim natijalari sifatida aniqlash mumkin. 1-jadvalda keltirilgan kompetensiyalar majmui aspekt bo'yicha o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining tarkibiy ta'lim tashabbuslarini ishlab chiqish va amalga oshirishni belgilaydi.

	Zaruriy kompetensiyalar
Strukturaviy ta'lim faoliyati	– mashg'ulotlarni tashkil etishning didaktik xususiyatlarini bilish, internet texnologiyalaridan foydalanishi; – ta'lim faoliyatini uyg'unlashtirish, muammolarni hal qilishga qaratilgan o'quv, tarbiya jarayonining umumiy tuzilishi, talabalarning intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanishi; – multimedia, interaktiv dasturiy ta'minot imkoniyatlarini bilish; – ta'lim natijalarini loyihalashtirish; – amaliy faoliyati uchun tegishli sohalardagi bilimlari; – o'quv materiallari va topshiriqlari (tadqiqot, ijodiy, amaliy) bilan talabalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish; – nazorat ko'rinishidagi turli materiallarni ishlab chiqish qobiliyati hamda natijalarini tezkor baholash; – ta'lim tashabbusida yangilangan metodlardan foydalanish; – talabalarning individual va guruh faoliyatini hisobga olish;

Komunikativ faoliyat	– ta’lim tashabbusi ishtirokchilari bilan o‘zaro hamkorlikka tayyorlik va ta’lim jarayonida kompyuterlardan samarali foydalanishi; – “talaba”da hamkorlik va o‘zaro yordam muhitini yaratish qobiliyatini rivojlantirish; – ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish va oqilona yechimi haqida kreativ fikrlar jamlanmasini tuzish; – mustaqil muhokama qilish asosida ta’lim tashabbusining mazmun mohiyatini aniqlashtirish; – ta’lim jarayonida olingan natijalarni muhokama qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
Ekspert mutaxassis faoliyati	– yuzaga kelgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va baholash qobiliyatni yuzaga chiqarish; – belgilangan didaktik vazifalarni hal etish omillari; – talabalarning darsdan tashqari faoliyati hamda mustaqil ravishda amalga oshirishni o‘rganish; – individual ijodiy qobiliyatlardan foydalanish, tadqiqot muammolarini mustaqil hal etish;
Tashkiliy faoliyat	– ishtirokchilarning motivatsiyasi va kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish usullariga ega bo‘lishi; – mustaqil o‘quv ishlarini tashkil etish qobiliyati (individual, guruh) asosida ta’lim tashabbusining o‘quv material bilan o‘qitishning innovasion usullaridan foydalanishi; – ijtimoiy mobillikni ta’minlashga pedagogik yordam ko‘rsatish va ta’lim tashabbusi jarayonida talabalarning faolligi; – o‘z-o‘zini va o‘zaro baholashni tashkil etishga tayyorgarlik, ta’limning oraliq natijalari; – ta’lim jarayonida sifatni baholashning zamonaviy usullari va texnologiyalarini qo‘llash qobiliyati; – ta’lim jarayonidagi hamkorlikni tashkil etish, ulardagi faollik, tashabbuskorlik, mustaqil hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;

Ta’lim klasteri sharoitida pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, talabalari hamda bog‘chalarda faoliyat yuritayotgan xodimlar hamkorligida ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan ta’limiy faoliyat muhim rol o‘ynaydi. Mobil ta’lim jarayonini, ayrim turdagi elektron ta’lim kurslarini tashkil etishda aralash ta’lim texnologiyalarini taqdim etuvchi elektron kurslar kombinasiyasi, aralash (masofaviy, an’anaviy, mustaqil) ta’limda talabalarning doimiy hamrohliklari (topshiriqlar, ishni sharhlash, maslahat va boshq.)ni inobatga olishligi lozim. Elektron kursni loyihalash bosqichi ta’lim

faoliyati davomida esa konstruktiv, dizayn faoliyati, o'qituvchilar uchun o'quvchilarni bilish va ularning ta'lim dasturlarini hisobga olish kerak.

Maqsadga yo'naltirilganlik esa, jarayon natijalarini tashhisli tekshirish, ta'limni alohida o'rgatuvchi qismlarga bo'lib tashlash o'quv jarayonining qirralarini, ta'lim faoliyatini qayta ishlab chiqish g'oyasiga birlashtirish imkonini beradi. U asosan ta'limda umumiy maqsadning aniq tarzda qo'yilishi, umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish; pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash; bajariladigan o'quv tarbiyaviy ishlarning jamlanmasi hamda natijani baholash kabilarni o'z ichiga oladi. Bundan ko'rinadiki, o'quv jarayoni "modulli" ko'rinishga kelib, turli mazmun bilan to'ldirilgan, umumiy tizimga mos holda ishlab chiqariladigan bloklar, qismlardan iborat bo'lishi kerak [3].

Maktabgacha ta'lim muasasalarida zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqtlar ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni qo'llay olish, ularda ma'lum o'quv dasturlari yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta'lim-tarbiya faoliyatini nazorat qilish, egallangan kompetensiyalar darajasini baholash hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi. Ta'lim jarayonining samarali bo'lishi, eng avvalo, tarbiyalanuvchilarning bir-birlariga nisbatan fazoviy joylashuvlariga ham bog'liq holda, ularning psixologik mavqelarining mohiyati muhim bo'lganligi bois biz ularga ham e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi.

Pedagogik ta'lim klasteri muhitida integrasiyalashgan ta'lim mazmunini ishlab chiqishda pedagogika institutlari, avvalo, innovatsiyalarga e'tibor qaratishi lozim. A. I. Tatarinsevnining ta'kidlashicha, bo'lajak pedagoglar ta'lim sohasidagi o'zgarishlarga, tarbiyalanuvchilarning ta'lim-tarbiyaga yo'naltirilgan faoliyatga asoslangan va yangi texnologik amaliyot (loyiha va kompetentlik)ga asoslangan, didaktik materiallarni ham e'tibordan chetda qoldirmagan holatda kasbiy faoliyatini olib borishi lozim[4]. M. A. Suxarev esa bo'lajak mutaxassislar ta'lim faoliyatining barcha tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda individual yondashishlarni olib borishi, integrasiyalashgan ta'limda nazariy va amaliy bilim olishning shart-sharoitlar yaratishi, ta'lim yutuqlarini baholash va ta'lim faoliyati davomida yangi metodlardan foydalangan holda mashg'ulotlar olib borish zarurligini [5] keltirib o'tadi. Shuning uchun ta'lim mazmunida birinchi navbatda psixologik va pedagogik talablarga javob beradigan materiallarga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Bunda birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ma'lumotlarning dasturga mos kelishi hamda o'rganilayotgan metodlari bilan tarbiyalanuvchilarning tanishtirilishi, ikkinchidan, o'quv materialdagi tizimlilik, izchillilik va didaktik tamoyillar ko'rinishida amaliyot bilan bog'liqliligi hamda uchinchidan, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini va tayyorgarlik darajasini, to'rtinchidan, ta'lim klasteri

“bog‘cha-laboratoriya” muhitidagi ta’lim-tarbiya mazmunining tasnif tuzilmasi muhim hisoblanadi. Ushbu tasnif tuzilmasi quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi:

1. Maqsad yo‘nalishi bo‘yicha: instituti professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan elektron o‘quv materiallariga kiritilgan fanlar (o‘quv materiallari, ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, fanlar bo‘yicha axborot va ma’lumotnomalar, avtomatlashtirilgan testlar, virtual laboratoriyalar va boshqalar) sohasini kengaytirib borish hamda talabalar uchun tadqiqot obyektiga sharoit yaratish.

2. Professor – o‘qituvchilarning talabalar bilan o‘zaro hamkorligi, talabalar uslubiy ishlarining turli shakllarini amalga oshirish (ilmiy o‘quv jarayoni, uslubiy materiallar, o‘quv materiallari, talabalarning veb-portfeli, me’yoriy va fanlarning uslubiy ish dasturlari, ilmiy va uslubiy seminarlar, sinfdan tashqari tadbirlar, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish va sinfda internet texnologiyalari yordamida o‘qitish bo‘yicha ko‘rsatmalar, ochiq onlayn kurslar) bo‘yicha yo‘nalish hamda ko‘rsatmalar berish;

3. Ta’lim yo‘nalishidagi fanlardan o‘tilgan mashg‘ulotlar yuzasidan nazorat va diagnostika ishlari o‘tkazish asosida ta’lim yutuqlarini baholash hamda tahlil qilib natijalarni e’lon qilish.

4. Interaktivlik darajasi bo‘yicha foydalanuvchining ishini o‘z ichiga oladi uning mazmunini – statik [6] (matnni o‘qish, shu jumladan uning harakatini boshqarish, ko‘rish oynasida grafik tasvirlarni ko‘rish) kompozitsiyasini idrok etish kabi tushunchalarning ma’no mazmuni haqida statik ma’lumotlar bazasini ko‘rsatish;

5. Faoliyat davomidagi obyektlar hamda jarayonlarning parametrlari haqida tushunchalarga e’tibor berish, ularni loyihalash, tarbiyalanuvchilarga ta’sirini ilmiy izlanishlarda shakllantirish hamda uslubiy ketma-ketlikka asoslangan natijaga qaratiladi. Masalaning muhim tomoni ishlab chiqilgan nazariy konsepsiya, klaster tizimida integratsiyalashgan ta’lim faoliyatidagi “bog‘cha-laboratoriya” metodik tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarni qayta o‘qitish va malakasini oshirish; o‘qitishning maxsus siklini mazmunan asoslab berish va loyihalashtirish, pedagogika bakalavriyatlarini metodik tayyorlash uchun fanlar “ta’lim yo‘nalishlari”ga [7] muvofiq o‘qitilishi, aralash (masofaviy) ta’limning axborot muhiti va ta’lim metodikasi, “tarmoq” loyihasi faoliyati, shuningdek, ochiq aralash (masofaviy) ta’lim kurslari, talabalarda ijodiy ilmiy ta’lim va tadqiqotlarni rivojlantirish; tashkiliy-uslubiy materiallar to‘plamini ishlab chiqish, ta’lim jarayonida “bog‘cha-laboratoriya”ni joriy etish, tashkiliy va ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish uchun normativ hujjatlar, pedagogika instituti hamda ta’lim muassasalari, “tarmoq” ta’limi tashabbuslarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar tayyorlash, talabalarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish hamda uni takomillashtirish. Metodik materiallar ko‘lamini kengaytirish, axborot resurslari,

o'qituvchilarning metodik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim yo'nalishlaridagi baholashda monitoringlardan foydalanish tartib qoidalarini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”

2. Федеральный государственный стандарт высшего образования по уровень высшего образования Магистратура направление подготовки 44.04.01 “Педагогическое образование” [Электронный ресурс] – Режим доступа: [хтttp://минобрнауки.рф/документы/5034](http://минобрнауки.рф/документы/5034) (дата обращения: 16.10.2015).

3. Технологии, определяющие будущее образования [Электронный ресурс] // Образовательная галактика Интел – Режим доступа: [хтttp://едугалахй.интел.ру](http://едугалахй.интел.ру) (дата обращения. 2013.

4. Татаринцев, А. И. электронный учебно-методический комплекс как компонент информационно-образовательной среды педагогического вуза / А.И. Татаринцев // Теория и практика образования в современном мире: материалы междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, февраль 2012 г.). – СПб.: Реноме, 2012.

5. Сухарев, М. А. Развитие системы подготовки будущих учителей информатики для работы в условиях новой информационно-коммуникационной образовательной среды: автореф. дис. ...док. пед. наук. 13.00.02, 13.00.08 / Сухарев Магомед Абдулаевич. – М. 2010. – 38с.

6. Федорова, Г. А. Методическая подготовка бакалавров образования в аспекте электронного обучения / Г. А. Федорова // Казанский педагогический журнал. – 2015..

7. Усенков, Д. Ю. Использование электронных образовательных ресурсов в учебном просессе / Д. Ю. Усенков // Информатика и образование. – 2003. – № 9. – С. 62



ZAMONAVIY MAKTABLAR TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Ochilov A.X.

Qurilish vazirligi, “Ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi” boshlig‘i o‘rinbosari

Bugungi globallashuv sharoitida ijtimoiy sohalarning barqaror taraqqiyotini belgilashda ta'lim sohasini modernizasiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu,

albatta, ta'lim tizimiga yangi innovasion yondashuvlar, samarali o'zgarishlar va pedagogik texnologiyalarni faol tatbiq etish jarayonlari bilan bog'liq ravishda kechadi.

Mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liq. Shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchilar mavqeini yuksaltirish bo'yicha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktabdir.

Maktab ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritish ekanmiz, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir" degan fikrini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir. Maktab ta'limining asosiy maqsadi innovasion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalashdan iboratdir. Shu maqsadda, Prezidentimiz hamda hukumatimiz tomonidan maktab ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimida ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim muassasalarining mavjud holati ularning faoliyatidagi tizimli muammolar va kamchiliklarni tezkor bartaraf etish mexanizmlarini yaratish, qishloq va shahar maktablarining moddiy-texnik ta'minoti va ta'lim berish sifatidagi tafovutni qisqartirish hamda o'quvchi-yoshlarning ta'lim olishlari uchun teng shart-sharoitlar yaratish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda yangi turdagi umumta'lim muassasalarini barpo etish va muqaddam qurilgan binolarni bosqichma-bosqich zamon talablariga moslashtirish, o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish orqali umumiy o'rta ta'limni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil

26-noyabrda “Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4537-sonli qarorlari qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan xorijiy tajriba va mamlakatning tabiiy iqlim sharoitlariga mos, ekologik toza materiallar va energiya muqobil manbalari, energiya tejovchi hamda ilg‘or texnologiyalar va muhandislik echimlarini qo‘llashni nazarda tutuvchi “Zamonaviy maktab”larni qurish va rekonstruksiya qilish, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini zamonaviy mebel va jihozlar, o‘quv-laboratoriya asbob-uskunolari, o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia hamda videokuzatuv vositalari bilan jihozlash, “Zamonaviy maktab”larga qo‘yiladigan talablarni, shu jumladan mazkur maktablarning darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, badiiy va boshqa adabiyotlar bilan ta‘minlanganlik darajasiga, o‘quv-tarbiya jarayoniga hamda darsdan tashqari faoliyatiga hamda rahbar va pedagog kadrlariga qo‘yiladigan talablarni qayta ko‘rib chiqish, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini “Zamonaviy maktab”larga qo‘yiladigan talablar asosida baholash tartibini ishlab chiqish, baholash bo‘yicha umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari reytingini aniqlashning elektron platformasini ishlab chiqish va uning yuritilishini ta‘minlash vazifalari belgilangan.

So‘nggi yillarda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga mos ravishda ta‘lim muassasasi ham har tamonlama rivojlangan, qisqacha aytganda, zamonaviy qiyofada bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda maktablar o‘zi qanday ahvolda, qaysi biri qay jihatdan kuchliroq yoki aksincha, qay darajada orqada qolayapti, degan savollar tug‘ilishi tabiiy. Ya‘ni bugun o‘ziga xos umumta‘lim muassasalari reytingiga ehtiyoj bor. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekistonda Ofsted va Jahon banki ekspertlari hamda Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi “Zamonaviy maktab”larga qo‘yilgan talablar, baholash tartibi hamda baholash metodikasi ishlab chiqildi.

“Zamonaviy maktab”larni baholash bo‘yicha 11 ta yo‘nalish, 38 ta mezon va 150 ta ko‘rsatkichlar quyidagi 4 ta asosiy soha bo‘yicha amalga oshirilgan:

- ta‘lim va tarbiya jarayoni (umumiy ballning 30 foizi);
- umumta‘lim muassasasini boshqarish (umumiy ballning 20 foizi);
- malakali mutaxassislar bilan ta‘minlanganligi (umumiy ballning 20 foizi);
- moddiy-texnik bazasi va infrastrukturasini (umumiy ballning 30 foizi);

Tajriba-sinov tariqasida 42 ta (har bir hududdan 3 tadan) maktab “Zamonaviy maktab”larga qo‘yiladigan talablar asosida baholandi.

Natijada ushbu 42 ta maktabdan 8 ta (19 foiz) maktab “Zamonaviy maktab” maqomiga ega bo‘ldi, 34 tasi (81 foizi) esa ushbu mezonlarga to‘liq javob bermagani aniqlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning bilim olishi, o‘qituvchilarning esa samarali faoliyat yuritishi uchun ularga qulay shart-

sharoitlar yaratish maktablarda ta'lim sifatini oshirishga hamda innovasion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar qilib tayyorlashga, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi "Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4537-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son Farmoni.
3. Djurayev R. X., Turg'unov S. T. Ta'lim menejmenti. – T.: "Voris-Nashriyot", 2006. – 25-bet.
4. Qurbonov SH., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: "Turon-Iqbol", 2006. – 433-bet.
5. Axmedova N. Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish. PhD dissertasiyasi. – Toshkent, 2017 – 16-b.



BOSHLANG'ICH TA'LIMNING O'QUV DASTURLARIGA SHAXMATNI TA'LIM SIFATIGA IJOBIY TA'SIR ETUVCHI DIDAKTIK VOSITA SIFATIDA JORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

A.Axunjonov

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI mustaqil izlanuvchisi

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar yosh avlodga ta'lim-tarbiya tizimini subyekti sifatida yangicha qarash asosida uni faol, o'z fikrini mustaqil ifodalovchi, qat'iyatli, muhimlikni ajrata biladigan, kreativ fikrlaydigan etib tarbiyalashni nazarda tutadi.

Shaxmat ta'lim jarayonida o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etuvchi didaktik vositalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim dasturlariga shaxmatni joriy etish bo'yicha mamlakatimizda normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilinib, hayotga tadbiiq etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4954 sonli qaroriga asosan 2021-2022 o'quv yilidan boshlab tanlov asosida 1000 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida 2, 3 va 4 sinf o'quvchilarini "Jismoniy tarbiya" fani doirasida 18 soatlik reja asosida shaxmatga

o'qitishni yo'lga qo'yildi. Shuningdek, 2025-2026 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2, 3 va 4-sinf o'quvchilarini "Jismoniy tarbiya va "Matematika" fanlari doirasida 36 soatlik reja asosida shaxmatga o'qitish tizimiga o'tish nazarda tutilgan. Shu bilan birga mazkur qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 avgustdagi PQ-3906 qarori bo'yicha 150 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tajriba tariqasida shaxmatga o'qitish amaliyotini kengaytirish va shu munosabat bilan yana qo'shimcha 150 ta maktabni shaxmatga ixtisoslashtirish, ularni o'quvchilarini chuqurlashtirilgan holda shaxmatga o'qitish vazifa etib belgilangan[1].

Bir qator xorijiy hamda mahalliy olim va mutaxassislarning tadqiqotlari hamda o'rganishlari shaxmat ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir etuvchi didaktik vositalardan biri ekanligini tasdiqlamoqda. Jumladan, olim va mutaxassislarning quyidagi fikrlarga e'tibor qaratamiz. Shaxmat–bu murakkab qoidalar tuzilmasi bo'lgan o'yin bo'lib, uning natijasi shaxmat o'ynash davomida o'yinchi ushbu qoidalaridan ijodiy foydalanishga va raqib javobini oldindan ko'ra bilishiga bo'g'liq. Shaxmat diqqat, xotira, konsetratsiya, ijodkorlik va fikrlash kabi intellektual jarayonlarni rivojlantiradigan didaktik vosita bo'lganligi uchun o'qituvchilar ushbu vositadan o'quv strategiyasi sifatida foydalanish mumkin(Krogus, 1972), yoki diqqatni jamlash, muammolarni aniqlash va hal qilish, rejalashtirish strategiyalari, ijodkorlik kabi ko'nikmalarni mustaxkamlash uchun va sust o'zlashtirgan o'quvchilar ravshan fikrlashi uchun qo'llalishi mumkin(Storey, 2000)[6]. Shaxmatni o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini rivojlantiruvchi samarali vositalardan biri ekanligini O'zbekistonlik olimlar ham "Shaxmat–bu birinchi navbatda o'yin va unda siz bilganingizdek, o'quv materialiyahshiroq va charchoqsiz o'zlashtiriladi. Shaxmat mantiqiy fikrlash qobiliyatini faol shakllantiradi"— deya ta'kidlaganlar[2].

Sidney universiteti professori P.Govergen o'zining "Farzandlarimiz miyasini rivojlantirish mexanizmi sifatida shaxmatning ahamiyati" nomli kitobida shaxmatning tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligini, u miyani rivojlanishini hamda rag'batlantirishini ta'minlashini ta'kidlaydi. Shuningdek, Armaniston shaxmat federatsiyasi a'zosi, psixolog Ruben Arzumutyan boshchilidagi psixologlar guruhi shaxmatning bolalar miyasiga ta'sirini o'rganmoqdalar. R. Arzumutyan shaxmat ijodiy fikrlashni va qiyosiy thlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi hamda shaxsning shakllanishiga hissa qo'shishini e'tirof etgan. [3].

Xulosa qismi: Xulosa o'rnida yuqoridagi olim va soha mutaxassislarini bildirgan fikr va mulohazalaridan kelib chiqib ta'kidlash joizki, shaxmatni didaktik vosita sifatida ta'lim jarayoniga joriy etilishi ta'lim oluvchilarning har tomonlama rivojlantiruvchi vositalardan biri ekanligini isbotlamoqda.

Demak mamlakatimizda umumta'lim maktablariga shaxmatni bosqichma-bosqich joriy etilishi ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4954 sonli qarori.

2. Махмудов А. Х., Джураев Р. Х., Ахунжонов А.Т. "Дидактический потенциал шахматной игры" Наука и образование сегодня №6 (53), 2020. Част №2 70 стр.

3. <http://uniques.uz/Chess.html>



TA'LIM MUASSASALARI SIFATINI OSHIRISHDA XORIJIY ADABIYOTLAR SHARHI

Bazarbayeva Aygul Kuanishbayevna

Ajiniyoz nomidagi pedagogik instituti stajyor-tadqiqotchisi

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va o'rganish shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifati ta'lim strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ta'lim sifatini obyektiv kompleks baholashni amalga oshirish uchun baholash vositalarini shakllantirish vazifalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ko'plab chet davlatlar xususan, rus tadqiqotchilari (V.S Avanesov, Yu. P. Adler, V. Ya. Belobra-gin, V.P Bespalko, Z. D. Jukovskaya, I. A. qishki, B. K. Kolomiets, L.V Maka-rova, M. M. Potashnik, V.P Panasyuk, N.A Selezneva, A.I Subetto, G. B. Skok, V.S Cherepanov, S. E. Shishov va boshqalar) ta'lim sifati tushunchasi murakkab va ko'p qirrali deb hisoblaydi. Ta'lim sifati shaxsning shakllanishining barcha bosqichlarini, o'quv-tarbiya jarayonining shartlari va natijalarini, shuningdek, ta'lim muassasasining samaradorligi, erishilgan natijalarning me'yoriy talablarga, ijtimoiy va shaxsiy fikirlarga muvofiqligi uchun mezon sifatida qaraladigan kompleks ko'rsatkich hisoblanadi. Oliy va kasb-hunar ta'limi sifati muammolari bo'yicha tadqiqotlar (V.A Bolotov, G.A Bordovskiy, E. N. Gevorkyan, G. N. Motova, N. A. Selezneva va boshqalar) oliy ta'lim muassasida ta'lim sifatini baholashning asosiy yo'nalishlari murakkab ko'p faktorli yondashuvdan foydalanish bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ilmiy nashrlar tahlili (A. I. Subetto, N. A. Selezneva, V. A. Bolotov, S. E. Shishov, V. A. Kalney, V. P.

Panasyuk, V. M. Polonskiy, N. Sh.Nikitin), oliy ta'limning sifati haqida gapirganda, ko'pincha ta'lim faoliyati natijalari sifatini anglatadi universitet va boshqa ta'lim muassalari ushbu natijalarni olish uchun zarur shart-sharoitlar sifatida qaraladi.

O'tkazilgan nazariy tahlil asosida oliy ta'lim sifatini baholash oliy ta'lim tizimining ko'p o'lchovli integral xarakteristikasi bo'lib, ta'lim natijalarining Real yutuqlarining me'yoriy talablarga muvofiqligi darajasini aks ettiradi. Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini baholash uchun tizim sifatida biz quyidagi xususiyatlarni takidlaymiz:

1) umumiy nazariy, umumiy kasbiy va maxsus fanlarning mazmunini o'zlashtirish (ta'lim yutuqlarining darajasi davlat ta'lim standartlari talablari shaklida ko'rsatilgan talablarga yaqin bo'lgan sifatli bilimlarning mavjudligi);

2) tadqiqot xarakterining ta'lim va bilim vazifalarini hal qilishda ijodiy yondashuvni shakllantirish;

3) kelajakda professional faoliyat uchun tayyorgarlik (asosiy vakolatlarni shakllantirish).

Ushbu tadqiqot doirasida oliy ta'lim muassasida ta'lim sifatini baholashning mavjud yo'nalishlari tahlil qilindi: gumanitar mazmunga ega va mantiqiy shakllangan. Birinchidan, o'quv jarayonini sifatli tahlil qilish, ikkinchidan, ularning tarkibiy o'zgarishlarini qat'iy va aniq qayd etish, xususan, bu o'zgarishlarni miqdoriy jihatdan aks ettiradigan matematik modellarni yaratish asosida pedagogik tizimlar va jarayonlarni o'rganish bilan tavsiflanadi.

Ta'lim sifatini tadqiqot qilishda asosan matematik usullar ko'rib chiqiladi, oliy ta'lim muassasida ta'lim sifatini baholash uchun matematik usullardan foydalanish ta'lim tizimlarining rivojlanishining asosiy shartlaridan biri sifatida qaralishi mumkin, chunki u yangi ta'lim sifatiga erishishga olib keladigan tizimga yo'naltirilgan boshqaruv ta'sirini kiritish imkonini beradi. Bundan tashqari, ta'lim sifatining ijtimoiy normasi sifatida ta'lim standarti mavjud bo'lganligi sababli, matematik modellar va usullar ta'lim natijalarining qabul qilingan me'yorlarga muvofiqligini ob'ektiv va tezkor tashxislashga qodir bo'lgan texnologik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sifatini tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, ta'lim sifatini baholash tizimida matematik modellashtirish usullarini qo'llashning birinchi vazifalaridan biri pedagogik hodisalarning sub'ektiv sifat tavsiflaridan qat'iy nazar miqdoriy tavsifga o'tishni kursatadi. Yevropa olimlari B.K.Kolomiets, V.S.Cherepanova, A.I.Subetto, N.A.Selezneva, A.S.Kazarinova, O.F.SHi-Xovoy, M.B.Chelishkova, A.A.Miroshnichenko, Yu.G.Tatur asarlarida pedagogik jarayonlar va hodisalarning sifatini miqdoriy tavsiflashga qaratilgan kvalimetrik yondashuvning metodologik asoslari aniqlandi.

Sifatli tavsiflardan qat'iy miqdoriy tavsifga o'tish muammosini hal qilishning asosiy yo'nalishi sifatida biz kam rasmiylashtirilgan axborotni tahlil qilish muammolarini hal qilish sharoitida oliy ta'lim sifatining turli ko'rsatkichlarini baholashning samarali usullarini ishlab chiqishni ko'rib chiqamiz. Ushbu yo'nalish amaliy matematika doirasida rivojlanayotgan qat'iymas modellashtirish hisoblanadi. Ushbu turdagi modellashtirish ta'lim faoliyati uchun ko'proq mos keladi va inson omilini plastik hisobga olish imkonini beradi va ekspertlarning bilim va tushunchalarini rasmiylashtirish uchun yanada moslashuvchan usulni taklif etadi. Qat'iymas simulyatsiya qiymatlari tabiiy tilda ifodalangan lingvistik o'zgaruvchilardan foydalanish orqali sifat ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni qayta ishlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исмаилова, Н.В. Изучение мультимедиа в процессе профессиональной подготовки учителя информатики [Текст]/ Н.В. Исмаилова, Т.И. Волкова, С.М. Усманов // Открытое и дистанционное образование. – 2008. – №2. – С. 9 – 11. (1/3)
2. Исмаилова, Н.В. Математическая модель оценивания результатов обучения на основе нечетких множеств [Текст]/ Н.В.Исмаилова, Т.И.Волкова, С.М. Усманов // Обзорение прикладной и промышленной математики.– 2009. – Т.16. – вып.5 – С. 859. (1/3)
3. Исмаилова, Н.В. Математическое моделирование в системе мониторинга качества образования [Текст]/Т.И.Волкова, Н.В. Исмаилова, С.М. Усманов // Обзорение прикладной и промышленной математики. – 2009. – Т.16. – вып.5. – С. 825 – 826. (1/3)



M U N D A R I J A

Ibraimov X.I.	Akademik Toshmuhammad Qori Niyoziyning hayoti va ijodi – buyuk tarbiya o‘chog‘i	3
Djurayev R.X.	Yirik pedagogik markaz va umumta’lim maktabi asoschisi	5
Safarova R.G.	Qori Niyoziy – millat fidoyisi	8
Quronov M.	Ustoz Qori Niyoziyning buyuk xizmatlari va fazilatlari	13
Mardonov Sh.Q. Mardonov F.Sh.	Ta’limda klaster yondashuvni qo‘llash	17
Махмудов А.Х.	Многогранность и многовекторность академика Т.Н. Кары-Ниязова	22
Abdujalilova Sh.	Pedagogik ta’lim “aql markaz”lari	24
Abdullayev N.Q.	Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini telekommunikatsion ta’lim faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	26
Abdullayev S.X.	Texnologiya fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni global fikrlashga o‘rgatish: ergonomik aspekt va mehnat muhiti	30
Begmatov M.A.	Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida ingliz tilini o‘qitish orqali kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning shakl, metod va vositalarini takomillashtirish	33
Bazarbayeva A.K.	Ta’lim tizimida baholash tizimining tuzilishi	38
Baratov D.	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorlash	40
Бакиева Ф.Р.	Профессиональная компетентность учителя информатики	42

Daminova Sh.F.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning xulq madaniyatini shakllantirish	45
Djurayeva B.A.	Akademik T.N.Qori Niyoziy maktab-maorif sohasidagi islohatlarning asoschisi	48
Islamova G.T.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayonida ma'naviy-axlohiy sifatlarini rivojlantirish	52
Jumanova F.	How to improve methods of determining the level of formation of self-development competence in students	56
Ibragimova G.S.	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati monitoringining amaliy-texnologik xususiyati	60
Jalilova N.	Qori Niyoziyning ibrat maktabi	64
Jalilova N.	Ta'limiy-didaktik meros va meditatsiya ta'limi	66
Karaxanova L.M.	O'quvchilarga tabiiy fanlarni o'qitishda axborotlashgan ta'lim resurslaridan foydalanish	68
Kenjaboyev A.E.	Deontologiya va kasbiy deontologik kompetentlikning ta'lim tizimidagi o'rni	71
Kenjaboyeva D.A.	Ta'lim jarayonida o'qituvchi kompetentligining mazmun mohiyati	75
Malikova D.M.	Qori Niyoziy va uning Sharq uyg'onish davri olimlari haqidagi qarashlari	78
Muminova L.R.	Nutqning tarbiyaga ahamiyati	81
Matyakubov I.B.	Musiq va matematika	83
Muminova N.	Bolalarda geometrik figuralar haqidagi tushunchalarni shakllantirishning mazmuni	86
Muxitdinova N.R.	Tarix darslarini o'zlashtirishda tarixiy-badiiy asarlarning roli	90

Malikova D.Q.	T.N.Qori Niyoziy maktab – maorif sohasidagi isloxotlarning asoschisi	92
Muminova L.R, Kalbayeva X.D.	Maxsus pedagogika taraqqiyotida ta'lim oluvchi nogironlikga ega bo'lgan talabalarga sensor muhitni yaratish strategiyalari	95
Muxitdinova N.R.	Aqlli maktablar yaratishda zamonaviy ta'limning rivojlanish asoslari (Malayziya ta'lim tizimi misolida)	98
Mamadaliyev T.V.	Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziyning hayoti va ijodini o'rganishda smart texnologiyalaridan foydalanish	100
Mamajonova Z.M.	Oliy ta'limda talaba fanlarni o'zlashtirishini shaxsiy va qiziqarli tajribasi (motivatsion qobiliyatlari) ga aylantiruvchi strategik prinsip	103
Namazbayeva L.Z.	Talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda o'quv ta'lim strategiyalari va maqsadini belgilash	106
Najiyeva C.N.	Kredit-modul tizimi va ta'lim	109
Olimov B.A.	T.N. Qori Niyoziy – ustozlarning ustози	112
Pazilov M.A.	Bolalar iqtidorini rivojlantirishda ota-ona va maktab hamkorligining xususiyatlari	114
Sayfiyeva Y.	Professional ta'lim yo'nalishi talabalarining mobil-metodik kompetensiyalarni rivojlantirish	117
Saidova Z.R.	Masofaviy ta'lim texnologiyalari tahlili	120
Sadikova R.S.	Pedagoglik kasbining yosh avlod tarbiyasidagi roli	123
Ташмухамедова Г.Х.	Стратегия обучения студентов мыслить креативно	125
Tojiboyeva X.M.	Pedagogika fani taraqqiyotida ta'lim oluvchilarni gender xususiyatlarini hisobga olish masalalari	128

To‘rayeva S.S.	Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida iboralar lug‘ati ustida ishlash usullari	131
Utaeva N.N.	Texnologik ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy ijodkorligini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish	135
Xo‘jamberdiyeva D.I.	O‘quvchilarida axborotlar bilan ishlash kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish	137
Yusupov A.I, Abdikayimova G.A, Xaldibayeva I.T.	T.N. Qori Niyoziyning matematika fanini tadbqiq o‘qitish haqidagi qarashlari va uning hozirgi davrdagi ahamiyati	139
Shermatov M.N.	Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining faoliyat kompetensiyasini shakllantirish modeli	142
Yusupov A.I. Ergashev J.J.	Texnika oliy ta‘lim muassalarida “oliy matematika” kursini kasbga yo‘naltirib o‘qitish haqida	145
Yakubov J.N.	Shaxmat matematika fanini o‘qitish vositasi sifatida	149
Normatov N.Y.	Informatika darslarida kichik mutaxassislarning shakllanishidagi psixo-pedagogik xususiyatlari va kommunikativ kompetensiyalar tasnifi	152
Mardonov Sh. Mardonova M.	O‘qituvchi – murabbiy – olim - rahbar	156
Avazbayev A.I.	Kredit-modul tizimi talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish, ijodiy fikrlash va mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish omili	162
O‘sarov J.E. Ximmataliyev D.O.	Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi	164
Xaydarova S.A.	Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida geografiya fanidan amaliy kompetensiyalarni shakllantirish	168

Qurbonov P.Z.	Umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim uzviyligini ta'minlash sharoitida yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish masalalari	171
Zaripov F.M.	O'quvchilar orasida g'ayri ijtimoiy hatti-xarakatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish masalalari	174
Mirzarakhmanova Sh.M.	The dual system of vocational educational and training in germany	183
Маджидова Д.А. Исламова Н.С.	Психолого-педагогические вопросы выявления и развития способностей учащихся с особыми потребностями в системе непрерывного образования	185
Madrahimov Sh. Madrahimova M. Turdaliyev S.	Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda smart texnologiyalardan foydalanish	188
Yakubjanova M.I.	Axboriy mediamadaniyat va uni rivojlantirish	191
Atakhujayeva Sh.	The importance of independent education in the formation of self-development competence	194
Muminova G.S.	Talabalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda kitobxonlik madaniyatining ahamiyati	196
Xolbo'tayeva D.U.	Refleksiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda madaniy dunyoqarashni shakllantirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	199
Azizov R.K.	Estrada xonandaligida professional kadrlarni tayyorlash zaruriyati	202
Mamatov J.A.	G'iyosiddin Jamshid Koshiyning matematika faniga qo'shgan hissalar va o'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirishdagi ahamiyati	204
Ziyayev Sh.	Zamonaviy maktabda informatika fanini o'qitish metodikasining dolzarb muammolarini o'rganishda xorijiy tajribalar	209

Равшанов Ж. Ф.	Формирование аналитических компетенций учащихся на уроках истории	212
Fayzullayev M.	How to build on the use of interactive methods in the formation of self-development competence in students	215
Qodirov I.	Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish	217
Sadikova R.S.	Kasbiy faoliyatga moslashishning ijtimoiy psixologik omillari	220
Temirova M.B.	Integratsiyalashgan ta'lim sharoitida "bog'cha-laboratoriya" muhitining funksional aspektlari	225
Ochilov A.X.	Zamonaviy maktablar ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida	231
Axunjonov A.	Boshlang'ich ta'limning o'quv dasturlariga shaxmatni ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir etuvchi didaktik vosita sifatida joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari	234
Bazarbayeva A.K.	Ta'lim muassasalari sifatini oshirishda xorijiy adabiyotlar sharhi	236